

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT BOJXONA  
QO‘MITASI**

**OLIY HARBIY BOJXONA INSTITUTI**

**G.A. Asilova, N.D. Qudriddinova**

**O‘ZBEK TILI**

**O‘QUV QO‘LLANMA**

**Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi Muvofiqlashtiruvchi kengashi  
qarori bilan oliy ta’limning “Bojxona ishi” yo‘nalishi rus guruhлари  
uchun o‘quv qo‘llanma sifatida tavsiya qilingan**

**“Yosh kuch”**

**Toshkent – 2018**

**UO‘K: 811.512.133(075.8)**

**KBK: 81O‘zb-923**

**A-83**

**Asilova G.A., Qudriddinova N.D. O‘zbek tili. O‘quv qo‘llanma. – T. “Yosh kuch”, 2018. – 210 b.**

**Taqrizchilar:**

**M. Berdiyeva** – Toshkent moliya instituti O‘zbek va rus tillari kafedrasida dotsenti, pedagogika fanlari nomzodi

**K. Nosirov** – Oliy harbiy bojxona instituti Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasida mudiri, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

Mazkur o‘quv qo‘llanma oliy ta’limning “Bojxona ishi” yo‘nalishi rus guruhlariga talabalariga mo‘ljallangan bo‘lib, Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi tomonidan joriy etilgan “O‘zbek tili” fan dasturi asosida tuzilgan.

**ISBN 978-9943-5472-6-1**

**© G.A. Asilova, 2018**

**© “Yosh kuch” nashriyoti, 2018**

## SO‘ZBOSHI

O‘zbek tili O‘zbekiston Respublikasining davlat tilidir. Respublikamizda yashaydigan turli millat vakillarining mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy hayotida faol ishtirok etishi, kasbiy faoliyatda muvaffaqiyatga erishishida ularning davlat tilida samarali muloqot yuritishi muhim o‘rin tutadi

Mazkur o‘quv qo‘llanma Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi tomonidan tasdiqlangan “O‘zbek tili” fan dasturi asosida yaratilgan va “Bojxona ishi” yo‘nalishi 1-bosqich rus guruhleri talabalariga mo‘ljallangan. Uning maqsadi bo‘lajak mutaxassislarni davlat tilida og‘zaki va yozma muloqot yuritishga, turli sohalarning terminlarini nutqda samarali va to‘g‘ri qo‘llashga, monologik va dialogik matn tuzish hamda turli nutq uslublari bilan ishlashga o‘rgatishdan iborat.

Qo‘llanmada nutq o‘stirishga, o‘zbek tilida erkin fikr yuritishga qaratilgan turli pedagogik texnologiyalardan foydalanildi, rus tilidan o‘zbek tiliga tarjima qilish mashqlariga ham keng o‘rin berildi.

O‘quv qo‘llanma ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma’rifiy mazmundagi nutqiy mavzular asosida qurilgan. Har bir mavzu doirasida talabanning og‘zaki va yozma nutqini o‘stirish, so‘z boyligini oshirishdan tortib matn yaratishgacha bo‘lgan bosqichlarda qo‘llanadigan topshiriqlar tizimi berilgan. Grammatik mavzular o‘zbek tilida qo‘shma gap konsrtuksiyalarini tuzish malakalarini rivojlantirishni ko‘zda tutadi.

**1. Matnni o‘qing.**



**1. Berilgan so‘z va so‘z birikmalarining ma’nosini tushuntiring. Ular ishtirokida Vatan haqida kichik matn tuzing.**

Muqaddas burch, buyuk ne’mat, nufuz, xalqaro maydon, kamolot, ma’naviyat, osuda hayot, xiyonat, Osiyoning yuragi, go‘zal tabiat, mas’uliyat, sog‘inch hissi, g‘urur va iftixor tuyg‘usi.

**2. Matnni o‘qing. Undagi asosiy fikrni yozma ravishda ifodalang.**

*ta’rif* –  
описание

*iftixor* –  
гордость

Vatan. Mehr bilan, muhabbat bilan tilga olinadi bu so‘z. Vatan *ta’rif*ga so‘z yetmaydi. Vatan tuyg‘usi shunchalar muqaddaski, bu so‘zni eshitganimizda qalblarimiz g‘urur va *iftixorga* to‘ladi. Shu bois Vatan ulug‘, Vatan buyuk! Biz yashayotgan go‘zal yurt O‘zbekiston Respublikasi deb ataladi. Bu yurtni qadimda Movarounnahr, keyinroq Turkiston va Markaziy Osiyo deb kelishgan. U Osiyo qit‘asining markaziy va shimoliy qismida, Sirdaryo bilan Amudaryo oralig‘ida joylashgan.

O‘zbekiston – serquyosh o‘lka. Uning maydoni 447,4 ming kvadrat kilometrni egallagan. Davlat

tarkibiga Qoraqalpog‘iston Respublikasi va 12ta viloyat kiradi. Mamlakat aholisining tarkibini o‘zbeklar, ruslar, tojiklar, qozoqlar, qoraqalpoqlar, tatarlar – jami 130 dan ortiq millat vakillari tashkil qiladi. O‘zbekistonning Davlat tili – o‘zbek tili. *Iqlimi* kontinental, quruq, serquyosh, yog‘inlar kam tushadi.

*iqlim* – КЛИМАТ

*e’tirof* –  
признание

O‘zbekistonning YUNESKO *e’tirof* etgan va Buyuk Ipak yo‘li ustida joylashgan shaharlari: Buxoro, Samarqand, Termiz, Farg‘ona, Xiva, Shahrisabz. Mamlakatimiz 5ta davlat bilan chegaradosh: Qozog‘iston (shimolda), Qirg‘iziston (sharqda), Tojikiston (janubi-sharqda), Afgoniston (janubda) va Turkmaniston (g‘arbda).

Asrlar davomida xalqimiz Vatanimizning chinakam ozod va mustaqil bo‘lishini orzu qilib keldi. Bu yo‘lda *shiddatli kurashlar* ham bo‘lib o‘tdi.

*shiddatli kurash* –  
тяжёлая борьба



XX asrning oxirida Vatanimiz tarixida yangi davr boshlandi. 1991-yil 31-avgustda respublika Oliy Kengashining navbatdan tashqari 6-sessiyasida mustaqil O‘zbekiston Respublikasi tashkil etilganligi e‘lon qilindi. Istiqlol sharofati bilan O‘zbekiston ham dunyo xaritasidan joy oldi.

Vatanimiz mustaqil bo‘lgan davr ichida barcha sohalarda katta ishlar amalga oshirildi. O‘zbekistonning xalqaro maydondagi nufuzi kun sayin oshib bormoqda. O‘zbekiston xalqi tinch va osuda hayot kechirmoqda. Buni kimdir Vatan *chegaralarining daxlsizligidan* deb bilsa, kimdir uning mustahkam *ma’naviy qo‘rg‘oni* bilan izohlaydi. Bu ikki omil uyg‘unligi

*chegaralarning daxlsizligi* –  
нерушимость  
границ  
*ma’naviy qo‘rg‘on* –

духовная  
крепость

tufayli jannatmakon yurtimizda totuvlik, osoyishtalik hukm surmoqda.

*qabohat* –  
подлость,  
мерзость  
*iymon* –  
вера, доверие  
*johillik* –  
невежество,  
злость

Milliy kamolot yo'lini belgilash – Vatanning haqiqiy mustaqillik yo'lini belgilash va uni jahonning ilg'or, yetuk davlatlari safiga olib chiqishdan iborat. Ma'naviyat va ma'rifat yo'q joyda odam bolasi *qabohat*ning turfa ko'chalariga kiradi, *iymon* va haqiqat yo'lidan adashadi. Ma'naviyat va ma'rifat yo'q joyda *johillik* ildiz otadi, bilim olishga intilish o'z-o'zidan susayadi. Bu Vatan kamolotiga ham katta ziyon yetkazadi.

*riyokorlik* –  
лицемерие,  
двуличие

Hozirgi kunda yurtimiz Markaziy Osiyoning eng katta sanoat, yirik ilm-fan va yuksak madaniyat markazidir. Biz o'z vatanimizni sevamiz va u bilan faxrlanamiz. Ammo Vatanni sevish tilda emas, dilda, so'zda emas, amalda bo'lishini isbotlash va namoyon qilish har birimizning muqaddas burchimizga aylanmog'i lozim. Vatan xiyonatni, aldamchilikni, *riyokorlik*ni kechirmaydi. Vatan hech qachon soxta shuhratlarga, quruq madhiyalarga muhtoj emas.

### **3. Matndan olingan ma'lumotlar asosida berilgan gaplarni to'ldiring.**

1. O'zbekiston Respublikasi \_\_\_\_\_ va \_\_\_\_\_ oralig'ida joylashgan.

2. \_\_\_\_\_ da Respublikamiz mustaqil deb e'lon qilindi.

3. O'zbekistonning \_\_\_\_\_ shaharlari xalqaro turizm markazlaridir.

4. O'zbekistonning Markaziy Osiyodagi chegaradosh davlatlari: \_\_\_\_\_ (shimolda), \_\_\_\_\_ (sharqda), \_\_\_\_\_ (janubi-sharqda), \_\_\_\_\_ (janubda), \_\_\_\_\_ (g'arbda).

5. O‘zbekiston Respublikasining Davlat bayrog‘i \_\_\_\_\_ da qabul qilingan va undagi timsollar \_\_\_\_\_ ni ifodalaydi.

6. O‘zbekiston Respublikasining Davlat gerbi \_\_\_\_\_ da qabul qilingan va undagi timsollar \_\_\_\_\_ ni anglatadi.

#### 4. Nima qanchani tashkil etadi?

O‘zbekistonda yashovchi millatlar vakillari –

O‘zbekiston aholisi –

O‘zbekiston maydoni –

#### 5. Matnni o‘qing, unga sarlavha qo‘ying.

Bugun jahon xaritasiga nazar tashlasak, aksariyat mintaqalarda milliy-etnik munosabatlar murakkablashib, eng ilg‘or davlatlarda ham oz sonli millat vakillarini kamsitish, huquqlarini cheklash holatlari kuzatilayotganiga guvoh bo‘lamiz. Dunyodagi ko‘pgina o‘zaro nizolar va urushlarning sababi ham irqiy, milliy va diniy kamsitishlarga borib taqaladi. Garchi, Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan bunday holatlarning oldini olishga qaratilgan xalqaro Konvensiya qabul qilingan bo‘lsa-da, unga rioya qilayotgan davlatlar sanoqli. Bunday davlatlar sirasiga O‘zbekiston ham kirishi bizga g‘urur baxsh etadi. Zero, 130dan ortiq millat va elat vakillari ahil va inoq yashayotgan yurtimiz jahon ahlining tahsiniga sazovor bo‘lmoqda.

1992-yil 13-yanvarda Toshkentda Respublika baynalmilal madaniyat markazi tashkil qilindi.

Respublika baynalmilal madaniyat markazi millatlararo munosabatlar, O‘zbekiston Respublikasida yashovchi har xil millat va elatlar vakillarining totuvligi va hamkorligini ta’minlash, ularning o‘ziga

xos madaniyatlari va ma'naviy qadriyatlarini rivojlantirishni har tomonlama qo'llab-quvvatlash sohasidagi siyosatni amalga oshirishda davlat organlariga va jamoat tashkilotlariga ko'maklashuvchi mustaqil muassasa hisoblanadi.

Mazkur markazning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- millatlararo totuvlik tamoyillari qaror topishiga yo'naltirilgan ijtimoiy tashabbuslarni rag'batlantirish, muvofiqlashtirish va taqdirlash, millatlararo munosabatlar madaniyatini rivojlantirish;

- O'zbekiston Respublikasida yashovchi har xil millat va elatlar vakillarining o'ziga xos milliy an'analari, urf-odatlari va rasm-rusumlarini tiklash va rivojlantirish;

- madaniyat markazlariga amaliy va metodik yordam ko'rsatish;

- jamoat tashkilotlariga millatlararo totuvlikni qo'llab-quvvatlash masalalari bo'yicha maslahatlar berish, O'zbekiston Respublikasida yashovchi har xil millat va elatlar vakillarining madaniyati va ma'naviy qadriyatlarini rivojlantirish;

- millatlararo munosabatlar sohasida ilmiy-tadqiqot ishlarini amalga oshirishda tashkiliy, huquqiy, metodik yordam ko'rsatish, konferensiyalar, seminarlar va davra suhbatlari tashkil etish;

- har xil millat va elatlar vakillarining madaniy ehtiyojlarini qondirishga, millatlararo munosabatlarni uyg'unlashtirishga qaratilgan teleradio ko'rsatuvlar va eshittirishlar tayyorlashda, kitoblar, risolalar, ma'lumotnomalar, prospektlar, bukletlar va bosma mahsulotlarning boshqa turlarini tayyorlashda qatnashish.

Mamlakatimizda istiqomat qilayotgan har bir millat, elat e'tibor va hurmatga munosib. Shu o'rinda mamlakatimizning Birinchi Prezidenti Islom Karimovning quyidagi fikri yodga tushadi: "Har qanday millat, u naqadar kichik bo'lmasin — insoniyatning boyligidir va har qanday milliy birlikning, uning til, madaniy va boshqa xususiyatlarining yo'q bo'lib ketishi yer yuzidagi madaniy va genetik fondning, shaxs imkoniyatlarining qashshoqlashuviga olib keladi." Bu so'zlar mohiyatini teran anglagan O'zbekiston baynalmilal madaniyat markazi ko'pmillatli xalqimiz manfaatlari, uning urf-odat, qadriyat va an'analari saqlanishi,



tili va madaniyatining kelajak avlodlarga to‘la-to‘kis yetkazilishi yo‘lida o‘zining ezgu sa’y-harakatlarini davom ettirmoqda.

**6. Quyidagi so‘zlarni izohli lug‘atdan toping va ma’nosini tushuntirib bering.**

Millat, elat, kamsitish, irq, din, inoq, g‘urur, totuvlik, hamkorlik, tahsin, muassasa, tamoyil, tashabbus, an’ana, rasm-rusum, qadriyat, ehtiyoj, manfaat.

**7. O‘zbekiston Respublikasidagi milliy madaniy markazlar haqida ma’lumotlar tayyorlang.**

**8. Vatan haqidagi maqollarni mos keladigan so‘zlar bilan to‘ldiring.**

Baliq suv bilan tirik,  
Odam – ... bilan.

Begona tuproq – ... tuproq.

Bulbul chamanni ... ,  
Odam – Vatanni.

Vatani borning ... bor,  
Mehnati borning ... .

Vatanning ... – sen ....

... inson – kuysiz bulbul.

O‘z ... qadri  
... yurtda bilinar.

**9. She’rni ifodali o‘qing va yod oling.**

## AYTGIL, DO‘STIM

*Iqbol Mirzo*

Boshing egib<sup>2</sup>, ta‘zim ayla<sup>3</sup>, shukrona ayt<sup>4</sup>,  
Seni guldek erkalagan chaman<sup>5</sup> uchun.  
Osmonlarda yurgan bo‘lsang, tuproqqa qayt<sup>6</sup>,  
Aytgil, do‘stim, nima qildik Vatan uchun?  
Ko‘zi qora, yuragi oq shu el uchun,  
Tuproq uchun, shu yurt uchun, chaman uchun,  
Ulug‘ inson boshlab bergan shu yo‘l uchun,  
Aytgil, do‘stim, nima qildik Vatan uchun?  
Qachongacha qorning o‘ylab o‘tadirsan?  
Qachongacha ko‘kdan chalpak kutadirsan<sup>7</sup>?  
Axir Vatan bitta, sen ham bittadirsan,  
Aytgil, do‘stim, nima qildik Vatan uchun?  
Buncha bino qo‘yma<sup>8</sup> zarrin choponlarga<sup>9</sup>,  
Saratonda yaproq bo‘lgin<sup>10</sup> dehqonlarga,  
Suyangani tayoq bo‘lgin<sup>11</sup> cho‘ponlarga,  
Aytgil, do‘stim, nima qildik Vatan uchun?  
Hech kimdan kam emassan, kam bo‘lmagaysan,  
Yerda qolsang, oftob bo‘lib kulmagaysan.  
Qachon belni mahkam tortib bog‘lagaysan<sup>12</sup>?  
Aytgil, do‘stim, nima qildik Vatan uchun?  
Shu soylardan suvlar urgin yuzingga sen,  
Bir bor nazar solgin bosgan izingga sen,  
Shu savolni berib ko‘rgin o‘zingga sen,  
Aytgil, do‘stim, nima qildik Vatan uchun?

<sup>2</sup> boshni egmoq – преклониться

<sup>3</sup> ta‘zim aylamoq – поклониться

<sup>4</sup> shukrona ayt – будь благодарен

<sup>5</sup> guldek erkalagan chaman – *перен.* заботливый край

<sup>6</sup> tuproqqa qayt – вернись на землю

<sup>7</sup> ko‘kdan chalpak kutmoq – *фраз.* ждать с моря погоды

<sup>8</sup> bino qo‘ymoq – быть высокомерным

<sup>9</sup> zarrin chopon – златотканый чапан

<sup>10</sup> saratonda yaproq bo‘lmoq – стать кроной в жаркую пору

<sup>11</sup> suyangani tayoq bo‘lmoq – *обр.* быть опорой

<sup>12</sup> belni mahkam tortib bog‘lamoq – решительно взяться за дело

## O‘zbek tilining imlo qoidalari

Lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosi asosidagi yozuv me’yorlari O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1995-yil 24-avgustdagi 339-sonli qarori bilan tasdiqlangan “O‘zbek tilining asosiy imlo qoidalari”ga tayanadi. Unda “Unlilar imlosi”, “Undoshlar imlosi”, “Asos va qo‘shimchalar imlosi”, “Qo‘shib yozish”, “Ajratib yozish”, “Chiziqcha bilan yozish”, “Bosh harflar imlosi” va “Ko‘chirish qoidalari” berilgan. Rasmiy yozishmalarda, ish yuritishda, ta’lim jarayonida, madaniy-ma’rifiy faoliyatda tilning imlo qoidalariga amal qilish majburiydir.

O‘zbek alifbosida 29 harf bor. Ulardan 6 tasi unli tovushlarni, 23tasi esa undosh tovushlarni ifodalaydi. 3tasi harflar birikmasidir.

Unli nutq tovushlarining 5tasi 5 xil harf bilan ifodalanadi: *i, e, a, o, u*. Bittasi esa, ya’ni *ўзбек, ўрмоқ* kabi so‘zlardagi *ў* tovushi maxsus belgi bilan emas, *олмоқ* so‘zidagi *o* harfiga “*ko‘chish belgisi*” (‘)ni qo‘shish bilan ko‘rsatiladi.

Alifboda 3ta harf birikmasi mavjud: *sh, ch, ng*.

**10. Kirill va lotin yozuvlariga asoslangan o‘zbek alifbolarining farqlarini jadval ko‘rinishida ifodalang.**

**11. Lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosiga tilning milliy xususiyatlarini hisobga olgan holda kiritilgan qo‘shimcha harflarni tavsiflang.**

**12. So‘zlarni imlo qoidalariga muvofiq yozing.**

Aval, isiq, aqil, zulum, fasil, tashabus, jaji, tanafus, milion, minatdor, talafuz, muqadas, metal, gramatika, komisiya, gram, aparat, elik, to‘qiz, sakiz, profesor, chaqon, fikir, ilim, jahil, sabir, bodiring, lazat.

**13. Quyidagi so‘zlarning ma’nosini yozib, ular ishtirokida gaplar tuzing.**

Kengash, tanga, gung, yog‘ingarchilik, jang, zarang, ingichka, keng, nahang, posangi, singil, tengdosh, tenglama.

### Tutuq belgisining imlosi

Tutuq belgisi quyidagi hollarda qo‘yiladi:

– so‘zda tovush tutilishi (tutuq), bo‘g‘inni ajratib aytish uchun: *san‘at, sur‘at, jur‘at, an‘ana, qat‘iy, mas‘ul, Tal‘at, Jur‘at*;

– so‘zda *a, e, u* unli tovushlaridan so‘ng ovoz biroz tutilib, shu unlining cho‘zibroq tallafuz qilinishini ifodalash uchun: *ba‘zan, ta‘til, she‘r, e‘lon, fe‘l, shu‘la*;

– tarkibida yonma-yon kelgan *s* va *h* harflari ikki mustaqil tovushni ifodalaydigan so‘zlarda ushbu harflarni *sh* deb o‘qimaslik uchun: *Is‘hoqov, as‘har (tong), as‘hob (sohib so‘zining ko‘pligi)*;

– *мўъжиза, мўътабар, мўътадил* kabi so‘zlarda ikki xil belgi (ko‘chish va tutuq belgilari) ketma-ket kelib qolishini e‘tiborga olib, bunday so‘zlar tutuq belgisiz yoziladi: *mo‘jiza, mo‘tabar, mo‘tadil*.

**14. Berilgan so‘zlarni lug‘at yordamida o‘zbek tiliga tarjima qiling. Ularning imlosiga e‘tibor bering. Ular ishtirokida gaplar tuzing.**

Континент, внимание, ответственный, лекция, искусство, проклятие, вера, священный, чудо, темп, решительность, глагол.

**15. Quyidagi so‘zlarni tarjima qiling, ularning yozilishi va talaffuziga e‘tibor bering.**

ayon – a‘yon

bad – ba‘d

davosiz – da‘vosiz

nasha – nash‘a

sanat – san‘at

tarif – ta‘rif

to‘rt – turt

alam – a‘lam

davo – da‘vo

zar – zor, zo‘r

ko‘rk – qo‘rq

surat – sur‘at

tana – ta‘na

sher – she‘r

asl – asil

yetib bor – e‘tibor

ong – o‘ng

sava – sa‘va

tasir-tusur – ta‘sir

qala – qal‘a

shox – shoh

### Qo'shma va juft so'zlar imlosi

Quyidagi kabi qo'shma so'zlar qo'shib yoziladi:

– bir tushunchani bildiradigan va bir bosh urg'u bilan aytiladigan qo'shma so'zlar: *belbog', asalari, oshqozon, sheryurak* kabi;

– *xush, kam, ham, umum, bop, noma, xona, sifat, rang, baxsh* kabi so'zlar yordamida yasalgan qo'shma so'zlar: *xushxabar, kamhosi, hamfikr, umumxalq, hammabop, tavsiyanoma* kabi;

– ikkinchi qismi *-(a)r, -mas* qo'shimchalari bilan tugaydigan qo'shma so'zlar: *o'rinbosar, cho'lquvar, ishyoqmas* kabi;

– keyingi qismi turdosh ot yoki *obod* so'zi bilan ifodalangan geografik nomlar: *Amudaryo, Yangiyo'l, Kosonsoy, Yunusobod* kabi.

Quyidagi kabi qo'shma so'zlar ajratib yoziladi:

– birinchi qismi sifat, ikkinchisi atoqli ot bo'lgan geografik nomlar: *Kichik Osiyo, Sharqiy Turkiston, Quyi Chirchiq* kabi;

– qo'shma fe'lning qismlari: *shifo topmoq, olib chiqmoq, yoza boshlamoq, aytib bermoq, ko'rgan edi* kabi;

– qo'shma ravishlar: *har kim, hech bir, hamma vaqt, qay kuni* kabi. *Biroz, birpas, birato'la, birmuncha* so'zlari bundan mustasno;

– o'zaro *-dan* qo'shimchasi bilan bog'langan takror so'zli birikmalar: *kundan kunga, tomdan tomga, ochiqdan ochiq* kabi.

Quyidagi so'zlar chiziqcha bilan ajratib yoziladi:

– juft va takror so'zlarning qismlari: *asta-sekin, uch-to'rt, kiyim-kechak, qop-qop, uy-uyiga* kabi;

– *-ma, -ba* yordamida birikkan so'z qismlari: *yuzma-yuz, rang-barang, qadam-baqadam* kabi;

– arab raqamlari bilan yozilgan tartib sonlar: *5-sinf, 1991-yil, 3-mart* kabi.

### 16. Berilgan so'zlardan juft otlar hosil qilib, ularni lotin alifbosida yozing. Ular ishtirokida gaplar tuzing.

Ота, ўт, дон, адир, опа, кеча, мехр, эл, кийим, қовун, бозор, қонун, савдо, чора, дон, майда, дўст, ҳисоб, нарх, хавф, экспорт.

### 17. Lug'atdan bir necha o'zakdan yasalgan qo'shma so'zlarni toping. Ularning ma'nosini tushuntiring.

### **я, ю, ё, е harflarining imloda berilishi**

O‘zbekcha so‘zlarda **я, ю, ё, е** harflari so‘zning boshida hamda unli tovushdan keyin kelgan hollarda ikki harf bilan ko‘rsatiladi: *яна – yana, уят – uyat, юр – ur, буюм – buyum, ётма – yotma, қуён – quyon, ем – yet, қаер – qayer, Алиев – Aliyev.*

O‘zbek tilidagi boshqa tillardan o‘zlashgan so‘zlarda ham **я, ю, ё, е** ikki harf bilan beriladi: *январь – yanvar, акция – aksiya, юбка – yubka, июнь – iyun, приёмник – priyomnik, реестр – reyestr.*

Kirill yozuvida **я, ю, ё, е** harflari ayirish belgisidan yoki yumshatish belgisidan keyin kelganida ikki nutq tovushini bildiradi. Bunday so‘zlardan o‘zbek tilida ham qo‘llanadiganlarida mazkur tovushlar ikki harf bilan ifodalanadi: *адъютант – adyutant, объект – obyekt, пьеса – pyesa, премьера – premyera, ателье – atelye, компьютер – kompyuter.*

Kirill yozuvida **я, ю, ё, е** harflari undosh tovushlardan keyin kelganda bir unli tovushdek aytiladi va o‘zidan oldingi undosh tovushning yumshoq talaffuz qilinishiga ishora qiladi. Bunday so‘zlardan o‘zbek tilida ham qo‘llanadiganlarida **я, ю, ё, е** harflari **а, и, о, е** harflari bilan beriladi: *сентябрь – sentabr, рюкзак – rukzak.*

Ushbu qoida doirasiga kirmaydigan so‘zlar ham bor. Masalan, quyidagi so‘zlarda **ё** harfi undosh tovushlardan keyin kelganda bir harf **о** bilan emas, balki ikki harf **yo** bilan beriladi: *актыор, dublyor, transportyor, montyor, reportyor, sapyor, suflyor, vaxtyor, minomyot, pulemyot, samolyot, vertolyot, plyonka, shpaklyovka.*

Ayrim so‘zlarda **ю** harfi undosh tovushlardan keyin kelganda bir harf **и** bilan emas, balki ikki harf **yu** bilan beriladi: *byuro, byust, menyu.*

Ba’zi so‘zlarda esa **я** harfi undosh tovushlardan keyin kelganda bir harf **а** bilan emas, balki ikki harf **ya** bilan beriladi: *slavyan, buryat, naryad, snaryad, zaryad, plyaj.*

### **18. Quyidagi so‘zlarni lotin alifbosi imlosiga muvofiq yozing. Ular ishtirokida gaplar tuzing.**

Жалюзи, жюри, шина, парашют, шуруп, бюджет, октябрь, январь, журнал, валюта, резолюция, алюминий, елкан, экспедиция, юмшоқ, респондент, қия, конституция, милиция, бордюр, велюр, туяқуш.

## **Ц harfining imloda berilishi**

Soʻz boshida kelganda *s* harfi bilan ifodalanadi: *цех-sex, цирк – sirk.*

Soʻz oxirida kelganda *s* harfi bilan ifodalanadi: *абзац – abzas, unpuy – shpis.*

Soʻz oʻrtasida undosh tovushdan keyin kelganda *s* harfi bilan ifodalanadi: *акция – aksiya;*

Soʻz oʻrtasida unli tovushdan keyin kelganda *ts* harfi bilan ifodalanadi: *лицей – litsey, офицер – ofitser, доцент – dotsent.*

### **19. Quyidagi baynalmilal soʻzlarni lotin alifbosida yozing. Ularning lugʻaviy maʼnosini tushuntiring.**

Конвенция, социология, абзац, целлофан, цемент, энциклопедия, циркуль, акциз, аттестация, конференция, декларация, интеграция, компьютеризация, конституция, кондиционер.

### **20. Oʻqing, ayrim soʻzlardagi unlilarning yozilishida yoʻl qoʻyilgan xatolarni toping.**

1. Chol salomimga alik olish oʻrniga, boshi aylangandek koʻzlarini yumub, ingradi-da, gendiraklab ketdi. (*S. Nazar.*)

2. Ruxsat bergin mushkil damda olib ketay boshimni. (*SH. Rustaveli.*)

3. Toʻlin oyday yorugʻ sochar, shu payt uning jamoli. (*SH. Rustaveli.*)

4. Tutqin qizning qaygʻusini chekar faqat bu Asmat. (*SH. Rustaveli.*)

5. Kamarbasta xizmatkorlar gʻoyat xushmuomila. (*SH. Rustaveli.*)

6. Ikkinchi soatning soʻnggi minutlari oʻtayotganda, Saidiyning koʻzi charchab, turtina boshladi. (*Abdulla Qahhor.*)



**1. Quyidagi savollarga javob bering:**

Insonlarning muloqot vositasi nima?

Til qanday hodisa?

O‘zbek tili qaysi tillar guruhiga kiradi?

O‘zbek tiliga Davlat tili maqomi qachon berildi?

“Davlat tili to‘g‘risida”gi qonunning maqsadi nimadan iborat?

**2. Berilgan jummalarga tayanib, kichik dialoglar tuzing.**

– Ha, men bir necha tilda so‘zlashaman.

– Eng murakkab tillar – arab, grek va hind tillari. Yevropa tillarini o‘rganish osonroq.

– Eng muhimi – kuchli xotira va xohish.

– Tarjimonlik qilish uchun tilda erkin so‘zlashish kerak.

**3. Matnni abzaslarga bo‘lib o‘qing. Undagi asosiy fikrni yozma ravishda ifodalang.**

Til insonga, jamiyatga xos bo‘lgan hodisadir. Til insonlar orasida aloqa vositasi bo‘lib, ma’lum bir fikrni ifodalaydi, shuning uchun insonlar gaplashganda o‘z fikrlarini bildiradilar, fikr almashadilar. Til tufayli bilim avloddan-avlodga



*yutuq* – достижение

*taraqqiyot* – развитие

*ma'rifiy* –  
просветитель-ский

*ijtimoiy hodisa* –  
социальное явление

*maqom* – статус

*bob* – глава  
*modda* – статья

*tahrir* –  
редакция

ogʻzaki va yozma tarzda qoldiriladi, natijada yangi avlod oʻtgan avlodning ishini yangidan boshlamasdan, uni davom ettiradi. Yaʼni til oʻtgan avlodlar tajribasi, bilimlari natijalarini kelgusi avlodga yetkazuvchi koʻprik hamdir. Kishilar hayot tajribalari, ilmiy *yutuqlarini* soʻzlarda, gaplarda, kitoblarda yigʻadilar va ular avloddan-avlodga oʻtib, boyib, rivojlanib boradi. Bu bilan yana *taraqqiyot* taʼminlanadi. Bular esa tilning ulkan *maʼrifiy* ahamiyatidir. Til kishilik jamiyati tomonidan yaratilgan, unga xizmat qiladigan va har doim rivojlanib turadigan oʻziga xos *ijtimoiy hodisa*dir. Til jamiyat faoliyatining barcha sohalariga xizmat qiladi. Oʻzbek adabiy tili Oltoy tillari oilasining turkiy tillar turkumiga kiruvchi tildir. Bu til maʼlum qonun-qoidalarga asoslangan. 1989-yil 21-oktabrda oʻn birinchi chaqiriq Oʻzbekiston Oliy Kengashining oʻn birinchi sessiyasida Oʻzbekiston Respublikasining “Davlat tili haqida”gi Qonuni qabul qilindi. Qonun oʻzbek tiliga davlat tili *maqomini* berdi. Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 1-*bob* 4-*moddasida* “Oʻzbekiston Respublikasida Davlat tili oʻzbek tilidir” deyilgan. 1991-yil 31-avgustda Oʻzbekiston mustaqillikka erishgach, Oʻzbekiston hududida hamma millat, xalqlar oʻrtasida yaqinlik, hamjihatlikni oʻrnatish niyatida Oʻzbekiston Oliy Kengashi 1995-yil 21-dekabrda “Davlat tili haqida”gi Qonunning yangi *tahririni* qabul qildi. Yangi tahrirdagi qonunda Oʻzbekiston Respublikasining demokratik, tinchliksevar siyosati aniq oʻz ifodasini topgan. “Davlat tili haqida”gi Qonun 24 moddadan iborat. Unda Oʻzbekistonda yashovchi barcha millatlar

*monelik qilinmasligi* –  
не препятствовать

o‘z ona tillarida aloqa qilishlariga *monelik qilinmasligi* (2-modda), ularning tillarida maktab-maorif va madaniy muassasalar (5-modda), pochta-telegraf, notarial idoralar, televideniye va radio bemalol faoliyat ko‘rsatishi kafolatlangan. Shuningdek, boshqa millatlarning tillariga hurmat bilan munosabatda bo‘lish, bu tillarni rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish (4-modda) ta’kidlanadi. Bu qonun O‘zbekistonda yashayotgan, shu yurtning rivoji, istiqboli uchun jon kuydirayotgan barchaniki.

#### **4. Quyidagi so‘z va so‘z birikmalari yordamida kichik matn tuzing.**

Xorijiy tillarni o‘rganish, muloqot vositasi, fikrlash, tasavvur qilish, ma’lumotga ega bo‘lish, keng imkoniyatlar, dunyoqarash.

#### **5. Matnni o‘qing, unga sarlavha qo‘ying.**

O‘zbek adabiy tili quyidagi taraqqiyot bosqichlarini bosib o‘tgan.

**Qadimgi turkiy adabiy til** VI–X asrlar mobaynida amalda bo‘lgan til bo‘lib, bu tilda qadimgi turkiy yozma yodgorliklari yaratilgan.

**Eski turkiy adabiy til** XI–XIII asrlar davomida yaratilgan.

**Eski o‘zbek adabiy tili** XIV–XVIII asrlarda shakllanib, takomillashib borgan tildir. Bu tilda, Navoiy, Bobur kabi buyuk shoir va yozuvchilar qalam tebratgan.

**Yangi o‘zbek adabiy tili** XIX asrning ikkinchi yarmida shakllangan. Bu tilda Nodira, Muqimiy, Zavqiy kabi shoirlar ijod qilganlar. Bu davrdan boshlab matbuot tili kelib chiqdi.

**Hozirgi zamon o‘zbek adabiy tili.** Bu til XX asrning 20-yillarida shakllandi.

Adabiy til va so‘zlashuv nutqi hamda shevalar orasida tafovut har vaqtda saqlanadi.

**Adabiy til** – umumxalq tilining qayta ishlangan, ma’lum bir me’yorga solingan shaklidir. Adabiy til darsliklarda, tilga oid qo‘llanmalarda, shuningdek, turli lug‘atlarda ko‘rsatiladi.

**Sheva** forscha “*ravish*”, “*yo‘sin*” degan ma’nolarni bildirib, biror tilning o‘ziga xos leksik, fonetik va grammatik xususiyatlari bilan farqlanib turadigan kichik qismini anglatadi. Xalq shevalarining faqat og‘zaki shakli mavjud.

**Lahja** – bir-biriga yaqin bo‘lgan shevalar yig‘indisidir. O‘zbek tili tarkibida 3 xil lahja bor.

**Qarluq lahjasi** janubiy-sharqiy guruhni tashkil qilib, asosan sharqiy shevalarini o‘z ichiga oladi.

**Qipchoq lahjasi** shimoli-g‘arbiy guruhni tashkil qiladi, unga asosan qishloqlarda yashovchilarning shevalari kiradi.

**O‘g‘uz lahjasi** janubiy-g‘arbiy guruhni tashkil qilib, janubiy Xorazmdagi bir qancha shevalarni o‘z ichiga oladi.

Hozirgi o‘zbek adabiy tili uchun qarluq lahjasi kiradigan Farg‘ona, Toshkent shevalari asos qilib olingan. Hozirgi o‘zbek adabiy tili o‘zbek millati ijtimoiy faoliyatining barcha sohasida muhim aloqa vositasi bo‘lib xizmat qiladi.

## **6. Quyidagi so‘z va so‘z birikmalarining ma’nosini izohli lug‘at yordamida tushuntirib bering.**

Adabiy til, yozma yodgorliklar, takomillashmoq, matbuot, sheva, lahja, tafovut, ijtimoiy faoliyat.

## **7. Matnni o‘qib, mazmunini o‘zbek tilida ifodalab bering.**

### *Притча о языке*

Знаменитый баснописец древней Греции Эзоп был рабом философа Ксанфа, жившего в Древней Греции в III веке до нашей эры. Однажды Ксанф пригласил гостей и приказал Эзопу приготовить самое лучшее угощение. Эзоп купил языки и приготовил из них три блюда. Ксанф спросил, почему Эзоп подаёт только языки. Эзоп ответил: «Ты велел купить самое лучшее. А что

может быть на свете лучше языка? При помощи языка строят города, развивается культура народов. При помощи языка люди могут объясняться друг с другом и решать различные вопросы, просить и приветствовать, мириться и давать, получать и выполнять просьбы, вдохновлять на подвиги и выражать ласку, радость, объясняться в любви. Поэтому нужно думать, что нет ничего лучше языка».

Такое рассуждение пришлось по сердцу Ксанфу и его гостям.

В другой раз Ксанф распорядился, чтобы Эзоп приобрёл к обеду худшее. Эзоп опять пошёл покупать языки. Все удивились этому. Тогда Эзоп начал объяснять Ксанфу: «Ты велел мне сыскать самое худшее. А что на свете хуже языка? Посредством языка люди огорчают и разочаровывают друг друга, посредством языка можно лицемерить, лгать, обманывать, хитрить, ссориться. Язык может сделать людей врагами, он может вызвать войну, он приказывает разрушать города и даже целые государства, он может в нашу жизнь принести горе и зло, предавать, оскорблять. Может ли быть что-нибудь хуже языка?»

## **8. Matnni o'qib, undagi ma'lumotlarga doir savollar tuzing.**

Mutaxassislarning fikricha, dunyoda qariyb 6000ga yaqin tillar mavjud. Ulardan 500tasigina o'rganilgan xolos. 2000ga yaqin tilning yozuvi bo'lmay, faqat og'zaki nutqda qo'llanadi.

Tillar ijtimoiy mavqeyiga ko'ra rasmiy til va davlat tillariga ajratiladi. Davlat tili maqomi rasmiy tildan yuqoriroq mavqega ega. Tilning yashashi uchun unda kamida 100000 kishi so'zlashishi kerak. YUNESKO ma'lumotlariga ko'ra, hozirgi kunda dunyodagi tillarning deyarli yarmi yo'q bo'lib ketish xavfi ostida. Bu tillarni saqlab qolish maqsadida 1999-yilda Xalqaro ona tili kuni ta'sis etildi. U dunyo bo'yicha har yili 21-fevralda nishonlanadi.

O'zbek tili Amerika, Germaniya, Shveysariya, Xitoy, Yaponiya, Koreya, Ukraina va Rossiyadagi universitetlarda, Turkiya, Hindiston hamda Afg'onistonda o'rganiladi.

**9. She'rni ifodali o'qing, mazmunini tushuntirib bering.**

**Ona tilim**

*Muhammad Yusuf*

Garchi zug'um<sup>13</sup> qilganlarni yoqtirmadim  
She'r yozdimu bo'lak ishni qotirmadim  
Tilim turib o'z tilimda gapirmadim,  
Bir eslasam eziladi<sup>14</sup> bag'ri dilim<sup>15</sup>,  
Ona tilim, kechir meni ona tilim.  
Sen bo'lmasang nima bizga silliq she'rlar<sup>16</sup>  
Bu dunyoda tili yo'qda dil yoq derlar,  
Bahoing-ku berib ketgan Alisherlar  
Yuragimning to'ridagi<sup>17</sup> so'lmas gulim  
Ona tilim, kechir meni ona tilim.

**10. Til haqidagi maqollarni to'ldiring. Ularni yod oling va mazmunini aytib bering.**

Tiling birla ... .

Zahar til ... . . . .

Til bor, .....,

Til bor, ..... .

Til yaxshisi.....,

Til yomoni... ..

.....bitar,

.....bitmas.

---

<sup>13</sup> zug'um – угнетение, насилие

<sup>14</sup> ezilmoq – страдать

<sup>15</sup> bag'ri dil – душа, сердце

<sup>16</sup> silliq she'r – звучное стихотворение

<sup>17</sup> yuragimning to'ridagi – в глубине моей души

..... — boshga to‘qmoq,  
Bo‘yinga — sirtmoq.

... ..— umr zavoli.

## **11. Gaplarni o‘qing, so‘ng til va yozuv taraqqiyoti nuqtai nazaridan tartib bilan ko‘chiring.**

VIII asrda O‘rta Osiyoda islom dini bilan birga arab yozuvi ham tarqaldi. O‘zbek xalqi bu yozuvdagi 28 harfga yana qo‘shimcha 4ta harf kiritib, o‘z tiliga moslashtirdi.

1940-yil 8-mayda O‘zbekiston Respublikasi hukumatining qarori bilan kirill yozuviga asoslangan yangi o‘zbek alifbosi qabul qilindi. Ushbu alifbo asosida “O‘zbek tilining asosiy imlo qoidalari” 1956-yil 4-aprelda tasdiqlangan edi.

1993-yil 2-sentabrda “Lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosini joriy etish to‘g‘risida” Qonun qabul qilinishi mustaqil Vatanimizning ma’naviy-madaniy hayotida jahonshumul ahamiyat kasb etdi. Yangi alifboga kiritilgan o‘zgarishlar asosida “O‘zbek tilining asosiy imlo qoidalari” ishlab chiqildi va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan 1995-yil 24-avgustda tasdiqlandi.

O‘zbek yozuvi, dastlab, 1929-yilda lotin grafikasiga asoslangan alifboga ko‘chirildi.

Turkiy xalqlarning ko‘plab qiymatli yodgorliklari qadimgi turk va uyg‘ur yozuvlarida bitilgan. O‘rxun-Enasoy yozuvi harf (tovush) yozuvining ancha mukammal shakli bo‘lib, har bir tovush uchun maxsus shakl qo‘llangan.

O‘rta Osiyo xalqlari qadimdan o‘z yozuv madaniyatlariga ega bo‘lgan, harf (tovush) yozuvining eng qadimgi shakllari hisoblangan so‘g‘d va xorazmiy yozuvlaridan foydalanganlar. Bu yozuvlar oromiy alifbosi asosida yuzaga kelgan.

## **12. Mashhur poliglottlar haqida ma’lumotlar topib, yozing.**

## O‘zbek tilida gap tuzilishi

Ma’lum fikrni ifodalovchi *gap* nutqning bir qismidir.

Gap orqali so‘zlovchi biror voqea, hodisa yoki xususiyatning mavjudligi yoki biror zamonda ro‘y berishi, realligi yoki norealligi, xohishi yoki noroziligi kabi munosabatni ifodalaydi. Gap grammatik jihatdan ma’lum qonun-qoidalar asosida shakllanadi, o‘ziga xos ohangga ega bo‘ladi. Gapning bu xususiyatlari ko‘pchilik tillar uchun umumiydir. Ammo bu belgilarning turli tillarda namoyon bo‘lishi va ularning ahamiyati, o‘rni turlichadir.

Gaplar tuzilishiga ko‘ra uch xil bo‘ladi: sodda, murakkab, qo‘shma gaplar.

*Sodda gap* ma’lum bir fikr, maqsadni ifodalovchi, bitta grammatik asosdan iborat bo‘ladi.

Grammatik asosga ko‘ra sodda gaplar ikki guruhga bo‘linadi: *bir bosh bo‘lakli gaplar*, *ikki bosh bo‘lakli gaplar*.

### **13. Quyidagi maqollar qanday gaplar bilan ifodalangan? Ularning ma’nosini tushuntirib bering.**

Yer – xazina, suv – oltin.

Gap ko‘p, umr – oz.

Til – tesha, dil – andisha.

Ko‘z – qo‘rqoq, qo‘l – botir.

Rejasiz ish – qolipsiz g‘isht.

Teng – tengi bilan, tezak – qopi bilan.

Bir ko‘rgan – tanish, ikki ko‘rgan – bilish.

Daraxt – ildizi bilan, odam – do‘stlari bilan.

Ayron – achchiq, sut – chuchuk.

Loyqa – boshdan, og‘riq – oshdan.

## **Bir bosh bo‘lakli gaplar**

Bir bosh bo‘lakli gaplarning grammatik asosida yo ega, yo kesim mavjud bo‘ladi. Ular quyidagi turlarga bo‘linadi.

1. *Shaxsi ma‘lum (aniq) gaplar* kesimiga qarab egani aniqlash mumkin bo‘lgan gaplardir: *Yutuqlar oldida esankiramaylik.*

2. *Shaxsi noma‘lum (noaniq) gaplar* kesimiga qarab ish-harakatning haqiqiy bajaruvchisini aniqlash mumkin bo‘lmagan gaplardir: *Yaxshini maqtaydilar, yomonni uyaltiradilar.*

3. *Shaxsi umumlashgan gaplar* mazmunan har uchala shaxsga taalluqli bo‘lgan gaplardir: *Sanamay sakkiz dema.*

Bunday gaplarning kesimi odatda, II shaxs birlikda buyruq maylidagi fe‘l bilan ifodalansa ham, mazmunan barchaga qaratilgan bo‘ladi, shuning uchun ega ifodalanmaydi. Xalq maqollari shaxsi umumlashgan gaplar orqali ifodalanadi: *Bugungi ishni ertaga qo‘yma.*

4. *Shaxsi topilmas (shaxssiz) gaplar* egasini topib ham, gap tarkibiga kiritib ham bo‘lmaydigan gaplardir: *U yerda intizom haqida so‘zlashga to‘g‘ri keldi.*

Shaxsi topilmas gaplarning kesimlari III shaxs mavjud nisbatdagi fe‘llar, *bo‘ladi, bo‘lmaydi* so‘zlari orqali, *-mas* qo‘shimchali so‘z orqali, harakat nomidan keyin *kerak, zarur, lozim, mumkin* so‘zlarini keltirish orqali ifodalanadi: *Mehnatsiz rohatga erishib bo‘lmaydi. Ertalabki salqinda yetib borish kerak.*

5. *Atov (nominativ) gaplar* bosh kelishikdagi ot orqali ifodalangan grammatik asos yordamida ifodalangan narsa-buyumning borligini, mavjudligini anglatadi va ko‘pincha badiiy va publitsistik asarlarda payt va o‘rinni ifodalash uchun ishlatiladi: *Kuz. Izg‘irin shabada esyapti.*

Atov gaplar matnda yolg‘iz qo‘llanmaydi, ulardan keyin uning mazmunini ochuvchi boshqa bir gap kelishi zarur.

Atov gaplarning oxirga, odatda nuqta qo‘yiladi, agar kuchli ohang bilan aytilsa, undov belgisi qo‘yiladi: *Tog‘lar! Baland tog‘lar!*

6. *Infinitiv gaplar* grammatik asosi harakat nomi bilan ifodalanadigan, yakka so‘z yoki so‘z birikmasidan iborat bo‘lgan gaplardir: *Sevish! Birovni kutish! Bundan azob narsa bo‘lmasa kerak!*

## **14. Berilgan so‘zlar ishtirokida bog‘lanishli matn hosil qiling.**



Yayraydi, barpo etilmoqda, gapirdi, tilaydilar, aylandi, ochdi, to‘shalmoqda, hilpiraydi, yoshlandi, quvondi, dovrug‘i oshdi, havas qilmoqda, qamashtiradi.

**15. Keltirilgan misollardan shaxsi aniq va shaxsi noma‘lum gaplarni ajratib ko‘chiring. Shaxsi aniq gaplar uchun zarur bo‘lgan ega vazifasidagi so‘zni qavs ichida ko‘rsating.**

1. Yer haydasang kuz hayda, kuz haydamasang, yuz hayda, deydilar.

2. Otalikning farzi ayni – farzandga munosib ism qo‘ymoq, deydilar.

3. Yugurganniki emas, buyurganniki, deb juda to‘g‘ri aytishgan ekan-da. (*Abdulla Qahhor.*)

4. Rahmatilla Obidiyni kasalxonaga olib ketishdi. (*Abdulla Qahhor.*)

5. Bemorlardan doim xabardor bo‘lib turamiz.

6. Ilm deganni misqollab bobma-bob o‘rganadilar.

7. Jo‘jani kuzda sanaydilar.

8. Bu joylarni hozir ham Qoradaryo deydilar.

9. Ijizat bersangiz fikrimni bayon qilsam.

**16. Berilgan gaplarning turlarini aniqlang. Fikringizni izohlab bering.**

1. Hamma ishni birdan bajarib bo‘lmaydi.

2. Baribir shunday ishlashga to‘g‘ri keladi.

3. Yig‘lanmasin. Nega yig‘lanadi? (*Abdulla Qahhor.*)

4. Singan ko‘zani o‘z holiga keltirib bo‘lmaydi-ku.

5. Bu xarsang toshlarni yemirib, bu metin devordan tuynuk ochib bo‘lmas.

6. Ali Qushchining qutlug‘ boshini qutqarish uchun oltin-javohirotlarni olmaslik lozim. (*O. Yoqubov.*)

7. Bu o'ktam, sohibtadbir yigitlarni ilgaritdan Samarqandda ekan chog'idan bilar, ularning omilkorligi-yu, dovyurakligiga ishongani vajidan Humoyun yoniga xizmatga qoldirgan edi. (*P. Qodirov.*)

8. Charlar ham o'tar, andining yuzini ham ko'rarsan. (*Abdulla Qodiriy.*)

**17. Berilgan misollar ichidan atov gap ishtirok etgan qurilmani ajratib ko'rsating. Shu gapdagi kesim qaysi so'z turkumi bilan ifodalanganini belgilab chiqing.**

1. Jimjitlik. Giyohlar shitirlaydi, shamol chodirni silkitadi. (*Said Ahmad.*)

2. Qish. Butun borliq oppoq choyshab bilan bezangan. (*Oybek.*)

3. Milodiy 1494-yilning yozi. Saraton issig'ida Farg'ona vodiysining osmoniga chiqqan quyuq bulutlar kun bo'yi havoni dim qilib turdi-yu, kechki payt birdan jala quyib berdi. (*Mirzakalon Ismoiliy.*)

4. Shu choldevor hovlimiz, shu tirikchilik ko'zimizga har qanday boylarning sersavlat uylaridan yaxshi ko'rinadi. (*Oybek.*)

5. Hozir shu hamsuhbatlarining ko'zlari daraxt yaproqlari ortida qoldi. (*Tohir Malik.*)

6. Niyoz hech bir mulozamatsiz mashinaning oldingi eshigini ochdi-da, o'rindiqlarning changini qoqdi.

7. Ikkalamiz pushtada cho'kkalab qoldik.

8. Kun sovuq. Quyosh dam ochilib ko'ngillarni yoritib yuboradi, dam yopiladi-da, tumshayib oladi. (*Oybek.*)

9. Kech. Kun qoraygan. Temir yo'l ustaxonasida majlis o'tmoqda. (*Oybek.*)

**18. Berilgan misollar orasidan shaxsi umumlashgan gaplar ishtirok etgan bo'lsa, ularni ko'chirib yozing.**

1. Yomonga yaqin yursang, balosi yuqar.

2. Dangasaga ish buyursang, senga aql o'rgatar.

3. Sherzod bayramni o'tkazish uchun o'ziga yuz so'm olib qoldida, qolgan pulning hammasini qishloqqa – singlisining nomiga jo'natdi. Ayasi qanchalik quvonishini, qanchalik duo qilishini ko'z o'ngiga keltirib, o'ziyam suyunib ketdi.

4. O'g'ri bo'lsang ham insof bilan bo'l.

5. Otang bolasi bo'lma, odam bolasi bo'l.

6. Yetti o'lchab bir kes.

7. Ko'pdan quyon qochib qutulmas.

### **Ikki bosh bo'lakli gaplar**

Ikki bosh bo'lakli gaplarning grammatik asosida har ikkala bosh bo'lak, ya'ni ega va kesim qatnashadi.

Sodda gap tuzilishiga ko'ra yig'iq yoki yoyiq gap bo'lishi mumkin.

1. *Yig'iq* ikki bosh bo'lakli gaplar tarkibida faqat gapning bosh bo'laklari mavjud bo'ladi.

2. *Yoyiq* ikki bosh bo'lakli gaplar tarkibida bosh bo'laklardan tashqari, ikkinchi darajali bo'laklar ham qatnashadi.

### **19. Yoyiq gaplarni ajratib, yig'iq gaplarga aylantiring.**

1. O'lkamizga fasllar kelinchagi bahor kirib keldi.

2. Qo'ng'iroq chalindi.

3. Darsdan so'ng teatrga bordik.

4. O'riklar gulladi.

5. Uzoq o'lkalardan qushlar uchib keldi.

6. Bog'imizda olma, o'rik va shaftolilar g'arq pishdi.

7. Quyosh yoritadi va isitadi.

8. Nigora, Nazokat va Rashidlar kelishdi.

9. Bulbul yoqimli sayraydi.

10. Shavkat – talaba.

### **20. Berilgan yig'iq gaplarni yoyiq gaplarga aylantiring.**

Ko‘zladi. Ishondi. Sog‘inmoqda. Ishtirok etdi. So‘zladi. Amal qildi. Terladi. Suyandi. Intildi. Otib yubordi.

**21. Matnni o‘qing. Inson uchun eng kerakli fazilatlarni bilib oling. Yoyiq gaplarni yig‘iq gaplarga aylantirib yozing.**

## FAZILAT

*(Donolar bisotidan)*

Donishmandlar tubanda aytilgan axloqiy fazilatlarni inson uchun eng kerakli fazilatlar deb topganlar:

Sukut — o‘zingga ham, boshqalarga ham hech bir foydasi tegmaydigan oldi-qochdi so‘zlarni so‘zlashdan chekin, jim bo‘l.

Intizom — ishlaring tartibli, intizomli bo‘lsin, ishingni o‘z vaqtida bajar, kechiktirma.

Maqsad — bir ishga kirishmoqchi bo‘lsang, eng avval yaxshilab o‘yla, shu ishdan kutgan maqsading nima ekanini yaxshi tushun, bir qarorga kel. Keyin bu ishingni hech bir kamchiliksiz ado qil.

Tejash — iqtisod, ya’ni, tejamkorlikka rioya qil, o‘zingga va xalqqa foydasi tegmaydigan yerlarga pul va mol sarf qilma, isrofdan saqlan.

Sa’y va shug‘ullanish — vaqt va fursatingni bekordan bekorga o‘tkazma. Doimo foydali ish bilan mashg‘ul bo‘l, kerak bo‘lmagan narsadan chekin.

Matonat — ishingda chidamli, matonatli bo‘l. Hiyla-nayrang ishlashdan hazar qil, tushunchang pok, sof va haqqoniy bo‘lsin, tushunganing kabi so‘zla va ishla.

### 3-mavzu **MILLIY QADRIYATLAR – MILLAT IFTIXORI**



#### **1. Savollarga javob bering.**

Milliy qadriyatlar deb nimaga aytiladi?

O‘zbek xalqining qanday milliy qadriyatlarini bilasiz?

Hashar deganda nimani tushunasiz?

Insonning milliy g‘ururi deganda nima tushuniladi?

#### **2. Quyidagi tushunchalarning ma’nosini bilib oling.**

*Qadriyat* – “tarix sinovlaridan o‘tgan, milliy manfaatlarimiz, bugungi va ertangi orzu-intilishlarimizga, taraqqiyot talablariga to‘la javob beradigan, yillar o‘tgani sari qadri ortib boradigan g‘oya va tushunchalardir”<sup>18</sup>.

*An’ana* – kishilar ongida, hayotida o‘z o‘rnini topgan ijtimoiy hodisa bo‘lib, avloddan avlodga o‘tadigan, takrorlanadigan tartib va qoidalaridir.

*Urf-odat* – kishilarning kundalikdagi turmushiga singib ketgan, ma’lum muddatda takrorlanib turuvchi xatti-harakat, ko‘pchilik tomonidan qabul qilingan ko‘nikma va xulq-atvor qoidalaridir. Masalan, kichiklarning kattalarga salom berishi, mehmonlarni alohida hurmat bilan izzatlash va h.k. An’analardan farqli o‘laroq urf-odatlar kishilarning ishlab chiqarishdan tashqari faoliyatlarini o‘z ichiga oladi.

---

<sup>18</sup> Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008. – 82-bet.

*Marosim* – ko‘pincha an‘ana va urf-odatning tarkibiy qismi bo‘lib, inson hayotidagi muhim voqealarni nishonlashga qaratilgan hayotiy tadbirlardir.

An‘ananing tarkibiy bo‘lagi odat, odatning muhim bir qismi marosim bo‘lib, odat kundalik hayotda uchrashi mumkin bo‘lsa, marosim inson hayotidagi muhim hodisalar sodir bo‘lganda vujudga keladi. Yosh mutaxassislarining o‘qishni bitirib, ishga joylashishi odat bo‘lsa, bunga bag‘ishlab tashkil qilingan an‘anaviy tadbirlar marosimga aylanadi.

### **3. Matnni o‘qing. Uni qismlarga ajrating va har bir qismga nom bering.**

*urf-odat* – обычай

Har bir xalqning o‘ziga yarasha milliy qadriyatlari, an‘analari, *urf-odat*lari va marosimlari bo‘ladi. Tabiiyki, har qaysi xalqning bebaho boyligi bo‘lgan bunday qadriyat va an‘analar bir-ikki kunda paydo bo‘lib qolmagan. Insoniyatning necha ming yillik tarixiy tajribasi shuni ko‘rsatadiki, biror-bir narsaning an‘anaga, ayniqsa, qadriyatga aylanishi uzoq davrni talab qiladi.

O‘zbek xalqi azaldan milliy an‘ana va qadriyatlarga, urf-odatlarga boy bo‘lgan qadimiy xalq. O‘zbek xalqining asrlardan asrlarga o‘tib kelayotgan milliy qadriyatlari ham uzoq tarixiy jarayonda shakllangan. Milliy o‘zbek an‘analaridan biri insonlarning holati, unvoni, mansabidan qat‘i nazar, yoshi jihatidan katta bo‘lgan kishini har doim hurmat qilish, ya‘ni kattalarga salom berish, transportda yoki boshqa jamoat joylarida kattalarga joy berish, kattalar suhbatini bo‘lmaslik, ularga yo‘l berishdir. “Odobingni salomingdan bilurlar” maqolida salom insonning fe‘l-atvori, odobining ko‘zguasi ekanligi

*ta'kidlangan* –  
подчеркнуто

*ta'kidlangan*. “Alpomish” dostonida chiltonlar Alpomishga shunday maslahat berishadi:

Xudoyim beribdi insonga kalom,  
Bemavrid ish qilib topmagin alam,  
Yaxshi ham, yomon ham shundan bilinar,  
Kim bo'lsa oldidan o'tma besalom.

Bittagina salomlashish va hol-ahvol so'rashish odobi va odati orqali xalqimizga xos bo'lgan insonni sevish va ardoqlash hissining ustunligini ko'rishimiz mumkin.

*ehtirom* –  
преданность,  
почтение

Shuningdek, o'zi tug'ilib o'sgan ona yurtiga *ehtirom*, o'z taqdirini mana shu yurtsiz tasavvur qila olmaslik, o'tgan ajdodlar xotirasiga sadoqat, kichiklarga izzat ko'rsatish, mehmondo'stlik, yordamga muhtojlarga shafqatli bo'lish, oilasini asrash, har qanday sharoitda ham hayo va andishani saqlash, turmushda poklikka alohida e'tibor berish singari ko'plab fazilatlar bizning milliy qadriyatlarimiz asosini tashkil etadi.

O'zbek xalqi to'y-tomoshaga boy xalq hisoblanadi. O'zbek to'y marosimlarining bir necha turi mavjudki, ularning har biri alohida bir kitob bo'lishga arzigulik. Oilada farzand tug'ilishi bilan to'y marosimlari boshlanib ketadi: soch to'yi, chilla to'yi, beshik to'yi, sunnat to'yi, muchal to'yi, nikoh to'yi, yosh to'yi (yubiley), kumush to'yi, oltin to'yi kabilardir. Ular orasida eng asosiysi nikoh to'yi bo'lib, bu to'y milliy urf-odatlarimiz va turli rasm-rusumlarga boyligi bilan ajralib turadi.

Hashar – o'zbeklar, ayrim boshqa turkiy xalqlar orasida udumga aylangan ijtimoiy hamkorlik va beg'araz yordam shakllaridan biri. Asosan, hosilni zudlik bilan yig'ib olish kabi

tezkorlik bilan bajarish zarur bo'lgan ishlar va katta mehnat talab inshootlarni bunyod etish ya'ni kanal qazish, yo'l va ko'priklar qurishda qo'llangan. Hashar ariq qazish, imorat qurish kabi ishlarda bir necha kun ham davom etgan. O'zbekistondagi Katta Farg'ona kanali umumxalq hashari vositasida bunyod etilgan. O'zbekiston istiqloolidan so'ng hashar yangicha mazmun kasb etib, Ramazon va Qurbon hayitlari, Navro'z, Mustaqillik bayramlari kabi muhim sanalar oldidan umumxalq xayriya hasharini o'tkazish an'anaga aylandi.

*muqaddas qadamjolar* – СВЯТЫЕ  
МЕСТА ПОКЛОНЕНИЯ

*jarayon* – процесс

Mustaqillikning dastlabki kunlaridan e'tiboran xalqimizning xotirasini tiklash, qadimgi urf-odat va qadriyatlarini e'zozlash, *muqaddas qadamjolar*ni asl holiga qaytarish yuzasidan chinakam tarixiy ahamiyatga molik ishlar amalga oshirila boshlandi. Ushbu *jarayon* birgina o'zbek millatining emas, balki mamlakatimizda istiqomat qiluvchi barcha millat va elatlarning qadriyatlariga yuksak hurmat ko'rsatish bilan uzviy tarzda olib borilmoqda.


*millat iftixori* –  
ГОРДОСТЬ НАЦИИ

Xalqimizning milliy qadriyatlarini doimo e'zozlab, qadrlab, ularga hurmat bilan munosabatda bo'lish har birimizning burchimizdir. Zero, milliy qadriyat va an'analar *millat iftixori*, g'ururi hisoblanadi.

#### **4. Milliy qadriyatlardan biri haqida insho yozing.**

#### **5. Klasterda aks ettirilgan tushunchalar yordamida matn tuzing.**





## 6. Matnni o'qib, o'zbek tiliga tarjima qiling.

### *Ценности узбекского народа*

С обретением независимости происходит укрепление ценностного потенциала в сознании узбекского народа. Узбекистану удалось сохранить свои исторические и культурные ценности и самобытные традиции.

Узбекский язык – основа национальных ценностей узбекского народа. Национальный язык стал важной неотъемлемой частью наших национальных ценностей. Под руководством Президента проведена последовательная работа по развитию узбекского языка, являющегося средством выражения национальной культуры и самобытности народа. Как сказал мастер слова Абдулла Каххар, «наш язык очень богат и красив. Нет мысли, чувств, которые невозможно было бы выразить на этом языке!».

Великий узбекский писатель Абдулла Кадыри в своих произведениях писал об узбекской семье, о ее гостеприимстве, об

этике семьи, родственных отношениях, уважении к старшим, к женщине – Матери. У людей разных национальностей растет интерес к узбекскому языку и литературе, историческим корням узбекской культуры.

## **7. Matn asosida berilgan nutq qoliplari bo'yicha gaplar tuzing.**

### *Farzandning burchlari*

Xalqimizda kattalarga, ayniqsa, ota-onalarga hurmat ko'rsatish azaliy odatdir.

Oqil va dono farzand ota-onasining haqlarini bekam-u ko'st bajaradi. Ularni hurmatlashda kamchilik ko'rsatmaydi, nomini yaxshilik bilan tilga oladi. O'z farzandi unga nisbatan qanday bo'lishini istasa, u ham ota-onansiga shunday muomalada bo'ladi.

Ota-ona farzandini tarbiya qiladi, o'stiradi, shu yo'lda ancha mashaqqat chekadi, unga hech vaqt yomonlikni ravo ko'rmaydi, baxtli, saodatli bo'lishini tilaydi. Shunday ekan, har bir farzand bu muhtaram zotlarning izzat-hurmatlarini bajo keltirishga g'ayrat qilish kerak. Ularning dillarini og'ritmaslik, ochiq yuzli, shirin so'zli bo'lish, doimo hollaridan xabardor bo'lish, hech vaqt muhtojlikda qoldirmaslik, har jihatdan ularni o'zlaridan rozi qilib, duolarini olishga harakat qilish kerak.

Ota-onaning farzand oldidagi burchlari bo'lgani kabi farzandlarning ham ota-ona oldidagi burchlari mavjud. Ular quyidagilar:

- muhtoj bo'lganda taomlantirmoq;
- xizmatini qilmoq;
- chaqirganda labbay deb javob bermoq;
- gunohdan boshqa ishlarga buyursa itoat etmoq;
- ota-ona bilan yumshoq muomalada gaplashmoq;
- ota-onani, qodir bo'lsa, libos bilan ta'minlamoq;
- ota-onaning orqasida yurmoq;
- o'zi rozi bo'ladigan narsani ota-onasiga ham ravo ko'rmoq;



- o‘zi yomon ko‘rgan narsani ota-onaga ravo ko‘rmaslik;
- doimo o‘zi uchun duo qilganda, ota-onani ham duo qilmoq.

**“Nima nimadir?”**




xalqimizda azaliy odatdir.

**“Kim nima qiladi?”**



**“Kim qanday bo‘lishi kerak?”**



**8. She‘rning asosiy mazmunini qisqacha bayon eting. Uni yod oling.**

**Ey, qaldirg‘och**

*Munavvara Usmonova*

Ey, qaldirg‘och, qayga shoshasan,  
 Chug‘urlaysan<sup>19</sup>, nedan xafasan?  
 Ayvoniga in solgan qushni  
 Kutgan elni qaydan topasan?

---

<sup>19</sup> chug‘urlamoq – щебетать

Iningdan xas tushsa avaylab,  
O‘z o‘rniga qo‘yadi joylab.  
Polaponing<sup>20</sup> uchishin poylab  
Turgan elni qaydan topasan?

Bu bir elki, bag‘ri keng – hotam<sup>21</sup>,  
Yetti o‘lchab, tashlaydi qadam,  
Bo‘ylasa ham dil uyiga g‘am<sup>22</sup>,  
Kulgan elni qaydan topasan?

Kelmay qolsa uyiga mehmon,  
Joni halak<sup>23</sup> yugurar har yon,  
Qush sayrasa, tunda turib non  
Yopgan elni qaydan topasan?

O‘nta bo‘lsa – o‘rni bo‘lak, deb,  
Bir kun bo‘lar, menga tirgak<sup>24</sup>, deb.  
El tinchiga o‘g‘lon kerak, deb  
Tuqqan elni qaydan topasan?

Bahor kelsa elni so‘roqlab,  
Omonlik, deb uyini oqlab,  
Bir chechakni ko‘ziga yig‘lab  
Surtgan elni qaydan topasan?

Hol so‘rasang, non tutar dehqon,  
So‘zlamagan umrida yolg‘on,  
Yer kindigin uzarga<sup>25</sup> ketmon  
Chopgan elni qaydan topasan?

Har bolaga – bittadan makon<sup>26</sup>,  
Mehnat qilib, topadi imkon.  
O‘zi terak ekib, o‘zi tom  
Yopgan elni qaydan topasan?

---

<sup>20</sup> polapon – птенец

<sup>21</sup> hotam – щедрый

<sup>22</sup> dil uyiga g‘am bo‘ylasa – *обр.* если на душе будет печаль, тоска

<sup>23</sup> joni halak – беспокойный

<sup>24</sup> tirgak – опора

<sup>25</sup> yer kindigin uzmoq – *фраз.* начинать земледельческие работы

<sup>26</sup> makon – *здесь:* жилье

Quzg‘unga<sup>27</sup> ham qo‘ymaydi tuzoq,  
Bir xatosin o‘ylaydi uzoq,  
Qo‘shni o‘tsa<sup>28</sup>, qirq kunlab chiroq  
Yoqqan elni qaydan topasan?

Ey, qaldirg‘och, shoshqaloq<sup>29</sup> sanam,  
Ketma, qorlar yog‘sa nima g‘am,  
Qush iniga tunda yoqib sham  
Tutgan elni qaydan topasan?

Bunday elni qaydan topasan...

### Qo‘shma gaplar

Ikki yoki undan ortiq sodda gapning mazmun, grammatik va ohang jihatidan birikuvidan tuzilgan gap *qo‘shma gap* deyiladi. Sodda gap tarkibida bitta ega va kesim ishtirok etsa, qo‘shma gap tarkibida ikki va undan ortiq ega va kesim qatnashadi: *Eshik sekin ochildi-yu, bir bolaning yuzi ko‘rindi.*

Qo‘shma gap tarkibidagi sodda gaplar o‘zaro bog‘lovchilar, yuklamalar, ko‘makchilar va fe‘l shakllari hamda ohang orqali bog‘lanadi.

## 9. Berilgan gaplarni qismlarga ajrating.


1. Shu onda chiroq o‘chdi va birdaniga o‘q uzildi. (*Abdulla Qahhor.*)
2. Mana, sen ketding-u, bo‘ldim xayolkash. (*Zulfiya.*)
3. Yo‘lovchining o‘zi ichkariga kirdi-yu, ikki ko‘zi tashqarida qoldi. (*Omon Muxtor.*)

## 10. Quyidagi sxemaga qarab, qo‘shma gaplarning turlari haqida aytib bering.

<sup>27</sup> quzg‘un – коршун

<sup>28</sup> o‘tmoq – *здесь*: уйти в мир иной

<sup>29</sup> shoshqaloq – торопливый



**11. O'qing. Gap bo'laklari qanday bog'langanini tushuntiring.**

1. U yil davomida yaxshi o'qidi va imtihonda a'lo baho oldi.
2. Bahor keldi, gullar ochildi.
3. Men ham o'qidim, ham yozdim.
4. Pedagogika universitetini tamomlaganidan keyin, Feruzani maktabga ishga yuborishdi.
5. Go'zal goh kuladi, goh ko'z yoshi yuzini yuvadi.
6. Tadbir so'ngida konsert berildi va badiiy film namoyish qilindi.
7. Na uyga bordim, na kinoga.
8. Xoh bugun, xoh ertaga sen baribir borishing kerak.
9. Havo bulut bo'ldi, ammo yomg'ir yog'madi.

**12. O'qing. Berilgan gaplardagi bog'lovchi vositalarni aniqlang.**

1. To'lagan ro'molchasini cho'ntagidan oldi va boshqatdan qatladida, yana cho'ntagiga solib qo'ydi.
2. Vijdonli kishini ta'qib etish mumkin, ammo sharmanda qilish mumkin emas. (Volter.)

3. Uning soʻzlari jonli chiqdi-yu, lekin savollar shoshirib qoʻydi.  
(*Hakim Nazir.*)

4. Alisher uyiga qaytdi-yu, oʻylay boshladi.

5. Umrlar oʻtar-u, kitoblar yashar. (*Gʻafur Gʻulom.*)

### **Bogʻlangan qoʻshma gaplar**

Sodda gaplarning oʻzaro teng bogʻlovchilar yordamida bogʻlanishidan tuzilgan qoʻshma gap *bogʻlangan qoʻshma gap* deyiladi. Bogʻlangan qoʻshma gaplar quyidagi turlarga boʻlinadi:

**1. Biriktiruv munosabatli bogʻlangan qoʻshma gaplar** bir paytda yoki ketma-ket roʻy bergan voqea-hodisalarni ifodalaydi. Ularning tarkibidagi sodda gaplar oʻzaro *va, hamda* bogʻlovchilari, *ham, -u (-yu), -da* yuklamalari yordamida bogʻlanadi: *Mashgʻulotlar tugadi va hamma oʻz uyiga tarqaldi.*

**2. Zidlov munosabatli bogʻlangan qoʻshma gaplar** tarkibidagi sodda gaplar oʻzaro *ammo, lekin, biroq* bogʻlovchilari, *-u (-yu)* yordamida bogʻlanadi: *Havo ochildi-yu, harorat sezilmadi.*

Baʼzan zidlik mazmunini kuchaytirish uchun zidlov bogʻlovchisi va bu vazifada qoʻllangan *-u (-yu)* yuklamasi birga ishlatiladi: *Kechasi qor yogʻdi-yu, lekin havo unchalik sovimadi.* Yozuvda zidlov bogʻlovchilaridan oldin, yuklamalardan keyin vergul qoʻyiladi.

**3. Ayiruv munosabatli bogʻlangan qoʻshma gaplardagi** sodda gaplar oʻzaro ayiruv bogʻlovchilari – *goh...goh, yoki...yoki, baʼzan...baʼzan, dam...dam* yordamida bogʻlanadi. Bunday qoʻshma gaplar voqea-hodisalarning galma-gal boʻlishini yoki ulardan biri boʻlishini ifodalaydi: *Goh osmonni tutib ashula yangrar, goh allaqayerdan garmon tovushi eshitilib qolar edi.*

Takrorlanib qoʻllangan ayiruv bogʻlovchilarining ikkinchisidan oldin vergul qoʻyiladi, ayiruv bogʻlovchilar yakka qoʻllansa, tinish belgisi qoʻyilmaydi.

**4. Inkor munosabatli bogʻlangan qoʻshma gaplar.** Bunday gaplar qismlari oʻzaro *na* inkor yuklamasi orqali bogʻlanadi va orasiga vergul qoʻyiladi: *Na suv bor, na biron yemish qolibdi.*

**5. Boʻlsa, esa** soʻzlari yordamida bogʻlangan qoʻshma gaplar. Bunday gaplarda qiyoslash va zidlash munosabatlari mavjud boʻladi: *U kulardi, men esa yigʻlagudek edim.*

**13. Qo‘shma gaplar orasiga qavs ichida berilgan vositalardan mosini qo‘yib, ko‘chiring.**

1. Dushman nasihatiga qarab ish tutmoq xato, (*yo, ammo, va*) nima deganini bilib qo‘ymoq ravo. (*Abdulla Qodiriy.*)

2. Har bir narsa aqlga muhtoj, aql (*lekin, yoxud, esa*) tajribaga muhtojdir.

3. Tong cho‘qqidan oshdi (*biroq, va, lekin*) qishloq uzra yoyildi. (*T.Sodiqova.*)

4. Biz shahar havosidan qochib, tabiatda jon asragimiz keladi (*-yu, biroq, ammo*) sho‘rlik tabiatning o‘zi bizdan bezillaydigan bo‘lib qolibdi. (*O‘.Hoshimov.*)

5. Paxta terish bilan bandman, (*-u, ammo, yoki*) butun diqqatim Muattarda. (*U.Nazarov.*)

**14. Berilgan fe‘llar ishtirokida bog‘langan qo‘shma gaplar hosil qiling.**

Oqardi, to‘kildi.

Yiqildi, shikastlandi.

Kezdi, uyg‘ondi.

Aynidi, yog‘a boshladi.

Qo‘msadi, yig‘ladi.

Yuraverdi, g‘oyib bo‘ldi.

O‘yladi, bag‘ishladi.

Sevindi, yoshlandi.

**15. Zidlov bog‘lovchilarini *u (-yu), -da* yuklamalari bilan almashtirib, ularning qanday vazifa bajarayotganini ayting.**

1. Ashula nihoyasiga yetdi, lekin bir zumdan keyin yana yangi tovush parvoz qildi. (*Oybek.*)

2. Bu daraxtning bo‘yi baland, lekin mevasi kam. (*Oybek.*)

3. Hammasini tinglardim, ammo

O‘xshashini topmasdim aslo. (*Hamid Olimjon.*)



4. Oy yoritadi, lekin isitmaydi.

5. Maqtamasman moziyni, biroq

O‘tmishingni o‘ylayman bir zum. (*A. Oripov.*)

6. Bir oycha fizika, matematika fanlarini o‘qidi, ammo xayoli boshqa yoqda bo‘lgani uchun kallasiga hech vaqo kirmadi. (*O‘. Hoshimov.*)

7. Ular bir necha kun yurishdi, biroq hamon chegara ko‘rinmasdi. (*S. Siyoyev.*)

8. Oradagi masofa yiroq, ammo mehr bizni bog‘lab turardi. (*Mirmuhsin.*)


**1. Savollarga javob bering.**

Insonning vatani qayerda bo‘ladi?

Vatanparvarlik deganda nimani tushunasiz?

Vatanga sadoqat nimalarda aks etadi?

**2. Vatan haqidagi ta’riflarni ushbu klasterga joylashtiring.**



**3. Quyidagi matnlar mazmuni bilan tanishing.**

**AJDODLARIMIZ JASORATI**

**To‘maris afsonasi**

To‘maris eramizdan avvalgi VI asrda massaget qabilasiga bosh bo‘lib, Eron shohi Kirga qarshi kurash olib borgan. Bu ayol haqida grek tarixchisi Gerodot o‘zining “Tarix” kitobida hikoya qilgan.

“Eng qadimgi zamonda Amudaryo yoqalarida massagetlar yashar edilar. Bu davrda ularga To‘maris ismli ayol boshchilik qilar edi. Eron

*qaram qilmoq* –  
поработить

*tajovuz* –  
нападение,  
вторжение  
*behuda* – напрасный

shohi Kir massagetlarni o‘ziga *qaram qilish* niyatida To‘marisga uylanmoqchi bo‘lib, sovchilar yuboradi. Lekin To‘maris Kirning asl maqsadini tushunib, unga rad javobini beradi. Shundan so‘ng Kir ochiq *tajovuzga* o‘tadi. To‘maris urushning oldini olishga, qon to‘kmaslikka harakat qiladi.



Lekin uning urinishlari *behuda* ketadi. Kir Amudaryo bo‘yiga kelib, uning ustiga ko‘prik qurdira boshladi. Katta qo‘shinni shu ko‘prikdan o‘tkazib, massagetlarga qarshi urush ochishga

qasd qildi. To‘maris Kirga elchi yuboradi va aytadi: “Ey shoh! Qilayotgan ishingni to‘xtat! Hali sen boshlagan ishingni qanday tugashini bilmaysan-ku! Qo‘y, sen o‘z yurtiingda podsholik qilaver, bizni ham o‘z holimizga qo‘y. Lekin bilaman, baribir nasihatimni qabul qilmaysan, chunki senga tinchlik, osoyishtalikdan ko‘ra, mo‘may boylik kerak. So‘zimizga quloq solging kelmasa, bilganingni qil! Agar urushmoqchi bo‘lsang, bizga bitta imkon ber. Odamlarimizni daryo bo‘yidan uch kunlik yo‘lga, cho‘l ichiga olib ketaylik. Keyin qo‘shining bilan bostirib kiraver. Agar biz bilan daryo qirg‘og‘ida urushmoqchi bo‘lsang, bunga ham qarshi emasmiz. Faqat nomardlik qilma”.

Kir II To‘marisning maktubi bilan tanishganidan keyin lashkarboshilarini to‘plab, kengash o‘tkazdi. Lashkarboshilarning aksariyati massagetlar bilan shu yerda, daryo bo‘yida

*afzal ko'rhoq*  
– предпочитать

*kulini ko'kka  
sovurmoq* – разбить  
в пух и в прах

*pistirma* – засада

*o'lja* – добыча

*asirga tushganlar* –  
попавшие в плен

*qonxo'r* –  
кровопийца,  
жестокий

urushmoqni *afzal ko'rdilar*. Faqat lashkarboshi Kryoz massagetlar uch kunlik yo'lga, cho'l ichiga ko'chib ketganlaridan keyin urush boshlash lozim, deb taklif qildi. Kir II Kryozning taklifini qabul qildi va To'marisga shunday xat yozdi: "Taklifingni qabul qildim. Mayli, uch kunlik cho'l ichiga ko'chib o'tinglar. Ammo nima bo'lganda ham men senlarning *kullaringni ko'kka sovuraman*".

Massagetlar To'maris boshchiligida uch kunlik yo'l bosib cho'lga chekindilar. Shundan keyin Kir II qo'shinining bir qismini daryo bo'yida qoldirib, daryodan o'tdi va lashkari bilan massagetlarning qo'lga tushdi.

To'maris daryo bo'yida *pistirma* qoldirib ketgan edi. Ertasi kuni pistirmadagi lashkarlar Kir II ning qoldirib ketgan lashkarini tor-mor keltirib, qurol-aslaha, chodirlari va kiyim-kechaklarini *o'lja* qilib oldilar. Shundan so'ng kayf-u safo qilib, qattiq uxlab qoldilar. Shu payt Eron lashkarlari ularning ustiga bostirib keldilar va bir qismini qirib tashladilar. Ko'pchiligini esa asirga oldilar. *Asirga tushganlar* ichida To'marisning o'g'li Sparganis ham bor edi. To'maris bo'lgan voqeadan xabar topgach, ko'p qayg'urdi va Kir II ga quyidagi maktubni yo'lladi: "O, *qonxo'r* Kir! Maqtanma, lashkarlarim va o'g'limni ochiq jangda emas, mast holda asir olding. Yaxshilik bilan uni qaytarib ber va yurtingga qayt! Aks holda tangrim nomi bilan qasam ichamanki, seni o'z qoningga to'ydiraman".

Lekin Kir II uning gapiga quloq solmadi. To'marisning o'g'li asirga tushgach, o'zini o'ldirdi. To'maris bor lashkarini olib, Kir II ustiga yurish qiladi. Har ikki tomon bir-birini o'qqa tutib,

bir-biriga nayza sanchib, dahshatli jangda to‘qnashdi. Qon ariqdagi suvday oqdi. Bu urushda Kir II ning o‘zi ham halok bo‘ldi. Massagetlardan bir yigit o‘liklar orasidan Kir II ning jasadini topib, kallasini kesib, To‘marisning oyog‘i ostiga tashladi. Malika uning boshini qon to‘ldirilgan meshga solishni buyurdi va baland ovozda:

– Erimni, o‘g‘limni o‘ldirding, mening ham qonimni ichmoqchi bo‘lding. Tirikligingda inson qoniga to‘ymagan eding. Mana, endi to‘yganingcha ich, qonxo‘r! – dedi.”

Massagetlar bilan Eron shohi Kir II o‘rtasidagi bu urush tillarda doston bo‘ldi. “Mening bilishimcha, urushlar ichida bundayin urushni hech kim ko‘rmagan”, deb yozgan edi Gerodot.

### **Shiroq afsonasi**

Ushbu afsona ham tarixiy voqealar zaminida yuzaga kelgan.

Shiroq (yunon manbalarida *Sirak*) – Turon



xalqlarining ahamoniylar podshosi Doro I bosqiniga qarshi kurashgan xalq qahramoni. Eramizdan avvalgi VI asr boshlarida Eron shohi Doro I qo‘shini Turon hududiga bostirib kirgan. Yunon tarixchisi va notig‘i Poliennning 8 kitobdan

iborat “Harbiy hiylalar” (“Strategmalar”) asarida ilk marta Shiroq jasorati tilga olingan.

yozishicha, Doro qo‘shini bilan saklar

*huzuriga kelmoq* –  
прийти к кому-либо

*harbiy hiyla* –  
военная хитрость

*nohaq sitam yetkazmoq* –  
несправедливо  
издеваться

oʻrtasida urush borardi. Sak qabilalari oqsoqollari fors qoʻshinini yengish uchun harbiy kengash oʻtkazayotganda, ularning *huzuriga* sak podachilaridan Shiroq *kelib*, oʻz rejasini bayon qilgan. Rejaga koʻra, Shiroq oʻz qabilasi manfaatini himoya qilib, *harbiy hiyla* ishlatgan va yolgʻiz oʻzi Doro I lashkariga qarshi turgan.

Shiroq Doro I qarorgohiga kelib, unga qabiladoshlari *nohaq sitam yetkazganligi* uchun (uning burni va quloqlari kesilgan edi) u Eron qoʻshinini saklar qabilasi turgan yerga qisqa yoʻl bilan olib borishini aytib, dushman qoʻshinini Qizilqum choʻli ichkarisiga boshlaydi. Eron qoʻshini “yoʻlboshlovchi”ning maslahati bilan faqat 7 kunga yetadigan suv, oziq-ovqat va yem-xashak olgan edi. Jazirama issiqda choʻlni kechib oʻtayotgan dushman qoʻshini holdan toyib, oziq-ovqat ham tugaydi. Atrof suvsiz va quruq sahrodan iborat. Nihoyat, muhlatning 7-kunida dushman qoʻshini aldanganini anglaydi. Doroning qoʻshin boshligʻi Ranosbat Shiroqdan shunday ulugʻ podshohni aldab, na olgʻa yurish, na yurtga qaytish mumkin boʻlmagan sahroga boshlab kelishdan muroding nima deb soʻraydi. Shiroq atrofni qurshab olgan shoh Doro I va uning sarkardalariga qarata quyidagi soʻzlarni aytadi: “Men yolgʻiz oʻzim Doro qoʻshinini yengdim. Sizlarni aldab, choʻlning qoq oʻrtasiga olib keldim. Xohlagan tomoningizga ketishingiz mumkin, vohagacha toʻrt tomoningiz ham 7 kunlik yoʻl!”.

*yolvormoq* –  
умолять  
*jon fido qilmoq* –  
жертвовать жизнью

Dahshatga tushgan shoh va uning sarkardalari Shiroqqa *yolvorib*, unga suvsiz choʻldan olib chiqishi uchun katta boylik vaʼda qilishadi. Shiroq vatan ozodligi yoʻlida *jon fido qilishini* aytgach,

*halokatdan  
qutulmoq* –  
спасаться от гибели

Doro I ning sarkardasi Ranosbat uni qilich bilan chopib tashlaydi. Qo‘shinning asosiy qismi suvsizlik va ochlikdan Qizilqum cho‘lida qirilib ketgan. Faqat Doro I va uning oz sonli a‘yonlari yomg‘ir yog‘ishi natijasida *halokatdan qutulib*, Baqtra daryosi (Amudaryo) qirg‘og‘igacha yetib kelishgan.

Shiroqning jasorati haqida turkiy xalqlar o‘rtasida jangnoma va rivoyatlar yaratildi. Bu rivoyatlar “Shiroq” nomi bilan mashhur. Buxoro cho‘ponlari o‘rtasida bu rivoyatlar hozir ham aytiladi. U turkiy xalqlarga qo‘shni boshqa hududlardagi xalq og‘zaki ijodiga ham kuchli ta’sir ko‘rsatgan. Bu tarixiy voqeani oradan 800 yil o‘tgach, Poliyen o‘z asarida yuqoridagicha keltirib o‘tgan.

(“O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi”dan olindi.)

#### **4. Do‘stingiz bilan “Ajdodlarimiz jasorati” mavzusida suhbat o‘tkazing. Suhbatingizda berilgan savollardan foydalaning.**

Massagetlar hukmdori malika To‘maris qanday jasorat ko‘rsatgan?

“To‘maris” afsonasining bosh qahramonlari kimlar?

“Shiroq” afsonasining bosh qahramonlari-chi?

To‘maris haqidagi hikoyalarni eshitganmisiz?

#### **5. Quyidagi hikmatli so‘zlarni sharhlang.**

“Vatanparvarlik – yolg‘iz o‘z vataniga mehr qo‘yishdan iboratgina emas. Bu juda kuchli his... Bu – vatan bilan o‘zini bir butun deb bilish, uning yaxshi-yomon kunlarida asqotish demakdir”. (A. Tolstoy.)

“Kim bo‘lishdan qat’iy nazar, uning vatanparvarligi so‘zi bilan emas, ishi bilan isbot qilinadi”. (V. Belinskiy.)

“Vatanga nafi yo‘q yashalgan har kun, inson hayotida qolur bemazmun”. (*M. Salmon.*)

“Agar hayot go‘zalligi haqida so‘z boradigan bo‘lsa, vatan uchun kurashda fidokorlik ko‘rsata bilish go‘zal hayotning eng yuksak namunasi”. (*M. Kalinin.*)

“Kimda o‘z yurtiga bo‘lmasa mehr,  
U qalban shikasta, u qalban majruh”. (*T. Shevchenko.*)

**6. Matnni o‘qing. Ajratilgan so‘z va so‘z birikmalarini lug‘at yordamida rus tiliga tarjima qiling. Matn yuzasidan o‘z fikringizni bayon qiling. Ibrat oling.**

### *Vatan sarhadlarini himoya qilish – sharaf*

Vatan chegaralarini qo‘riqlash barcha zamonda eng *mas‘uliyatli, mashaqqatli* va *sharafli* vazifalardan biri bo‘lgan, uni bajarishni faqat yurtning eng yaxshi jangchilariga ishonib topshirilgan.

Har gal tinch osmon ostida, Vatanimizning muqaddas ramzlaridan biri – *shonli bayrog‘imizni* o‘pib, Vatanga *qasamyod* qilgan harbiylarimizning o‘zlariga xos xatti-harakatlarini kuzatganda qalbga ajib bir tuyg‘ular quyila boshlaydi.

Qasamyod bu – ota-onaga, munis va dilbar singillarga, suyukli yorga, ona Vatanga *xiyonat* qilmaslik, ularni *yot unsurlardan, tashqi tajovuzlardan* ko‘z qorachi‘g‘i kabi asrash uchun ichilgan *ontdir!* Bilaklari to‘la kuch, vujudidan *g‘ayrat-shijoat* yog‘ilib turgan harbiylarimizning burchga sodiqlik, Vatanga xizmat qilish, harbiy degan nomga dog‘ tushirmaslikka tantanali so‘zidir.

Shu dam yelkama-yelka turgan safdoshlarning egnidagi harbiylik libosiga bir nazar tashlagan kishining havasi keladi. Bir xil kiyim, bir xil harbiy tartib-intizom, yagona ezgu maqsad yo‘lida bu yerda jam bo‘lgan o‘g‘lonlar shu kundan boshlab safdosh, jangovar do‘st hisoblanadi. Jangovar do‘stlik esa qon-qarindoshlik rishtalari kabi mustahkamdir.

Harbiylik qoidasi – fidoyilikdir!



Davlat chegaralarini himoya qilish – qiyin, xavfli, shu bilan birga sharaflı ish. Mamlakatimiz shakllangan dastlabki yillarda qo‘shni davlatlardagi murakkab vaziyat tufayli davlat chegarasida bojxona nazorati kuchaytirildi, giyohvand moddalar, qurol-yarog‘, o‘q-dorilar kontrabandasiga qarshi *qaqshatqich kurash* olib borildi. Huquqbuzarlar respublikadan yonilg‘i moylash materiallari, rangli metallar, paxta, boshqa moddiy boyliklarni noqonuniy tarzda *olib chiqishga urindilar*. Ashaddiy banditlar bilan tengsiz kurashda bojxona xizmatining jasur xodimlari Saidakbar Najimov, Ravshan Qodirov, Burhon Qo‘chqorov, Botir Davlatov, Qo‘ldoshali Ro‘ziboyev, To‘xtamish Xolliyev, Saidahmad Toshxo‘jayev, Alisher Haqqulov, Oybek Qomatovlar *Vatan manfaatlariga sadoqatlarini namoyon etib*, xizmat vazifalarini ado etish paytida qahramonlarcha halok bo‘ldilar. Bojxona xodimlarining jasoratlari davlat tomonidan yuksak baholandi. Chunonchi, vafotidan keyin T. Xolliyev – “Shon-sharaf” ordeniga sazovor bo‘ldi, S. Najimov, R. Qodirov, B. Davlatov, Q. Ro‘ziboyevlar “Jasorat” medali bilan mukofotlandi.

Xalqimiz halok bo‘lgan bojxona xodimlarini unutmaydi, mamlakat iqtisodiy xavfsizligi himoyachilarining yangi avlodi ular timsolida tarbiyalanmoqda.

## **7. Berilgan so‘z va so‘z birikmalarining mazmunini tushuntirib bering va ular ishtirokida gaplar tuzing.**

Sadoqat, fidoyilik, el-yurt ravnaqi, vatandosh, mas’uliyat, jasorat, ichilgan ont, shijoat.

## **8. Maqollarni o‘qing va mazmunini o‘zbek tilida ifodalab bering.**

Родимая сторона – мать, чужая – мачеха.

Всякому мила своя сторона.

Кто любит Родину и народ, тот настоящий патриот.

Не ничего краше, чем Родина наша.

На чужой стороне и весна не красна.

**9. “Vatanparvarlik” tushunchasi siz uchun nimani anglatishi to‘g‘risida insho yozing. Unda quyidagi jihatlarni yoriting:**

- o‘z mamalakatining fuqarosi;
- fuqarolarning majburiyatlari;
- fuqarolarning huquqlari;
- yurt ravnaqiga hissa qo‘shmoq;
- xalq manfaatini shaxsiy manfaatdan ustun qo‘ymoq;
- mamlakatimizda yashovchi boshqa millat vakillariga munosabat;
- mamlakat ravnaqiga hissa qo‘shmoq.

**10. She’rni ifodali o‘qing va yod oling.**

**O‘g‘lonlar asraydi asli Vatanni**

*Shahlo Ahrorova*

Buyuk bir mehrni dilga etib jo,  
Shu poyi zaminga tiksak-da jonni.  
Qiz qo‘liga qilich berilmas, illo,  
O‘g‘lonlar asraydi asli Vatanni!

Yuragida o‘t bor, ko‘zlarida cho‘g‘,  
Qalbi iftixorga, g‘ururga to‘lig‘.  
O‘g‘lim bor deganda asli armon yo‘q,  
O‘t joylar asraydi asli Vatanni.

Opam deb, singlim deb, ota-onam, deb,  
Sig‘ingan go‘sham deb, qiblaxonam deb.  
Har gardi oltindan, gul ostonam, deb,  
Iymonlar asraydi asli Vatanni.

O‘g‘il yoqar ekan uy chirog‘ini,  
Rabbim ko‘rsatmasin g‘am-firog‘ni.  
Yigit yechar bo‘lsa gar belbog‘ni,  
Armonlar asraydi endi Vatanni!

Agar sevar bo'lsa, yurak titraydi,  
Qadamida qirqta malak titraydi.  
Qahr etsa yeru falak titraydi,  
Mard jonlar asraydi asli Vatanni.

Nomardlar oldida boshin egmagan,  
Kuragi bir bora yerga tegmagan.  
Alpomish kelbatli, xuddi siz kabi,  
Polvonlar asraydi asli Vatanni!

### **Ergashgan qo'shma gaplar**

Ergashgan qo'shma gaplar ikki teng bo'lmagan qismlardan tuzilib, bir gap ikkinchi gapga tobelanib, undagi biror bo'lakning ma'nosini aniqlashtirib keladi: *Shuni bilingki, biz doim halollikni qadrlaymiz. Kim adolatli bo'lsa, u doim qadr topadi.*

Ergashgan qo'shma gaplar tarkibida nechta gap bo'lishidan qat'iy nazar, doimo ikki qismdan tashkil topadi: 1) bosh gap; 2) ergash gap. Mazmuni izohlanayotgan gap bosh gap, bosh gap mazmunini izohlayotgan gap ergash gap hisoblanadi. Ergash gap bosh gapga tobe bo'lib, uning biror bo'lagini yoki butun bir gapni izohlaydi.

**11. Quyida berilgan she'rdan sodda gaplarni chap tomonga, qo'shma gaplarni o'ng tomonga ajratib yozing. Fikringizni asoslang.**

Garchi shunday mag'rur tursa ham,  
Piyolaga egilar choynak.  
Shunday ekan, manmanlik nechun?  
Kibru havo nimaga kerak?  
Kamtarin bo'l, hatto bir qadam  
O'tma g'urur ostonasidan.  
Piyolani shuning-chun inson  
O'par doim peshonasidan.

*(Erkin Vohidov.)*

### **Ko'rsatish olmoshli ergashgan qo'shma gaplar**

Bosh gap tarkibidagi ko'rsatish olmoshi ma'nosini izohlash uchun qo'llangan ergash gaplar bosh gapga *-ki* yuklamasi yordamida bog'lanadi. Bu yuklama bosh gap kesimi tarkibida bo'ladi va ergash gap bosh gapdan vergul bilan ajratiladi.

Ba'zan bu bo'lak qo'llanmasligi ham mumkin, ammo uning o'rni bilinib turadi.

### **12. Qo'shma gaplar tarkibidagi bosh va ergash gaplarni aniqlang. Bosh gap tarkibidagi ko'rsatish olmoshini toping va qanday gap bo'lagi vazifasida kelayotganini ayting.**

1. Shuni doimo yodingda tutki, biz hammamiz seni yaxshi ko'ramiz. (*Parda Tursun.*)
2. Shunga aminmanki, "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun ta'lim tizimimizni yaxshilashda tub burilish yasaydi. ("*Ma'rifat*" gazetasidan.)
3. Umidimiz shuki, sizlar baxtli bo'linglar. (*Ismoil To'lak.*)
4. Shunday yashaylikki, hamma havas qilsin.
5. Ot shuncha chanqagan ediki, xo'jayinning kelishini ham sezmay suv shimirardi.
6. Nonushta shu qadar tez tayyor bo'lgan ediki, otam boshliq hammalari bobomning oldiga yetib keldilar.

### **13. O'qing. Bosh gap tarkibidagi ko'rsatish olmoshini aniqlang.**

1. Shunday odamlar borki, ular bilan gaplashib bahra olasan. (*Hamid G'ulom.*)
2. Shunga ishonchim komilki, qasd qilganlar, albatta, past bo'ladi. (*Shuhrat.*)
3. Shuni angladimki, inson qobiliyati cheksiz ekan.
4. Aybingiz shuki, juda ko'ngilchansiz. (*Z. Saidnosirova.*)
5. Odam borki, odamlarning naqshidir, Odam borki, hayvon andin yaxshidir. (*Alisher Navoiy.*)

6. Shuni bilingki, aql bilan odob — jism bilan jon.
7. Shuni esdan chiqarmaslik lozimki, aqlsizga so‘z uqtirgandan ko‘ra yelkada tosh tashish afzal.
8. Shunga amin bo‘ldimki, serjahl boshda aql bo‘lmaydi.
9. Shundan ehtiyot bo‘lish lozimki, hamrohingiz aslo nodon bo‘lmasin.
10. Shuni doimo yodda tutish kerakki, nodon odamning gapi ko‘p bo‘ladi. (*“Sharq hikmatlari” dan.*)

#### **Nisbiy so‘zli ergashgan qo‘shma gaplar**

Ergash gap tarkibida qo‘llanuvchi *kim, nima, qancha, qanchaiik, qanday, qayer* kabi so‘roq olmoshlari va bosh gap tarkibida unga javob bo‘lib keluvchi *shu, o‘sha, shuncha, shunchalik, shunday* kabi olmoshlar bir-biriga nisbatan qo‘llanganligi, biri ikkinchisini taqozo etganligi uchun nisbiy so‘zlar hisoblanadi. Ergash gapning kesimi shart mayli shaklidagi fe‘llar bilan ifodalanadi: *Kim harakat qilsa, u baraka topadi. Kimning ko‘ngli ochiq bo‘lsa, uning el o‘rtasidagi martabasi ulug‘ bo‘ladi.*

#### **14. O‘qing. Bosh va ergash gaplardagi o‘zaro nisbatlanayotgan so‘zlarni toping.**

1. Siz Hindistonda neniki ko‘rgan bo‘lsangiz, shularning hammasini jam etib, bir kitob yozmog‘ingiz darkor. (*A. Qayumov.*)
2. Qalandarov yugurdagini “Eshon hoy!” deb chaqirganda, Saida qanchalik xursand bo‘lgan bo‘lsa, hujrani ko‘rib shunchalik ta‘bi tirriq bo‘ldi. (*Abdulla Qahhor.*)
3. Kimning ko‘ngli to‘g‘ri bo‘lsa, uning o‘zi ham to‘g‘ri bo‘ladi. (*Maqol.*)
4. Kimki o‘zining yaxshi ishidan quvonsa, yomon ishidan xafa bo‘lsa, demak, u haqiqiy mo‘mindir. (*Hadis.*)
5. Bu Vatanni jon bilan saqlashga, Cho‘lpon, hozir o‘l, Kimki qasd etsa anga kiysin pushaymondin kafan! (*Cho‘lpon.*)

#### **15. O‘qing. Bosh gap tarkibidagi nisbatlanayotgan ko‘rsatish olmoshining qaysi gap bo‘lagi vazifasida kelayotganini aniqlang.**

1. Kim chaqqon va tez harakat qilsa, yutuq o‘shaniki bo‘ladi. (*O‘. Haydarov.*)
2. Sen birodaringni qanchalik yaxshi ko‘rsang, Tangri ham seni shunchalik yaxshi ko‘radi. (*Hadis.*)
3. Kim birovga choh qazisa, o‘zi yiqiladi. (*Maqol.*)
4. Qayerda ish to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilgan bo‘lsa, o‘sha yerda rivojlanish bo‘ladi.
5. Nima ro‘zg‘orga kerak bo‘lsa, dadam o‘shani bozordan keltiraverar edi. (*Oybek.*)
6. Kimki boshqalarga rahm-u shafqat qilmasa, unga ham hech kim rahm-u shafqat qilmaydi. (*Hadis.*)

**16. Quyidagi hikmatlarni o‘qing. Ularga hayotdan misollar keltiring.**

1. Kimki samimiy va pokdil bo‘lsa, uning ishlari o‘ngidan kelaveradi.
2. Odamlarga qanchalik yaxshilik qilsang, el seni shuncalik e‘zozlaydi.
3. Qaysiki narsaga o‘z mehnating bilan erishsang, o‘sha narsa sen uchun qadrlidir.
4. Kimning yuragida o‘t-olov bo‘lsa, o‘sha odamlarning ishlarida tashabbus bo‘ladi.
5. Qayerda ahillik bo‘lsa, o‘sha yerda yutuq bor.
6. Kimning aqli ko‘p bo‘lsa, ayblari yashirin va do‘stlari ko‘p bo‘ladi.
7. Kimki shoshilmay, aql-u tadbir bilan ish tutsa, u o‘z maqsadlariga oson erishadi.
8. Nimaiki senga zarar keltirsa, o‘sha narsani boshqalarga ham ravo ko‘rma.
9. Har kim o‘z og‘zining qorovuli bo‘lsa, uning nafasi hech qachon bo‘g‘ilmaydi.
10. Kimning ichi nog‘ora singari bo‘sh bo‘lsa, uning behuda so‘zlari atrofdagilarning miyasini egovlaydi.

### 1. Savollarga javob bering.

Buyuk Ipak yo‘li haqida nimalarni bilasiz?

Ushbu yo‘l “Ipak yo‘li” deb nomlanishining sababini bilasizmi?

“Buyuk Ipak yoli” atamasi kim tomonidan kiritilgan?

Buyuk Ipak yo‘lining yo‘nalishlarini bilasizmi?

Buyuk Ipak yo‘li O‘zbekistonning qaysi shaharlari orqali o‘tgan?

### 2. So‘z birikmalarini o‘zbek tiliga o‘giring. Ular ishtirokida gaplar tuzing.

Караванная дорога, побережье Тихого океана, страны Средиземноморья, расцвет городов, ирригационная система, развитие ремёсел, взаимообогащение цивилизаций, культурное наследие.

### 3. Quyidagi xaritani diqqat bilan o‘rganing. Buyuk Ipak yo‘lining yo‘nalish (marshrut)lari, ushbu yo‘lda joylashgan qadimiy shaharlar haqida gapirib bering.



#### 4. Matnni o‘qing. Unga sarlavha qo‘ying. Matnni kengaytirib so‘zlang.

*ehtiyoj* – потребность,  
необходимость

*qit’alararo* –  
межконтинентальный,  
межматериковый

Jahon sivilizatsiyasi rivojiga ulkan hissasini qo‘shgan Buyuk Ipak yo‘li haqidagi dastlabki ma’lumotlar miloddan avvalgi II asrga tegishlidir. Savdo-sotiqqa bo‘lgan *ehtiyoj* yuzasidan vujudga kelgan bu yo‘l insoniyat tarixida birinchi marta Sharq va G‘arb dunyosini bir-biriga bog‘lagan xalqaro, *qit’alararo* yo‘l edi.

Ushbu karvon yo‘llarini birinchi bo‘lib venetsiyalik savdogar Marko Polo “Ipak yo‘li” deb nomlagan. U yevropaliklardan birinchi bo‘lib Xitoy imperiyasining chegaralariga yetgan. “Buyuk Ipak yo‘li” atamasini esa nemis tadqiqotchisi Ferdinand Rixtgofen 1877-yilda o‘zining “Xitoy” nomli asarida ilk bora kiritgan. Nomidan ma’lumki, karvon yo‘llaridagi savdo-ning asosiy buyumi butun jahonda juda qimmatbaho bo‘lgan ipak mahsulotlari edi.

*harbiy anjom* –  
военное снаряжение

Biroq ipak *qit’alararo* yo‘l orqali tashib o‘tiladigan asosiy mol bo‘lsa ham, lekin yagona emas edi. Markaziy Osiyodan Xitoyda juda qadrlanadigan otlar, tuyalar, *harbiy anjomlar* va qurol-yarog‘lar, oltin va kumush, yarim qimmatbaho toshlar va shisha buyumlar, teri va jun-mo‘ynalar, gilamlar-u ip-gazlama matolar, zar tikilgan matolar, o‘ziga xos antiqa mevalar – tarvuzlar, qovunlar va shaftolilar, yirik dumbali qo‘ylar va ovchi itlar, qoplonlar va arslonlar olib chiqib sotilar edi. Xitoydan karvonlar chinni va metall idishlarni, laklangan buyumlar va pardo-zupalarni, choy va guruchni olib kelishar edi.

Bu yo‘l hech qachon yagona bir yo‘l bo‘lmasdan, balki *azim* bir *daraxtning sadasiga*



*azim daraxtning sadasi*  
– *здесь*: крона  
большого дерева  
*shoxlanib ketgan* –  
ветвистый

*Tyan-Shan tizmasi*  
*dovoni* – перевал  
Тянь-Шанской гряды

*Yunoniston* – Древняя  
Греция

*mujassam etmoq* –  
воплощать

*manzil* – пункт  
назначения

*sa'y-harakat* – усилие

o'xshash tarzda *shoxlanib ketgan* turli-tuman yo'nalishlarni o'z ichiga olgan edi. Masalan, Osiyoni sharqdan g'arbga qarab kesib o'tuvchi asosiy yo'llardan biri qadimiy Xitoyning poytaxti Chanan shahrida boshlanib, uning shimoli-g'arbiy chegaralarigacha Gobi sahrosining cheti bo'ylab ketgan, keyin Sharqiy Turkiston orqali o'tgan.

*Tyan-Shan tizmasi* dovonidan oshib o'tgan karvonlarining bir qismi Farg'ona vodiysi va Toshkent vohasi orqali So'g'diyonaning poytaxti Samarqandga, Buxoroga, Xorazmga olib borgan, keyin esa Kaspiy dengizi qirg'oqlariga yetib kelar edi. Karvonlarning bir qismi Samarqanddan chiqib, Baqtriyaga borar va Qashqadaryo vodiysidan o'tib Termiz shahriga kelar edi, u yerdan Amudaryodan kechib o'tib, Janubga, Baqtralar va Hindistonga qarab ketar edi. Yo'lining yana bir yo'nalishi Eron, Suriya davlatlari orqali o'tib, O'rta Yer dengizi bo'yiga yetib kelar edi, mahsulotlarning bir qismi dengiz yo'li bilan Rim va *Yunonistonga* kelib tushar edi.

Sharq va G'arbni o'zaro bog'lagan bu beqiyos buyuk yo'lni bunyod etgan xalqlarning tirik bir xotirasi qadimiy O'zbekiston shaharlari Samarqand, Buxoro, Xiva, Shahrisabz, Termiz, Toshkent shaharlari bo'lib, ularning me'morchilik yodgorliklari Buyuk Ipak yo'lining ko'p asrlik tarixini o'zida *mujassam etadi*.

Turli davrlarda Ipak yo'lining Markaziy Osiyodagi asosiy *manzillari* vazifasini Farg'ona, Qo'qon, Samarqand, Xiva shaharlari bajargan.

Bugun dunyoning ko'plab mamlakatlari *sa'y-harakati* bilan Buyuk Ipak yo'lini qaytadan tiklashga, unga Sharq va G'arb o'rtasida

*hissa* – вклад

madaniy, iqtisodiy va sayyohlik aloqalarini, hamkorlikni mustahkamlashning asosiy vositasi sifatidagi rolini qaytarishga qaror qilingan. Bu ishda O‘zbekistonning ulkan *hissasi* bor. Mamlakatimiz madaniyat va turizm sohasidagi yetakchi tashkilotlar – YUNESKO va Jahon turizm tashkilotining faol a‘zosi sifatida Buyuk Ipak yo‘lining tiklanishiga bosh-qosh bo‘lmoqda.

### **5. Tushirib qoldirilgan so‘z va so‘z birikmalarini qo‘yib, gaplarni to‘ldiring.**

1. Qadimda Buyuk Ipak yo‘li ... dunyo bilan bog‘lovchi ko‘prik vazifasini o‘tagan.

2. ... Buyuk Ipak yo‘liga o‘zaro hamkorlik, hamjihatlik, do‘stlik asoslaridan biri sifatida qaraganlar.

3. ... davrida Buyuk Ipak yo‘lining ... ta‘mirlangan va ba‘zi yerlarda yangilari .... Yo‘llarda karvonlarning dam olishini ta‘minlovchi ... qurilgan. Bu karvonlarni mahalliy hokimliklar tomonidan qo‘yilgan ... himoya qilib, bir manzildan ikkinchi manzilga yetkazib qo‘ygan.

4. Buyuk Ipak yo‘li ... ham muhim o‘rin tutgan. Turli mamlakatlardan kelgan va turli tomonlarga yurtimizdan ketgan olimlar, sayyohlar, hatto savdogarlar ham bir vaqtning o‘zida ilm-fan jarchilari bo‘lib xizmat qilganlar. Buyuk Ipak yo‘lida joylashgan shaharlarning madaniy jihatdan boshqa shaharlarga nisbatan ravnaq topganligining sabablaridan biri ham shundadir.

*Qo‘yish uchun so‘z va birikmalar:* Amir Temur, harbiy qo‘riqchilar, ilm-u fan taraqqiyotida, bekatlari, mintaqamizni, karvonsaroylar, bunyod etilgan, Amir Temur va temuriylar.

### **6. Quyidagi rasmga qarab, qadimgi Sharq bozori haqida hikoya tuzing.**



**7. O‘qing. Matnni mazmun jihatdan qismlarga bo‘ling va har bir qismga nom bering. Matnni o‘zbek tilida gapirib bering.**

Основание Шёлкового пути относят ко II веку до н.э., когда китайский посол Чжан Цянь посетил страны Центральной Азии с дипломатической миссией. До II века до н.э. путь из Европы в Азию обрывался у границ Китая, так как горные системы Азии – Тянь-Шань, Кунь-Лунь, Каракорум, Гиндукуш, Гималаи – скрывали древнейшую китайскую цивилизацию от остального мира. Открыть богатейшее западное направление помог случай.

Одно из кочевых союзных Китаю племен было вытеснено другим племенем, открыто враждебным Китаю. Бывший союзник ушел на Запад. Китайский император послал вдогонку посольство во главе с Чжан Цянем. Пройдя тяжелейшую пустыню Такла-Макан, горы Тянь-Шаня, пережив десятилетний плен, Чжан Цянь

нашел бывших союзников в оазисах Средней Азии. Чжан Цянь был поражен увиденным: только в Ферганской долине он насчитал более 70 больших и малых городских поселений с развитым ремеслом, земледелием. Жители городов-оазисов вели широкую торговлю с Индией, Ближним и Средним Востоком, античным миром. Возвратившись в Китай, Чжан Цянь рассказал императору о странах к западу от Китая, о том, чем они богаты. Сообщил о породистых «крылатых» конях Давани, не идущих ни в какое сравнение с мелкими китайскими лошадками. Император тут же захотел иметь таких лошадей, так как обладание ими давало огромные преимущества в борьбе против кочевников. Вскоре в Среднюю Азию были отправлены посольства. Среди прочих даров они везли китайский шелк.

Так встретились древние цивилизации Средней Азии и Китая, а позже Средиземноморских стран и Индии. Сошлись в единое целое две великие дороги. Одна, шедшая с Запада, из стран Средиземноморья в Среднюю Азию, другая, ведущая с Востока, из Ханьской империи в Центральную Азию.

([www.advantour.com](http://www.advantour.com))

**8. Buyuk Ipak yo'li haqida turli manbalardan ma'lumotlar toping. Olgan ma'lumotlaringizni tayanch tushunchalar yordamida quyidagi shaxslar nomidan gapirib bering:**

- tarixiy ma'lumotlarni qayd etuvchi;
- arxeolog;
- savdogar;
- soliqchi;
- shahar fuqarosi.

*Tayanch tushunchalar:* ipak ishlab chiqarish, hunarmandlar rastalari, tarixiy ma'lumotlar, boj to'lovlari, karvonsaroylar, qimmatbaho metallar, xorijlik savdogarlar, san'at asarlari, arxeologik topilmalar, sharq mevalari, tuyalarga ortmoq, qurol-yarog', poliz

mahsulotlari, mo‘ynalar, qaroqchilar hujumlari, quruq mevalar, shahar darvozalari, qo‘riqchilar, tovar almashish, nodir kitoblar, masjid xarobalari, dunyo sivilizatsiyasi.

## **9. Matnni o‘qing. Ajratilgan so‘z birikmalarining ma’nosini shahlang. Matndagi asosiy fikrni ifodalab bering.**

Milodgacha bo‘lgan II asrdan milodiy XV asrga qadar qadimiy xalqaro *transport arteriyasi* vazifasini bajarib, Xitoy, Hindiston va Markaziy Osiyo, O‘rta va Yaqin Sharq, O‘rta Yer dengizi mintaqasi kabi hudud va mamlakatlarni bog‘lab kelgan Buyuk Ipak yo‘lining ulkan, beqiyos rolini baholashning o‘zi qiyin.

Mazkur yo‘l nafaqat yuqorida zikr etilgan hududlar o‘rtasida savdo-sotiq aloqalarini, balki *qit’alar va davlatlar o‘rtasida axborot almashuvini* ta’minlashga xizmat qildi, yangi texnologiya va ishlanmalarning (ipak, chinni buyumlar, porox, qog‘oz va boshqa ko‘plab mahsulotlar) tez tarqalishida, qishloq xo‘jaligi ekinlari va *agrotexnologiyalarning*, shuningdek, madaniy qadriyatlarining rivojlanishida muhim vosita vazifasini bajardi va shu tariqa sivilizatsiyalararo muloqot va texnologiyalar almashuvi uchun shart-sharoitlar yaratdi.

Bu davrlarda turli mamlakatlar xalqlarining *ilmiy bilim va yutuqlar bilan bir-birini boyitib borishi* alohida rol o‘ynadi. Buyuk Ipak yo‘li orqali Yevropaga, Yevropadan esa Osiyoga Sharq va G‘arb olamidagi ulug‘ alloma va mutafakkirlar faoliyati to‘g‘risidagi ma’lumotlar yetkazildi. Sokrat, Platon, Aristotel, Ptolomey va antik davrga mansub boshqa buyuk allomalarning ilmiy asarlari, *g‘oya va kashfiyotlarini* o‘rganish uchun amaliy imkoniyat vujudga keldi.

Ma’lumki, o‘sha davr an’analariga ko‘ra, ma’rifatparvar mutafakkir va faylasuflar, olimlar va shoirlar odatda hukmdorlar va sultonlar saroylarida *panoh topganlar*. Ular orasida IX–XI asrlarda Xivada tashkil etilgan Ma’mun akademiyasi va “Baytulhikma”, ya’ni “*Donishmandlik uyi*” degan nom bilan shuhrat qozongan Bag‘dod akademiyasida, shuningdek, XV asrda Samarqandda shakllangan Mirzo

Ulug‘bekning *ilmiy maktabida* samarali mehnat qilgan bir guruh olimlar butun dunyoga dong taratdilar.

Tadqiqotchi-olimlarning fikricha, Sharq, xususan, Markaziy Osiyo mintaqasi IX–XII va XIV–XV asrlarda bamisoli *po‘rtanadek otilib chiqqan* ikki qudratli ilmiy-madaniy yuksalishning manbai hisoblanib, jahonning boshqa mintaqalaridagi *Renessans* jarayonlariga ijobiy ta‘sir ko‘rsatgan Sharq uyg‘onish davri – Sharq Renessansi sifatida *dunyo ilmiy jamoatchiligi* tomonidan haqli ravishda tan olingan.

*(Islom Karimovning “O‘rta asrlar Sharq allomalari va mutafakkirlarining tarixiy merosi, uning zamonaviy sivilizatsiya rivojida roli va ahamiyati” mavzusidagi xalqaro konferensiyada so‘zlagan nutqidan.)*

**10. She‘rni o‘qing. Unda tasvirlangan manzara qaysi davrga tegishli ekanligini ayting.**

### **Buyuk Ipak yo‘li**

*Iqbol Mirzo*

Qumlar sohib, yo‘l ochib, tasbehdek<sup>30</sup> karvon o‘tar,  
Tuyalarda chayqalib davr o‘tar, davron o‘tar.

Mushkni<sup>31</sup> murchga, guruchni adrasga ayirboshlab,  
Alakni<sup>32</sup> bo‘zga, bo‘zni atlasga ayirboshlab,

Gohida insof bilan, gohida iymon bilan,  
Yo‘lning tanobin tortib, tosh bilan, dovon bilan,

Birda aldab, birida g‘aflatda qolib o‘zi,  
Goh yo‘lidan, gohida o‘zidan nolib o‘zi,

---

<sup>30</sup> tasbeh – четки

<sup>31</sup> mushk – благовония

<sup>32</sup> alak – хлопчатобумажная ткань

Turfa libos, dil bilan turli karvonlar o‘tar,  
Nortuya odimidek vazmin<sup>33</sup> zamonlar o‘tar.

Sahro – ulkan qumsoat. Qor to‘kilar oq qumday,  
Tujjorning<sup>34</sup> nasibasi gohi zahar-zaqqum<sup>35</sup> day,

Lekin Ipak yo‘li bu – haq yo‘li, urfon<sup>36</sup> yo‘li,  
Insoniyat jismida jon yo‘li bu, qon yo‘li.

Shu yo‘l bois Rumoda<sup>37</sup> chiniy<sup>38</sup> jarangoslari,  
Olmonlarda<sup>39</sup> qo‘lma-qo‘l Samarqand qog‘ozlari.

Xurjunning bir ko‘zida xalvo-yu novvot ketar,  
Bir yonda Samarqandiy kitobu dovot<sup>40</sup> ketar.

“Adolat sari yurgil, yuzlangin ilm tomon!” –  
Duoga juftlangan kaft, hovuch kabi Registon.

“Olam simobdek titrar, o‘zingdan bo‘lgil ogoh!” –  
Ko‘z yummas Shohi Zinda – abadiy barhayot shoh.

Qancha savdogar bunda el bo‘lib qolib ketgan,  
Ketganlari ma’rifat, ma’rifat olib ketgan.

Vale<sup>41</sup> Buyuk karvonning yumushi bitgani yo‘q,  
Hanuz yo‘ldadir, hanuz manzilga yetgani yo‘q.

## **11. Hikmatli so‘zlarni o‘qing. Misollar yordamida ularning mazmunini tushuntiring.**

---

<sup>33</sup> vazmin – степенный, неторопливый

<sup>34</sup> tujjor – *устар.* предприниматель

<sup>35</sup> zahar-zaqqum – яд, отравы

<sup>36</sup> urfon – наука

<sup>37</sup> Rumо – *устар.* Древний Рим

<sup>38</sup> chiniy – *устар.* китайский

<sup>39</sup> olmonlar – *устар.* германцы

<sup>40</sup> dovot – *устар.* чернильница

<sup>41</sup> vale – *устар.* однако

1. Kimki o‘rganishni uyat, or demas,  
Suvdan dur topadi, toshdan la’l, olmos. (*Nizomiy Ganjaviy.*)
2. Kim ravshan flkrlasa, u ravshan bayon etadi. (*Artur Shopengauer.*)
3. Kimki qanoat birlan shod bo‘lsa, u o‘lguncha aslo tashvish ko‘rmaydi.
4. Kimki o‘z yaxshiliklarini birovga minnat qilmasa, u haqiqiy jannat bandasidir.
5. Kim hunarni desa, u dono bo‘lur,  
Nodonlar qudrat deb boylikni bilur. (*Abdurahmon Jomiy.*)

### **Ega ergash gapli qo‘shma gap**

Ega ergash gapli qo‘shma gaplarda ergash gap bosh gapdagi olmosh bilan ifodalangan eganing ma’nosini ochib beradi. Bunday ergash gap bosh gapga nisbiy so‘zlar (*kim – o‘sha, nima – o‘sha yer* kabi) yoki bosh gap kesimi tarkibida qo‘llaniluvchi *-ki* yuklamasi yordamida bog‘lanadi.

Gap qismlari nisbiy so‘zlar yordamida bog‘langanda, ergash gap kesimi *shart mayli shaklidagi fe’llar* bilan ifodalanadi va ergash gap bosh gapdan oldin keladi: *Kimki zo‘r ishlarga layoqatli bo‘lsa, u tilini tiygan bo‘ladi. Kimki bilimiga tayansa, u doimo kamol topadi.*

Gap qismlari *-ki* yordamida bog‘langanda ega ergash gap bosh gapdan keyin keladi: *Shunisi ko‘pdan ma’lumki, ular doim beparvolik bilan yashaydilar.*

## **12. Gaplarni o‘qing. Ko‘rsatish olmoshlarining tagiga chizing. Ergash gapni bosh gapga bog‘lovchi vositalarni aniqlang.**

1. Bu savollardan ma’lum bo‘ldiki, aybnoma uydirma emas. (*Abdulla Qahhor.*)
2. Bir narsa aniqki, ahvol yomon. (*Asqad Muxtor.*)
3. Kimki taqdirga tan bersa, u hayot to‘lqinida g‘arq bo‘lib ketadi. (*O. Yoqubov.*)



4. Kimki birovga yomonlik qilsa, u shu dunyoning o'zidayoq jazosini ko'radi. (*Hadis.*)

5. Kimki halol mehnat qilsa, u bexavotir yashaydi.

**13. O'qing. Bosh va ergash gaplarni aniqlang. Ergash gapni bosh gapga bog'lovchi vositani izohlang.**

1. Shu narsa qiziqki, uyquda ham miya o'z faoliyatini to'xtatmaydi. (*"Fan va turmush" jurnalidan.*)

2. Kim izlansa, u, albatta, maqsadiga erishadi.

3. Kimki rostgo'y, samimiy bo'lsa, u el o'rtasida qadr topadi. (*"Tafakkur gulshani" jurnalidan.*)

4. Ko'ziga nima ko'rinsa, shu uni qiziqтира boshladi. (*Oybek.*)

5. Kim erta bahordan dalaga chiqib peshona ter to'ksa, u kuzda mehnatining rohatini ko'radi.

**14. Keltirilgan misollar orasidan ega ergash gapli qo'shma gaplarni ajrating.**

1. Har kishi nafsining asiri bo'lsa, u ojizlar mulkiga cho'zadi qo'lin.

2. Kimki bilimdonligi va donoligini ko'z-ko'z qilsa, unda bilimdonlik ham yo'q, donolik ham yo'q.

3. Kim jumlani buzib gapirsa, uning fikri ham chalkash bo'ladi.

4. Kimda-kim sening aybingni yuzingga aytsa, u sening haqiqiy do'sting.

5. Qaysi kishi maqtanchoq bo'lsa, o'sha kishining ko'ngli har vaqt xijolatda bo'ladi.

6. Kimki o'z vataniga sadoqatli bo'lsa, u doim xalq olqishida bo'ladi.

7. Kimki jinoyatning oldini olishga imkoni bo'laturib, uni qilmasa, u jinoyatni rag'batlantirgan bo'ladi.

8. Kimda-kim ota-onasini rozi qilsa, unga tole yor bo'ladi.

9. Kimki jinoyat qilsa, u, albatta, jazosiz qolmaydi.

**15. Gaplarni o‘qing. Ularning har birini mazmuniga qarab davom ettiring.**

1. Gap shundaki, har qaysi joyning o‘ziga yarasha qonun-qoidasi bor.

2. Xushxabar shuki, dardingizga davo topildi.

3. Muammo shundaki, u yigitda hech narsaga qiziqish yo‘q.

4. Xulosa shuki, institutda olgan bilimlarimni o‘z o‘rnida ishga tatbiq eta olmayapman.

5. Kimki o‘zining tilsiz do‘stlari uchun g‘am cheksa, u yomon odam bo‘lmaydi.

**16. Badiiy asarlardan ega ergash gapli qo‘shma gaplarga oltita misol toping. Ular qanday vositalar orqali birikkanligini tushuntiring.**

**1. Savollarga javob bering.**

O‘rta asrlarda Markaziy Osiyoda tug‘ilib, faoliyat yuritgan qaysi olimlarni bilasiz?

Ular dunyo ilm-faniga qanday hissa qo‘shganlar?

Matematika fanining asoschisi kim?

Arab raqamlari qachon paydo bo‘lgan?

Astronomiya va geografiya sohasida o‘rta asrlarda qanday kashfiyotlar qilingan?

“Tib qonunlari”ning muallifi kim?

Markaziy Osiyodagi birinchi rasadxonani kim qurgan?

Sharq akademiyalari haqida nimalarni bilasiz?

**2. Quyidagi so‘zlarning ma’nosini izohli lug‘at yordamida yozing. Ular ishtirokida gaplar tuzing.**

Alloma – .....

Mutafakkir – .....

Daho – .....

Ma’rifatparvar – .....

Faylasuf – .....

Kashfiyotchi – .....

Asoschi – .....

Tadqiqotchi – .....

**3. Matnni o‘qing. Al-Xorazmiyning jahon ilm taraqqiyotiga qo‘shgan hissasi haqida gapirib bering.**

**Muhammad Muso al-Xorazmiy**

**(783 - 850)**

Buyuk mutafakkir olim Abu Abdulla Muhammad Ibn Muso al-Xorazmiy 783-yilda Xivada tavallud topgan. Yoshligidan ilm-fanga,

ayniqsa, *tabiiy fanlarni* o'rganishga qiziqdi. Arab, fors, hind, *yunon tillarini* mukammal o'rgandi. O'qigan, o'rganganlari asosida, tabiatning bergan buyuk *iqtidori* bilan bir necha

*tabiiy fanlar* –  
естественные науки

*yunon tili* –  
древнегреческий язык

*iqtidor* – способность



fanlarga doir yirik, qimmatli asarlar yaratdi. Uning arifmetika va algebraga doir “Al-kitob al muxtasar fi hisob al-jabr va al-muqobala” (“To‘ldirish va qarama-qarshi qo‘yish haqida qisqacha kitob”) asari matematika fanida yangi

*taraqqiyot* – развитие,  
прогресс

davrni boshlab beribgina qolmay, balki uning keyingi asrlardagi *taraqqiyotiga* ham katta asos bo‘ldi.

*merosxo‘r* –  
наследник

Al-Xorazmiyning “Al-jabr va al-muqobala” asari keyinchalik Yevropada “Algebra” deb yuritila boshlandi. Mazkur asar *merosxo‘rlar* orasida mol-dunyo taqsimlashga xizmat qilgan. Mol va yerni o‘lchash, kimga qancha qism tekkanligini aniqlash, ariq, anhor qazish va bu ishlarni bajarganlar mehnatiga tegishli haq to‘lash kabi qator masalalarni hal qilish borasida bu fanga zarurat tug‘ilgan. Al-Xorazmiyning ikkinchi matematikaga oid asari “Hind arifmetikasi haqida kitob” bo‘lib, bu asar tufayli avval Sharq, so‘ngra Yevropa xalqlari o‘nli pozitsion hisoblash tizimi bilan tanishdilar. Ushbu asar XII asrda lotin tiliga o‘girilgan.

Al-Xorazmiy ijodida geografiya fani ham muhim o‘rin tutadi. U tarixda birinchilardan bo‘lib Amudaryo va Sirdaryoning Orol dengiziga quyilishini isbotlagan.

Xorazmiyning “Kitob surat al-ard” (“Yer-ning surati”) asari geografiyaga, “Astronomik jadvallar” astronomiyaga oid bo‘lib, ular muallifning nomini jahonga yoydi. Shuningdek, “Quyosh soatlari to‘g‘risida risola”, “Tarix risolasi”, “Musiqqa risolasi” singari ajoyib asarlari olimga katta *shuhrat* keltirdi, uning *nomini abadiylashtirdi*. Uning astronomiyaga oid asari esa faqat Sharqda emas, balki g‘arbda ham asronomiya fani rivojida katta rol o‘ynadi.

*shuhrat* – слава  
*nomini abadiylashtirmoq* – увековечивать имя

Xorazmiy qalamiga mansub 20dan ortiq asarlarning faqat 10tasi bizgacha yetib kelgan. Ular dunyoning turli kutubxonalarida saqlanadi va turli g‘arb hamda sharq tillariga tarjima qilingan.

#### 4. Kerakli so‘zlarni qo‘yib, gaplarni to‘ldiring.

1. Xorazmiyning to‘liq ismi \_\_\_\_\_ .
2. Olimning hayoti 813-yildan \_\_\_\_\_ bilan bog‘langan.
3. Al-Xorazmiy \_\_\_\_\_ tillarni mukammal bilgan.
4. Olim \_\_\_\_\_ sohalarida ilmiy asarlar yaratgan.
5. “Butun \_\_\_\_\_ asrning \_\_\_\_\_ davrini \_\_\_\_\_ deb atash mumkin”, – degan edi amerikalik olim \_\_\_\_\_.
6. Rim raqamlari orasida \_\_\_\_\_ , \_\_\_\_\_ , \_\_\_\_\_ sanoq tizimlari mavjud edi.
7. \_\_\_\_\_ asarini al-Ma‘mun qayta ishlab, to‘ldirishni Xorazmiy zimmasiga yuklatdi. Qayta ishlab, to‘ldirilgan asar \_\_\_\_\_ deb nomlandi.

8. “Ziji Xorazmiy” \_\_\_\_\_ bob , \_\_\_\_\_ ta jadvaldan iborat.

9. “Kitob surat al-raz”ning \_\_\_\_\_ -yilda ko‘chirilgan yagona nusxasi \_\_\_\_\_ saqlanmoqda.

10. Xaritalardan \_\_\_\_\_ tasi, \_\_\_\_\_ xaritalari, \_\_\_\_\_ va \_\_\_\_\_ xaritalari saqlanib qolgan.

11. Nodir qo‘lyozmalarni to‘plash va geografik kuzatishlar olib borish maqsadida \_\_\_\_\_ mamlakatlariga uyushtirilgan ekspeditsiyalarga rahbarlik qilgan.

12. \_\_\_\_\_ -yildan \_\_\_\_\_ akademiyasiga rahbarlik qilgan.

### **5. Gaplarni o‘zbek tiliga tarjima qiling.**

Ал-Хорезми известен прежде всего своей «Книгой о восполнении и противопоставлении» («Аль-китаб аль-мухтасар фи хисаб аль-джабр ва-ль-мукабала»), которая сыграла важнейшую роль в истории математики. От названия этой книги произошло слово «алгебра». Подлинный арабский текст утерян, однако содержание известно по латинскому переводу английского математика Роберта Честерского 1140 года. Эта книга была дважды переведена в XII веке на латинский язык и сыграла чрезвычайно важную роль в развитии математики в Европе.

#### **Kesim ergash gapli qo‘shma gap**

Kesim ergash gapli qo‘shma gaplarda ergash gap bosh gapdagi olmosh bilan ifodalangan kesimning ma’nosini ochib beradi. Ko‘pincha kesim ergash gap bosh gapda kesim vazifasida kelgan *shu, shunda, shunday, shundan iborat* kabi ko‘rsatish olmoshlarining ma’nosini izohlab keladi:

*Seni bu yerga chaqirishdan maqsad shuki, avvalo, bu gaplardan xabardor bo‘lib qo‘ygin (O. Yoqubov).*

*Yana bir maroqli tomoni shundaki, qizlar raqsini o‘z ko‘zi bilan ko‘rgan shoir bu haqda ikkita she‘r yozgan.*

*Bizda odat shundayki, o‘zidan kichikni ham sizlaydilar.*

Kesim ergash gap, asosan, bosh gapdan keyin keladi va bosh gap bilan *-ki* yordamchisi orqali birikadi.

## **6. O‘qing. Bosh va ergash gaplarni aniqlang.**

1. Qizig‘i shundaki, bunga dadam sabab bo‘lgan ekan. (*O. Yoqubov.*)
2. Endi sizlarga muborak topshiriq shuki, har biringiz alohida-alohida ketasiz. (*M. Mansurov.*)
3. Muhammad Yusuf ijodining o‘ziga xos xususiyati shundaki, u juda oson o‘qiladi, sodda, xalqchil. (*O. Sharafiddinov.*)
4. Maqsadimiz shuki, yurtimiz bayrog‘i doim porlab tursin.
5. Qizig‘i shundaki, shu ko‘rinishiga ovozi muloyim edi. (*F. Musajonov.*)
6. Olimning donoligi shundaki, u hech qachon bilmaganini bildim demaydi.
7. Tilagimiz shuki, yaxshilarning ezgu niyati o‘ziga yo‘ldosh bo‘lsin.

## **7. Kesim ergash gapli qo‘shma gaplar tarkibida qo‘llangan biriktiruvchi vositalarining tagiga chizing. Gaplarning sxemasini tuzing.**

1. Yaxshisi shuki, meni o‘zingiz bilan safarga olib keting.
2. Qizig‘i shuki, men uni ovozidan ham tanimay qoldim.
3. Kimki halol mehnat qilsa, u rohat ko‘radi.
4. Kimki zo‘r ishlarga layoqatli bo‘lsa, u doim tilini tiygan bo‘ladi.
5. Talabimiz shuki, xonalar yorug‘ va keng bo‘lsin.
6. Ilmga kimki qo‘lni ura, minglab buloqni cho‘l tomon burgan bo‘ladi.
7. Tilagimiz shuki, doim bir-birimizga mehrli va bag‘rikeng bo‘laylik.

## **8. Hikmatlarni o‘qing va eslab qoling.**

1. Eng yaxshi yo‘l shuki, yaxshi do‘st yor-diyordan ayrilishni ixtiyor etmaydi.

2. O'tgan ota-bobolarning xulosasi shuki, shirin so'z odamlarning qalbini bog'lovchi zanjirdir.

3. Qisqa gap shuki, odam so'zi bilan taniladi, axloqi bilan maqtaladi.

4. Donolarning o'giti shundayki, so'zning lazzati uni gapirishda emas, balki eshitishdadir.

5. Xalqning xulosasi shuki, xudbin odam hech qachon elga qayishmaydi.

(*"Hikmatlar bo'stoni"* kitobidan.)

**9. Vatanni sevishimning boisi shuki, ..... gapi ishtirokida bir necha qo'shma gap tuzing.**

*Namuna:* Vatanni sevishimning boisi shuki, u mening kindik qonim to'kilgan muqaddas zamindir.

**10. Qo'shma gaplardan tuzilgan maqollarni eslab qoling va mazmunini tushuntirib bering.**

1. Bilim yo'q joyda, mardlik ham yo'q.
2. Ter to'kib ishlagan joyda, baxt – bu ajoyibot emas.
3. Qayerda tug'ilgan bo'lsang, u yerda keraksan.
4. To'g'ri yo'l turgan joyda, qiyshiq yo'ldan yurma.
5. Sevgi va murosa bo'lgan yerda – g'am yo'q.
6. Ip qayerda bo'lsa, igna ham o'sha yerda.
7. Qayerda xalq hukmron bo'lsa, o'sha yerda g'alaba va ozodlik barqaror bo'ladi.

**11. Matnni o'qing. Ulug' iste'dod sohiblari abadiy yashashi to'g'risida suhbat qiling.**

**Ahmad al-Farg'oniy**  
(taxminan 797-865-yillar)

O'rta asrlarda yashagan Markaziy Osiyolik olimlar orasida buyuk astronom, matematik va



*salmqli* –  
увесиситый,  
обладающий весом

geograf al-Fargʻoniy *salmqli* oʻrin egallaydi.

Ahmad al-Fargʻoniy Fargʻona vodiysining



Quva qishlogʻida tugʻilgan. Uning toʻliq ismi Abul Abbos Ahmad ibn Muhammad ibn Kasir al-Fargʻoniydir.

Boʻlajak olim 15 yoshida matematika va astronomiyani oʻrganish uchun Bagʻdodga yoʻl

oladi. U yerda yunon olimlarining asarlarini tarjimasiz oʻqish uchun yunon tilini oʻrganadi.

Ahmad al-Fargʻoniyning sakkizta asari maʼlum. Bu kitoblarning har birida astronomiyaga oid yangi, *qimmatli fikrlar* aytilgan. Ularning, ayniqsa, ikkitasi jahon astronomlariga maʼlum va *mashhurdir*. Bu “Samoviy harakatlar va umumiy astronomiya kitobi” (“Kitob fiy harakat as-samoviya va javomi’ ilm an-nujum”). Ushbu asar “Astronomiya asoslari haqidagi kitob” nomi bilan ham maʼlum boʻlib, 1145- va 1175-yillarda Yevropada lotin va ivrit tillariga tarjima qilingan. Shundan soʻng Ahmad Fargʻoniy nomi lotinlashtirilib, “Alfraganus” shaklida Gʻarbda shuhrat topgan. Uning “Astronomiya asoslari haqidagi kitob” asaridan bir necha asrlar davomida Yevropa universitetlarida astronomiya fani boʻyicha asosiy darslik sifatida foydalanilgan, chunki bu kitob oʻsha zamondagi

*qimmatli fikrlar* –  
ценные мысли, идеи

*mashhur* –  
прославлен

*osmon yoritqichlari* –  
небесные светила

astronomiya bo'yicha eng muhim va zarur bilimlarni o'z ichiga olgan. Uning geografiyaga oid bo'limi Yer yuzidagi mamlakat va shaharlar haqida eng boshlang'ich va zaruriy bilimlarga bag'ishlangan bo'lib, "Yerdagi ma'lum mamlakatlar va shaharlarning nomlari va har bir iqlimdagi hodisalar haqida" deb atalgan.

Unda Yerning dumaloqligi, bir xil *osmon yoritqichlarining* turli vaqtda ko'tarilishi, tutilishi va bu tutilishning har bir joydan turlicha ko'rinishi, masofalar o'zgarishi bilan ularning ko'rinishi ham o'zgarishi haqida qimmatli mulohazalar bildirilgan. "Astronomiya asoslari haqidagi kitob" asari o'rta asr musulmon Sharqi mamlakatlarida, so'ng Ispaniya orqali Yevropa mamlakatlarida astronomiya ilmining rivojini boshlab berdi.

Yana bir kitobi – "Asturlob yasash haqida kitob" ("Kitob al-komil fiy san'a al-asturlob") deb atalgan. Ushbu asarning birgina qo'lyozmasi Rampur (Hindiston)da saqlanadi. Boshqa asarlarning qo'lyozmalari jahonning turli shaharlari – Berlin, London, Parij, Tehron, Toshkent, Dushanbe, Mashhad, Patna, Halab va Qohiradagi yirik kutubxonalarda saqlanmoqda.

1998-yili Ahmad Farg'oniyning 1200 yilligi xalqaro miqyosda keng nishonlandi.

## **12. Quyidagi so'z birikmalarini o'zbek tiliga tarjima qiling va ular ishtirokida gaplar tuzing.**

Астрономические вычисления, значимые труды, плеяда ученых, астрономические исследования, мировая известность, небесные движения.

### **Aniqlovchi ergash gapli qo'shma gap**

Bosh gapdagi olmosh bilan ifodalangan aniqlovchini yoki ifodalanmagan aniqlovchini izohlab, to'ldirib keluvchi ergash gaplar aniqlovchi ergash gap deyiladi: *O'zbekiston shunday diyorki, fasllari gulga o'ralgan.*

Bosh gap birinchi o'rinda kelganda, uning aniqlovchisi sifatida *shunday, ba'zi, ba'zi bir, ba'zi bir xil, ayrim, bir, hech bir, shunday bir* kabi nisbiy olmoshlar qo'llanadi:

*Shunday mo'jizalar borki, ularni fan tushuntirib bera olmaydi.*

*Ba'zi talabalar borki, ular ham o'qishda, ham sportda barchani lol qoldiradilar.*

*Hech bir ona yo'qki, farzandiga ichi achimasin.*

Bosh gap ikkinchi o'rinda kelganda, ergash gap tarkibida *kim, kimki, kimning*, bosh gapda *uning, unday* nisbiy so'zlari qo'llanadi: *Kim egri bo'lsa, uning taqdiri fojiali bo'ladi. Kimning so'zi to'g'ri bo'lsa, uning xalq oldida e'tibori yuqori bo'ladi.*

Bosh gapda *shu, u, o'sha, uning, o'shaning* so'zlari bo'lsa, ergash gap tarkibida *qaysi, qanday, qay* kabi nisbiy olmoshlar qatnashadi: *Qaysi kitob sizga yoqsa, o'sha kitobni xarid qilamiz.*

### **13. Qo'shma gaplar tarkibidagi bosh va ergash gaplarni aniqlang. Ergash gapni bosh gapga bog'lovchi vositalarni ayting.**

1. Shunday kunlar bo'ladiki, xalqning tarixiy taraqqiyoti uchun bir necha o'n yillarga arziydi.

2. Kim qudratli bo'lsa, o'shanga ergashish kerak.

3. Kimning aqli ko'p bo'lsa, ayblari yashirin va do'stlari undan rozi bo'ladi.

4. Kim birovlariga yaxshilik qilsa, uning obro'yi baland bo'ladi.

5. Umrda shunday tantanalar bo'ladiki, bunday damlarda kishining qalbi ijodiy gayrat, mehnat zavqi va sevinchli tashvish bilan to'lib-toshadi.

6. Kimning quroli bilim bo'lsa, uning kelajagi porloq. (*J. Abdullaxonov.*)

**14. Aniqiovchi ergash gapli qo‘shma gaplarni topib ko‘chiring. Ergash gapni bosh gapga bog‘lovchi vositalarni aniqlang.**

Fan olamida shunday olimlar ijod qilib o‘tganki, ular yaratgan ilmiy g‘oya va kashfiyotlar yangi yo‘nalishlarning vujudga kelishiga sababchi bo‘lgan. Ana shunday tengi yo‘q iqtidor sohiblaridan biri Albert Eynshteyndir. Uning nomi zamonaviy fizika sohasida ochilgan ko‘plab qonuniyatlar bilan chambarchas bog‘langan.

Albert Eynshteyn 1879-yilning 14-mart kuni Germaniyaning Ulma shahrida tug‘ildi. Yoshligidan tabiiy fanlarga shunday mehr qo‘ydiki, bu fanlarning sirli olami uning butun borlig‘ini chulg‘ab oldi. 1896-yilda Surix texnologiya institutiga o‘qishga kirdi. U shunday qobiliyatga ega ediki, bir marta eshitgan narsani hech o‘zgarishsiz qayta hikoya qilib beraverardi.

Institutni bitirgandan so‘ng ketma-ket o‘z ilmiy g‘oyalarini bayon etgan ilmiy maqolalarini nashr qildira boshladi. E‘lon qilgan har bir maqolasi fizika fanida katta kashfiyot bo‘ldi.

1905-yili “Maxsus nisbiylik nazariyasi” deb nomlangan asari orqali fanga nisbiylik nazariyasini olib kirdi.

XX asrning buyuk olimi, Nobel mukofoti sovrindori darajasiga ko‘tarilgan Albert Eynshteyn 1955-yilning 18-aprelida vafot etdi.

(*“Nobel mukofoti sohiblari” kitobidan.*)

**15. Berilgan misollar qo‘shma gapning qaysi turiga tegishligini aniqlang. Gaplarning sxemasini chizing.**

1. Bizda shunday taassurot paydo bo‘ldiki, bu odam go‘yo hech kim yecholmagan jumboqni yechgandek.

2. Dugonamning shunday odati borki, u birovning yuziga hech qachon tik qaramaydi.

3. Ayrim savdogarlar borki, ular butun umr halol luqma bilan yashaydilar.

4. Ba’zi ota-onalar borki, ular farzandlarining taqdiri bilan yetarlicha qiziqmaydilar.

5. Ular yaratgan san'atlarning shunday qulayligi bor ediki, tildan-tilga, eldan-elga ko'chib yurardi.

6. Navoiy she'riyati shunday xazinaki, buni o'rgangan sari yana o'rganging keladi.

7. Kimki kitobga ko'p boqsa, kitob uning zehnini ochadi. (*"Otalar so'zi"* kitobidan.)

8. Ne mo'jiza yuz berdiki, bag'ritosh Dilbar uning sog'lig'ini so'rab qoldi?!

9. Kimki o'z ishidan rozi bo'lsa, uning kayfiyati ham yaxshi bo'ladi.

10. Umrda shunday tantanalar bo'ladiki, bunday damlarda kishining qalbi ijodiy gayrat, mehnat zavqi va sevinchli tashvish bilan to'lib-toshadi.

## 16. Berilgan fe'llar ishtirokida gap tuzing.


Sazovor bo'lmoq, davolamoq, boyitmoq, egallamoq, uchrashmoq, nashr etmoq, ta'sis etmoq.

## 17. Matnni o'qing. Undagi ma'lumotlat bo'yicha savollar tuzing va savollar asosida matn mazmunini so'zlab bering.

### Abu Ali ibn Sino (980-1037)

*yuksak* – высокий  
*mo'tabar* – достойный  
*buyuk siymo* –  
великий образ

*qomusiy bilim sohibi* –  
обладатель энцикло-  
педических знаний



“Shayx ur-rais”,  
“Donishmandlar sultoni”,  
“Tabiblar shohi”  
bunday *yuksak* va  
*mo'tabar* nomga  
Sharqning *buyuk*  
*siymolaridan* biri –  
*qomusiy bilim sohibi*,  
tabib, faylasuf, shoir  
Abu Ali ibn Sino

*musharraf bo'lmoq* –  
быть удостоенным

*musharraf bo'ldi.* Yevropada Avitsenna nomi bilan mashhur bo'lib, to'liq ismi Abu Ali Husayn ibn Abdulloh ibn Ali ibn Sinodir.

Ibn Sino Buxoro yaqinidagi Afshona qishlog'ida 980-yilda tug'ildi. Uning bolalik va o'smirlik yillari Buxoroda o'tdi. Uning tabiblik va ilmiy faoliyati ham shu shaharda boshlandi.

*zehni o'tkir* –  
смышлённый

U iste'dodli, xotirasi kuchli, *zehni o'tkir* bo'lganligidan o'z davrida ma'lum bo'lgan ilmlarni tez egallagan. 10 yoshida Qur'onni yoddan bilgan va fors, arab tillarining grammatikasi, she'riyat, adabiyot, tarixni o'zlashtirgan. Algebra, geometriya va hatto falsafani o'rgangan, hamma yulduz turkumlarining qanday atalishini bilgan va aniq ko'rsata olgan. Savollari bilan *mudarrislarni* esankiratib qo'ygan. Biroq Ibn Sinoni matematika va fizika, astronomiya va falsafadan ko'ra tibbiyot ko'proq o'ziga tortar edi. Mamlakatda vabo va chechak kasalligi keng tarqalgan, bu darddan minglab kishilar halok bo'lmoqda edi. Ibn Sino bu dahshatdan xulosa chiqarib, odamlarni davolayman, degan qarorga keldi.

*mudarris* –  
преподаватель  
медресе, высшего  
мусульманского  
духовного учебного  
заведения

Buxoroda Mansur shoh ko'p kasal bo'lib, uni hech kim davolay olmagan edi. Yosh tabib Ibn Sino shohni davolaydi. Shu tariqa shoh kutubxonasidan *bahramand bo'lish* baxtiga erishadi. U yerdagi xilma-xil kitoblarni o'qib, o'z bilimni boyitadi.

*bahramand bo'lmoq* –  
пользоваться

Ibn Sino 16 yoshdayoq mashhur tabib-hakim bo'lib tanildi va keyinchalik "Olimlar boshlig'i", "Tabiblar podshohi" kabi eng buyuk nomlarga sazovor bo'ldi.

999-yilda Buxoro Sulton Mahmud

*ruhoniylar* –  
духовенство  
*ta'qib* –  
преследование

tomonidan bosib olinadi. Ibn Sino musulmon *ruhoniylari* va Sulton Mahmudning *ta'qibidan* cho'chib, 1002-yilda Xorazm poytaxti Urganchga ketadi. Urganchda Xorazm shohi Ma'munning saroyida yashaydi. Ibn Sino bu yerda mashhur olim Beruniy bilan uchrashadi.

Ibn Sino o'z davrigacha yaratilgan barcha fanlarni o'zlashtirdi va o'zi ham shu ilmlarning deyarli barchasida ijod etdi. Ibn Sino bu haqda *ruboiylardan* birida shunday yozadi:

*ruboiy* – рубай,  
четверостишие

*Shul xoki siyohdin to avji Zuhal*  
*Har nechaki mushkulot erur, etdim hal.*  
*Ochdim necha zanjir-zanjiri makru hiyal.*  
*Yechdim necha bir tugun, faqat qoldi ajal...*  
(От праха черного и до небесных тел  
Я тайны разгадал мудрейших слов и дел.  
Коварства я избег, распутал все узлы,  
Лишь узел смерти я распутать не сумел...)

Ibn Sino 1037-yilda xastalikdan vafot etgan. Olim o'zidan keyin ulkan ilmiy meros qoldirdi. Ibn Sino asarlarining umumiy soni 450dan oshadi, biroq bizgacha faqat 160ga yaqin asari yetib kegan. Uning, ayniqsa, "Tib qonunlari" asari XII asrdayoq lotin tiliga tarjima qilinib, 800 yil davomida G'arb mamlakatlari universitetlarida asosiy qo'llanma bo'lib kelgan va hozir ham bir qancha tibbiy o'quv yurtlarida o'rganiladi.

*alloma* – учёный

*Alloma* yaratgan ilmiy meros, mana necha asrlardirki, faqat O'rta Osiyo va Yaqin Sharqda emas, balki G'arbiy Yevropa mamlakatlarida ham ma'lum va mashhur bo'ldi, qayta-qayta nashr etilmoqda.

**18. Ibn Sino haqidagi ilmiy-ommabop film asosida quyidagi gaplarni davom ettiring.**

Ibn Sinoning Imiy risolalari .....

“Tib qonunlari” ..... da ..... tillariga o‘girilgan.

Insonning ko‘rishi ..... ga bog‘liq.

Gippokrat ....., Aristotel ....., Abu Ali ibn Sino .....

Ko‘k choy .....

Qizamiq va suvchechak .....

Qovuq operatsiyasi .....

Shapkorlik kasalligi .....

Katarakta kasalligi .....

Yovvoyi sabzi urug‘i .....

**To‘ldiruvchi ergash gapli qo‘shma gap**

To‘ldiruvchi ergash gaplarda ergash gap bosh gapdagi to‘ldiruvchi vazifasida qo‘llangan ko‘rsatish olmoshining ma’nosini ochib beradi. Bosh gap birinchi o‘rinda kelganda, uning tarkibida *shuni, shu narsani, bir narsani, shunga, shu narsaga* kabi olmoshlar qo‘llanadi va bu ergash gap tomonidan izohlanadi: *Ma’lumotlar hammasi shuni (nimani?) ko‘rsatadiki, Jomiyning pand-nasihati bilan bog‘liq asarlari chinakam badiiy asarlardir. Men shu narsaga (nimaga?) aminmanki, tinchlik urushni yengadi.*

Ergash gap birinchi o‘rinda kelganda, ergash gap tarkibida *kimni, nimani, kimga, nimaga, nima, nimani, kim bilan, nima bilan*, bosh gap tarkibida *uni, shuni, o‘shani, hammasini, barchasini, barini, o‘sha bilan, shu bilan, u bilan* kabi nisbiy so‘zlar bir-biriga muvofiqlashib keladi.

**19. Gaplarni o‘qing. To‘ldiruvchi ergash gaplarni toping. Gaplarning mazmunini tushuntiring.**

1. Bilingki, jim turib salomat bo‘lish gapirib malomatga qolishdan afzal.

2. Shuni anglamoq kerakki, ota-ona uchun farzanddan ko‘ra yaqinroq kimsa yo‘q.

3. Shundan ehtiyot bo‘lingki, birovning ota-onasini haqorat qilgan



odam o‘zining ota-onasini ham haqoratlagan bo‘ladi.

4. Shuni hamisha yodingizda saqlangki, birovga yolg‘on gapirish eng katta gunohdir.

5. Shuni unutmangki, do‘stlar bilan suhbat qurmoq gullar orasida sayr qilmoqdan xushdir.

(“Aql aqldan quvvat olar” kitobidan.)

Ba‘zan bosh gapning to‘ldiruvchisi vazifasidagi ko‘rsatish olmoshi qo‘llanmasligi mumkin, ammo uning o‘rni bilinib turadi: *Muyassar yaxshi biladiki (nimani?), oson ishda lazzat bo‘lmaydi. O‘ylaymanki (nima haqda?), Zaynab to‘g‘ri aytadi. (Abdulla Qodiriy.)*

Ergash gap bosh gapga *-ki, -ku, -mi, -chi* yordamchilari orqali biriksa, bosh gap birinchi o‘rinda keladi: *Men qat‘iy ishonch bilan aytamanki (nimani?), biz ko‘zlagan maqsadimizga, albatta, erishamiz.*

Ergash gap bosh gapga *-sa, deb* yordamchilari bilan biriksa, ergash gap birinchi o‘rinda keladi: *Kimda-kim Go‘ro‘g‘lining g‘irotini olib kelsa, shunga (kimga?) berarkan Nigoraxon qizini. Yaxshilik hech vaqt unutilmaydi, yomonlik hech vaqt jazosiz qolmaydi deb (nima deb?) bekorga aytmaganlar.*

Ba‘zan bosh gap ergash gapning o‘rtasiga tushib qoladi. Bunda bosh gap kirish gap xarakteriga ega bo‘ladi: *Alisher, buni yaxshi bilasizki (nimani?), bolalik yillaridayoq badialar ijod qilib, “Zullisonayn” laqabi-la shuhrat topdilar. (Oybek.)*

## **20. Tushirib qoldirilgan o‘rinlardagi biriktiruvchi yordamchilarni belgilang. Gaplarning sxemasini chizing.**

1. Bizga shahanshohning iltifot va muruvvatlari baland, ammo unutmaylik..., podsho va Alisher bir qarich yoshdan boshlab do‘st bo‘lishgan.

2. Yana shuni sezdim..., u nari borsa o‘zi tengi yosh yigit ekan.

3. Bilaman... bu dardlar, voqealar sizni ko‘proq tashvishga solmoqdadir.


4. Bilasan..., ona turfa yurtlarda (ularning ko‘pida bo‘lganman men ham) Ajoyib bir kun bor — Onalar kuni, Bu kunni hamma shod qiladi bayram. (R. Hamzatov.)


5. Kimki o‘zi tug‘ilib o‘sgan kulbadan ton...,  
Kim elini mag‘lub ko‘rib quvon...,  
Uni bossin o‘zga kulbaning toshi,  
Tuproqning ostidan chiqmasin boshi.
6. Kimki bo‘l... dilozor, undan el-u yurt bezor. (*Maqol.*)
7. Unutmaslik kerak..., nodon bilan ulfatda bo‘lgandan ko‘ra dono bilan kulfatda bo‘lgan yaxshi.
8. Farida boshqalardan shu bilan ajralib turadi..., u juda xushmuomala va kamgap qiz.
9. Qalbingiz nimani buyur..., siz menga shuni buyuring. (*P. Qodirov.*)
10. Ahmadjon faqat shuni biladi., dushman bu tepalikni haddan tashqari qattiq o‘qqa tutdi. (*Abdulla Qahhor.*)
11. Siz shuni unutmasligingiz kerak..., hech kim birovga o‘ylash, istash, orzu qilishni man eta olmaydi.
12. Kim qudratli bo‘l..., o‘shanga ergashish kerak.

**21. Berilgan gaplarning turini hamda bosh va ergash gaplarni aniqlang. Ergash gapni bosh gapga bog‘lovchi vositalarni belgilang.**

1. Shuni sezdimki, oila a‘zolari bir-biri bilan juda inoq ekan.
2. Kim oldin musht ko‘tarsa, u ojiz bo‘ladi. (*Maqol.*)
3. Tilagimiz shuki, hammangiz el xizmatiga kamarbasta farzandlar bo‘linglar. (*Qamchibek Kenja.*)
4. Kimki qanoat qilsa, uning yaxshi-yomon bilan ishi bo‘lmaydi. (*A. Qayumov.*)
5. Kimki tinch yashashni istasa, pastkash odam bilan hech qachon do‘stlashmaydi.
6. Saxiylikni odat qilgan bo‘lsa kim, qo‘lidan davlati ketmasin uning. (*E. Vohidov.*)
7. Yozuvchining mahorati shundaki, butun bahorni atigi chigitdek keladigan g‘o‘ra ichiga qamab bera biladi. (*Abdulla Qahhor.*)

**22. Quyidagi qo‘shma gap qoliplari asosida to‘rtta gap tuzing. Ergash gapni bosh gapga bog‘lovchi vositalarni aniqlang.**

1. Kim  -sa, o‘shaning .....

2. Shuni  -ki, .....

**23. Badiiy asarlardan bosh gapga nisbiy olmoshlar yordamida bog‘langan to‘ldiruvchi ergash gaplarga ikkita, -ki yordamida bog‘langan to‘ldiruvchi ergash gaplarga ikkita misol yozing.**

**24. Berilgan savollar asosida bilimdonlar bellashuvini o‘tkazing.**

Mirzo Ulug‘bekning to‘liq ismi qanday?

Mirzo Ulug‘bek qachon va qayerda tug‘ilgan?

Ulug‘bekning ota-bobolari kimlar?

Ulug‘bek Mirzoning onasi kim?

Mirzo Ulug‘bekni dastlab kim tarbiya qilgan?

Mirzo Ulug‘bek qaysi fanning rivojlanishiga hissasini qo‘shgan?

Buyuk olimning qaysi asari falakiyot fanining taraqqiyotiga salmoqli hissa qo‘shgan?

Ulug‘bek qaysi yillarda hukmronlik qilgan?

Mirzo Ulug‘bek Samarqand taxtiga nechanchi yili o‘tirgan?

Mirzo Ulug‘bekning davlat arbobi sifatida amalga oshirgan ishlari haqida nimalarni bilasiz?

Ulug‘bek rasadxonasi qachon va qayerda qurilgan?

Mirzo Ulug‘bekning eng iqtidorli shogirdi kim bo‘lgan?

Mirzo Ulug‘bekning qaysi so‘zlari Buxorodagi madrasaning peshtoqiga yozilgan?

Mirzo Ulug‘bek qachon va qayerda vafot etgan?

Ulug‘bekning hayoti va faoliyati haqida qanday asarlarini bilasiz?

## 25. Matnni o‘qing, uni mavzuga oid qo‘shimcha ma’lumotlar bilan to‘ldiring.

### Mirzo Ulug‘bek (1394–1449)

*to‘ng‘ich o‘g‘il* – сын-первенец

*jahongir* – завоеватель, покоритель мира  
(прибавляется к имени хана или шаха)



Buyuk astronom, matematik, davlat arbobi

Mirzo Ulug‘bek Sohibqiron Amir Temurning nabirasi, Shohruxning *to‘ng‘ich o‘g‘li* bo‘lib, onasining ismi Gavharshodbegim bo‘lgan. U *jahongir* Temurning Iroq va Ozarbayjonga qilgan harbiy yurishi vaqtida

1394-yil 22-martda Sultoniya shahrida tug‘ilgan.

Temurning xohishi bilan bolaga Muhammad Tarag‘ay deb nom qo‘yadilar. Lekin u yirik olim va fan arbobi bo‘lgani tufayli ko‘proq Ulug‘bek ismi bilan mashhur bo‘ldi.

Temur saroyidagi an‘anaga binoan, Ulug‘bek bobosining katta xotini Saroymulixonim tarbiyasiga topshiriladi.

*o‘tkir zehnli, ziyrak* – сообразительный, мыслительный  
*teran fikrli* – глубоко мыслящий

*dunyoqarash* – мировоззрение

*falakiyot ilmi* – астрономия

Amir Temur yoshligidan *o‘tkir zehnli*, kuchli xotirali, *teran fikrli*, *ziyrak*, hamma narsani bilishga harakat qilgan nabirasi Mirzo Ulug‘bekning tarbiyasiga zo‘r e‘tibor bergan. Ulug‘bekning *dunyoqarashi* kengayishiga otasi Shohrux Mirzo to‘plagan nihoyatda boy kutubxona yordam bergan. U she‘riyatni, tarixni sevgan, biroq *falakiyot ilmi* uning qalbida alohida o‘rin egallagan.

Ulug‘bek bilimdon va tajribali murabbiy, ya‘ni astronomiya ilmining bilimdoni Salohiddin

*salmoqli hissa* –  
весомый вклад

Muso ibn Mahmud Qozizoda Rumiya rahnamoligida fan asoslarini, ayniqsa, astronomiya ilmini puxta o'rgandi va uning taraqqiyotiga *salmoqli hissa* qo'shdi. Uning ko'p yillik mehnati samarasi – “Ziji jadidi Ko'ragoniy” asari astronomiya fanining durdonasi hisoblanadi.

*poydevor* – фундамент

“Ziji jadidi Ko'ragoniy” asosan ikki qismdan: katta muqaddima va 1018ta yulduzlarning o'zni va holati aniqlab berilgan jadvallardan iborat. Ushbu asarda astronomiyaning muhim *poydevorlaridan* hisoblangan sana yoki yil hisobi masalalari, yulduzlarning chiqishi va botish joylari, Yulduz va sayyoralarning quyosh atrofidagi harakati, *yulduzlarning holati* va harakatiga qarab taqdirni belgilash masalalari haqida bayon etilgan. Ulug'bekning sana va sayyoralarning yillik harakatlari haqidagi hisoblari hozirgi hisob-kitoblarga juda yaqindir.

*yulduzlarning holati* –  
положение звезд

*ravnaq topdi* –  
развивался, процветал

Mirzo Ulug'bek buyuk olim bo'lish bilan birga yirik davlat arbobi ham bo'lgan. U markazi Samarqand bo'lgan Movarounnahrda 1409–1449-yillarda hukmronlik qilgan. Uning hukmronligi davrida Samarqand yanada gullab-yashnadi, hunarmandchilik, me'morchilik va adabiyot *ravnaq topdi*, ilm-fan yuksaldi, savdo rivojlandi. Ulug'bek farmoyishi bilan Buxoroda (1417), Samarqandda (1420), G'ijduvonda (1432–1433) madrasalar qurildi. Samarqanddagi me'morchilikning nodir namunalaridan biri Ulug'bek *rasadxona*sidir. Bu inshoot Ulug'bek farmoyishi bilan 1428–1429-yillarda Ko'hak (Cho'ponota) tepaligida Obirahmat arig'i

*rasadxona* –  
обсерватория

bo'yida bunyod etilgan. Rasadxona silindr shaklida uch qavatli, balandligi 30,4 metrdan iborat ulkan bino bo'lgan.

Rasadxona o'rta asrlarda asbob-uskunasi jihatidan ham beqiyos bo'lgan. Sharq astronomiyasida muhim ahamiyatga ega bo'lgan "Ziji jadidi Ko'ragoniy" asari ham shu yerda yaratilgan.

Ulug'bek Mirzo bobosi davrida qurila boshlagan, lekin ayrim sabablarga ko'ra bitmay qolgan talaygina binolarni ham bitkazdi. Go'ri Amir maqbarasi, Shohi Zinda mozori va Shahrisabzdagi Ko'k gumbaz masjidi shular jumlasidandir. Astronomiya va matematika fanlari sohasida mashhur asarlar yaratgan, o'rta asrda eng katta observatoriya qurib, Sharq astronomiya maktabini vujudga keltirgan, o'ziga zamondosh bo'lgan eng yaxshi olimlarni atrofiga to'plab, ularning ilmiy ish olib borishlariga katta imkoniyatlar yaratib bergan va bunday olijanob xizmatlari tufayli dunyo fani tarixida o'chmas nom qoldirgan ulug' olim ijodiy kuchlari qaynagan paytda, 1449-yil kuzida 56 yoshida johil *ruhoni fitnachilar* tomonidan o'zining o'g'li Abdullatif qo'li bilan o'ldirilgan. Uning jasadi Samarqandga dafn etilgan.

*ruhoni* – духовенство  
*fitnachilar* –  
заговорщики

Mirzo Ulug'bekka tegishli bo'lgan buyumlardan bir qanchasi bizning davrimizgacha yetib kelgan, biroq ular dunyoning turli muzeylariga va xususiy kolleksiyalarga tarqalib ketgan. Uning shaxsiy sandiqchasi Istanbulning Topkapi saroyida, nefritdan yasalgan qadahi Britaniya muzeyida saqlanmoqda.

## 26. She'rni o'qing. Uning mazmunini tushuntirib bering.

### Rasadxona. Ulug'bek yulduzi

*Iqbol Mirzo*

“Temurxon naslidin sulton Ulug'bek”<sup>42</sup>...  
Yurakka cho'g'<sup>43</sup> solar uchgan yulduzlar.  
Fonus<sup>44</sup> tebrasida parvonalardek  
Oy to'garagida g'ujg'on<sup>45</sup> yulduzlar.  
Koinot – aqlga abadiy so'roq,  
Tafakkurga<sup>46</sup> mangu qiynoq – koinot.  
Saltanat tizginin<sup>47</sup> siltab turgan chog'  
Sulton nega ko'kka solar betin ot<sup>48</sup>?  
Faqirmi, saidmi<sup>49</sup>, xo'ja yo vali  
Bu yurtda samoni ko'zlagan mudom<sup>50</sup>.  
Osmon bilan yolg'iz qolgan mahali  
O'zining yulduzin izlagan mudom.  
Bibixonim quchib kichik Mirzoni  
Bobongiz dunyoni oldi, degandir.  
Erkalab, ko'rsatib o'tlig'samoni<sup>51</sup>  
Sizga sayyoralar qoldi, degandir.  
Aks etmagan “Ziji Ko'ragoniy”da  
Ulug'bekning porloq tole yulduzi<sup>52</sup>.  
Derlar, gard bo'lmasa dil, iymonida<sup>53</sup>  
Yulduzni ko'rgaydir hatto kunduzi.  
Yashirib ne qildim: falakda emas,

---

<sup>42</sup> Alisher Navoiy satri

<sup>43</sup> cho'g' – искра

<sup>44</sup> fonus – фонарь

<sup>45</sup> g'ujg'on – *здесь*: созвездие, плеяда звезд

<sup>46</sup> tafakkur – разум

<sup>47</sup> saltanat tizgini – бразды правления

<sup>48</sup> ko'kka solar betin ot – *здесь*: постоянно стремится, тянется к звездам

<sup>49</sup> faqirmi, saidmi – бедный ли, богатый ли

<sup>50</sup> mudom – всегда

<sup>51</sup> o'tlig' samo – *здесь*: сверкающие звезды

<sup>52</sup> tole yulduzi – счастливая звезда

<sup>53</sup> gard bo'lmasa dil, iymonida – если душа и совесть чиста

Zamining o'zida yulduzni ko'rdim.  
 Ozod sunbulaga tomiri payvast  
 O'smirning ko'zida yulduzni ko'rdim!  
 O'zbekim, dunyoga shoh berding, ajab –  
 Shohlar olim chiqdi, olam mot bo'ldi<sup>54</sup>.  
 Kimlar yulduzini topdi sen sabab,  
 Kimga ilmu shahding qo'shqanot bo'ldi.  
 Ulug'bek yulduzin ko'rdim – qalqdi yosh<sup>55</sup>,  
 Tongda tillolanib ketdi osmonim:  
 Qalbinga bobomdek qo'r to'kdi quyosh<sup>56</sup> –  
 Bu – sening yulduzing, O'zbekistonim!

### Hol ergash gapli qo'shma gaplar

Bosh gap tarkibida hoi vazifasida qo'llangan ko'rsatish olmoshining ma'nosini izohlab keluvchi yoki bosh gap orqali ifodalangan mazmunning *sababi, maqsadi, sharti, payti, holati, miqdor-darajasi* kabilarni bildirgan ergash gaplarga hol ergash gap deyiladi.

Hol ergash gaplar bosh gapga *nisbiy so'zlar, shart mayli shakllari; sabab, maqsad, shart bog'lovchilari, deb so'zi yordamida* bog'lanadi.

Hol ergash gaplar holning ma'no turlariga muvofiq payt, o'rin, sabab, maqsad, shart, miqdor-daraja ergash gaplar singari bir necha turlarga bo'linadi.

## 27. O'qing. Bosh va ergash gaplarni aniqlang. Ergash gaplarning ma'no turini aniqlang.

1. Oqsoqol qayerda bo'lsa, o'sha joyda ish bir tartibda borardi. (O'. Hoshimov.)
2. Dutor chalib o'tirsam, tori uzilib ketdi. (Qo'shiqdan.)
3. Oyna opa xatni oxirigacha o'qiy olmadi, chunki hovlining eshigini kimdir taqillata boshladi. (Sh. Xolmirzayev.)

<sup>54</sup> olam mot bo'ldi – мир был поражен, покорен

<sup>55</sup> qalqdi yosh – глаза наполнились слезами

<sup>56</sup> qo'r to'kdi quyosh – солнце расположилось



4. Sizni qo‘rqib ketmasin deb, kechqurun bezovta qilmadik. (*N. Safarov.*)

5. Eshik oldi gul hovuz, gul terгани kelganmiz.

6. Hali Onaxonning bilmaganlari shu qadar ko‘p ediki, so‘rab oxiriga yetolmasday ko‘rindi. (*Asqad Muxtor.*)

7. Qayerda ahillik bo‘lsa, o‘sha yerda qut-baraka bo‘ladi. (*“Tafakkur gulshani” kitobidan.*)

8. O‘simlikni qancha parvarish qilsang, shuncha mo‘l hosil olasan.

9. Soy qanchalik tez oqsa, u shunchalik sayoz bo‘ladi. (*“Tafakkur gulshani” kitobidan.*)

10. Odamlar ishdan qolmasin deb, marosimni soat besh yarimga tayin qilganmiz. (*Said Ahmad.*)

11. Sizni suvdan o‘tkazib qo‘ymasam, menga bergan noningiz harom bo‘lg‘ay. (*P. Qodirov.*)

12. U Farg‘onadan Toshkentga o‘qish uchun kelganini aytdi.

13. Tun bo‘yi uxlamagani uchun ko‘zlari qizargan edi.

14. Boshingga tashvish tushmasa, qaytib kelmasding. (*Said Ahmad.*)

## **28. Berilgan misollar qo‘shma gapning qaysi turiga tegishligini aniqlang. Gaplarning sxemasini chizing.**

1. Ertangi kunimiz yaxshi bo‘lsin deb, bugun astoydil harakat qilmoqdamiz.

2. Ota-onalar yaxshi odam bo‘lsin deb, farzandiga mushtdakligidan tarbiya bera boshlaydi.

3. Hisobot yig‘ilishini qoldirishning hojati yo‘q, sababki xodimlar tayyor.

4. Gaplarim qanday ta’sir etarkan deb, diqqat bilan unga tikildim.

5. Kim sening kamchiliklaringni ko‘rsatsa, u sening yaqin do‘stingdir.

6. Unga bu xabarni yetkazishing kerak, toki u hech narsadan xavotirlanmasin.

7. Yolg'iz bolam dunyoni ko'rsin deb, meni ham o'zlari bilan olib yurardilar.

8. Kim epchil bo'lsa, u hamma yerda o'zini ko'rsatadi.

9. Katta kema qayerdan yursa, kichik kema ham shu yerdan yuradi.

10. Yon atrofimiz chiroyli, ko'rkam bo'lsin deb, har yili turli xil gullar va ko'chatlar ekib turamiz.

**29. Keltirilgan gaplar qo'shma gapning qaysi turiga tegishlilikini aniqlang, ular tarkibidagi biriktiruvchi vositalarni belgilang.**

1. Dangasaga ish buyursang, senga aql o'rgatar. (*Maqol.*)

2. Lola daraxtining urug'lari bundan bir necha yil avval Amerikadan Toshkent Botanika bog'iga keltirilgan edi.

3. Istagim shuki, mamlakatimiz xalqlari inson chehrasidagi bir juft ko'z kabi jon tomiri bilan bog'lanib yashasin.

4. Hosilimiz bo'lsa to'kin, to'ylarimiz to'xtamas. (*H. Sharipov.*)

5. Kasalni yashirsang, isitmasi oshkor qiladi. (*Maqol.*)

6. Seni hurmat qilishlarini istasang, o'zingni hurmat qil. (*"Tafakkur gulshani" kitobidan.*)

7. Hurmat qilsang, hurmat ko'rasan. (*Maqol.*)

8. Mehmon kelsa eshikdan, rizqi kirar teshikdan. (*Maqol.*)

**30. Tushirib qoldirilgan o'rinlarga ergash gapni bosh gapga biriktiruvchi vositalarni qo'ying va gaplarning qo'shma gapning qaysi turiga tegishlilikini aniqlang.**

1. Oqibat yaxshi bo'l..., qo'limdan sira chiqarmayman. (*Oybek.*)

2. Muhabbati evaziga baxt quyoshi unga jilmayib boqdi..., butun dunyo yashnab ketgandek bo'ldi. (*O'. Hoshimov.*)

3. Agar shu ko'rganlarini hikoya qilib ber..., Iskandarov bunga ishonmasligi mumkin.

4. Soxta kamtarlik manmanlik kabi qabohatdir, ... u manmanlikning eng pinhona nayrangidir.

5. Kim ravshan fikrla..., u ravshan bayon etadi.
6. Qanoat har kimning bo‘l..., yo‘ldoshi, g‘am bilan egilmas hech uning boshi.
7. Donolar aytadilar..., badmastga xush davo bo‘lar shapaloq.
8. Erta tur..., ishing rivoj topadi.

### **31. Gaplarni o‘zbek tiliga tarjima qiling.**

1. Туристы приехали в Самарканд, чтобы осмотреть этот сказочный город.
2. Они пришли к нам, чтобы пригласить нас на праздничное мероприятие.
3. Брат дал мне журнал, чтобы я прочитал в нём интересную статью.
4. Азиза пошла в библиотеку, чтобы взять толковый словарь узбекского языка.
5. Мы поехали с отцом в магазин покупать ему спортивный костюм.
6. Я пришёл к вам, чтобы вы выслушали меня.
7. Врач вылетел в далёкий горный район, чтобы помочь больным.

### **32. Matnni o‘zbek tiliga tarjima qiling va uning mazmunini gapirib bering. Matn mazmunidan kelib chiqqan holda, ergashgan qo‘shma gaplar tuzing.**

## **ОБРАЗОВАНИЕ И КУЛЬТУРНОСТЬ**

Каким должен быть культурный человек? Определяется ли подлинная культура человека, его внутренняя интеллигентность, его общее развитие, скажем, дипломом, которым он владеет, получив образование в том или ином учебном заведении?

У нас иногда путают два понятия: образование и культурность. Конечно, в наше время человек, не имеющий никакого образования, не может стать и поистине культурным.

Систематическое образование лучше всего получить в том или ином учебном заведении. Но, помимо образования, нужно ещё и самообразование, то есть постоянное накопление знаний, общекультурных навыков, развитие определённой способности восприятия, умения разбираться во всех тех областях духовной и материальной жизни, с которыми, может быть, и не связана непосредственно работа человека.

Люди ленивые, малознающие, плохо работающие, не понимающие истинно прекрасного, нарушающие правила общественной жизни не могут по-настоящему испытывать радость труда, радость творчества, радость общения с людьми.

**33. O‘zbek xalq maqollaridan shart mayli vositasida ergashgan ergash gapli qo‘shma gaplarga 10 ta misol toping va ularning mazmunini tushuntirib bering.**



**1. Savollarga javob bering.**

- “Adabiyot” so‘zining ma’nosi nima?
- Adabiy janr deganda nimani tushunasiz?
- Dunyoga mashhur qaysi adabiy asarlarni bilasiz?
- O‘zbek adabiyoti vakillaridan kimlarning asarlarini o‘qigansiz?
- O‘zbek adabiy tilining asoschisi kim?

**2. Matnni o‘qing. Ajratib ko‘rsatilgan so‘z va iboralarning ma’nosini tushuntiring.**

Adabiyot – insonning *badiiy tafakkuri mahsulidir*. Adabiyot – so‘z san’ati. “Adabiyot” arabcha “adab” – odob so‘zining ko‘plik shaklidir.

O‘zbek tilida “adabiyot” *atamasi* kishilarga yaxshi *xulq* va umuman hayotni to‘g‘ri tushunish va to‘g‘ri yashashni o‘rgatish maqsadida yozilgan asarlar ma’nosida qo‘llanilgan. Adabiyot – kishini yomon *tuyg‘ulardan tozalaguvchi*, *ruhini tiniqlashtiruvchi*dek bir ajoyib vazifani o‘taydi.

Adabiyot avval og‘zaki bo‘lgan, yozuv paydo bo‘lgandan so‘ng yozma shaklga o‘tgan. Uning asosiy quroli so‘z bo‘lib, so‘z orqali insonning his-tuyg‘ularini keng va chuqur aks ettirish imkoniyatiga ega, shuning uchun ham u san’atning eng ommaviy turi hisoblanadi. So‘zni

ham naqqoshlarcha, ustalik bilan ishlata olgandagina adabiyot biror-bir *timsol* yarata oladi, fikr ayta oladi.

Adabiyot olam hodisalari haqida ham bilim va ma'lumot beradi. Bu jihatdan u fanga, *fanning turli tarmoqlari*: falsafa, tabiatshunoslik, kimyo, fizika, tarix va boshqalarga o'xshaydi. Ammo ular hayot hodisalarini aks ettirish usuliga ko'ra o'zaro farqlanadi. Zero, fan ilmiy umumlashmalarga tayansa, adabiyot badiiy obrazlarga suyanadi.

Dunyoda insonlar bir-birlariga o'xshamaganlaridek, ularning *qalb kechinmalari* ham takrorlanmasdir. O'zbek adabiyoti o'zbek xalqining o'zi singari juda boy, qadimiy tarixga ega. Uning o'ziga xos shakllanish va taraqqiyot yo'li, rivojlanish qonuniyatlari bor. O'zbek adabiyoti tarixi insonning ruhiy holatlarini mahorat bilan aks ettirgan durdonalarga boy. Ular hozirgi avlod *ruhiyatida*, qalbida ham *hayajon* uyg'ota oladi, ularning ma'naviy boyishlariga hissa qo'sha oladi. Muhimi, ular faqat ma'rifiy bilimimizni oshirish bilan cheklanmay, badiiy didimiz takomiliga, ma'naviy kamolotga xizmat qiladi.

### **3. Ulug' shoir va olim, buyuk mutafakkir Alisher Navoiy hayoti va ijodiy faoliyatini bilasizmi?**

Shoirning haqiqiy ismini aytib bering. Uning yana boshqa taxallusi bo'lganmi?

Yosh Alisherning iste'dodiga qiziqqan va unga katta baho bergan shoir kim?

Alisher Navoiy necha yoshidan she'r yoza boshlagan va necha yoshida shoir sifatida keng tanilgan?

Navoiyning ilk devoni qaysi?

Navoiyning "Xamsa" sig qanday asarlar kiradi?

Navoiyning "Xazoyin ul-maoniy" devoni necha qismdan iborat?

### **4. Alisher Navoiyning quyidagi hikmatli so'zlari ma'nosini tushuntiring.**

Odam borki, odamlarning naqshidir,

Odam borki, hayvon andin yaxshidir.

Kimki bir ko‘ngli buzuqning xotirin shod aylagay,  
Oncha borkim, Ka’ba vayron bo‘lsa obod aylagay.

Bu gulshan ichra yo‘qdur baqo guliga sabot,  
Ajab saodat erur qolsa yaxshiliq bila ot.

Xaloyiqqa ko‘rma qilib benavo,  
O‘zingga ravo ko‘rmaganni ravo.

Yuz jafo qilsa manga bir qatla faryod aylamon,  
Elga qilsa bir jafo, yuz qatla faryod aylaram.

Adab kichik yoshlig‘larni ulug‘lar duosig‘a sazovor etar.

Katta kishilar yoshlarni masxara va kulgi qilsa, ular qoshida o‘zi shuncha obro‘siz va bachkana tuyuladi; yoshlar ham kattalarga nisbatan hazil va yengiltaklik qilsa, uning qoshida uyatsiz va e‘tiborsiz bo‘ladi.

## 5. Matnni o‘qing. Uni qismlarga ajrating va sarlavha qo‘ying.

### Alisher Navoiy (1441-1501)

*mutafakkir* –  
мыслитель

*ma’rifatparvar* –  
просветитель

Ulug‘ shoir va *mutafakkir* Alisher Navoiy (asl ismi Nizomiddin Mir Alisher) 1441-yil 9-fevralda Hirot shahrida tug‘ilgan. U bolalik davrida temuriy shahzodalar bilan birga tarbiyalandi. Navoiyning otasi G‘iyosiddin Muhammad *ma’rifatparvar* kishi bo‘lgan. U adabiyot va san’atga qiziqqanligi uchun Navoiylar uyida shoirlar tez-tez to‘planib, san’at haqida suhbatlashar, she’rlar o‘qishardi. Bu Alisherda katta taassurot qoldirdi. 3–4 yoshlarida u davrining mashhur shoiri Qosim Anvarning bir she’rini yod aytib, mehmonlarni hayratga soldi. 5 yoshida esa uni maktabga berdilar. U bo‘lajak sulton Husayn Boyqaro bilan birga o‘qidi.

Navoiy 10–12 yoshlaridayoq sheʼrlar yoza boshladi. Oʻzbekcha sheʼrlariga “Navoiy”, forscha sheʼrlariga “Foniy” taxallusini qoʻydi. 15 yoshida sheʼrlari bilan zamonasining mashhur shoirlari diqqatini tortdi. Navoiy 60-yillarning ikkinchi yarmida Samarqandda yashadi.

Samarqand Navoiy hayotida oʻchmas iz qoldirdi. Bu yerda u madrasada oʻqidi, bir qancha olimlar va shoirlar bilan tanishdi hamda ularning



asarlarini oʻrgandi. Navoiy shu yillari shoir sifatida juda katta shuhrat topa bordi. 1465–1466-yillarda uning muxlislari sheʼrlarini toʻplab, “*Devon*” tuzdilar. Bu kitob bugun “*Ilk devon*” nomi bilan mashhurdir.

*devon* – диван  
(сборник  
стихотворений  
одного поэта)

1469-yilda Husayn Boyqaro Hirot taxtiga chiqadi va Samarqandga xat yoʻllab, maktabdosh dosti Alisher Navoiyni oʻz yoniga chaqirib oladi hamda davlat ishlariga jalb etadi. Shu tariqa, buyuk shoir Husayn Boyqaro saroyida 1469–1472-yillarda *muhrdor* (xon, amirlar saroyida muhr saqlovchi amaldor), 1472–1476-yillarda *vazir* boʻlib ishladi. 1487–1488-yillarda Navoiy Astrobodga hokimlik qildi. Husayn Boyqaro hokimiyat ishlarida Navoiyning aql va sadoqatiga *tayanib* ish koʻrdi. Uni, qarshiligiga qaramasdan, yuqori martabalarga tayinladi. Buyuk shoir “amiri kabir” (ulugʻ amir), “amirul muqarrab” (podshohga eng yaqin amir) unvonlariga musharraf boʻldi. Uning vazirlik yillari Hirot obodonlik ishlari avj olgan, madaniyat gullab

*muhrdor* – хранитель  
печати

*tayanmoq* – опираться



*xamsa* – пятерица  
(пять поэм,  
объединённых в одно  
целое)

**“Hayrat ul-abror”** –  
«Смятение  
праведных»  
**“Sab’ai sayyor”** –  
«Семь планет»  
**“Saddi Iskandariy”** –  
«Стена Александра»  
**nasriy asarlar** –  
прозаические  
произведения  
**“Xazoyin ul-maoniy”**  
– «Сокровищница  
мыслей»

yashnagan davr bo‘ldi.

Alisher Navoiy she‘rini, shoirlikni hamma narsadan baland tutdi. vazirlik martabasida turib ham ijod qilishni to‘xtatmadi. 1483-yilda turkiy tilda birinchi bo‘lib Nizomiy Ganjaviydan keyin hech qaysi shoir yozmagan “Xamsa” ni yozishga kirishdi va juda qisqa muddat – ikki yilda besh yirik dostonidan iborat “Xamsa” ni yozib tugatdi. Bular “Hayrat ul-abror”, “Farhod va Shirin”, “Layli va Majnun”, “Sab’ai sayyor”, “Saddi Iskandariy”dir. 1480–1490-yillar Navoiy uchun badiiy ijodda samarali yillar bo‘ldi. Shoir “Xamsa”dan keyin bir qator *nasriy asarlar* yaratdi. 1488-yilda “Tarixi mulki Ajam” asarini yozdi. Navoiyning 1490-yillardagi eng katta xizmatlaridan biri “Xazoyin ul-maoniy”ni tuzishi bo‘ldi. To‘rt devondan iborat bo‘lgan bu ulkan asar she‘rlar va g‘azallar to‘plamidan iboratdir. Unda asosan o‘zbek va fors tilidagi she‘rlar yozilgan.

1500-yillarga kelib shoirning hayot sharoiti qiyinlashib, sog‘ligi zaiflashib qolsa-da, ijoddan to‘xtamadi. Ulug‘ shoir, olim va mutafakkir Navoiy 1501-yil 3-yanvarda Hirot shahrida kasallikdan vafot etdi. Butun Hirot xalqi o‘zining buyuk shoiri bilan xayrlashishga chiqdi va 7 kun davomida motam tutdi.

1991-yil O‘zbekistonda Alisher Navoiy yili deb e‘lon qilinib, uning 550 yillik yubileyi keng nishonlandi. Alisher Navoiyning nomini abadiylashtirish uchun mamlakatimizning viloyatlaridan biri va uning markazi, O‘zbekiston Davlat mukofoti, O‘zbekiston Davlat kutubxonasi Toshkent davlat til va adabiyot universiteti,

*davlat arbobi* –  
государственный  
деятель  
*yodida* – в памяти

Davlat akademik katta teatri va boshqa yuzlab madaniy-ma'rifiy muassasalar ulug' shoir nomi bilan ataladi. Alisher Navoiy o'zbek tili asoschisi va *davlat arbobi*, buyuk mutafakkir olim sifatida barcha turk elatlar *yodida* asrlar davomida yashaydi.

## 6. Quyidagi ismlarni to'ldiring va ularning kimligini aniqlang.

G'iyosiddin

Shayx Abu Said

Mir Said

Sharafiddin

Husayn

## 7. Alisher Navoiy hayoti va ijodining qisqacha solnoma<sup>57</sup> si bilan tanishing.

- **1441-yil** 9-fevral – Alisher Navoiy tavallud topgan kun.
- **1445-yil** – 4 yoshli Alisher Navoiy oliy nasab oilalarning farzandlari ta'lim oladigan maktabga boradi, shu paytdan yozish, o'qishni o'rganadi.
- **1447-yil** – Navoiylar oilasi Iroqqa ko'chib ketadi. Iroqning Taft shahrida mashhur tarixchi olim Sharafiddin Ali Yazdiy va yosh Alisher Navoiyning tarixiy uchrashuvi yuz beradi. Alloma yosh Alisherni “Umring uzoq, boshing omon bo'lsin. Olim, fozil bo'lib, yaxshi obro'ga erishgaysan”, – deb bashoratomuz duo qiladi.
- **1450-yil** – Navoiylar oilasi yana Hirotga qaytadi. Otasi G'iyosiddin Bahodir Sabzavor viloyati hokimi etib tayinlanadi.
- **1457-yil** – Alisher Navoiy 16 yoshida otasi G'iyosiddin Kichkina vafot etadi. Shu yil Abulqosim Bobur xizmatiga kiradi. Mashhad shahrida o'qishni davom ettiradi. Sayyid Hasan Ardasher, Komil Turbatiy singari mashhur shoirlar bilan tanishadi, yaqindan do'stlashadi.

---

<sup>57</sup> solnoma – летопись

• **1459-yil** – Temuriylardan Abusaid Xuroson taxtini egallaydi, Alisher Navoiy va uning yaqin qarindoshlari ta'qibga uchraydi, xususan, tog'alari Mir Sayid va Muhammad Alilar qatl qilinadi.

• **1465-yil** – Alisher Navoiy Samarqandga keladi, Movaraunnahrning ijtimoiy-siyosiy, jug'rofiy holati bilan tanishadi.

• **1469-yil** – Hirot taxtini Sulton Husayn Boyqaro egallaydi, Alisher Navoiy Hirotga qaytadi, muhrdor lavozimiga tayinlanadi.

• **1472-yil** – Navoiy vazir lavozimini egallaydi va amirlik martabasiga ko'tariladi.

• **1476-yil** – Alisher Navoiy buyuk mutafakkir, shoir Abdurahmon Jomiy bilan uchrashadi, uni o'ziga ustoz deb biladi.

• **1483–1485-yillar** – Navoiy 51 ming 230 misradan iborat mashhur “Xamsa”sini yaratdi.

• **1487-yil** – Alisher Navoiy Astrobod viloyati hokimi etib tayinlandi.

• **1482–1489-yillar** – Navoiy “Vaqfiya”, “Tarixi anbiyo va hukamo”, “Tarixi muluki Ajam” asarlarini yozdi.

• **1490-yil** – “Holati Sayyid Hasan Ardasher” asari yaratildi.

• **1491-yil** – Navoiy “Majolis un-nafois”ni yozib tugalladi va keyinchalik qayta to'ldirdi.

• **1492–1494-yillar** – Abdurahmon Jomiy haqida “Xamsat ul-mutahayyirin” (“Besh hayrat”) asarini yaratdi.

• **1492–1498-yillar** – “Munshaot”, “Mezon ul-avzon” (“Vaznlar o'lchovi”), “Holati Pahlavon Muhammad”, “Nasoyim ul-muhabbat” (“Muhabbat shabadasi”) asarlarini yozib tugatdi.

• **1491–1498-yillar** – “Xazoyin ul-maoniy”, “Devoni Foniy”ni tuzdi.

• **1498–1499-yillar** – “Lison ut-tayr” falsafiy dostonini, “Muhokamat ul-lug'atayn” (“Ikki til haqida muhokama”) ni yozdi.

• **1500-yil** – so'nggi yirik asari — “Mahbub ul-qulub” (“Ko'ngillarning sevgani”) asarini yozdi.

• **1501-yil** 3-yanvarda Alisher Navoiy vafot etdi.

## 8. Alisher Navoiyning “Hayrat ul-abror” dostonidagi hikoyatni o‘qing, xulosa chiqaring.

Makka haqida ko‘p eshitganmiz. Hajga borgan kishi o‘z gunohlaridan forig‘ bo‘lishga, poklanishga umid qiladi. Hikoya qilinishicha, Ismoil degan shaxs ham Makka safariga otlanadi, u yo‘lda Shayx Mo‘min bilan uchrashib qoladi. Shayx Mo‘min bu yo‘lovchining haj orzusida ekanligini bilgach, undan:

– Onang bormi? – deb so‘raydi. Tasdiq javobini olgach:

– Yo‘ldan qaytib onang xizmatini qil, – deydi. Bu maslahat hoji bo‘lishni istagan kishiga yoqmaydi. Shunda Shayx Mo‘min:

– Men ellik marta haj qilibman, bosh yalang, oyoq yalang va biror hamrohsiz. Barchasini senga berdim. Sen onang ko‘ngli shodligin menga ber, – deydi.

## 9. Alisher Navoiyning lirik asarlaridan namunalarni ifodali o‘qing. Ularning ma’nosini tushuntirib bering.

Temurxon naslidan<sup>58</sup> sulton Ulug‘bek,  
Ki olam ko‘rmadi sulton oningdek<sup>59</sup>,  
Oning abnoi jinsi bo‘ldi barbod.  
Ki davr ahli biridan aylamas yod.  
Valek ul ilm sori topti chun do‘st,  
Ko‘zi oldinda bo‘ldi osmon past.  
Rasadkim bog‘lamish zebi jahondur,  
Jahon ichra yana bir osmondur.  
Bilib bu nav’ ilmi osmoniy,  
Ki ondin yozdi “Zichi ko‘ragoniy”  
Qiyomatga deganda ahli ayyom.  
Yoazarlar oning ahkomidin ahkom<sup>60</sup>.

(“Farhod va Shirin” dostonidan.)

---

<sup>58</sup> **naslidan** – из рода

<sup>59</sup> **oningdek** – подобный

<sup>60</sup> **ahkom** – решение, приговор

## Ruboiylar

El qochsa birovdin, el yamoni bil oni,  
Ahvolida idbor nishoni bil oni.  
Fe'l ichra ulus baloyi joni bil oni,  
Olam elining yamon-yamoni bil oni.

\* \* \*

Kamol et kasbkim, olam uyidin  
Sango farz o'lmag'ay g'annok chiqmoq.  
Jahondin notamom o'tmak biayni,  
Erur hammomdin nopok chiqmoq.

\* \* \*

Jondin seni ko'p sevarmen, ey umri aziz,  
Sondin seni ko'p sevarmen, ey umri aziz.  
Har neniki sevmak ondin ortuq bo'lmas,  
Ondin seni ko'p sevarmen, ey umri aziz.

\* \* \*

So'zdurki nishon berur o'lukka jondin,  
So'zdurki berur jong'a xabar jonondin.  
Insonni so'z ayladi judo hayvondin,  
Bilkim, guhari sharifroq yo'q ondin.

**10. Alisher Navoiy bilan bog'liq nomlar haqidagi ma'lumotlarni o'qing. Ularga tayanib, shoir hayoti haqida matn tuzing.**

*Hiro*t – Alisher Navoiy tug'ilgan shahar, Xuroson davlatining poytaxti.

*G'iyosiddin Muhammad* (Kichkina) – Alisher Navoiyning otasi, Temuriylar xonadoniga yaqin amaldorlardan.

Navoiyning onasi ismi hech bir tarixiy manbalarda uchramaydi. Ammo otasi va onasi o'z davrining ma'rifatli kishilaridan bo'lgan, Temuriylar saroyida xizmat qilganligi qayd etilgan.

*Mirsaid Qobuliy* (Abu Said) – Alisher Navoiyning togʻasi, oʻz davrining maʼrifatli kishisi, shoir.

*Muhammad Ali Gʻaribiy* – Alisher Navoiyning togʻasi, musiqashunos va hattot<sup>61</sup>.

*Husayn Boyqaro* – Alisher Navoiyning maktabdosh doʻsti, keyinchalik (1469–1506) Xuroson davlati hukmdori.

*Abdurahmon Jomiy* – buyuk shoir, Navoiyning doʻsti va ustoz.

*Xoja Yusuf Burhon* – oʻz zamonasining mashhur musiqashunosi. Alisher Navoiyga musiqa sirlarini oʻrgatgan ilk ustozlardan.

*Mirshohiy* – Alisher Navoiy 10–12 yoshlarida bu keksa shoir bilan sheʼriy yozishmalar qilib turgan.

*Lutfiy* – Alisher Navoiyning ustoz.

“*Navoiy*” – oʻzbek tilidagi sheʼrlari taxallusi.

“*Foniy*” – Alisher Navoiyning fors-tojik tilidagi sheʼrlari va “Lison ut-tayr” dostonida qoʻllagan taxallusi.

## **11. Alisher Navoiyning dunyoga mashhur hikmatlarini hozirgi oʻzbek adabiy tilida ifodalab bering.**

Чем жив кто дружбы не познал святой,  
Подобен он жемчужине пустой.

Словами можно смерть предотвратить,  
Словами можно мертвых оживить.

Правдивость речи хороша и гладкость  
Но как прекрасна слов правдивых краткость.

Нельзя хлопнуть в ладоши одной рукой.

Человек может допустить ошибку; признание ее облагораживает его. Но дважды облагораживает, если человек исправит ошибку.

---

<sup>61</sup> hattot – каллиграф

Когда корысть звучит в словах, не верь ни лести женщины, ни проискам мужчины.

Кто изучил науки, а к делу их не применил, словно тот, кто арык прорыл, а поле не засеял, или засеял, да урожаем не воспользовался.

Имеющие терпение способны создавать шелк из листьев и мед из розовых лепестков.

## **12. Alisher Navoiyning “Xamsa” asari asosida taqdimot tayyorlang.**

### **Ergashgan qo‘shma gaplarning sodda gap bilan ma’nodoshligi**

Tarkibida ko‘rsatish olmoshi mavjud bo‘lgan ergashgan qo‘shma gaplar tegishli sodda gaplar bilan ma’nodosh bo‘la oladi. Ergash gapni bosh gap tarkibida tegishli ko‘rsatish olmoshi bilan ifodalangan gap bo‘lagi o‘rniga qo‘yish orqali sodda gapga aylantirish mumkin: *Kim ko‘p o‘qisa, u ko‘p biladi – Ko‘p o‘qigan ko‘p biladi. Shuni bilingki, kengga keng, torga tor dunyo – Dunyoning kengga keng, torga tortigini bilib oling.*

## **13. O‘xshash ma’nolarning turli grammatik vositalar yordamida ifodalanishini bilib oling.**

*Ijobiy natija:*

Sanobar tennis o‘ynaydi. —————> Men ham tennis o‘ynashni boshladim.

1. Sanobar tennis o‘ynaganligi tufayli men ham tennis o‘ynashni boshladim.

2. Sanobar tennis o‘ynaydi, shuning uchun men ham tennis o‘ynashni boshladim.

*Salbiy oqibat:*

Avariya yuz berdi. —————> Men darsga kech qoldim.

1. Avariya yuz berganligi tufayli men darsga kech qoldim.

2. Avariya yuz berdi, shuning uchun men darsga kech qoldim.

#### 14. Gaplarni namunaga qarab o'zgartiring.

*Namuna:* Kecha yomg'ir yog'di, shuning uchun biz hayvonot bog'iga bormadik.

Yomg'ir tufayli biz hayvonot bog'iga bormadik.

Agarda yomg'ir yog'maganda, biz hayvonot bog'iga borar edik.

1. Kecha ota-onam bilan og'ir suhbat bo'ldi. Ertalab darsga bora olmadim.

2. Do'stlarim menga yordam berishdi. Men institutda o'qishni tashlab yubormadim.

3. Mashinamiz buzilib qoldi. Biz do'konlarni aylana olmadik.

4. Muhabbat bor. Bizning hayotimiz go'zal va hissiyotlarga boy.

5. Uning fe'li juda og'ir. U bilan muloqot qilish juda qiyin.

6. Mening pulim yo'q. Men dunyo bo'ylab sayohatga chiqa olmayman.

7. Ertalab barvaqt uyg'onaman. Darsga kech qolmayman.

#### 15. Quyidagi nutq qoliplari yordamida jummalarni davom ettiring.

1. Agar ..... (ma)sa, ..... bo'ladi (bo'lmaydi).

2. Agar .....(ma)ganda edi, ..... (bo'lmas) bo'lar edi.

Agarda men ..... bo'lganimda, .....

Agar men ..... bilan ucrashganimda, .....

Agar men ..... olsam, .....

Agar menda ..... bo'lganda edi, .....

Agar ertaga ....., .....

Agar bu yil ....., .....

Agar siz menga ....., .....

Agar men hayotimni qaytadan boshlaganimda edi, .....



**16. Berilgan qo‘shma gaplardagi ergash gaplarni bosh gaplar tarkibidagi ko‘rsatish olmoshlari o‘rniga qo‘yib, qo‘shma gaplarni sodda gaplarga aylantiring.**

1. Siz kimga ishonch bildirsangiz, men uni sherik qilib olishim mumkin. (*Rahmat Fayziy.*)
2. Shunga xursandmizki, bolalar o‘z yo‘lini topib ketishdi. (*Yo‘ldosh Sulaymon.*)
3. Kim ko‘p bilsa, u kamgap bo‘ladi. (*Shuhrat.*)
4. Tilagimiz shuki, hammangiz el xizmatiga kamarbasta farzandlar bo‘linglar. (*Qamchibek Kenja.*)
5. Shuni bilingki, dunyoda tinchlikdan ulug‘roq ne‘mat yo‘q.
6. Kimki mustaqil fikr yuritmasa, uni boshqalar oson egib oladi.
7. Shunga ishonch hosil qildimki, ko‘p uxlagan oz yashaydi.
8. Kimki tinch yashashni istasa, pastkash odam bilan hech qachon do‘stlashmaydi.
9. Shuni sezdimki, oila a‘zolari bir-biri bilan juda ittifoq ekan.
10. Kim oldin musht ko‘tarsa, u ojiz bo‘ladi. (*Maqol.*)

**17. Berilgan sodda gaplarni qo‘shma gaplarga aylantiring.**

*Namuna:* Baxtim – seni uchratganligim. — Baxtim shuki, seni uchratdim.

1. Baxtim – seni uchratganligim. (*Z. Saidnosirova.*)
2. Aql bovar qilmaydigan o‘zgarishlar bo‘lmoqda.
3. Guruhdagi tinglovchilarning hammasi bir-biri bilan juda ahil ekanligi quvonarli.
4. Hech bir yangilik bexosiyat bo‘lmasligini biling. (*Asqad Muxtor.*)
5. Biz el qoshida manzur va mo‘tabar bo‘ladigan kutubxona bino qilaylik. (*Oybek.*)
6. Ezgulik hech eskirmaydigan libosdir.
7. Birovga yomonlikni ravo ko‘rmaydigan kishi sahovat egasidir.

**18. Juftliklarga bo‘linib, berilgan sodda gaplarni qo‘shma gaplarga aylantiring. Hosil bo‘lgan qo‘shma gaplarning turini ayting.**

*Namuna:* Men do‘stimning kelganini eshitdim – Men eshitdimki, do‘stim kelibdi.

**1-juftlik**

1. Bahor keldi.
2. Odam, odamlarning naqshidir.
3. Maqsadimiz doimo tinchlik bo‘lsin.

**2-juftlik**

Ilm bir daraxt, odob uning mevasidir.

1. Qalbi pok inson baxtli hayot kechirishga haqli.
2. Odamlar do‘stlik tufayli baxtiyordir.

**3-juftlik**

1. Kechalari shamol bo‘riday uvullab chiqadi, sharros yomg‘ir quyib qolardi. (*E. Usmonov.*)

2. Hunar o‘rgan, hunarda ko‘p sir, yopiq eshiklarini ochar birma-bir. (*Nizomiy.*)

3. Inson qobiliyati cheksiz ekan.

**4-juftlik**

1. Qasd qilganlar, albatta, past bo‘ladi.

2. Men xalqqa juda kam o‘rgatganman. O‘zim undan ko‘p narsalarni o‘rganganman.

3. Baxtim bor. Har narsa go‘zal ko‘rinadi mening ko‘zimga.

**5-juftlik**

1. Harakat qilgan kishi baraka topadi.

2. Ko‘ngli ochiq kishining el o‘rtasidagi martabasi ulug‘bo‘ladi.

3. Siz ishonch bildirgan insonni men sherik qilib olishim mumkin.

**19. Berilgan maqollarni mazmunan tugallang.**


O‘zingni er bilsang, ... .  
Har yerni qilma orzu, ... .  
Sog‘lom tanda, ... .  
Sog‘liq qadrini ... .  
Tabib tabib emas, ... .  
Yaxshi odam yurt tuzar, ... .  
Birni kessang, ... .  
Gapni gapir uqqanga, ... .

**20. She’rni ifodali o‘qing. Undagi ma’lumotlarga tayanib hamda bilganlaringiz asosida Bobur hayoti va ijodi bo‘yicha klaster tuzing.**

**O‘n ikki yoshimda podishoh bo‘ldim**

*Sirojiddin Sayid*

Yaratgan hukmidin oliyjah bo‘ldim,  
O‘n ikki yoshimda podishoh bo‘ldim.  
Temurbek avlodi – otam Umarshayx,  
Qismat jon ichurdi g‘oyat achiq talx.  
Buyuk bir qo‘l surub elturdi meni,  
Shatranj donasidek keltirdi meni.  
Aytmangizki yo‘lda bir sipoh bo‘ldim,  
O‘n ikki yoshimda podishoh bo‘ldim.  
Yuz yil yo bir yilda davron aylanur,  
Yuz oh Zahiriddin Muhammad Bobur.  
Ko‘klarda oy bo‘lib qolgandir ohim,  
Yurak bag‘ring ezib, o‘rtanma, Mohim.  
Dardlaringni olib ko‘zim yumoyin,  
Mendan so‘ng hushyor bo‘l, o‘g‘lim Humoyun.



**21. Bobur ijodi yuzasidan tuzilgan krossvordni yeching.**

		<b>2</b>	<b>3</b>					<b>6</b>
					<b>4</b>			
<b>1</b>								<b>5</b>

- 1.** Boburning eng mashhur asari.
- 2.** “Bobur” so‘zining ma’nosi.
- 3.** Boburning avlodi.
- 4.** Umrining oxirgi damlarida Bobur qayerda yashagan?
- 5.** Bobur farzandining ismi.
- 6.** Bobur vafot etgan shahar.

## 22. Matnni o‘qing. Matn yuzasidan savollar tuzing.

### Zahiriddin Muhammad Bobur (1483-1530)

*avlod* – поколение  
*hukmdor* – правитель,  
властитель

Buyuk sarkarda, shoir va olim Zahiriddin Muhammad Bobur 1483-yil 14-fevralda Andijon shahrida tug‘ilgan. Uning otasi Umarshayx Mirzo Amir Temurning beshinchi *avlodi* bo‘lib, Farg‘ona viloyatining *hukmdori*, onasi Qutlug‘



Nigorxonim Mo‘g‘uliston xoni va Toshkent hokimi Yunusxonning qizi edi. Yosh Bobur o‘z zamonasining ilm-ma‘rifatini, san’atini havas bilan o‘rgandi.

1495-yilda Boburning otasi 39 yoshida bevaqt vafot etgach, u 12 yoshida taxtga o‘tirdi. Dovyurakligi va jasurligi uchun u yoshligidan “Bobur” (“Sher”) laqabini oladi.

*qattiq zarbaga uchramoq* – получить отпор  
*lashkar* – войско  
*hukmronlik o‘rnatmoq* – установить господство, владычество

Bobur taxt uchun tinimsiz kurashib, 1497–1500-yillarda Samarqandni, 1502–1503-yillarda O‘sh va uning atroflarini egallab oladi, ammo Ahmad Tanbaldan yengiladi. 1514-yilda u Shaybonixonning *qattiq zarbasiga uchraydi* va qolgan o‘z *lashkari* bilan Afg‘onistonga jo‘naydi, u yerda o‘z *hukmronligini o‘rnatadi*. 1519–1525-yillar orasida Bobur Hindistonga 5 marta *yurish qiladi*. 1526-yil 21-aprelda Hind sultoni Ibrohim

*yurish* – здесь:  
военный поход  
*sulola* – династия

Lo‘diyning qo‘shinini yengadi va shu tariqa Shimoliy Hindistonda Boburiylar *sulolasining* hukmronligiga asos soladi.

Mirzo Bobur davlat arbobi va sarkarda bo‘lish bilan birga iste‘dodli olim va shoir edi. U 16–17 yoshidan boshlab badiiy ijod bilan shug‘ullanadi, turkey va fors tillarida she‘rlar yozadi. Bobur turkiy tildagi she‘rlarini to‘plab, 1519-yilda Qobulda “Qobul devoni”, 1528–29-yillarda Hindistonda “Hind devoni” kabi devonlar tuzgan. Bizgacha yetib kelgan she‘rlarining umumiy soni 400dan oshadi. Shulardan 119tasi g‘azal, 231tasi ruboiydir.

Boburning eng mashhur asari memuar asar – “Boburnoma”dir. Asarda 1494–1529-yillarda Movarounnahr, Xuroson, Afg‘oniston va Hindistonda ro‘y bergan voqealar aks etgan.

Bobur 1530-yil 26-dekabrda 47 yoshida Hindistonning Agra shahrida vafot etadi. Uning jasadi Jamna daryosining chap sohilidagi Nurafshon bog‘ining markaziy qismiga dafn etilgan. 1533-yilda esa xoki vasiyatiga muvofiq Qobulga, “Bog‘i Bobur”ga ko‘chiriladi. Boburiylar sulolasi 1483–1858-yillar mobaynida hukm surgan.

### **23. Boburning g‘azal va ruboiylarini ifodali o‘qing. Ularning mazmunini tahlil qiling.**

Har kimki vafo qilsa vafo topgusidur,  
Har kimki jafo qilsa jafo topgusidur,  
Yaxshi kishi yomonlig‘ ko‘rmagay hargiz,  
Ha kimki yomon bo‘lsa jazo topgusidur!

\* \* \*

Tole yo‘qi boshimga balolig‘ bo‘ldi,  
Har neniki ayladim xatolig‘ bo‘ldi,  
O‘z yurtni qo‘yib Hind sori yuzlandim,  
Yo Rab netayin, bu ne yuz qarolig‘ bo‘ldi.

\* \* \*

Ko‘pdin berikim, yor-u diyorim yo‘qtur,  
Bir lahza-yu bir nafas qarorim yo‘qtur.  
Keldim bu sori o‘z ixtiyorim birla,  
Lekin borurimda ixtiyorim yo‘qtur.

\* \* \*

Yod etmas emish kishini g‘urbatda kishi,  
Shod etmas emish ko‘ngulni mehnatda kishi.  
Ko‘nglim bu g‘ariblikda shod o‘lmadi, oh,  
G‘urbatda sevinmas emish, albatta, kishi.

\* \* \*

Kim ko‘rubtur, ey ko‘ngul, ahli jahondin yaxshilig‘,  
Kimki ondin yaxshi yo‘q, ko‘z tutma ondin yaxshilig‘.

Bu zamonni naf‘i qilsam ayb qilma, ey rafiq,  
Ko‘rmadim hargiz, netayin, bu zamondin yaxshilig‘.

Dilrabolardin yomonliq keldi mahzun ko‘ngluma,  
Kelmadi jonimg‘a hech oromi jondin yaxshilig‘.

Ey ko‘ngul, chun yaxshidin ko‘rdung yomonlig‘ asru ko‘p,  
Emdi ko‘z tutmoq ne ya‘ni har yomondin yaxshilig‘.

Bori elga yaxshilig‘ qilg‘ilki, mundin yaxshi yo‘q  
Kim, degaylar dahr aro qoldi falondin yaxshilig‘.


Yaxshilig‘ ahli jahonda istama Bobur kibi,  
Kim ko‘rubtur, ey ko‘ngul, ahli jahondin yaxshilig‘.

**24. Izohli lug‘at yordamida quyidagi so‘z va so‘z birikmalarining ma‘nosini bilib oling:** *hargiz, g‘urbat, g‘ariblik, ko‘z tutmoq, zamonni naf‘i qilmoq, mahzun ko‘ngil, dahr aro.*

**25. Matnni o‘qib, undagi ma‘lumotlarga ko‘ra Bobur shaxsini tasvirlab bering.**

Bobur ismi “sher” ma‘nosini anglatib, uning o‘zi ham ismi jismiga monand kishi bo‘lgan, kelishgan qad-qomati va benihoya kuchliligidan tashqari dovyuraklikda, epchillikda, chaqqonlikda oldiga tushadigani topilmagan, uncha-muncha qiyinchiliklarni pisand etmagan. U ko‘pincha ikki qo‘liga og‘ir yukni ko‘tarib, Agra qal‘asi devorlari ustida yugurib mashq qilgan. U yana ajoyib suzuvchi va g‘avvos ham bo‘lgan, buyuk Gangdan tashqari jamiki yo‘lida uchragan hind daryolarini suzib o‘tgan. Uning shirali til, ohangdor vazn bilan bitilgan tarjimayi holi – “Boburnoma”ni o‘qir ekansiz, muallif badiiy didining naqadar nazokatligi, aql-u zakovati teranligi, bilimi naqadar cheksizligining guvohi bo‘lasiz. Bobur tabiatni va bazmu jamshidlarni jondan yaxshi ko‘rgan. Ayniqsa, tog‘larni, daryolarni bog‘larni, yaylovlarni ko‘rganda, uning o‘z vataniga bo‘lgan muhabbati va sog‘inchi jo‘sh urgan.

**26. Boburning shajarasiga qarab, uning kelib chiqishi haqida kichik matn tuzing.**





## 27. Alisher Navoiy va Zahiriddin Muhammad Bobur shaxslarining o'xshash jihatlarini topib, jadval ko'rinishida ifodalang.

### Bog'lovchisiz qo'shma gaplar

Qo'shma gap qismlarining o'zaro bog'lovchi vositalarsiz birikuvidan tuzilgan turiga bog'lovchisiz qo'shma gap deyiladi. Bog'lovchisiz qo'shma gap qismlarining o'zaro mazmun munosabatiga ko'ra quyidagi turlari mavjud:

1) bir paytda yuz beradigan voqea-hodisani ifodalaydi: *Qo'ng'iroq chalindi, dars boshlandi.*

2) ketma-ket yuz beradigan voqea-hodisani bildiradi: *Atlas ko'ylak kiygan qizlar savatlarda meva teryaptilar, yigitlar tashiyaptilar.* (S. Nurov.)

3) bir-biriga taqqoslangan, zid qo'yilgan voqea-hodisani ifodalaydi: *Havo bulut bo'ldi, yomg'ir yog'madi.*

4) payt mazmuni ifodalanadi: *Qish keldi – sovuq kunlar boshlandi.*

5) shart mazmuni ifodalanadi: *Qo'shning tinch – sen tinch.*

6) izoh mazmuni ifodalanadi: *Faqat shu esida: ertasiga Gulsarini olib ketishdi.* (Ch.Aytmatov.)

7) to'siqsizlik mazmuni ifodalanadi: *O'zim har joydaman, ko'nglim sendadur.* (Qo'shiqdan.)

8) sabab mazmuni ifodalanadi: *Onaxonning yuragi shuv etib ketdi, to'pponchani o'z ko'zi bilan birinchi ko'rishi edi.*

9) natija mazmuni ifodalanadi: *U shunchalik berilib termildi, soyning o'rtasida suv ichayotgan otining pishillashi ham sezilmadi.* (Oybek.)

10) o'xshatish mazmuni ifodalanadi: *Qor yog'di – don yog'di.* (Maqol.)

## 28. Berilgan gaplarni qismlarga ajrating. Ular o'zaro qanday bog'langaniga e'tibor bering.

1. Avval ular bizga yetib olishsin, keyin birga jo'naymiz. (X. To'xtaboyev.)

2. Yuragida qanday dard bor – mana bu menga sir. (Oybek.)

3. Kuz keldi, yig'im-terim ishlari boshlandi.

4. To'rt mashina o'g'it yubordik – fermerlarga vaqtida taqsimlansin.

5. Yogʻib yubordi-da yomgʻir, nihoyat, osmon dil qulfini zaminga sochdi. (*T.Sodiqova.*)
6. Ruboiyni ichida oʻqidi, yuzini tabassum qopladi. (*Oybek.*)
7. Yana uvlar dahshat shamoli, Koʻkni qora bulut quchadi. (*Temur Fattoh.*)
8. Orzum shu – oʻchmasin yongan chirogʻing. (*A. Oripov.*)
9. Yaxshi oʻgʻil – el obroʻsi, yaxshi qiz – uy obroʻsi. (*Maqol.*)
10. Bulbul sayrar, chumchuq chirqirar, Xabar berar asl zotidan. (*Hamid Olimjon.*)
11. Sabr bila bogʻliq ish ochilur, Ishda oshiqqan koʻp toyilur. (*Alisher Navoiy.*)

Bogʻlovchisiz qoʻshma gap qismlarini yozuvda ajratish uchun vergul, tire, ikki nuqta, nuqtali vergul kabi tinish belgilari ishlatiladi.

Qoʻshma gap qismlari bir paytda yoki ketma-ket sodir boʻladigan voqea-hodisalarni ifodalasa, ular orasiga vergul qoʻyiladi: *Yigitlar daraxtlarning ostini yumshatdilar, qizlar maktab hovlisini supurdilar.*

Qoʻshma gap qismlari orasida oʻxshatish, zidlash, shart kabi munosabatlar ifodalanganda, ular orasiga tire qoʻyiladi: *Hamal keldi – amal keldi.*

Qoʻshma gap qismlari orasida izohlash munosabati ifodalanganda, ular orasiga ikki nuqta qoʻyiladi: *Bizning qarorimiz shu: hasharda barchamiz faol ishtirok etamiz.*

Qoʻshma gap qismlari mazmunan unchalik yaqin boʻlmagan yoki ketma-ket sodir boʻladigan voqealarni bildirgan va bir necha tinish belgilari qoʻllangan hollarda nuqtali vergul ishlatiladi: *Xadicha xola bolalik chogʻidagi singari uning beliga non tugib berdi, peshonasidan oʻpdi, duo qildi; irim qilib oʻzi kuzatgani chiqmadi.* (*Abdulla Qahhor.*)

## **29. Oʻqing. Qoʻshma gaplardagi tinish belgilarining qoʻyilish sababini izohlang.**

1. Kampirning jigʻi-biyroni chiqdi; ombordan olib chiqqan bir savat paxtasi bilan chigʻirigʻini koʻtarib, vaysaganicha, uyiga kirib ketdi. (*Abdulla Qahhor.*)

2. Gʻanimlar duch kelar – jang boʻlar puxta. (*A. Oripov.*)

3. Mening bir jaydari falsafamdir shu:

Hargiz iltimosga kunning qolmasin. (*A. Oripov.*)

4. Oyim endi oʻrnidan turayotgan edi, eshik shaxt bilan ochildi. (*Oʻ. Hoshimov.*)

5. Qiz uni ushlab olgani urindi, juda qiynalib ketdi: qoʻllariga tikan kirdi, yuzi va bilaklari tirmalandi. (*Abdulla Qahhor.*)

6. Eshakni yaydoq minib boʻlmaydi – yiqiladi kishi. (*Abdulla Qahhor.*)

7. Sidiqjon toʻxtadi, orqasidan kimdir kelayotgan edi. (*Abdulla Qahhor.*)

8. Suv keldi – nur keldi.

### **30. Bogʻlovchisiz qoʻshma gaplarni bogʻlangan va ergashgan qoʻshma gaplarga aylantiring.**

1. Bir kishi ariq ochadi, ming kishi suv ichadi.

2. Bilim bilan kishining martabasi oshadi, ilmsizlik kishini tubanlashtiradi. (*Ahmad Yugnakiy.*)

3. Yurting tinch – sent tinch.

4. Har kimga ozor bera koʻrma, dunyo barchaga barobardur.

5. Ayrilganni ayiq yer, boʻlinganni boʻri yer. (*Maqol.*)

6. Xalqning yetugi saxiy kishidir, saxiylik kishiga sharaf keltiradi. (*Ahmad Yugnakiy.*)

7. Endi nima boʻlib shundoq boʻlganini aytib oʻtirishga fursatim yoʻq – idorada odamlar kutib oʻtiribdi. (*Abdulla Qahhor.*)

8. Omon ovchining ov sarguzashtlari koʻplarni qiziqtirardi: koʻplari hikoya eshitish uchun kelardi. (*SH. Xolmirzayev.*)

### **31. Namuna asosida berilgan gaplarni tahlil qiling.**

*Namuna:* Suv keldi, shuning uchun choʻllarda hayot boshlandi.

- Mazmuniga koʻra darak gap.
- Tuzilishiga koʻra qoʻshma gap.
- Ergashgan qoʻshma gap.
- Hol ergash gapli qoʻshma gap.

- *Suv keldi* – 1-sodda gap (bosh gap).
- *Cho‘llarda hayot boshlandi* – 2-sodda gap (ergash gap).
- *shuning uchun* ergashtiruvchi bog‘lovchisi yordamida bog‘langan.

1. Har kimga ozor bera ko‘rma, dunyo barchaga barobardir.
2. Onam xursand bo‘ldi-da, meni bag‘riga bosdi.
3. Bolalik inson hayotining shunday poydevoridirki, umr binosining keyingi bo‘y-basti, salobati unga bog‘liq bo‘ladi.
4. Otabek dahshatlanib yonidagi Aliga qaradi, Ali esa labini tishlab turardi.
5. Ayol qaynar buloq: uning bir ismi Mehr, bir ismi Muruvvat, yana bir ismi Fidoyidir.

**O‘zbekiston xalq shoiri ABDULLA ORIPOV hayoti va ijodi**

**1. Savollarga javob bering.**

Abdulla Oripovning qanday asarlarini bilasiz?

Shoirning she’rlaridan namunalar aytib bering.

O‘zbekiston Davlat madhiyasi so‘zlarini yoddan aytib, tushuntirib bering.

**2. Matnni o‘qing. Matn yuzasidan savollar tuzing.**

*noyob iste’dod egasi* –  
обладатель  
редкостного таланта

*Noyob iste’dod egasi* Abdulla Oripov 1941-yil 21-mart kuni Qashqadaryo viloyati Koson tumanidagi Neko‘z qishlog‘ida dehqon oilasida dunyoga kelgan.



1958-yilda Obidiy qishlog‘idagi o‘rta maktabni oltin medal

bilan tugatgach, Toshkent davlat universiteti (hozirgi O‘zMU) “O‘zbek filologiyasi” fakulteti jurnalistika bo‘limiga o‘qishga kirib, uni 1963-yilda imtiyozli diplom bilan bitirdi.

*muharrir* – редактор

1963-yildan boshlab turli nashriyotlarda *muharrir*, katta muharrir, bosh muharrir, Yozuvchilar uyushmasi kotibi, mualliflar huquqini himoya qilish idorasining rahbari vazifalarida mehnat qildi.

*uyqash* – сходный,  
похожий

Abdulla hali maktabga bormay turib, qandaydir so‘zlarni bir-biriga *uyqash* qilib aytib yurishni xush ko‘rardi. Buni shoir keyinchalik

shunday eslaydi: "...birinchi she'rlar yoza boshlaganimga nima turtki bo'lganini aniq bilmayman. Har holda so'zlarni qofiyalashga ishqiboz bo'lib qolganim esimda. Balki zerikkanimdan, balki zavqim toshib, nimadir yozgim kelaverardi. Fikr esa yo'q. Yozmaslikning ham iloji yo'q".

Birinchi marta respublika matbuotida "Qushcha" deb atalgan she'ri chiqqan paytda Abdulla Oripov talaba edi. A.Oripovning talabalik yillarida yaratilgan she'rlari respublika vaqtli matbuotida bosilib chiqdi. 1965-yili birinchi she'rlar to'plami "Mitti yulduz" chop etildi, shundan buyon shoirning "Ko'zlarim yo'lingda" (1967), "Onajon" (1969), "Ruhim" (1971), "O'zbekiston", "Qasida" (1972), "Xotirot" (1974), "Yurtim shamoli" (1974), "Hayrat" (1979), "Hakim va ajal" (1980) "Najot qal'asi" (1981), "Yillar armoni" (1983) she'riy to'plamlari bosilib chiqdi. Mazkur to'plamlarga kirgan she'rlarni ko'zdan kechirar ekanmiz, unda shoirning she'rdan she'rga, to'plamdan to'plamga, yildan-yilga o'sib, ijodiy barkamollashib borganligiga guvoh bo'lamiz. Ayniqsa, 60-yillardan keyingi asarlarida hayot va odamlar haqidagi jamiyat va tabiat haqidagi falsafiy mushohadalarning tobora chuqur tus olganligi seziladi.

Abdulla Oripov she'riyatining mustaqillik yillaridagi bosqichi yana ham o'zgacha, ma'naviy-badiiy jihatdan yuksaklikka ko'tarilgan. Uning 1992-yilda yozgan "Haj daftari"ga kirgan "Hadis"lari ham buni to'la tasdiqlaydi.

Abdulla Oripov mustaqil Vatanimiz – O‘zbekiston Respublikasi Davlat madhiyasining muallifi sifatida el-yurtimiz qalbidan chuqur joy egalladi. Ijodkorning she’riy majmualari rus va boshqa qardosh xalqlar tillariga tarjima qilingan va alohida kitob holida nashr etilgan.

Ulug‘ shoir va adib Abdulla Oripovning o‘zbek adabiyoti va san’atini rivojlantirish borasidagi xizmatlari davlatimiz tomonidan munosib taqdirlandi. U “O‘zbekiston xalq shoiri”, 1998-yilda “O‘zbekiston Qahramoni” *faxriy unvonlari*, Alisher Navoiy nomidagi respublika davlat mukofoti, “Do‘stlik” ordeni bilan mukofotlangan edi.

*faxriy unvon* –  
почётное звание

Abdulla Oripov ko‘p yillar davomida O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlis deputati va Senati a’zosi sifatida ham *samarali faoliyat* olib bordi.

*samarali faoliyat* –  
эффективная  
деятельность

O‘zbekiston Qahramoni, O‘zbekiston xalq shoiri, atoqli jamoat arbobi Abdulla Oripov 2016-yil 5-noyabrda 75 yoshida vafot etdi.

### **3. Shoirning she’riy to‘plamlari bo‘yicha klaster tuzing.**

### **4. Quyida berilgan satrlar shoirning qaysi she’ridan olingan? Uni o‘zbek tilida aytib bering.**

Мой край родной, я о тебе пою,  
Ты для меня – навеки несравненный!  
Поэты славят Родину свою,  
И голос их звучит во всей вселенной.  
Летят их песни в дальние края  
На серебристых крыльях неустанно,  
А мой прекрасный край – земля моя

Она, как былъ неспетого дастана!  
Но немощно перо мое, друзья,  
Узбекистан мой, родина моя!

## 5. She'rlarni ifodali o'qing va yod oling.

### YASHASANG DUNYODA ...

Yashasang dunyoda yorug' yuz bilan,  
Hurmat ko'rguzsang va bo'lsa izzating!  
Ketsang, eslasalar shirin so'z bilan,  
Yaxshi noming qolsa, qolsa xizimating.

G'anim nafratingga kelolmasa bas,  
Kulsang, sidqidildan yayrab kulolsang.  
Dilda g'ashlik bo'lmay yashasang, xullas,  
Baxtli odamlarday baxtli bo'lolsang.

### SHAYTON

La'natlab<sup>62</sup> bo'lsa ham, qarg'ab bo'lsa ham  
Har kun tilovatda<sup>63</sup> aytilar nomi.  
Uning bosh suqmagan<sup>64</sup> joyi kamdan-kam,  
Ichilgan har qadah uning ham jomi<sup>65</sup> ...  
Deydilar, norasta go'dakni<sup>66</sup> hatto  
Uyquda qitiqlab kuldirar emish.  
Salgina g'aflatda<sup>67</sup> qolsang mabodo  
Qilmagan ishingni qildirar emish.  
Shaytonning hunari<sup>68</sup> chindan rang-barang,

---

<sup>62</sup> la'nat, la'nat aytmoq – проклятие, проклинать

<sup>63</sup> tilovat – читать молитву

<sup>64</sup> bosh suqmoq – сунуть голову, соваться

<sup>65</sup> jom – здесь: чаша

<sup>66</sup> norasta go'dak – младенец

<sup>67</sup> g'aflat – неведение

<sup>68</sup> shaytonning hunari – хитрость чёрта, дьявола



Sallani<sup>69</sup> paytava<sup>70</sup> qilib o‘ratgay.  
Agar sidqidildan ko‘rsatsa nayrang<sup>71</sup>  
Nodonna shoh qilib, yurtni so‘ratgay.  
Minoda Shaytonni qildik toshbo‘ron,  
La‘natga ko‘mildi badbaxt u lain<sup>72</sup>.  
Dedik, shuncha yukning ostidan Shayton  
Ming yillar chiqolmay yotmog‘i tayin.  
Shodumon yo‘l oldik Vatanga qarab,  
Shayton qoldi, deya chuqurda-chohda.  
Manzilga qaytgandik, Shayton, voajab,  
Bizni kutib oldi tayyoragohda.

## 6. “Shayton” she’ri yuzasidan ijodiy matn yarating.

### O‘zbekiston xalq yozuvchisi O‘TKIR HOSHIMOV ijodi

## 7. Savollarga javob bering.

O‘tkir Hoshimovning qanday asarlarini bilasiz?

Uning birinchi kitobi qanday nomlanadi?

Yozuvchi hikoyalarning barchasini qanday timsol birlashtiradi?

O‘tkir Hoshimovning qaysi asari onasiga bag‘ishlangan?

**8. Matnni o‘qing. Yozuvchi haqida olgan ma’lumotlaringiz bo‘yicha jadvalda berilgan gaplarni to‘ldirib, o‘zingizni tekshirib ko‘ring.**

O‘tkir Hoshimov Toshkentning  
Do‘mbirobod dahasida 1941-yilning 5-avgustida

---

<sup>69</sup> salla – чалма, тюрбан

<sup>70</sup> paytava – портянка

<sup>71</sup> nayrang – хитрость

<sup>72</sup> lain – проклятый

*qiyomat qoyim* –  
светопреставление

*ammamning buzog'i*  
– разиня, простофиля



tavallud topgan. Yozuvchi o'zi tug'ilgan yillar bilan bog'liq voqealarni quyidagicha xotirlaydi: "Oyim bir gapni ko'p aytardi: Sen tug'ilganingda *qiyomat qoyim* bo'lgan edi. Lagerdagi o'ris xotinlar urush boshlanibdi deb yig'lagan, men *ammamning buzog'i*, hayron bo'lgandim. Urush allaqayoqda bo'layotibdi-yu, bular nega dod soladi degandim. Keyin aqlim yetdi...". Bu adib hayotiga tegishli bo'lgan tarjimayi holdan ko'rinib turibdiki, uning bolalik yillari ayni urush qiyinchiliklari, muhtojliklari davrida kechgan. Shu tufayli u o'rta maktabni a'lo baholar bilan bitirgan bo'lsa ham oilaviy sharoiti yuzasidan ishlab turib o'qishga majbur bo'lgan. Toshkent Davlat universiteti jurnalistika fakultetining sirtqi bo'limida o'qish bilan "Temiryo'lchi", "Toshkent haqiqati", "Qizil O'zbekiston" kabi gazetalarda turli yumushlarni bajargan. Yozuvchining tug'ilib o'sgan joyi, otanasi haqida gap ketganda, adib "Mashaqqatli safar" tarjimayi holida otasi va onasi haqida shunday yozadi: "Otam eskicha alifbodagi kitoblarni ham, zamonaviy gazitalarni ham muttasil o'qib borar, kamgap, hiyla tajang, ammo nihoyatda haqparast odam edi... Onam – Hoshimova Hakima esa, otamning aksicha, nihoyatda yuvosh, juda mehribon edi. Qo'shning mushugi tug'sa ham joni achigandir deb achinar, ko'chada biror bola yig'lab o'tirgan bo'lsa, albatta, tepasiga borib boshini silar, biror

*sodda* – простой  
*yuvosh* – смирный,  
спокойный

sabab bilan biz bolalarni qarg‘asa, o‘zi ham qo‘shilib yig‘lab yuborar, o‘sha zahoti ko‘nglimizni olishga harakat qilardi... onam ikki gapning birida maqol ishlatmasa turolmas, o‘ta *sodda*, o‘ta *yuvosh* bo‘lgani bilan ertaklarni, afsonalarni koni edi...”

Yozuvchining ijodi publitsistikadan boshlangan bo‘lib, birinchi kitobi 1962-yilda “Po‘lat chavandoz” nomi bilan bosilib chiqqan. Uning ilk hikoyasi esa 1963-yilda “To‘rt maktub” nomi bilan chop etilgan. Keyinchalik mazkur hikoya asosida “Cho‘l havosi” qissasi yaratilgan. Mazkur qissani o‘qib, yozuvchiga asar uni suyuntirib yuborganini xat qilib yozgan Abdulla Qahhorning bildirgan fikrlari, yosh adib ilhomiga ilhom qo‘shdi, dalda berdi. Abdulla Qahhor shunday yozgan edi: “O‘tkir! “Cho‘l havosi”ni o‘qib suyunib ketdim. Birdan lov etib boshlangan ijoding kelajagi porloq boladi, qissa juda sof, samimiy, iliq, tabiiy, rohat bilan o‘qiladi”.

*shuhrat keltirdi* –  
принёс славу

Shundan so‘ng O‘tkir Hoshimovning “Odamlar nima derkin”, “Shamol esaveradi” qissalari maydonga keldi. Ayniqsa, adibning “Bahor qaytmaydi”, “Qalbingga quloq sol” kabi qissalari yozuvchiga *shuhrat keltirdi*. 1982-yilda adib yozgan go‘zal asar – “Dunyoning ishlari” qissasi O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasining Oybek mukofoti bilan taqdirlangan.

“Bu qissa katta-kichik novellalardan iborat. Biroq ularning barchasida men uchun eng aziz odam – onam siymosi bor. Bundagi odamlarning hammasini o‘z ko‘zim bilan ko‘rganman. Faqat ba’zilarining ismi o‘zgardi, xolos. Bu odamlarning qismati ham qaysidir jihati bilan onamga

*chigal, murakkab  
taqdirlar* – СЛОЖНЫЕ  
СУДЬБЫ

bogʻlangan. Dunyodagi hamma onalar farzandiga munosabat bobida bir-biriga juda oʻxshaydi. Bas, shunday ekan, bu asar sizlarga bagʻishlanadi aziz Onajonlar!” – deb yozgan edi muallif.

Darhaqiqat, “Dunyoning ishlari” qissasini oʻqiganda qalbimizni ikki xil iliq his chulgʻaydi – u ham boʻlsa oʻz onamizga va umuman onalarga boʻlgan mehr hissi. Haqiqatan ham, adibning oʻzi eʼtirof etganidek, asar uning oʻz onasi haqida emas, “...umuman, oʻzbek ayoli haqida va umuman onalar toʻgʻrisida”.

Oʻtkir Hoshimov ijodida “Ikki eshik orasi” romani alohida ahamiyatga ega boʻldi. Unda adib qariyb qirq yillik davrni oʻz ichiga olgan va bir qator *chigal* hamda *murakkab taqdirlar* misolida oʻz xalqining tarixiy qismatini mahorat bilan umumlashtirib berdi. Shu tufayli ham Oʻtkir Hoshimov ushbu romani uchun 1986-yilda Hamza nomidagi Respublika Davlat mukofotiga sazovor boʻldi.

Oʻtkir Hoshimov hikoya janrida ham unumli ijod qilgan. Xususan, uning “Muhabbat”, “Dehqonning bir kuni”, “Urushning soʻnggi qurboni”, “Oʻzbek ishi” kabi asarlari oʻzbek hikoyachiligi rivojiga salmoqli hissa boʻlib qoʻshildi.

Oʻtkir Hoshimov mohir hikoyanavis, qissanavis, romannavis va publitsistgina emas, dramaturg sifatida ham zamonaviy adabiyot rivojiga taʼsir koʻrsatdi. Uning “Xazon boʻlgan bahor”, “Toʻylar muborak”, “Vijdon dorisi”, “Inson sadoqati”, “Qatagʻon” drama va komediyalari respublika teatrlari sahnalaridan munosib oʻrin egalladi.

O‘tkir Hoshimovning asarlari chop etilishi bilanoq qo‘lma-qo‘l bo‘lib ketadi. Negaki, ularda inson qismati, inson dardi, quvonchi, iztiroblari bor. Uning 2001-yilda yozilgan “Daftar hoshiyasidagi bitiklar” asarida ham inson qismati, tabiat va jamiyat taqdirini o‘ylab, kuyunchaklik bilan yozgan mulohazalari o‘rin olgan va ushbu kitobi ijtimoiy-ma’naviy hayotda muayyan iz qoldirdi.

Adib 2013-yil 24-may kuni Toshkent shahrida vafot etdi.

1441-yil 5-avgust... →	
1986-yil ... →	
1991-yil.... →	
1996-yil.... →	
2001-yil... →	

**9. O‘tkir Hoshimovning “Dunyoning ishlari” qissasidan olingan boblar bilan tanishing. Matnlar yuzasidan berilgan savollarga javob bering.**

### ALLA

Qabriston g‘ishtin devor bilan o‘ralgan. Darvozaning narigi tomonida – go‘rkovning hujrasi. Berigi tomonida tashqarida uning hovlisi.

Darvozaga yaqin kelishim bilan ichkaridan hujra tomondan tilovat sadosi eshitildi. Xuddi shu payt hovli tomondan alla ovozi yangrab ketdi:

Alla-yo, alla, jonim bolam-a, alla...

Kim bo‘ldi bu? Go‘rkovning kelinimi? Qizimi?.. U hamon sokin tovushda davom etardi:

Uxla, qo‘zim, alla-yo, shirin qizim, alla...

Ertalab yomg‘ir yog‘gan edi. Darvozaning temir panjaralarida suv tomchilari yaltiraydi. Ko‘lmakda quyosh jilolanadi. Muzdek tutqichdan ushlagancha turib qoldim. Bir tomonda tilovat sadosi, bir tomonda alla. Ajab, ular bir-biriga xalaqit bermas, bir-birini rad etmas, ikkalasi qo‘shilib bahor nafasiga to‘lgan osmonda qabriston yelkasidagi ko‘chalar chiqargan teraklar ustida parvoz qilar edi:

“Rabbano-o, rabbano-o-o...”... “Alla-yo, alla”...

Bir xil bo‘lib ketdim. Panjarador darvozaga suyanib uzoq turib qoldim.

Onam beshigim ustida alla aytganini eslay olmayman. Esimni taniganimda beshikda yotmaydigan bo‘lgan edim. Biroq oyim ukamga alla aytganini eshitganman. Ko‘p eshitganman.

Qish kechalari sandalga suqilib tizilishib yotardik. Uy nim qorong‘i. Piligi pastlatib qo‘yilgan chiroq xira nur sochadi. Shiftda lampa shisha uchidan chiqqan nur doirasi ko‘rinadi. Chiroq doim bir joyda turgani uchun shiftning o‘sha yeri sarg‘ayib qolgan. Hamma yoq jimjit. Shu qadar jimki, dadamning hujrasidagi soatning chiqillayotgani ham eshitiladi. Tashqarida bo‘ron guvullaydi. Quruq qorning derazaga chirsillab urilishi eshitilib turadi. Ukamning beshigi g‘ichirlaydi. Onam alla aytadi.

Alla, bolam, uxlay qola-a, alla,

Quhog‘imda orom ol, alla...

Yo‘q, bu qo‘shiq emas. Oyimning ovozida qandaydir boshqa narsa bor. Mungmi, iltijomi...

Tog‘lardagi shunqorim-ey, alla,

Beshikdagi qo‘chqorim-ey, alla...

Ukam ovunib qoladi. Oyimning o‘zi ham beshikni quchoqlagancha mudrab ketadi. Bir mahal beshik ustidagi qo‘li shilq etib yoniga tushdi. Ukam uyg‘onadi, beshik yana g‘ichirlaydi. Oyim ham cho‘chib ko‘zini ochadi.

Beshikni ohista tebratadi:

Yigitlarning sardori bo‘l, jonim-a,

Yuragimning madori bo‘l, alla...

Yana jimlik cho‘kadi. Soat chiqillaydi, qor derazaga chirsillab uriladi. Sekin-sekin ko‘zim uyquga ketarkan, qulog‘im ostida yana o‘sha ma’yus sado eshitiladi.

Oq uy ola bargaklarda jonim-a,  
Yonib turgan chirog‘imsan, alla...

Keyin... katta bo‘lganimda ham qayerda alla eshitsam, negadir yuragim shirin orziqish bilan talpinib ketar, nega bunaqa bo‘layotganini o‘zim bilmas edim. Bir yili uch-to‘rt qalamkashlar olis tog‘ qishlog‘iga bordik. Mashina yurmas edi. Ot minib o‘rganmaganim uchun charchab qoldim. Manzilga yetmasimizdan qorong‘i tushdi. Yaylovdagi qirg‘iz o‘tovida tunab qolishga to‘g‘ri keldi. Qimiz ichdik, sovuq suzma yedik. Keyin birimiz namatga, birimiz po‘stakka yonboshlagancha uxlab qolibmiz. Bir mahal sovuq qotib uyg‘onib ketdim. Atrof jimjit. Faqat olisda it akillaydi. O‘tov keragasidan shom yegan oy mo‘ralaydi. Shu payt qo‘shni o‘tovda chaqaloq yig‘isi, ketidan ayol kishining alla aytayotgani eshitildi. Men uning so‘zlarini aniq bilmasam ham, alla aytayotganini his qilib turardim. Negadir yuragim shirin orziqib ketdi. Ayolning ovozi, alla ohangimi, xuddi onamga o‘xshab ketardi. Negadir shu ohang bilan qalbinga orom kirganday bo‘ldi-yu, o‘z-o‘zidan ko‘zlarim yumilib keta boshladi. Go‘yo qirg‘iz ayol bolasiga emas, menga alla aytayotganday... Yaqin orada bunaqa shirin uxlamagan edim.

Oradan uch-to‘rt yil o‘tgach, shunaqa holatni yana bir marta boshimdan kechirdim. Kislovodskka dam olishga borgan edik. To‘rtta o‘zbek yig‘ilsa, osh qilish harakatiga tushib qoladi. Sanatoriy yaqinidagi xonadondan qozon topdik. Bu yerning aholisi yoz paytida uyiga dam oluvchilarni ijaraga qo‘yadi. Bu xonadonda ham sibirlik juvon ijarada o‘tirarkan. Sap-sariq sochli, barvasta gavdali, yuzini sepkil bosgan juvon qishloq ayollariga xos soddadillik bilan bizga darrov elakishib ketdi. Kichkintoy o‘g‘ilchasini ko‘tarib goh sabzi archishadi, goh idishlarni yuvadi. O‘zbek palovining ta’rifini ko‘p eshita ham, hech yemaganini dilkashlik bilan aytib kuladi.

Birgalashib osh yedik, ko‘k choy ichdik. Keyin sibirlik juvon kichkintoyini ko‘tarib uyga kirib ketdi. Oradan chorak soatcha o‘tgach, ichkaridan uning ovozi keldi:

Ba-yu ba-yushki, bayu, ba-yu-bay...

Qiziq, yuragimda yana o‘sha shirin orziqish uyg‘ondi. Uning ovozi ham onamnikiga o‘xshab ketadi. Do‘stlarim gangir-gungur suhbatlashib o‘tirishibdi. Men bo‘lsam ichkaridan chiqayotgan alla sadosiga quloq solaman. “Ba-yu, bay...”

Bu qanday holat?! Bu qanday sehr? Nima o‘zi bu?

Ehtimol, dunyoning bu chetida turib bir odam o‘z seviklisiga aytgan dil rozini dunyoning narigi chekkasidagi boshqa bir odam tushunmas, ehtimol, dunyoning bu chetida turib bir odam aytgan qo‘shiqni dunyoning narigi chekkasidagi boshqa bir odam tushunmas, ehtimol, dunyoning bu chekkasida turib bir odam aytgan eng oqilona fikrni dunyoning narigi chekkasidagi boshqa bir odam tushunmas. Biroq dunyoning bu chekkasida turib ona aytgan allaga dunyoning narigi chekkasidagi go‘dak bemalol orom oladi. Nega shunaqa? Nahotki, go‘dak tushungan narsaga biz tushunmasak? Ehtimol, buning boisi boshqa joydadir. Ehtimol, ona tushungan narsani bizlar tushunmasmiz. Balki shuning uchun ham Ona tabiatning eng buyuk ixtirosidir.

Bilmadim... Qabriston darvozasi oldida, bir tomonda tilovat, bir tomonda alla yangrayotgan darvoza oldida turib shularni o‘yladim-ug‘alati bo‘lib ketdim.

## HAQQUSH

Do‘stlarim “Juda siqilib ketdingiz, aylanib kelamiz”, deb tog‘ga sudrashdi. Alla-pallagacha o‘tgan-ketgandan gaplashib o‘tirdik. Qiziq, har gal bosh ustiga bosib tushgudek mag‘rur qad kerib turgan tog‘larni, ulkan novvot parchasidek qirrador qoyalarni ko‘rganda hayot abadiy emasligini o‘ylayman. Qorong‘i osmonda yana ham qoraroq soyadek qilt etmay turgan bu qoyalar bizga o‘xshaganlarning necha-nechasini ko‘rdi ekan?.. Faqat ularning tili yo‘q...



Kechasi tunagan joyimiz sovuq edi. Anchagacha uxlay olmadim. Tashqarida teraklar shitirlaydi. Qayerdadir, yaqin joyda daryo shovullaydi. Bir mahal qulog‘imga dilni orziqtiruvchi mungli tovush chalindi: “Haq-qu, haq-qu...” Bir zum sukunat tushdi-da, ancha olisdan yana o‘sha tovush takrorlandi: “Haq-qu, haq-qu...”.

Bola edim, go‘dak edim. Onam aka-ukalar haqida g‘alati bir cho‘pchak aytib bergan edi. Emishki, bir zamonlar ikki aka-uka yashagan ekan. Birining oti Ilhaq, ikkinchisniki Is‘hoq ekan. Ikkalasi bir-birini ko‘rarga ko‘zi yo‘q, juda noahil ekan. Ularning ko‘nglini olaman, deb ikki o‘rtada onalari adoyi tamom bo‘pti. Shunda qodir tabiatning qahri kelibdi-yu, ikkovining ham ko‘zini ko‘r qilib, qushga aylantirib qo‘yibdi. Shundagina aka-uka bir-birini ko‘rmasa turolmasligini, bir-biriga kerak ekanligini tushunibdi. O‘shandan beri ikkalasi kechalari bo‘zlab bir-birini chaqirib chiqarmish-u, topolmas emish...

Tashqarida hamon terak barglari shitirlaydi. Daryo shovullaydi. Mana shu shovullagan sukunat ichida dilni titratadigan iztirobli nido yangraydi: “Ilhaq! Is‘hoq!..”

Bechora onam! O‘sha iztirobli afsonani aytayotganingda inidan mo‘ralagan qaldirg‘och bolasidek ko‘rpadan bosh chiqarib yotgan besh bolang bir-biri bilan inoq bo‘lishini shunchalik xohlaganmiding!

... Onalar farzandlari hamisha birga bo‘lishini istaydilar. Qismat esa ularni qanot chiqarishi bilan har yoqqa uchirib ketadi. Hayot loaqal shu masalada ham onalarga shafqat qilmaydi.

## **QARZ**

Bir kuni gapdan gap chiqib, aka-ukalar oyimga hazillashdik:

– Har oy pensiya olasiz. Shuncha pulni qayoqqa qo‘yayapsiz? Sandiqqa bosyapsizmi?

– Sandiq qatta, bolam? – deb kuldi onam. – Qarzlirim bor. O‘shanga beraman-da.

Akamning qovog‘i osildi.

– Qarz? Hali birovdan qarz ham olasizmi?

– E, sanga nima, bolam! Mening ishingga aralashib nima qilasan?  
Keyin gap boshqa yoqqa aylanib ketdi. Bu suhbatni butunlay unutib yuborgan edim. Qaysi kuni ertalab hovlida aylanib yursam, qo‘shnimizning yetti yashar qizchasi Nilufar chiqib qoldi. Oppoq bantik taqib, atlas ko‘ylak kiyib olibdi.

– Ha, Nilu, yasanib olibsan, mehmonga ketyapsanmi? - dedim erkalab.

– Bugun man tug‘ildim, – dedi u qop-qora ko‘zlarini pirpiratib jilmayarkan.

– Iya, yubilyar ekansan-da, shoshmay turchi, hozir. Uydan bir hovuch konfet olib chiqdim.

– Mana, o‘rtoqlaring bilan ye.

Nilufar kattalardek jiddiy bosh chayqadi:

– Men shokolad yemayman. Tishim tushgan. – Keyin yana o‘sha jiddiy ohangda qo‘shib qo‘ydi: – Bultur poshsha buvim menga tufli olib beruvdilar. Tug‘ilganimda, – qizcha o‘ylanib qoldi. – Keyinchi, Bahoga uch oyoqli velosiped, Baxtiga ko‘ylak...

Qo‘limdan konfet tushib ketdi.

## **GILAM PAYPOQ**

Har yili dam olishga borganimda onamga gilam paypoq olib kelaman. Kavkaz tomonda ko‘p bo‘ladi. Juba deyishadi, jurabi deyishadi. Oyim xuddi noyob narsaga ega bo‘lgandek, uzundan uzoq duo qiladi. Shundoq mehribon o‘g‘li borligini aytib qo‘shnilarga maqtanadi. Oyimning oyog‘i kasal. Salqin tushishi bilan shishib ketadi, og‘riydi.

Qo‘ni-qo‘shnilar ahvol so‘rasa, ularniyam, o‘ziniyam yupatadi.

– Ha, endi keksachilik-da, o‘rgilay.

Lekin onamning oyoq og‘rig‘i faqat keksalikda emas. Buni boshqalar bilmasa ham, men bilaman. Yaxshi bilaman.

Bolaligimda ko‘p kasal bo‘lardim: qizamiq, ko‘kyo‘tal, bezgak... Shuning uchun oshxonadagi mixda ko‘k qarg‘aning patidan tortib, gultojixo‘rozgacha ilig‘liq turardi... Ayniqsa, tomoq og‘rig‘i yomon

qiynaydi. Oyog'im zaxga tegishi bilan tomog'im og'rishga tushadi. Oyoq bilan tomoqning nima aloqasi borligini haliyam tushunolmayman.

O'shanda necha yoshdaligim esimda yo'q. Biroq juda kichkina edim. Bir kuni akalarim bilan yaxmalak o'ynab terlab ketdim. Terlab turib muz yedim. Kechqurun isitma ko'tarildi. Quv-quv yo'talaman. Oyim tomog'imni achchiqtosh bilan chayib ko'rdi, bo'lmadi, turshak qaynatib suvini ichirdi, bo'lmadi... Oxiri tomog'imni xippa bo'g'ib qo'ydi. Og'riqni sezmayman-u, nafas olishga qiynalaman. Hushimdan keta boshlaganimni es-es bilaman. Qulog'im ostida onamning chirqillab yig'lagani, hadeb bir gapni qaytarayotgani eshitiladi:

– Voy, endi nima qilaman! Voy, bolam o'lib qoladi!

Keyin meni shosha-pisha ko'rpachaga o'radi. Bir mahal onamning qo'lida ketayotganim esimda bor. Gupullatib qor yog'ayotganini his etib turardim-u, biroq yuzimga qor tushmas edi. Onamning issiq nafasi urilib turar, u sirg'anib-sirg'anib borar, og'ir hansirar edi.

Xira chiroq miltirab turgan allaqanday uyga kirdik. Ko'z o'ngim yana qorong'ilashib ketdi. Oyim hamon chirqillaydi:

– O'lib qoladi! Bolaginam o'lib qoladi!

– Vahima qilmang, poshsha, dardni bergan xudo, davosiniyam beradi.

Bu Hoji buvining ovozi ekanini g'ira-shira idrok etdim. Hoji buvi boshimni tizzasiga qo'yib chalqancha qilib yotqizdi. Doka o'ralgan barmog'ini og'zimga tiqdi. Ko'nglim ag'darilib, tipirchilagancha yig'lar, ammo Hoji buvining qo'lidan chiqib ketolmasdim. U tomog'imga nimadir qildi. Dod solib qo'lini tishlab oldim. Qiziq, birpasdan keyin ahvolim yengillashdi. Ko'zimni ochsam, Hoji buvi jilmayib turibdi.

– Nega tishlaysan, kuchukvoy? – dedi boshimni silab.

Keyin tepamga oyim engashdi. U hamon hansirar, sochlari to'zg'ib ketgan, yuzi jiqqa ho'l edi.

Birpasdan keyin qaddimni rostlab, tanchaga oyog'imni tiqib o'tirdim. Hoji buvi allaqanday taxir suyuqlik ichirdi. Keyin oyimga qaradi-yu, bir xitob qildi:

– Voy, poshsha-a-a! Nima qilib qo'ydingiz, tamom bo'psiz-ku!

Oyim talmovsirab, goh menga, goh Hoji buviga qarar edi.

– Oyog‘ingizdan ayrilibsiz-ku! – dedi Hoji buvi boshini chayqab. – Shu ahvolda qandoq keldingiz?

Kavshandozda turgan oyimning kalishini endi ko‘rdim. Kalishning ichi qorga to‘la edi.

– Sarpoychan kelaverdingizmi?! – dedi Hoji buvi hamon o‘sha vahimali ohangda. – Endi nima qilasiz? Qarg‘aning miyasini chaqib surmasangiz, cho‘loq bo‘lib qolasiz.

Oyim tanchadan oyog‘ini chiqardi. Ikkala oyog‘i qir-qizil go‘sht bo‘lib ketgan edi.

– Sovuq yegani yo‘q, – dedi sekin. – Qaytaga isib ketdi. Qorda o‘zi isib ketarkan.

Hoji buvi uning oyog‘ini uqalab ko‘rdi.

– Sezyapsizmi?

– Nimani? – dedi oyim oyog‘iga emas, menga qarab.

– Qo‘limni sezyapsizmi?

Oyim indamay bosh chayqadi-da, piqillab yig‘lab yubordi. ...

Ertasiga u yotib qoldi. Uzoq yotib qoldi. Dadam bir joydan qarg‘a otib keldi. Hoji buvi qo‘lidan kelgancha dori-darmon qildi... Keyin oyim tuzaldi. Biroq salqin tushishi bilan oyoqlari shishib, azob beradigan bo‘lib qoldi...

Har yili dam olishga borganimda onamga gilam paypoq olib kelardim. U xuddi noyob narsaga ega bo‘lgandek, ketimdan uzoq duo qiladi, birpasda hamma qo‘shnilarga ko‘z-ko‘z qilib chiqadi, shundoq “mehribon” o‘g‘li borligini aytib maqtanadi. Shunda qor gupullab yog‘ib turgan mudhish kecha, onamning qip-qizil go‘shtga aylanib ketgan oyoqlari ko‘z o‘ngimga keladi-yu, indamay chiqib ketaman.

## **ILTIJO**

Oyi, men keldim... Eshityapsizmi, oyi, men yana keldim...

Qarang, oyi, tag‘in ko‘klam kirdi. Esingizdami, har yili bahor kirishi bilan sizni dalaga olib chiqardim. Siz charaqlagan oftobni, tiniq osmonni, ko‘m-ko‘k maysalarni ko‘rib quvonardingiz. Esingizdami,

nevarangiz terib kelgan boychechaklarni ko‘zingizga surtib, “omonliq-somonliq” qilardingiz...

Bugun... o‘zingizning ustingizdan boychechak o‘sib chiqibdi... Yo‘q, yo‘q, oyijon... Yig‘layotganim yo‘q. Bilaman, men yig‘lasam, siz bezovta bo‘lasiz. Hozir... hozir o‘tib ketadi. Mana, bo‘ldi...

Ertalab-chi, oyi, yomg‘ir yog‘di. Qattiq yomg‘ir yog‘di. Siz bahor yomg‘irini yaxshi ko‘rardingiz... Keyin oftob chiqib ketdi. Qarang, oftob charaqlab yotibdi... esingizdami, siz menga oftob to‘g‘risida cho‘pchak aytib bergan edingiz. O‘sha oftob charaqlab yotibdi... Ko‘ryapsizmi...

Esingizdami, oyi, ukamga alla aytardingiz. Men allaning ohangiga mast bo‘lib uxlab qolardim. O‘sha beshikda men ham yotganman. Allangizdan men ham orom olganman. Nima qilay, oyi, men alla aytishni bilmayman. Qabringizni silab qo‘ysam orom olasizmi... Mana, oyijon, mana... Yo‘q, yo‘q, yig‘layotganim yo‘q. Hozir, hozir o‘tib ketadi.

Esingizdami, oyi siz bir marta, atigi bir marta, o‘shandayam hazillashib: “Meniyam kitob qilib yozsang-chi, o‘g‘lim” degandingiz. Men: “Sizning nimangizni kitob qilaman, oyi?” degan edim. Xafa bo‘lmang, men ham hazillashgan edim. Mana o‘sha kitob. Yo‘q, uni men yozganim yo‘q. Uni siz yozdingiz. Men uni qog‘ozga tushirib, odamlarga tarqatdim, xolos. Men uni dunyodagi hamma onalar o‘qishini xohlayman. Bilaman, dunyodagi hamma onalar yaxshi. Shundoq bo‘lsayam, ularning hammasi Sizga o‘xshashini xohlayman...

### **Savollar:**

1. “Gilam paypoq” hikoyasida onaning bolasiga fidoyiligi nimalarda ko‘rinadi?
2. Iltijo deganda nimani tushanasiz?
3. “Qarz” bobi so‘ngida qo‘shnining qizchasi Nilufar bilan suhbat chog‘ida nega adibning qo‘lidan konfetlar tushib ketdi?
4. “Haqqush” hikoyasida noahil aka-ukalar qanday jazoga tortildi?
5. “Alla” bobidagi ona allasining nima sababdan barcha uchun tushunarli ekanligini sharhlang.

**10. Quyidagi gaplar qaysi hikoyaga tegishli ekanligini aniqlang.**

Vahima qilmang, poshsha, dardini bergan Xudo davosiniyam beradi.	
...Onalar farzandlari hamisha birga bo‘lishini istaydilar.	
Bahoga uch oyoqli velosiped, Baxtiga ko‘ylak...	
Negadir shu ohang bilan qalbimga orom kirganday bo‘ldi-yu, o‘z-o‘zidan ko‘zlarim yumilib keta boshladi.	
Ertalab-chi, oyi, yomg‘ir yog‘di.	

**11. “Ona mehri” mavzusida insho yozing.**

**12. Hikoyani o‘qing va munozarali savollarga javob bering.**

### **URUSHNING SO‘NGGI QURBONI**

Shoikrom ayvon to‘ridagi sandal chetida xomush o‘tirardi. Allaqachon bahor kelib, kunlar isib ketganiga qaramay, hamon sandal olib tashlanmagani, ammo hech kim bu to‘g‘rida o‘ylab ko‘rmaganini u endi payqaganday g‘ashi keldi. Bo‘z ko‘rpa ustidan yopilgan, shinni dog‘i qotgan quroq dasturxon ham hozirgina go‘jadan bo‘shagan sopol tovoq, bandi kuygan yog‘och qoshiq ham uning ko‘ziga xunuk ko‘rinib ketdi. Ammo beparvolik bilan qo‘l siltadi-yu, do‘ppisini sandal ustiga tashlab yonboshladi.

Yarim kecha bo‘lib qolgan, atrof jimjit. Faqat olislarda it uliydi. Ayvon to‘sinidagi uzun mixga ilig‘liq lampochka xira nur taratadi. Chiroq atrofida o‘ralashgan chivinlar bir zum tinmaydi. Hovlining yarmigacha ariq tortib ekilgan qulupnay pushtalari orasida suv yaltiraydi. Onda-sonda rang olgan qulupnaylar ko‘zga tashlanib qoladi. Qayoqdandir shamol keldi. Hovli etagidagi yong‘oq shoxlari bir

guvillab qo‘ydi. Shoikrom uyqu elita boshlagan ko‘zlari bilan o‘sha tomonga qaradi-yu, ter hidi anqib turgan lo‘labolishga boshini tashladi. Shu ondayoq yana o‘sha tovoqqa, bandi kuygan qoshiqqa ko‘zi tushib, tag‘in g‘ashlandi. “Ziqna bo‘lmay o‘! — deb o‘yladi xotinini so‘kib. — Azaldan qurumsoq edi, zamon og‘irlashgandan buyon battar bo‘ldi”.

Ichkarida chaqaloq yig‘ladi. Beshikning g‘irchillagani eshitildi. Bola xuddi shuni kutib turganday, battar big‘illay boshladi. Kattasi ham uyg‘onib ketdi shekilli, qo‘shilishib yig‘lashga tushdi.

Shoikrom siltanib qaddini rosladi.

— Ovozini o‘chir, Xadicha!

Ichkaridan xotinining beshikni mushtlagani, zardali tovushi eshitildi:

— Ovozi o‘chsa koshkiydi! To‘qqiz kechasida jin tekkan bunga!

“Kambag‘alning ekkani unmaydi, bolasi ko‘payadi o‘zi, — deb o‘yladi Shoikrom ijarg‘anib. — Shu kunimdan ko‘ra urushga borib o‘lib keta qolganim yaxshiydi”.

Uni urushga olishmadi. To‘qimachilik kombinatida montyor yetishmasmidi, yo o‘zi yaxshi ishlarmidi, har qalay, uni olib qolishdi. Shoikrom urush boshlanishidan sal oldin uylangan edi. Urush bo‘ldi-yu, zamon o‘zgarib ketdi. Bir xil odamlar tirnoqqa zor. Uning xotini bo‘lsa, yonidan o‘tib ketsa ham boshqorongi bo‘laveradi. Xudo bergandan keyin tashlab bo‘larmishmi, deb ketma-ket uchta qiz tug‘ib berdi. Urushning qora qanoti uzoqlab ketgan bo‘lsayam, hamon uning soyasi odamlar boshiga ko‘lanka tashlab turibdi. Hali u qo‘shninikida aza ochiladi, hali bu qo‘shninikida.

Hovli etagidagi pastak eshik g‘iyqilladi. Shoikrom kafti bilan ko‘zini chiroqdan pana qilib qaradi-yu, shu tomonga kelayotgan onasini ko‘rdi. U uylanganidan keyin otadan qolgan hovlini o‘rtadan ikki paxsa devor olib bo‘lishgan. Bungayam bir chekkasi Xadichaning injiqligi sabab bo‘lgan edi. Har xil ikir-chikir gaplar chiqaverganidan keyin Umri xola ro‘zg‘oring boshqa bo‘lsa o‘zingga qayishasan, deb ularning qozonini boshqa qilib berdi. O‘zi kichik o‘g‘li Shone‘mat bilan narigi hovlida qoldi.

Rangi uniqqan chit ko‘ylak ustidan nimcha kiyib olgan Umri xola sharpaday unsiz yurib keldi-da, yapaloq “musulmon” g‘ishtdan yasalgan zinadan ayvonga ko‘tarildi.

— Hali uxlamovmiding? — dedi u zinadan enkayib chiqayotganida surilib ketgan ro‘molini qayta o‘rab.

— Ko‘rmaysizmi, chaqaloq tinchimayapti. O‘zim itday charchaganman.

— Bola bo‘lgandan keyin yig‘laydi-da, — dedi Umri xola yupatuvchi tovushda. — Yotaver, bolam. — U yana o‘sha unsiz odimlar bilan ichkari uyga kirib ketdi.

Qaynana-kelin bir balo qilib, bolalarni tinchitishdi. Keyin ikkovlari boshlashib chiqishdi. Xadicha bir qo‘lida choynak-piyola, bir qo‘lida zog‘ora non keltirib, dasturxon ustiga qo‘ydi.

— Choy o‘chib qopti, — dedi u zog‘ora ushatarkan.

Umri xola Shoikromning yonboshiga, shaparak ko‘rpachaga o‘tirdi.

— Ol o‘zing ham, — dedi u tomirlari bo‘rtib chiqqan qo‘llari bilan, sochilgan uvoqlarni yig‘ib og‘ziga solarkan. Shoikrom onasining barmoqlari tars-tars yorilib ketrganing endi payqadi. Ilgari ham shunaqamidi, yo‘qmidi, eslay olmadi.

— Ovqatingdan qolmadimi? — dedi u cho‘kkalab o‘tirganicha choy quyayotgan xotiniga qarab.

Xadichaning uzunchoq sarg‘ish yuzi qizardi. Aybdordek mahzun tovushda uzr so‘radi:

— Qolmovdi-ya.

Shoikrom uning qizarganidan yolg‘on gapirayotganini sezdi. Kim bilsin, ertalab o‘ziga isitib berish uchun shunaqa deyayotgandir...

— Yo‘q, bolam, ovqat kerakmas, — dedi Umri xola shoshilib. — Xayol surib yotib uyqum o‘chib ketdi... — U bir lahza jim qoldi-da, o‘ziga gapirganday sekin qo‘shib qo‘ydi. — Payshanba kuni Komil tayibning uyiga boruvdim. Har kuni nahorga bir kosadan qo‘y suti ichsa, dard ko‘rmaganday bo‘lib ketadi, dedi.

— Hozir qo‘y suti qatta, — dedi Xadicha. — Sigir suti otliqqa yog‘u... shu paytda sigirimiz tuqqan bo‘lardi-ya.



Shoikrom xotining gapini eshitmadi. Birdan uning ko‘z o‘ngida pastak deraza ostida shiftga tikilib yotgan ukasi jonlandi. Bir hovlida turib o‘n kundan buyon holini so‘ramaganiga afsuslanib, ichidan xo‘rsiniq keldi. Shone‘mat Rossiyadan ko‘chirib keltirilgan zavod qurilishida ishlay boshlaganida uni urushga olishmaganidan Shoikrom suyungan edi. Gap boshqa yoqda ekan. Ukasi sil ekan. Shuning uchun qoldirishgan ekan. Mana, uch oydirki, yerga yopishib yotibdi.

Shoikrom o‘n kuncha ilgari ishga ketayotib birrov kirib ukasidan hol so‘ragan edi. O‘shanda Shone‘matning qoq suyak bo‘lib qolganini, katta-katta ko‘zlari nimagadir chuqur ma‘no bilan o‘ziga tikilganini ko‘rgan edi.

“Yaqinda o‘ladi, — deb o‘yladi u onasining ko‘ziga qaramaslikka harakat qilib, — baribir o‘ladi”.

— Tuzukmi? — dedi u hammasi uchun o‘zi aybdorday qovog‘ini solib.

— Shukur, — Umri xola qult etib yutindi. — Hozir uxladi. — Onasi shu topda chiqib ovora bo‘lmagin, degan ma‘noda gapirganini Shoikrom tushundi.

— Ertalab xabar olaman, — dedi u onasi o‘rnidan turganida.

— Sendan nega gina qilarkan, bolam, — dedi Umri xola ayvon labida to‘xtab. — Ko‘rib turibdi-ku. Ertalab chiqib ketasan, yarim kechada qaytasan. Bu kunlar unut bo‘lib ketadi, bolam. — Zinaga yechgan kalishining bir poyi to‘nkarilib qolgan ekan, umri xola oyog‘ining uchi bilan to‘g‘rilayman deb, ancha ovora bo‘ldi. Keyin zinalardan enkayib tushdi-yu, sharpaday unsiz yurgancha, hovli etagiga qarab ketdi. Pastak eshik g‘iyqillab ochilib yopildi.

— Padariga la‘nat shunaqa turmushning! — dedi Shoikrom bo‘g‘ilib. Keyin dasturxonni yigi‘sh tirayotgan xotiniga o‘shqirdi. — Seniyam padaringga la‘nat! Tumshug‘ingni tagidan sigiringni yetaklab ketsa-yu, anqayib o‘tirsang.

— Nega menga o‘dag‘aylaysiz? — Xadicha tovoqni qoshiqqa urib, yig‘lamsiradi. — Nima, meniylam Ilhom samovarchining xotiniday so‘yib ketsinmidi? Siz kechalari smenda bo‘lsangiz. Men uchta jo‘ja bilan jonimni hovuchlab o‘tirganim yetmaydimi?!

Shoikrom xotinini tarsakilab yubormaslik uchun yuzini o‘girib, tishini g‘ijirlatdi.

Suv qalqisa, loyqasi yuqoriga chiqqanday, zamon qalqigandan buyon yomon ko‘paydi. Erta bahorda ularning tug‘ay deb turgan sigirini o‘g‘irlab ketishdi. O‘sha kecha shoikrom tungi smenada edi. Kechasi bilan sharros jala quyib chiqdi. Shoikrom tong-saharda bir nimani sezganday ko‘ngli g‘ash tortib, uyiga qaytdi. Kelsa xotini, bolalari, onasi dod solib o‘tirishibdi. Xadicha og‘iroyoq emasmi, o‘zi bilan o‘zi ovora bo‘lib bilolmay qolibdi. Ertalab tursa ko‘cha eshik lang ochiq, yong‘oqqa bog‘loqliq sigir yo‘q.

“Shu paytgacha sigir tug‘ardi, ukamning og‘ziga aqalli bir kosa sut tutardim, — deb o‘yladi Shoikrom o‘kinib. — Qani o‘shalar qo‘limga tushsa, chopib tashlardim”.

Shundoq dedi-yu, egasi ming poylasin, o‘g‘ri-bir mana, bundan ikki oycha ilgari Ilhom samovarchining xotinini pichoqlab ketishdi. Bechoraning bitta-yu bitta echkisi bor ekan. Hovliga o‘g‘ri tushganini bilib, xotin sho‘rlik dod solibdi. Eri chyxonada ekan. Yugurib borib echkining arqonidan ushlaganmi, xullas, yetib kelgan qo‘ni-qo‘shnilar qora qoniga belanib yotganini ko‘rishibdi.

— Shu kunda yana og‘ri oralab qoldi, — dedi Xadicha ko‘rpachani qoqib tancha chetiga solarkan. — Qulupnay qizarmasidan bitta qo‘ymay terib ketyapti.

— Vahima qilma! — dedi shoikrom qovog‘ini u‘yib. — Bolalar terib yegandir. O‘g‘ri qulupnayga keladimi?

— Og‘ziga bir dona olgan bo‘lsa buyurmasin. Nega kelmas ekan? Bir hovuchini opchiqib sotsa bir kosa jo‘xori beradi. Ana, borib qarang, devorning bir cheti o‘pirilib yotibdi!

— Vahima qilma! — dedi Shoikrom yana g‘o‘ldirab. Ammo bu safar o‘zining ham yuragi seskanib ketganini payqadi. Ko‘nglida paydo bo‘lgan g‘ashlikni sezdirmaslik uchun hovliga tushdi. Sekin yurib, qulupnay pushtalari oldiga keldi. Ariqlardagi suv chiroq nurida yaltirab, shamolda jimirlar, marjonday terilib rang olganqulupnaylar suvga tegay-tegay deb turardi.

“Rost-da, — deb o‘yladi u pushtalar atrofida aylanarkan, — bir hovuch qulupnayga bir tovoq jo‘xori beradi. Tansiq narsa... Xadicha yolg‘on gapirmaydi. Bolalar yegan bo‘lsa, buyurmasin, deyapti-ku. Pishiq, yo‘latmaydi...”

Bultur xotini xuddi shu qulupnay tufayli onasini ham qattiq ranjitgan edi. Umri xola bir xovuch qulupnay olgan ekan, Xadicha bolalarga non puli bo‘lar deb ekanmiz, norastalarning nasibasiga tegmang, deb bobillab beribdi.

Shoikrom o‘shanda onasining yoz bo‘yi kelini bilan yuzko‘rmas bo‘lib yurganini esladi-da, yana o‘sha gap xayoliga keldi. “Xadicha anoyi emas, qurumsoq...”

U aylanib yong‘oq tagiga bordi. Bordi-yu, chindan ham ko‘cha tomondagi devorning bir cheti o‘pirilganini, ostiga tuproq to‘kilganini ko‘rib, yuragi orqasiga tortib ketdi. Nazarida devorning kemtik joyidan birov mo‘ralab turganday bo‘ldi. Yong‘oq shoxlarining shamolda vishillashi ham, oyog‘i ostida to‘kilib yotgan devor tprog‘i ham shubhali, vahimali ko‘rinib, darrov orqasiga qaytdi.

Xadicha allaqachon uyga kirib ketibdi. U chiroqni o‘chirib, sandal chetiga yotdi-yu, ko‘nglidagi g‘ulg‘ula kuchayib ketaverdi.

Kuzda o‘zi bilan ishlaydigan yigitning hovlisidagi so‘ritokdan g‘arq pishib yotgan uzumlarini o‘g‘irlab ketishganini esladi. Shamol borgan sari avjga chiqar, hovlidagi yong‘oq barglari shovillab, shoxlari g‘irchillar, allakim ship-ship qadam bosib, ayvon labiga kelayotganday bo‘lardi.

Xadicha rost aytadi. U kechalari smenada bo‘lsa, xotini uchta jo‘ja bilan jon hovuchlab tong ottirsa, o‘g‘riga o‘ljanini katta-kichigi bormi? Qo‘liga nima ilinsa olaveradi-da. Bordi-yu, o‘zi yo‘g‘ida uyini o‘g‘ri bossa, xotini dod solsa, pichoqlab tashlasa. U yoqdan onasi chiqsa, uniyam pichoqlasa... “Vijdonsiz! Odamlarning boshiga kulfat tushganidan foydalanib qoladiganlarni qirish kerak”.

Birdan xayoliga kelgan fikrdan uning vujudi titrab ketdi. Qora kunlari uchun, ne umidlar bilan tishida tishlab yurgan g‘unajinini o‘g‘irlagani uchun, o‘lim to‘shagida yotgan ukasining oxirgi nasibasidan

mahrum qilgani uchun, non puli bo‘lar deb yetrishtirgan mevasidan judo qilayotgani uchun shundoq qasos olsinki, o‘sha xudo bexabarlardan.

U o‘rnidan sakrab turib ketdi. Chiroqni yoqib, otilib hovliga tushdi. Hamon shamol o‘kirar, osmonning goh u, goh bu burchida chaqmoq yaraqlab, yong‘oq shoxlari shubhali g‘iyqillar, ammo endi bular uni qo‘rqitmas edi. U yonboshidagi oshxonaga kirdi-yu, cho‘ntagidan gugurt olib chaqdi. Titroq qo‘llari bilan qorayib ketgan devordagi mixga ilig‘liq turgan ikki o‘ram simni oldi. Bir vaqtlar urushdan oldin u bu simlarni bazmlarga olib borar, odamlarning hovlisini mash‘aladay yoritib berardi. Endiyam yaxshilikka xizmat qilsin!

“Menga desa otib yubormaydimi! — deb o‘yladi u ayvon labiga cho‘qqayib o‘tirganicha usti yopiq simni ochiq simga ildam ularkan. — Harna bitta haromxo‘rni o‘ldirganim. Bittasi o‘lsa, boshqalari adabini yeydi”.

U chaqqon harakat qilar, a‘zoyi badani terlab ketgan, ammo buni o‘zi payqamas, faqat bir so‘zni takrorlardi: “Menga desa otib yubormaydimi!”

U simning ochiq qismini qulupnay pushtalari ustiga uloqtirdi. Sim ilonday bilanglab pushta ustiga tushdi. Yopiq qismini ayvon tagidan olib o‘tdi-da, bir uchini ustundagi ilgakka tiqib qo‘ydi. Keyin birdan bolalar kechasi hovliga tushsa nima bo‘ladi, degan xayol miyasiga urildi-yu, uyga kirdi. Xadicha yotgan joyida uyqusirab boshini ko‘tardi.

— Ha?

— Hovliga chiqma, bolalar ham chiqmasin, o‘ladi! — dedi Shoikrom ko‘zlari yonib.

Xadicha hech nimaga tushunmadi shekilli, “xo‘p” dedi-yu, boshini yostiqqa tashladi. Zum o‘tmay tekis, chuqur nafas ola boshladi. Shoikrom ayvon chirog‘ini o‘chirib, yana uyga kirdi. Har ehtimolga qarshu shundoq eshik tagiga, namatga ko‘ndalang yotib oldi.

“Menga desa otib tashlamaydimi?” deb o‘yladi yana o‘shanday zarda bilan. Shu topda negadir bolalarini emas, xotinini ham emas, ukasini o‘yladi. Shone‘mat bolaligida ham zaifgina edi. Shoikrom uni har kuni maktabdan o‘zi olib kelar, ikkinchi smenada dars tugaguncha poylab o‘tirardi. Otasi o‘lganida Shoikrom oltinchida, ukasi ikkinchida

o'qirdi. O'shanda Shone'mat yig'lamagan, ammo ichikib kasal bo'lib qolgandi. Ona-bola uni avaylab katta qilishdi. Endi bo'lsa, besh kunligi qoldimi yo'qmi, aka bo'lib xabar ham ololmaydi.

Shoikrom uxlamadimi, yo'qmi, bilolmadi. Bir mahal bola yig'ladimi, yo tashqarida shamolning guvillashi aralash dahshatli bir faryod qulog'iga kirdimi, anglay olmay qoldi. Sapchib o'rnidan turib ketdi. Ayvon chirog'ini yoqishi bilan qulupnay pushtasida muk tushib yotgan odam gavdasini ko'rdi-yu, dahshatdan qotib qoldi. Shu ondayoq xato qilganini, qotillik qilganini payqadi. Sim uchini shartta ilgakdan yulib olib, hovliga otildi. "Boshqalari qochdi" degan fikr lip etib xayolidan o'tdi. Pushtalar ustida sakrab-sakrab yurib borarkan, oyog'i botib ketayotganini payqadi. Keyin g'ujunak bo'lib yotgan odamdan uch qadam beriroqda to'xtadi-yu, birdan cho'kkalab qoldi. Bir lahza ko'zlari olayib tikilib turdi-da, ko'ksidan shamol g'uvurini ham, o'z vujudini ham larzaga soluvchi bir nido otilib chiqdi:

— Oyi-i-i!

U boshidan hushi uchib borayotganini elas-elas his qilib o'zini yerga otdi. Titroq qo'llari bilan loy changallagancha cho'kkalab ko'ksiga mushtlay ketdi.

— Oyi! Oyijon!

Umri xola bir qo'li bilan uniqqan chit ko'ylagining etagini mahkam changallab olgan, etak ichida ikki hovuch pishgan-pishmagan aralash qulupnaylar ko'rinib turar, boshqa qo'li bilan esa ilondek simni ushlab turardi. Shoikrom uning qulupnay qizili yuqqan, yorilib ketgan barmoqlarini, bo'rtgan tomirlarini aniq ko'rdi. Nariroqda, loyli ariq ichida uning kalishi yotar, chamasi, sim oyog'iga tekkanida yulib olmoqchi bo'lgan-u, qo'liga o'ralashib yiqilgan edi.

Shoikrom loyli marzadan emaklab borgancha, o'zini onasining quchog'iga otdi.

— Oyijon, oching ko'zingizni! — dedi u gezarib ketgan lablari bilan onasining muzday yuzidan o'pib.

U anchadan keyin o'ziga keldi-yu, tepasida xotini turganini, qizchalari yig'layotganini payqadi. Boshini ko'tarishi bilan marza chetida cho'nqayib o'tirgan Shone'matga ko'zi tushdi. Necha

haftalardan buyon oʻrnidan jilmay yotgan ukasi, aftidan, qandaydir kuch topib emaklab chiqqan, koʻylagining yelkalari osilib turar, katta-katta koʻzlari vahima bilan boqar edi.

— Nima qilib qoʻydim, ukam! — dedi Shoikrom yana balchiqqa belangan kafti bilan yuzini changallab. Keyin yana onasining ustiga oʻzini tashladi. U onasini koʻtarishga urinar, ammo onasining ikki buklangan gavdasi negadir hech tiklanmas edi.

— Sut ichmay zahar ichsam boʻlmasmidi, — dedi Shoneʼmat ovozi titrab.

Shoikrom bu ojiz, titroq tovushdan seskanib, ukasiga tikilib qoldi.

— Zahar ichsam boʻlmasmidi, — dedi Shoneʼmat yana oʻsha ohangda. Aftidan, u yigʻlay olmas, yigʻlashga madori yetmasdi. — Kechayam aytuvdim, koʻnmadilar. Qulupnayga sut alishadi, dedilar.

Shoikrom boshqa hech nimani eshitmadi. Eshitilmadi. Foydasi ham yoʻq edi.

\* \* \*

Umri xolani peshin namoziga chiqarishdi. Goʻristondan chiqib kelishayotganida Shoikrom odamlarning oʻzaro gapini eshitib qoldi.

— Urush tamom boʻpti, eshitdingizmi?

### **Munozara uchun savollar:**

1. Asar nima uchun “Urushning soʻnggi qurboni” deb nomlangan?
2. Urushning soʻnggi qurboni kim? U nima sababdan qurbon boʻldi?
3. Urush Shoikromning ongiga qanday taʼsir koʻrsatdi?
4. Nima sababdan Shoikrom hayotdan hursand emas?
5. Shoikrom kimlardan oʻch olmoqchi edi? Uning qalbida oʻch olish tuygʻusi qay tarzda paydo boʻldi?
6. Bu tuygʻu Shoikromni yaxshilikka olib keldimi? Qanday voqea sodir boʻldi?
7. Nima sababdan Shoikrom xotini yolgʻon gapirayotganini bilib tursa ham, uni qoralashni istamaydi?

**13. “Urushning so‘nggi qurboni” asari bo‘yicha tuzilgan jadvalni to‘ldiring.**

Asarning nomi	Asosiy qahramonlar	Ularning o‘ziga xos sifatleri	Orzu-maqadlari	Maqsadlarning amalga oshmaganligi sabablari	Munosabat bildirish	Menimcha .... Asarning eng ta’sirchan joyini ...
Urushning so‘nggi qurboni	Umri xola .... ....	Mehribon, g‘amxo‘r, fidoyi.	Farzandlarning salomatligi, tinchligi, osuda hayot	Urush.... Qahatchilik	Umri xolani o‘g‘ri desa bo‘ladimi? Kim haq-u kim nohaq? Nega?	

**14. “Daftar hoshiyasidagi bitiklar” asaridan parchalarni o‘qib, chiqargan xulosalaringizni aytib bering.**

**Laylak**

Ona yosh edi. Ona navjuvon edi. Bola g‘or edi, bola go‘dak edi... Kunlarning birida onabola qishloqqa – uzoq qarindoshlarinikiga boradigan bo‘lishdi. Ona qaddini g‘oz tutib, tez-tez yurib borar, bola esa alang-jalang qilib atrofdagi manzaralarni tomosha qilar edi.

Qishloq guzarida yarmini yashin uchirib ketgan bahaybat chinor bor ekan. Bola daraxtni ko‘rib angrayibqoldi: chinorning tarvaqaylab o‘sgan shoxida supradek kattakon uya qorayib ko‘rinar, uyada esa oyog‘i, tumshug‘i uzun bir qush turar edi. Bola mo‘jiza ko‘rgandek taqqa to‘xtab qoldi.

– Anavi nima, oyi? – dedi o‘sha tomondan ko‘z uzmay.

– Laylak, o‘g‘lim, laylak! – ona o‘g‘lining boshini silab qo‘ydi. – Yura qol, jonim.

Bola hech qachon bunaqa qushni ko‘rmagan edi. Qush negadir bir oyoqlab turardi. U yana to‘xtab qoldi.

– Nima u, oyi? – dedi tag‘in chinor uchiga ko‘z tikib.

– Laylak, o‘g‘lim, laylak.

– Nimaga bir oyoqda turibdi?

Ona kuldi:

– Bir oyog‘i charchagandir-da. Yura qol, jonim.

Bola hech qachon bunaqa qushni ko‘rmagan edi. Qush negadir bo‘ynini cho‘zib tumshug‘ini osmonga qaratib silkitar, shunda “tarak-tarak” degan ovoz eshitilardi.

Bola tag‘in to‘xtab qoldi.

– Nima o‘zi u, oyi?

Uning ko‘zlarida quvonch bor edi. Hayrat bor edi. Ona shoshib turardi. Mingta yumushi bor edi. Hali shaharga qaytishi kerak.

– Laylak dedim-ku, jinnivoy, – deb ohista egilib, o‘g‘lining yuzidan o‘pdi. – Senga salom beryapti-da.

Ona yosh edi. Ona navjuvon edi.

... Oradan o‘ttiz besh yil o‘tdi. Bola yigit bo‘ldi. Ona keksayib qoldi. Oyog‘idan mador, ko‘zidan nur ketdi.

Kunlardan birida ona-bola ittifoqo yana o‘sha qishloqqa borib qoldilar. Yigit qaddini g‘oz tutib tez-tez yurib borar, ona esa toliqqan oyoqlarini, og‘ir-og‘ir ko‘tarib bosganча harsillab kelardi. Guzardagi yarmini yashin uchirib ketgan chinor hali ham bor ekan. Buni qarangki, chinorning tarvaqaylab o‘sgan shoxida hamon supradek kattakon uya qorayib ko‘rinar, uyada esa oyog‘i, tumshug‘i uzun laylak turardi. Yigit laylakka bir qarab qo‘ydiy u qadamini tezlatdi. Orqada kelayotgan ona nursizlanib qolgan ko‘zlarini chinorga, chinor shoxida qorayib turgan uyaga tikdi. Shoxda osilib turgan narsa ko‘ziga g‘alati ko‘rindi.

– Anavi nima, o‘g‘lim? – dedi to‘xtab.

– Laylak, oyi, laylak!

Ona yaxshi eshitmadi. Uch-to‘rt qadam yurib yana to‘xtab qoldi. Savatdek narsa ichida bir nima oqarib ko‘rinyapti. Qiziq...

– Nima, o‘g‘lim? – dedi ko‘zlarini piri-piratib. O‘gil taqqa to‘xtadi. G‘ashi keldi. O‘zi shoshib turibdi: mingta ishi bor! Odam qariganidan keyin ezma bo‘lib qolarkan-da!

– Laylak! – dedi jerkib. – Laylak deyapman-ku, karmisiz!



Shunday dedi-yu, jahl bilan tez-tez yurib ketdi. Nachora, yigit yosh, yigit navqiron.

Uning yumushi ko‘p. hali shaharga qaytishi kerak... Uning yumushi ko‘p. hali shaharga qaytishi kerak... Uning g‘or, go‘dak bolalari bor.

### **Tarix “xatosi”**

To‘qqizinchi asr. Muhammad al-Xorazmiy algebra faniga asos soldi.

O‘ninchisi asr. Abu Nasr Forobiy Aristotelning “Metafizika” asariga ehg mukammal sharh yozib, “ikkinchi ustoz” unvonini oldi.

On birinchi asr. Abu Rayhon Beruniy Yer bilan Oy o‘rtasidagi masofani o‘lchadi. Ibn Sino meditsina qomusi – “Tib qonunlari”ni yaratdi.

O‘n to‘rtinchi asr. Sohibqiron Amir Temur Yevroosiyoning yarmini tasarrufga oldi. Ahli ilm boshini silab, o‘lmas obidalar yaratdi.

O‘n beshinchi asr. Ulug‘bek 1018 yulduzning harakat jadvalini tuzdi. Alisher Navoiy o‘lmas “Xamsa”sini yozdi.

O‘n oltinchi asr. “Boburnoma” olamga tarqaldi.

O‘n yettinchi asr. Shohjahon dunyodagi yetti mo‘jizaning biri – “Tojmahal”ni bunyod etdi.

Yigirmanchi asr. O‘zbek sovet olimlari misli ko‘rilmagan “ixtiro” qildilar: tarix “xato”sini tuzatib, o‘tmishda biz yoppasiga “savodsiz” bo‘lganimizni isbotlab berdilar...

### **Tarnov**

Erta bahor edi. Hordiq kuni edi. Kech turdim. Hovliga tushsam, havoning avzoyi buzuq. Yuvunib chiqib qarasam, tunuka tom peshidagi tarnov bir tomonga qiyshayib yotibdi. Qishda yoqqan qor zalvoridan qiyshayib qolgan shekilli... Qatiqroq shamol bo‘lsa, tushib ketadigan... Yo‘lakda yotgan narvonni ko‘tarib kelib tomga tiraguncha tinkam quridi, zax tortib, zildek bo‘p ketibdi.

Narvon zinasiga oyoq qo‘yishim bilan ayvondan onam tushib keldi.

- Nima qilmoqchisan? – dedi ko‘zimga termulib.
- Hozir, – dedim beparvo qo‘l siltab. –Tarnov qiyshayib qopti.
- Shoshma, bolam, avval choyingni ichib ol...
- Hozir tushaman.

Shunday dedim-u narvonga tirmashdim. Tomga chiqishim bilan pastdan onamning xavotirli xitobi eshitildi:

- Ehtiyot bo‘l, tom labiga borma!
- Uyga kirsangiz-chi! – dedim og‘rinib.

Tunuka tomni taraqqat bosib, qiyshaygan tarnov oldiga keldim. Uvallo urinaman, tarnov la‘nati o‘nglansa qani! Zanglab ketganmi, bo‘yo‘g‘i yopishib qolganmi... Aksiga olib, yomg‘ir shivilay boshladi. Avvaliga tomchilab turdi-da, keyin shiddat bilan yog‘ib ketdi. Tom labida o‘tirgancha, tarnovini qo‘shqo‘llab surishga urindim. Qilt etmaydi!

Pastdan yana onamning ovozi keldi:

- Menga qara, bolam.
- Narvon oldiga qaytib keldim.
- Nima deysiz?
- Jon bolam, mana buni kiyib olgin...

Qarasam, onam bir qo‘li bilan narvonni changallagancha, ikkinchi qo‘lida to‘n ushlab turibdi. Yupqa ro‘moli, nimchasi ho‘l bo‘lib ketgan...

Xunobim oshdi.

- Hozir tushaman, dedim-ku! Men yosh bolamanmi?
- Shamollab qolasan!
- Obbo! Siz uyga kiravering! Hozir tushaman.

Shunday deb, tag‘in tarnov oldiga qaytdim. Jahl bilan tarnovni mushtlay boshladim.

Bir mahal pastdan yana ovoz keldi:

- Ada! Adajon!
- Ha! – dedim battar xunob bo‘lib.
- Varragim yirtildi!

Qarasam, yetti yashar o‘glim hovli o‘rtasida turibdi. Oyog‘i ostida yirtilib, qamishlari qovurg‘adek turtib chiqqan varrak loyga qo‘rshib yotibdi. O‘zi ko‘ylakchan. Boshyalang. Yomg‘ir ostida diydirab turibdi.

– Uyga kir, Farrux! – dedim baqirib. – Uyga kir, shamollab qolasan!

Quloq solsa qani! Goh varragiga, goh menga qaraydi. Kapalagim uchib ketdi! Tomdan sirg'alib-sirg'alib, narvon tomon yugurdim. Uch-to'rt pillapoya tushib qaragam, onam hamon narvon oyog'ini changallab turibdi.

Ro'moli jiqqa ho'l bo'lib, sochlariga yopishib qolgan...

Bir qo'li narvon oyog'ida. Bir qo'lida to'n...

### **Rost va yolg'on**

Haqiqatdan qo'rqqan odam yolg'onning panasiga berkinadi.

Xom sut emgan banda. Odam uchta narsaning qadrini doim kechikib biladi. Yoshlik. Sog'lik. Tinchlik.

### **Gunohi azim**

Do'stni xo'rlash – gunoh. Umr yo'ldoshini xo'rlash – yuz hissa gunoh. Ota-onani xo'rlash – ming hissa gunoh. Go'dakni xo'rlash – cheksiz gunoh.

### **Qismat**

Inson hayoti shatranj taxtasidagi piyodaning yurishiga o'xshaydi. Goh oq katakdan o'tadi, goh qora katakdan... farqi shuki, birovning qismatida oq kataklar ko'proq bo'ladi, birovnikida- qora kataklar...

### **Oliy jazo**

Afrika qabilalaridan birida jinoyat qilgan odamni sazoyi qilish, qamab qo'yish, qatl etish degan gaplar yo'q ekan. Tanho o'zini qabiladan haydab yuborisharkan, xolos...

### **Tush**

Boshimga tashvish tushsa, bir narsadan qattiq siqilsam, onam tushimga kiradi.

Quvonchli damlarda esa, xohlasam ham na onamni, na otamni tushimda ko‘rolaman... Qiziq...

### **Halol va harom**

Ba‘zilar “halol va harom” deganda “yeb-ichish mumkin bo‘lgan va yeb-ichish mumkin bo‘lmagan” narsani anglaydilar... yuzaki tushuncha! Aslida bu- “qilish mumkin bo‘lgan va qilish mumkin bo‘lmagan” amallar degani hamdir...

Bilasiz: non eng tabarruk ne‘mat. Biroq nopok yo‘l bilan topilgan non ham harom!

“Noningni halollab ye”, degan gap bejiz aytilmagan.

### **Odat**

Ishdan nega kech kelganingizni surishtirsa, hayron bo‘lmang.

Bo‘yinbog‘ingizni yechishga ko‘maklashishbahonasida yoqangizni hidlab ko‘rsa, hayron bo‘lmang.

Majlisdan nima masala ko‘rilganini so‘rasa, hayron bo‘lmang. Majlisdan necha kishi qatnashganligini so‘rasa, hayron bo‘lmang. Kimning yonida o‘tirganingizni so‘rasa, hayron bo‘lmang. Telefoningizning rangi qanaqaligini so‘rasa, hayron bo‘lmang.

Necha kishi qo‘ng‘iroq qilganini so‘rasa, hayron bo‘lmang. Qayerda tushlik qilganingizni so‘rasa, hayron bo‘lmang. Bufet nechanchi qavatdaligini so‘rasa, hayron bo‘lmang. Nima ovqat yeganingizni so‘rasa, hayron bo‘lmang. Bufetchining yoshi nechadalgini so‘rasa, hayron bo‘lmang. Sizga choyni qaysi qo‘li bilan uzatganini so‘rasa, hayron bo‘lmang! Boringki, oftob qaysi tomondan chiqqanini so‘rasayam hayron bo‘lmang.

Qiziquvchanlik – ayolning tabiiy odati!

### **Ketmas boylik**

Menda bir so‘m bor. Sizda ham bir so‘m bor...

Men sizga o‘zimning pulimni berdim.

Siz ham menga o‘zingizning pulingizni berdingiz...

Hech nima o'zgarmadi. Sizda ham bir so'm pul qoldi, menda ham...

... Menda yangi bir fikr bor. Sizda ham yangi fikr bor...

Men sizga yangi fikrimni aytdim. Siz ham menga yangi fikringizni aytdingiz...

Sizda ham ikkita fikr paydo bo'ldi, menda ham... Esli odam pul almashmaydi. Fikr almashadi.

### **Kapalak va toshbaqa**

Toshbaqa guldan-gulga qo'nib yurgan kapalakni ko'rib g'ashi keldi. "Bir kunlik umriga uchishini qara!" Kapalak toshbaqani ko'rib kuldi.

"Yuz yillik umriga sudralib yurishini qara!"

### **Ko'ngil**

Odam hamma narsaga to'yishi mumkin. Boylikka... Amalga ham... Shon-shuhratga... Xudoning o'zi kechirsin-ku, hatto... hayotga ham... Qarib-churiganida "omonatingni ola qol, yaratgan Egam", deydiganlar, chin dildan gapiradi...

Odam hamma narsaga to'yishi mumkin. Faqat bir narsaga – Mehrga to'yamaydi. Bu masalada shohu-gado barobar. Holbuki, dunyoda bundan arzon narsa yo'q..bir og'iz shirin So'z, bir chimdim Mehr kimni o'ldiribdi! Biz esa shuni ham bir-birimizdan ayaymiz.

### **Charxpalak**

Maktabimiz biqinida ariq oqardi.Ariqda charxpalak bor edi. Katta tanafufusda charxpalakni tomosha qilishni yaxshi ko'rardim... yog'och gardishi ko'hna, temir paqirchalari zanglab ketgan. Parraklariga ko'kimtir suv o'tlari yopishgan... birov yolg'ondan turtib yuborsa, rostdan qulab ketadigandek... charxpalak nolali g'iyqillab aylanadi. Kaftida suv ko'tarib, yuqoriga olib chiqadi... tepaga chiqib olgan suv ortiga qaytmaydi... charxpalak ham bunga ranjimaydi. Yangidan-yangi suv tomchilarini yuqoriga ko'tarib beraveradi... g'iyqillaydi...

Oradan ko‘p yillar o‘tib, o‘sha charxpalak tushlarimga kiradigan bo‘ldi. Nega shunday bo‘lganini uzoq o‘yladim... So‘ng... bir haqiqatni angladim. Men charxpalakni emas, ustozlarimni qo‘msar ekanman.

Suv-suv emas, men ekanman! Charxpalak – charxpalak emas, o‘qituvchilarim ekan!

Meni – bir tomchi suvni katta hayot yo‘liga olib chiqib qo‘ygan ustozlarim-charxpalak zahmatini oqlay oldimmikan?...Bilmadim.

...Ko‘hna charxpalak hamon tushlarimga kiradi...

### **Biri kam dunyo**

Bola tug‘dirganlarning hammasi ham Ota bo‘lavermaydi.

Bola tuqqanlarning hammasi ham Ona bo‘lavermaydi.

Bolaning hammasi ham farzand bo‘lavermaydi...

### **Xazina**

Dunyoda eng bebaho, ammo hamisha tekinga tarqatiladigan xazina bor. Bu – Ona mehri...

### **Dono va nodon**

Dono nodondan o‘zini bir pog‘ona quyi tutsa, hayron bo‘lmang. Taroning yukli pallasi bo‘sh palladan pastroqda turadi.

\* \* \*

Qo‘lingdan kelmaydigan ishga va‘da berma.

Qo‘lingdan keladigan ishga ham va‘da berma.

Qo‘lingdan kelmaydigan ishga va‘da bersang, uyatga qolasan.

Qo‘lingdan keladigan ishni esa, va‘da bermasdan bajarsa ham bo‘laveradi...

\* \* \*

Obro‘ topishning eng to‘g‘ri yo‘li – kamtarlik.

\* \* \*

Deraza-oynadan yasaladi. Ko‘zgu ham. Farqi shuki, ko‘zgu o‘zingni o‘zingga ko‘rsatadi. Deraza esa hammasini ko‘rib turadi-yu, o‘zini ko‘rmaganga soladi... Ko‘zguga ko‘proq qara!

\* \* \*

Mabodo qachondir mansabdor bo‘lib qolsang, bilib qo‘y: amal kursisida o‘tirganingda kim eng ko‘p tovoningni yalasa, kursidan tushganingda o‘sha birinchi bo‘lib sendan yuz o‘giradi!

\* \* \*

Bu dunyoda hamma narsaning javobi bor deydilar. To‘g‘ri gap, ammo bu dunyoda javob qilinmaydigan narsalar ham bo‘ladi.

Sen birovga yaxshilik qilsang, javobini kutma. Undan qaytmasa, boshqadan qaytadi.

Birov senga yomonlik qilsa javob berma. Sendan qaytmasa, boshqadan qaytadi!

### **Yeb to‘ymagan – yalab to‘ymas**

Qadim zamonda ko‘zi ojiz odam bo‘lgan ekan. Albatta, ko‘zi ojizlik ayb emas... Xullas o‘sha odam tirikchiligi tang ahvolda qolgach o‘ziga o‘xshash so‘qir bir tilanchiga shogird tushibdi. Gadoylik hunarining sirini o‘rgatishni so‘rabdi.

– Bu hunarning uchta qoidasi bor, – debdi ustoz. – Qayerda bo‘lsa ham, qancha bo‘lsa ham, kimdan bo‘lsa ham olaverasan!

Oradan ko‘p yillar o‘tibdi. Ustoz tilanchi hammomning issiq xonasida mudrab o‘tirsas, yonbosh tomondan ovoz kepti:

– Xayr qili-i-ing!

– Esing joyidami? – debdi ustoz tilanchi. – Hammomda ham sadaqa so‘raydimi?

– Qayerda bo‘lsa ham! – debdi boyagi ovoz.

Ustoz tilanchining achchig‘i chiqibdi.

– Qanaqa betamizsan, yalang‘och odamda pul nima qilsin?

– Qancha bo‘lsa ham!

Ustoz tilanchi shogirdining ovozidan tanib qolibdi.

– Hoy, badbaxt! Kelib-kelib o‘z ustozingniham shilasanmi?

– Kimdan bo‘lsa ham! – debdi shogird tilanchi...

Albatta, poraxo‘r tilanchi emas. Poraxo‘r avvaliga o‘zini tiyib yuradi. “Insof” bilan oladi. Ammo bora-bora qayerda bo‘lsa ham, qancha bo‘lsa ham, kimdan bo‘lsa ham olishga o‘rganadi. Va... oxiri hammomga yalang‘och kiradi... tag‘in kim bilsin... Qarib-churuguncha umrguzaronlik qiladiganlari ham oz emas shekilli.

## **O‘zbekiston xalq shoiri MUHAMMAD YUSUF ijodi**

### **15. Savollarga javob bering.**

Muhammad Yusufning qaysi she‘riy kitoblarini bilasiz?

Uning she‘rlari nima uchun kitobxonning ko‘ngil mulkiga aylandi?

Shoir she‘rlarida qanday g‘oyalar ilgari suriladi?

Muhammad Yusufning she‘rlariga munosabatingiz qanday?

### **16. O‘zbek tiliga tarjima qiling.**

Народный поэт Узбекистана Мухаммад Юсуф своим многогранным и пламенным творчеством, стихами, воспевающими Родину, независимость, трудолюбивый народ, снискал всеобщую любовь и уважение.

Мухаммад Юсуф своим ярким талантом, самобытным поэтическим творчеством внес большой вклад в повышение духовности нашего народа, укрепление чувства национального самоосознания, национальной гордости, патриотическое и эстетическое воспитание молодежи. Его стихи и дастаны, горячо и проникновенно воспевающие независимость, любовь к Родине, по праву вошли в сокровищницу духовности нашего народа.

**17. “Vatanim” she‘ridagi tushirib qoldirilgan so‘zlarni o‘rniga qo‘ying.**



Men dunyoni nima qildim,  
O‘zing ... ,  
O‘zim xoqon, o‘zim sulton,  
Sen taxti Sulaymonim,  
Yolg‘izim, Yagonam deymi,  
Topingan koshonam deymi,  
O‘zing ...  
..., Vatanim...

.... gul otgan sen,  
Chechak otgan izimga,  
.... yupatgan sen,  
Yuzing bosib yuzimga.  
Singlim deymi, Onam deymi,  
Hamdardu hamxonam deymi,  
Oftobdan ham o‘zing mehri –  
... , Vatanim.

Sen Mashrabsan, Xalqda tumor,  
Balxda dorga osilgan,  
Navoiysan, shoh yonida  
Faqirini ... .  
Yassaviysan, meniki deb,  
Ko‘ringan ... ,  
Ming bir yog‘i ochilmagan,  
... Vatanim.

Sen Xo‘jandsan, Chingizlarga  
Darvozasin .... ,  
Temur Malik orqasidan  
Sirdaryoga .... ,  
Muqannasan qorachig‘i  
Olovlarga .... ,  
Shiroqlarni ko‘rgan cho‘pon

.... , Vatanim.

Kim .... qildi makon,  
Kim Enasoy .... ,  
Jaloliddin – Qurdistonda,  
Boburing – Hindistonda,  
Bu qanday .... deb  
Yotarlar zimistonda,  
Tarqab ketgan to‘qson olti  
... , Vatanim...

O‘g‘lim desang ....  
... bo‘lib uchgayman,  
Chambil yurtda Alpomishga  
Navkar bo‘lib ... ,  
Padarkushdan pana qilib  
Ulug‘beking .... ,  
G‘ichir-g‘ichir tishimdagi  
.... , Vatanim...

O‘tgan kuning – .... ,  
O‘z boshingga yetgan kun,  
Qodiriyni ... ,  
Qodiriyni sotgan kun.  
Qo‘lin bog‘lab, ... ,  
Yetaklashib ketgan kun,  
Voh bolam! deb aytolmagan  
.... , Vatanim.

Yoningda .... bir  
Shoiringga qarab qo‘y,  
Gar Qo‘qonga ... ,  
Detdomlarni so‘rab qo‘y.  
Hech bo‘lmasa Usmon hokin

... yarab qo‘y,  
Olislarda qurib qolgan  
.... , Vatanim...

Sen – ....  
Tegib turgan chinorim,  
Ota desam, O‘glim deb,  
Bosh egib turgan chinorim,  
Qo‘ynimdagi ... ,  
Bo‘ynimdagi tumorim,  
O‘zing mening ...  
...., VATANIM !

**Qo‘yish uchun so‘zlar:** ochmagan, ulug‘imsan, yuz qarolig‘, da‘vo qilgan, mening ulug‘lardan, ilig‘imsan, sachragan, tomonda, keltirmoqqa, g‘irot, cho‘lig‘imsan, shodon kunim, yorug‘ jahonim, dudug‘imsan, qon yig‘lagan, dilin dog‘lab, qo‘rig‘imsan, shoxlari osmonlarga, tushgayman, nolon kunim, urug‘imsan, duo qilgan, yo‘ling tushsa, sakragan, so‘lig‘imsan, iftixorim, bergan zamin, ulug‘imsan, quchgayman, Qashqarni, osmonlarga, o‘tgan kundir, ulug‘lardan, qudug‘imsan.

## **18. Matnni o‘qing. Uni qo‘shimcha ma’lumotlar bilan kengaytiring.**

*baralla* – во  
всеуслышание,  
открыто, прямо



Xalq dardini *baralla* aytgan, yurtga muhabbatini betakror misralar bilan ta’rif eta olgan ijodkor, xalqimizning ardoqli farzandi, O‘zbekiston xalq shoiri Muhammad Yusuf 1954-yil 26-aprelda

Andijon viloyatining Marhamat tumani, Qovunchi qishlog'ida oddiy oilada tavallud topdi.

O'rta maktabni tugatgandan so'ng respublika Rus tili va adabiyoti institutini 1978-yilda tamomladi. 1978–1980-yillarda respublika Kitobsevarlar jamiyatida, 1980–1986-yillarda “Toshkent oqshomi” gazetasida, 1986–1992-yillarda esa G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyatida, keyinchalik esa “O'zbekiston ovozi” gazetasida faoliyat ko'rsatgan. 1997-yildan umrining so'nggi kunlariga qadar esa O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi raisining yoshlar bilan ishlash bo'yicha o'rinbosari lavozimida ishlagan.

Uning dastlabki she'rlari birinchi bor “O'zbekiston adabiyoti va san'ati” gazetasida 1976-yilda chop etilgan. Shundan so'ng 1985-yilda “Tanish teraklar”, 1987-yilda “Bulbulga bir gapim bor”, 1988-yilda “Iltijo”, 1989-yilda “Uyqudagi qiz”, 1989-yilda “Halima enam allalari”, 1990-yilda “Ishq kemasi”, 1990-yilda “Ko'nglimda bir yor”, 1991-yilda “Bevafo ko'p ekan”, 1992-yilda “Erka kiyik” kabi jozibali she'riy to'plamlari nashr etildi.

1989-yilda esa “Uyqudagi qiz” nomli she'riy to'plami uchun unga respublika Yoshlar mukofoti berildi.

*pokiza qalb egasi* –  
обладатель чистой  
души

U rostgo'y shoir, halol va *pokiza qalb egasi* edi. Uning she'rlari oddiy, ravon, soddaligi bilan xalq og'zaki ijodiga hamohang ko'rinadi. U muhabbat haqida kuylaydimi, bevafo yor haqida qo'shiq to'qiydimi yoki tariximiz va taqdirimiz sahifalarini qalamga oladimi, ularda hamisha hayotga, haqiqatga *hamnafaslik* sezilib turadi.

*hamnafaslik* –  
единодушие

*kamsuqum* – *здесь:*  
скромный

*fidoyi xizmatlari* –  
самоотверженный  
труд

O‘zbekiston Qahramoni Ozod Sharafuddinov Muhammad Yusufga shunday ta’rif bergan edilar: “Muhammadjon kamdan-kam tug‘iladigan iste’dod egasi bo‘lish bilan birga, kamdan-kam shoirida uchraydigan xislat egasi – shuhratdan qochadigan *kamsuqum* inson edi. U shuhratning emas, shuhrat uning ortidan quvib yurardi”.

Muhammad Yusuf adabiyotimiz va xalqimizga qilgan *fidoyi xizmatlari* uchun “Do‘stlik” ordeniga, “O‘zbekiston xalq shoiri” faxriy unvoniga sazovor bo‘lgan.

Afsuski, yuraklar to‘ridan mangu joy olgan, sodda va samimiy she’rlari bilan muxlislarni lol qoldirgan Muhammad Yusuf 2001-yilning 31-iyulida Qoraqalpogistonning Ellikqal’a tumaniga qilingan ijodiy safar chog‘ida, yuzlab muxlislari qarshisida she’r o‘qiyotgan paytda yurak xurujidan vafot etdi.

Muhammad Yusuf haqiqiy xalq shoiri. Uning she’rlari og‘izdan og‘izga o‘tib yodlanadi, hofizlar kuyga solib ijro etadi va ular qancha-qancha hofizlarni elga tanitdi.

## **19. Matn asosida ma’lumotlarni tiklang.**

Muhammad Yusufning dastlabki she’rlari birinchi bor .... gazetasida .... -yilda chop etilgan.

... -yilda ... nomli she’riy to‘plami uchun unga respublika Yoshlar mukofoti berildi.

Muhammad Yusuf adabiyotimiz va xalqimizga qilgan fidoyi xizmatlari uchun ....., .... sazovor bo‘lgan.

Muhammad Yusuf .....

## **20. She’rlarni ifodali o‘qing va yod oling.**

## IQROR

O, ota makonim.  
Onajon o'lkam,  
O'zbekiston, jonim to'shay soyangga.  
Senday mehribon yo'q,  
Seningdek ko'rkam.  
Rimni alishmasman bedapoyanga.  
Bir go'sha suv bo'lsa, bir go'sha qirlar,  
Qancha yurtni ko'rdim, qancha taqdirlar.  
Qayga borsam suyab, boshni tik tut deb,  
Tog'laring ortimdan ergashib yurar.  
Ko'rdim suluvlarning eng faranglarin.  
Yo xudbinman men yo bir sodda kasman men –  
Parijning eng go'zal restoranlarin,  
Bitta tandingga alishmasman men.  
Na gapga ko'nayin,  
Na til bilayin,  
Ko'zdan uyqu qochdi, dildan halovat –  
Uch kunda sog'insam nima qilayin,  
Chala qolar bo'ldi hamma sayohat.  
Bildimki, baridan ulug'im o'zing,  
Bildimki, yaqini shu tuproq menga.  
Bahorda Baxmalda tug'ilgan qo'zing,  
Arab ohusidan azizroq menga.  
Sen bilan o'tgan har kun bayram – bazm,  
Sensiz bir on qolsam vahmim keladi.  
Seni bilganlarga qilaman ta'zim,  
Seni bilmaslarga rahmim keladi.

### **Shukr deysan sen qachon?**

Tamagirni<sup>73</sup> tortqilab,  
Nafsi qo'yimas deydilar.

---

<sup>73</sup> tamagir – корыстолюбец, алчный

Nokas<sup>74</sup> o‘zi to‘ysa ham,  
Ko‘zi to‘ymas deydilar.  
Boq bir yorug‘ olamga –  
Kimlar zo‘rg‘a kun ko‘rar.  
Odamlar bor, bog‘dagi  
Bulbuldan ham pul so‘rar.  
Yolg‘on dunyo – bu dunyo,  
Arzon dunyo – bu dunyo.  
Ne-ne hokim, beklardan  
Qolgan dunyo – bu dunyo.  
Kiprikdan ham qisqadir  
Molu dunyo yo‘llari.  
Ibrat bo‘lsin<sup>75</sup> Iskandar  
Ochiq ketgan qo‘llari!..  
Uzat deysan, ber deysan,  
Hech qo‘ymading odamzod.  
Tuya to‘ydi, fil to‘ydi,  
Sen to‘ymading, odamzod.  
Shukr qilar hattoki  
Qumursqa<sup>76</sup>-parrandalar.  
Shukr deysan sen qachon,  
Xom sut emgan bandalar?..  
Bu uch kunlik dunyoda  
Savlatingga kerilma<sup>77</sup>.  
Qasr qurma, bog‘ qoldir,  
Davlatingga kerilma.  
O‘z elingni qaqshatsang,  
Xor bo‘lasan o‘zing ham.  
Bir kun shu el mehri<sup>78</sup>  
Zor bo‘lasan o‘zing ham.

---

<sup>74</sup> nokas – подлый, бесчестный, низкий, неблагородный человек

<sup>75</sup> ibrat bo‘lmoq – быть поучительным

<sup>76</sup> qumursqa – муравей

<sup>77</sup> savlatingga kerilmoq – важничать

<sup>78</sup> el mehri – любовь народа



**1. Savollarga javob bering.**

“Mutolaa” so‘zining ma’nosi nima?

Siz qanday kitoblar o‘qiysiz?

Kitoblarni qayerdan yoki qaysi manbalardan topasiz?

O‘qigan kitoblaringizdan qaysilari sizga ta’sir o‘tkazgan? Nima uchun?

Kitob o‘qishning foydasi nimada, deb o‘ylaysiz?

**2. Quyidagi tushunchalarning mavzuga qanday aloqasi borligini misollar yordamida ko‘rsatib bering.**

Lug‘at zahirasi, fikrni mustaqil ifodalash, mantiqiy fikrlashning rivojlanishi, tafakkur, kuzatuvchanlik va ziyraklik, ravon nutq, ma’naviy o‘shish.

**3. Matnni o‘qib, fikr yuriting. Xulosalaringiz bilan o‘rtoqlashing.**

*bilimlar xazinasi* –  
сокровищница знаний

Kitobni oftobga qiyos qilamiz, “*bilimlar xazinasi*” deymiz. “Kitob – beminnat ustoz. Har



*buyuk ixtiro* –  
великое изобретение

daqiqqa u bizni donishmandlarning bilim xazinasi bilan oshno eta oladi”, deb yozgan edi buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiy. Kitob kishilik jamiyati tomonidan yaratilgan eng *buyuk ixtiro*, bir avlodning o‘zidan keyingi avlodlarga qoldiradigan bebaho madaniy merosidir. Inson hayotida kitobning o‘rni beqiyosdir. Erishgan bilimlarimiz va ma’lumotimiz uchun biz Kitob deb atalmish bilimlar xazinadoni oldida qarzdormiz. Kitob doim bizni fikrlashga, halol yashashga, Vatanni sevish, jamiyat taraqqiyotiga xizmat qilish va ma’naviy me’rosimizni asrashga, ezgulikka chorlab kelgan. “Ko‘rdimki, eng yaxshi do‘st kitob ekan”, – degan edi Najmiddin Kubro.

*kitob mutolaasi* –  
чтение книги  
*bilim doirasini  
kengaytiradi* –  
расширяет круг  
знаний

*Kitob mutolaasi* nainki kishining *bilim doirasini kengaytiradi*, balki uning ma’naviy-ruhiy kamolotida ham muhim o‘rin tutadi. Kitob mutolaasi ko‘ngil xohishi bilan bog‘liq mashg‘ulot. Albatta, hech kim birovni kitob o‘qishga majburlay olmaydi. Aksincha, mutolaaga *da‘vat etish* mumkin, xolos. Kitob mutolaasi insonni hayoti davomida mukofot bilan bilan taqdirlovchi sharafli mehnatdir.

*da‘vat etish* –  
призывать

*o‘zlikni anglash* –  
понимать себя

Kitoblar insonga *o‘zlikni*, dunyoni *anglash*, hayot mazmunini tushunish imkonini beradi. Kitobxonlik tor ma’noda kitob o‘qishni bildirsa, keng ma’noda tanlab o‘qish, his etish, anglash va fikr bildirish tushunchalarini o‘z ichiga qamrab oladi. U badiiy adabiyotdan oziqlanadi. Badiiy adabiyotsiz *fikriy teranlikka* erishib bo‘lmaydi.

*fikriy teranlik* –  
глубина мыслей  
*badiiy tafakkur* –  
художественное  
размышление

Adabiyot – insonning *badiiy tafakkuri* mahsulidir. O‘zbek tilida “*adabiyot*” atamasi kishilarga yaxshi xulq va umuman hayotni to‘g‘ri tushunish va to‘g‘ri yashashni o‘rgatish

*ayrim qusurlar* –  
некоторые  
недостатки

*saviya* – уровень

maqsadida yozilgan asarlar ma'nosida qo'llanilgan. Adabiyot – kishini yomon tuyg'ulardan tozalaguvchi, ruhini tiniqlashtiruvchidek bir ajoyib vazifani o'taydi. Biz buyuk asarlarni, kitoblarni o'qib, ulardagi ajoyib qahramonlarni yoqtirib qolamiz. Ba'zan berilib ketib, ularning hayotlariga aralashib ketamiz-u, nima bilandir ularga o'xshagimiz, ularning ezgu ishlaridan ibrat olgimiz kelib ketadi. O'zimizdagi *ayrim qusurlarni* anglab olamiz va ulardan poklana borishga harakat qilamiz. Bularning hammasi, asosan, ijobiy qahramon tufayli sodir bo'ladi. Insonda didni, *saviya* va idrokni adabiyotu san'at tarbiyalaydi.

Inson qadim-qadimdan ilmga intilib yashaydi. Bu yo'lda esa kitob uning doimiy hamrohi. O'tmishda o'zini ziyoli, martabali sanagan kishilar albatta ma'naviy mulk – xos kutubxonaga ega bo'lganlar.

Bugun kitoblar, kutubxonalarga munosabat o'zgargan. Bunga birinchi navbatda kundalik hayotimizning kompyuter, internet tarmog'i bilan bog'liqligi sababdir.

Javonlarni to'ldirib turuvchi kitoblar endi ixchamgina lazer lappakchasiga ham "sig'adi". Ammo, tan olish kerak, kitob, bu – kitob... Inson bor ekan, adabiyot va kitob yashashda davom etaveradi. Radio, televideniye, internet bor-ku, ular ma'naviy ehtiyojimizni qondirolmaydimi? – dersiz. Ular hech qachon kitobning o'rnini bosolmaydi.

#### **4. Ilm hamda kitob haqidagi maqollarni to'ldiring.**

Ilmi borni ... dema,  
Ilmi yo‘qni ... dema.

Ilmsizga ... yo‘q,  
Hunarsizga ... yo‘q.

Ilm olishning ... yo‘q.

Kitob ko‘rmagan ... –  
Giyoh unmagan ....

Kitob – ... qayrog‘i.

Kitobsiz ... – qanotsiz qush.

Ko‘rib bilish .... ,  
O‘qib bilish ... .

O‘qigan ... emas,  
Uqqan – ... .

## **5. Kitob mutolaasi haqidagi 10ta fakt bilan tanishing.**

1. *Mutolaa nigohni o‘tkirlashtiradi.* Mutolaa sababli atrof olam va undagi odamlarga o‘zgacha nazar bilan qarab, ularni tushuna boshlaysiz. Agar qo‘lingizga yaxshi kitob tushib qolsa, uni takror va takror o‘qisangiz, har gal yangi narsani kashf qilasiz.

2. *Mutolaa badantarbiyadir.* Kitob mutolaa qilar ekansiz, undagi voqealar, obrazlarni tasavvur qilasiz. Fikrash faoliyati aktivlashadi, bu esa miya uchun gimnastikadir.

3. *Mutolaa atrof-muhit uchun zararsiz.* To‘g‘ri, kitob tayyorlash uchun daraxtlar kesiladi, biroq kitob sizga foyda keltirsa, demak kesilgan daraxt behuda ketmagan. Bundan tashqari, kitob o‘qish uchun elektr energiyasidan, batareykadan foydalanilmaydi.

4. *Mutolaa muloqot qilishga o‘rgatadi.* Kitobdagi voqealarni suhbatdoshingizga gapirib berib, qahramonlarning hissiyotlari bilan bo‘lishsangiz, do‘stlaringiz bilan muloqotingiz qizg‘in o‘tadi.

5. *Kitob mutolaasi bo'sh vaqtingizni mazmunli o'tkazishingiz uchun ajoyib imkoniyat.* Kitoblarga ixlos qo'ysangiz, ular hech qachon joningizga tegmaydi. Axir ularning xili, yo'nalishlari juda ko'p. Xohlaganingizni topib o'qishingiz mumkin.

6. *Kitob mutolaasi osoyishtalik baxsh etadi.* Bolalarning shovqin suronli o'yinlaridan ko'ra kitob o'qishlari afzalroq. Hech kimga xalal bermaydi.

7. *Kitob mutolaasi cho'ntak uchun hamyonbop.* Birinchidan, kitoblarning narxi kompyuter o'yinlaridan ko'ra arzonroq. Ikkinchidan, tanishlaringiz qiziqishingizni bilsalar sizga sovg'a tanlashda qiynalmaydilar. Uchinchidan, kitob mutolaasi uchun hamisha kutubxonalardan foydalanish ham mumkin.

8. *Mutolaa diqqatni bir joyga jamlashga yordam beradi.* Kitobni musiqa ostida ham, biror narsa bilan mashg'ullik paytida ham o'qish mumkin. Ha, haqiqiy kitob shonavandalari atrofdagi shovqinga ahamiyat bermay o'qishni biladilar.

9. *Kitobning qomatga ta'siri.* Shubhasiz kitobning qomatga ta'siri bor ekan. Kuzatishlar natijasiga ko'ra, zerikkan insonda ko'p ovqat yeyishga moyillik bo'lar ekan. Binobarin, kitobxon odam ovqatni ortiqcha yemaydi. U kitobdagi voqealarga berilib, uzoq-uzoqlarga safar qiladi.

10. *Kitob mutolaasi tarbiyaviy ahamiyatga ega.* Ota-onasining kitob o'qiyotganini ko'rgan bolalarda ham kitobga qiziqish kuchaya boradi. Bu esa o'z navbatida bolaning dunyoqarashi kengayishiga sabab bo'ladi.

## **6. Mashhur insonlarning quyida berilgan fikrlarini o'zbek tilida ifodalang. Ularning mualliflari haqida ma'lumotlarni toping.**

Читая авторов, которые хорошо пишут, привыкаешь хорошо говорить. (*Франсуа Вольтер.*)

Культура – это не количество прочитанных книг, а количество понятий. (*Фазиль Искандер.*)

Чем больше читаешь, тем меньше подражаешь. (*Жюль Ренар.*)

Чтение для ума – то же, что физические упражнения для тела.  
(Джозеф Аддисон.)

Есть преступления хуже, чем сжигать книги. Например – не читать их. (Рэй Брэдбери.)

Хорошая книга подобна айсбергу, семь восьмых которого скрыто под водой. (Эрнест Хемингуэй.)

Читатель проживает тысячу жизней, прежде чем умрет. Человек, который никогда не читает, переживает только одну.  
(Джордж Мартин.)

## **7. Matnni o‘qing. Muallifning fikrlarini ularga o‘z munosabatingizni bildirgan holda so‘zlab bering.**

### *Mutolaa haqida*

*Hermann Hesse*

Ko‘pchilik kitob o‘qishni bilmaydi va ko‘p kishilar nima uchun o‘qiyotganini tuzukroq tushunmaydilar. Ba’zilar buni o‘qimishli bo‘lishning qiyin va yagona yo‘li deb biladi. Ular uchun har qanday kitob kishini “o‘qimishli” qiladi. Boshqa birovlar uchun esa o‘qish – dam olish, shunchaki vaqtni o‘tkazish va ularga nimani (maqola, roman, she’r, xabar va hokazo) o‘qish baribir, zerikarli bo‘lmasa, bas.

Shunchaki dam olish, vaqt o‘tkazishni istagan va “o‘qimishli” bo‘lish haqidagina qayg‘urgan kitobxon kitobdagi dilni poklovchi, kishini ruhlantiruvchi qandaydir noma’lum bir kuchni sezadi. Biroq bu kuchni u aniq tasavvur etolmaydi va baholay ham olmaydi. Bunday kitobxon tibbiyotdan mutlaqo bexabar bemorga o‘xshaydi, ya’ni aynan qaysi dori kerakligini tushunmasdan, har bir qutichadagidan tatib ko‘ra boshlaydi. Aslida, mutolaa borasida ham har bir kishi o‘zi uchun zarur bo‘lgan, yangi kuch hamda ruhiy ta’sir baxsh etadigan kitoblarni topa bilishi kerak emasmi?!

Biz, mualliflarga odamlarning ko‘p mutolaa qilishlari, albatta, yoqimli va aynan ijodkor tomonidan, haddan ziyod ko‘p o‘qishadi, deyilishi noo‘rindir. Ammo mingta loqayd kitobxondan o‘nta yaxshi kitobxon durust. Shu bois, bemalol ta’kidlashim mumkinki, hamma

joyda haddan ziyod ko‘p mutolaa qilishadi va bu – adabiyot uchun obro‘ emas, ziyon keltiradi. Kitob mustaqil bo‘lmagan kishilarni yana ham ma’naviy zaiflashtirish uchun yozilmaydi, bundan tashqari, undan ba’zan noqobil odamlarga arzonlarov tasvir hamda osongina o‘zgartirilgan hayotni ko‘rsatish uchun ham foydalanishadi. Kitoblar insonni hayotga yo‘llagandagina, unga xizmat qilgandagina foydalidir. Agar kitob o‘quvchiga oz bo‘lsa-da, kuch-g‘ayrat, shijoat, ma’naviy poklik baxsh etmasa, mutolaa uchun sarf etilgan har bir soat behuda, besamar bo‘lib qolaveradi.

Shunchaki o‘qish – bu diqqatni to‘plashga majbur etuvchi mashg‘ulot va ovunish uchungina o‘qish – o‘z-o‘zini aldashdir. Loqayd kishilar uchun, umuman, biror narsadan ovunishning hojati yo‘q. Aksincha, ular hamma joyda diqqat-e’tiborli bo‘lishlari, qayerda nima bilan mashg‘ul bo‘lishmasin, nima haqda fikr yuritishlaridan qat’iy nazar, o‘zlarini butun vujudlari bilan voqealar girdobida his etmoqlari zarur.

Hayot qisqa, uning poyonida hech kimdan o‘qilgan kitoblar soni so‘ralmaydi. Biror foydasi bo‘lmasa, o‘qishga vaqt sarflash aqlilik belgisi emas, aksincha, koni ziyon emasmikan?! Men bu o‘rinda faqat yomon kitoblarni emas, avvalambor sifatli mutolaani nazarda tutayapman. Hayotda har bir qadaming kabi o‘qishdan ham biron natija kutiladi. Mutolaadan yangi kuch-g‘ayrat olmoq uchun avvaliga kuch sarf etmoq, o‘zingni yanada yaxshiroq tushunmoq uchun oldin o‘zingni “yo‘qotmoq” kerak bo‘ladi.

Agar har bir o‘qilgan kitob quvonch va alam, shijoat hamda ruhiy tazarru olib kelmasa, jahon adabiyoti tarixini bilishdan ma’no yo‘q. Fikr-mulohaza qilmasdan o‘qish – xushmanzara tabiat qo‘ynida ko‘zni bog‘lab yurmoq demakdir. Biz o‘zimizni va turmushimizni unutish uchun emas, balki hayot jilovini yanada ongliroq ravishda jilovlash uchun o‘qishimiz kerak. Kitobga dimog‘dor o‘qituvchiga qaragan qo‘rqoq o‘quvchi singari emas, balki eng baland cho‘qqini zabt etmoqqa shaylangan shiddatkor alpinist kabi yondashmoq talab etiladi.

*(Nemis tilidan M.Akbarov tarjimasini.)*

## 8. She'rni ifodali o'qing va yod oling.

### KITOB KERAQDIR

*Mahmud Toir*

Suvrat asli nurni siyrat<sup>79</sup> dan olur,  
Siyrat esa ilmu hikmatdan olur,  
Odamdan ezgulik, muhabbat qolur,  
Saodat sayliga savob kerakdir,  
Ko'ngilning mayl<sup>80</sup> iga kitob kerakdir.

Kitob – dil bog'ida gulning rangidir,  
Kitob – otash ichra dilning rangidir,  
U – qalbning kamoli, aql jangidir,  
Ko'kni ko'zlaganga xitob<sup>81</sup> kerakdir,  
O'zni izlaganga kitob kerakdir.

O'qigan, uqqanga eli ergashgay,  
Oqil yo'lga chiqsa yo'li ergashgay,  
Jannatday jilmayib cho'li ergashgay,  
Savol yuz ochganda javob kerakdir,  
Javob jarangiga kitob kerakdir.

Kitob – bu osmonning o'ziga narvon,  
Kitob – bu jahonning ko'ziga narvon,  
Tirik tarixlarning so'ziga narvon,  
Tunda talpinganga mohtob<sup>82</sup> kerakdir,  
Kunday kulay desang kitob kerakdir.

Olam olamligin bilmoq uchun ham,  
Odam odamligin bilmoq uchun ham,  
Qilni qirq tilimga tilmoq uchun ham,  
Tig'ni tutguvchiga shitob kerakdir,  
Tug'ni tutguvchiga kitob kerakdir.

---

<sup>79</sup> siyrat – внутренний мир, душа

<sup>80</sup> mayl – интерес, тяга

<sup>81</sup> xitob – обращение, воззвание

<sup>82</sup> mohtob – лунная ночь

## Murakkab bog‘lanishli qo‘shma gaplar

Uch va undan ortiq sodda gaplarning birikishidan tarkib topgan gaplar murakkab bog‘lanishli qo‘shma gaplar deyiladi. Murakkab qo‘shma gaplar quyidagi turlarga bo‘linadi: bog‘langan qo‘shma gap toifasidagi murakkab qo‘shma gap; ergashgan qo‘shma gap toifasidagi murakkab qo‘shma gap; bog‘lovchisiz qo‘shma gap toifasidagi murakkab qo‘shma gap; aralash tipda tuzilgan murakkab qo‘shma gap.

**Bog‘langan qo‘shma gap toifasidagi** murakkab qo‘shma gaplar tarkibidagi komponentlarning bog‘lanish usullariga ko‘ra bog‘langan qo‘shma gapdan farq qilmaydi, lekin bunda komponentlar soni uch va undan ortiq bo‘ladi: *Bugundan boshlab yotoq joylarda ... yigitlardan bitta navbatchi qoldirildi-yu, boshqa hamma paxtaga chiqdi va terimchilar soni to‘rt kishiga ortdi.* (P. Qodirov.)

**Ergashish yo‘li bilan tuzilgan** murakkab qo‘shma gaplar quyidagicha bo‘ladi:

**1. Bir necha bosh gapli murakkab qo‘shma gap** – tarkibida ikki va undan ortiq bosh gap mavjud bo‘ladi: *Tog‘ va osmon shunday tiniqki, nafas olish shunday yengilki, keksa odam ham bu yerda musaffo bolalik yillarini eslaydi.*

**2. Bir necha ergash gapli murakkab qo‘shma gap** – birdan ortiq ergash gap bir bosh gapga tobelanib keladi: *Fikrlar kurashi bo‘lmasa, erkin tanqid bo‘lmasa, hech qanday fan rivojlanmaydi.*

Bir necha ergash gapli murakkab qo‘shma gaplardagi ergash gaplar bosh gapga quyidagicha bog‘lanadi:

**To‘g‘ridan-to‘g‘ri ergashish (birgalik ergashish)**da: ergash gaplarning har biri to‘g‘ridan-to‘g‘ri bosh gapga bog‘lanadi: *Toleyim shulki, Vatanda bir guliston tanladim, Baxtni topgan el bilan jondosh bo‘lib otdim qadam.* (Hamid Olimjon.)

**Ketma-ket ergashish**da har bir ergash gap to‘g‘ridan-to‘g‘ri bosh gapga bog‘lanmasdan, biri ikkinchisiga ketma-ket bog‘lanadi. Bunday gaplar tarkibida turli xil ergash gaplar qatnashadi: *Bahorda havo noqulay kelib, g‘o‘zaning parvarishi kechikkan bo‘lsa ham, hosil mo‘l bo‘ldi.*

**Bog‘lovchisiz tuzilgan** murakkab qo‘shma gaplar tarkibidagi sodda gaplar faqat ohang yordamida bog‘langan bo‘ladi: *Nonlar yopildi, qo‘ylar so‘yildi, o‘choqlarga o‘t yoqildi.*

**Aralash murakkab qo‘shma gaplar** deb tarkibida ham ergashgan qo‘shma gap, ham bog‘langan qo‘shma gap yoki bog‘lovchisiz qo‘shma gap ishtirok etgan gaplarga aytiladi: *Eshik ochildi, shuning uchun hamma qayrilib qaradi, lekin hech kim kirmadi; sovuq havo xonani qopladi.*



**9. O‘qing. Murakkab qo‘shma gap tarkibidagi sodda gaplarni aniqlang. Ularni o‘zaro bog‘lovchi vositalarni belgilang.**

1. Shuni unutmangki, siz kelajagimizsiz va butun umidimiz sizlardan.

2. Akang armiyadan kelsa, issiqxonani ishga solamiz, lekin sen akangga yordamchilik qilasan. (*“Fidokor” dan.*)

3. Shuni unutmaki, sen yer farzandisan va yerni ardoqlash, uni obod qilish sening vazifangdir. (*Yo ‘ldosh Sulaymon.*)

4. Agar kishi o‘z hirslaridan (страсть) ustun tura olsa, u o‘zidagi bor nuqsonlarni yo‘q qiladi va ular yaxshi sifatlarga aylanadi. (*Beruniy.*)

5. Shu narsa ayonki, hamma shu narsani yaxshi biladiki, odobsiz kishilar hech qachon e‘tibor qozonmaydi.

6. Kimki ota-onasini hurmat qilsa, u boshqalardan izzat topadi, el orasida yaxshi deb nom qozonadi.

7. Shirinsuxanlik shunday boylikki, u senga obro‘ keltiradi, u orqali bitmagan ishlaring bitadi, do‘stlaring ko‘payadi.

8. Kimki umid bilan daraxt o‘tqazsa, bir kuni kelib bu daraxt shig‘il meva beradi, uni ekkan egasiga olqish-u rahmatlar yog‘diradi.

9. Kimning qalbi pok bo‘lsa, uning ishlari o‘z-o‘zidan yurishib ketaveradi, hamma unga madadkor bo‘ladi.

10. Dam qushlar ovozi yangraydi, dam daryoning shovullashi eshitiladi, dam musiqa sadosi jaranglaydi. (*O‘. Umarbekov.*)

**10. Gaplarni o‘qing. Aralash murakkab qo‘shma gaplarni aniqlab yozing.**

1. Hovlida qarindosh-u qo‘ni-qo‘shnilar ham yurishadi, nariroqda esa doshqozon to‘la sumalak qaynaydi, ayollardan kimdir uni kovlab turadi, atrofida ikki-uch kampir choy ichishib o‘tirishadi, bolalarning qo‘llarida esa yog‘och qoshiq, galma-gal qozon girdiga yopishardilar. (*Ulug‘bek Hamdam.*)

2. Insonlik mohiyati baxt-saodatga erishuvdir, inson bu maqsadni o'zining oliy g'oyasi va istagiga aylantirsa, u baxt-saodatga erishadi. (*Forobiy.*)

3. Esida bor: otasi bilan mana shu o'rindiqqa o'tirsa, mototsikl degani qattiq ovoz chiqarib yurib ketdi-yu, nevara qo'rqqanidan otasini mahkam quchoqlab, ko'zlarini yumib oldi. (*Tog'ay Murod.*)

4. Hirot, tashqaridan qaraganda, avvalgiday tinch, hamma o'z ishi bilan mashg'ul bo'lganday ko'rinsa ham, lekin kosib-hunarmandlar, dehqonlar hali g'azabdan tushmagan edilar. (*Oybek.*)

5. Birov sening aybingni yuzingga aytsa, so'zini qaytarma, chunki u sening uchun ko'zgudir; ko'zgu xira bo'lib qolsa, boshqa aybingni ko'rsatadimi? (*Alisher Navoiy.*)

## **11. Matnni o'qing, murakkab qo'shma gaplarni toping, ularning turlarini belgilang.**

Har kimning zari bo'lmasa-da, ammo hunari bo'lsa, dunyoda hech bir xavf-u xatar bo'lmaydi, shuning uchun kishi hunar ziynati bilan bezanmog'i lozim. Bilginki, hunarsiz kishi quruq savlatdir, quruq savlat esa qotib turgan suratga o'xshaydi. Sen suratga boq, u odamga o'xshasa-da, joni bo'lmaydi. Daraxt shoxi mevasiz bo'lsa, uning o'tindan nima farqi bor. Sen abujahl (yovvoyi) tarvuzini ko'r, shirin tarvuzlar kabi chiroylidir, ammo achchiq bo'lgani uchun zarracha qiymati yo'q.

(*Muhammad Javhar Zamindor.*)

## **12. Quyidagi gaplarning turini aniqlang. Ularning sxemalarini chizing.**

1. Yo'lchiga shunisi qiziq tuyuldiki, bu yerda hamma daraxtlar bir chiziq ustida tekis saf tortib turadi, daraxtlar o'rtasidagi masofa ham baravar. (*Oybek.*)

2. Tilagim shuki, biringiz olim bo'lib, tarix yozing, biringiz shoir bo'lib, yurtni kuylang.

3. Har holda shuni bilishing kerakki, ertaga tong otadi, hayot yana davom etadi.

4. Shunday hayot tug'ildiki, u sensiz yashay olmaydi, sen uning qudratli kuchisan. (*Asqad Muxtor.*)

5. Kun bo'yi piyoda yurib charchadimmi, karnaydan hadeb yangrayotgan muzika elitdimi, uxlab qolibman. (*O'. Hoshimov.*)

6. Adirlarni qoplab yotgan qor tezda erib, kunlar isib, o't-o'lanlar ko'kara boshladi. (*CH. Aytmatov.*)

7. Yurtimiz obod bo'lsin deb, xalqimiz shoyi kiysin deb, tut ko'chatlarni ekamiz.

8. Quyosh tabiatga jon kiritganidek, yer insonga rizqu-ro'z berganidek, ona ham o'z farzandiga qalb qo'rini, mehrini baxshida qiladi.

9. Qor tingach, tashqarida juda sovuq bo'lsa ham, ular tekshirishni davom ettirdilar. (*CH. Aytmatov.*)

10. Mayli, bizga saboq bo'lmasin, lekin dunyo biz bilan tugamaydi, ortimizda farzandlarimiz bor, suyagi qotmagan ukalarimiz bor, bu yozuvlar loaqal o'shalarning kuniga yarab qolar. (*Murod Muhammad Do'st.*)



### **1. Berilgan ta'riflarni o'qing va eslab qoling.**

*Kutubxona* – bosma va ayrim qo'lyozma asarlardan ommaviy foydalanishni ta'minlovchi madaniy-ma'rifiy va ilmiy muassasa; muntazam ravishda bosma asarlar to'plash, saqlash, targ'ib qilish va kitobxonlarga yetkazish, shuningdek, axborot-bibliografiya ishlari bilan shug'ullanadi, ommaning madaniy saviyasini oshirishda faollik ko'rsatadi.

*Bibliografiya* – matbuot hamda yozuv asarlari haqida axborot tayyorlash va berish hamda ularni ma'lum ijtimoiy maqsadlarda targ'ib qilish bilan shug'ullanadigan ilmiy va amaliy faoliyat sohasi.

*Elektron kutubxona* – navigatsiya va qidiruv vositalari bilan ta'minlangan turli xil elektron hujjatlar (shu jumladan kitoblar, jurnallar) ning tartiblangan kolleksiyasi.

**2. Quyidagi so'z birikmalarini o'zbek tiliga tarjima qiling. Ular ishtirokida gaplar tuzing.**

Произведение печати, общественное пользование, справочно-библиографическая работа, особые условия хранения, открытый доступ, особо редкие издания, сетевая литература, электронные носители.

### **3. Matnni o‘qing. Undagi ma’lumotlar asosida matnni qismlarga bo‘ling va ularga nom bering.**

*“Agarda qandaydir vayronkor halokat natijasida yer yuzidan barcha ta’lim va madaniyat markazlari yo‘q bo‘lib ketsa, agar olamda kutubxonalardan boshqa hech nima qolmasa – dunyo va insoniyatning qayta yaralishiga imkon bo‘ladi.” (D. Lixachev.)*

*kitob jamlanmasi* –  
сбор книг

*ommaviy kutubxona* –  
всеобщая библиотека  
*ma’daniy-ma’rifiy*  
*muassasa* –  
учреждение духовной  
культуры

Kitob – insoniyatning asrlar mobaynida jamlagan ilm hazinasidir. Bu borada fikr yiritar ekan, ingliz publitsisti, tarixchisi va faylasuf Tomas Karleyl: *“Kitob jamlanmasi ham – universitetdir”* degandi. O‘zbekiston Milliy kutubxonasi *“kitob jamlanmasi”* – O‘zbekistondagi eng katta va bosh kutubxona. 1870-yil may oyida Toshkent *ommaviy kutubxonasi* sifatida ochilgan. Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi axborot va *ma’daniy-ma’rifiy muassasa* bo‘lib, kutubxonachilik, bibliografik, ilmiy tadqiqot, ilmiy-metodik va axborot faoliyatini olib boradi.

Kutubxona faoliyat ko‘rsata boshlagan davrda kitobxonlarning asosiy qismini harbiylar tashkil etgan. 1948-yilda kutubxonaga Alisher Navoiy nomi berilgan. 2002-yil 12-aprelda kutubxona *“Milliy”* maqomini olgan (bungacha *“Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston*

Respublikasi Davlat kutubxonasi” deb atalgan).

Hozirgi kunda kutubxona fondi jahonning 75 tillaridagi deyarli 10 million nusxaga yetgan. Kutubxona fondida universal adabiyotlar mavjud bo‘lib, badiiy adabiyotlar, fan va texnikaga oid hamda barcha fan sohalari bo‘yicha nashrlarni olib foydalansa bo‘ladi. Kutubxonada XVI–XX asrlarda chop etilgan *nodir va noyob nashrlar* mavjud bo‘lib, bular qo‘lyozmalar, *sharq litografiyasi*, Turkistonda chop etilgan birinchi jurnallar va gazetalar, sharqshunoslar monografiyalari va ilmiy ishlardir. Jami qo‘lyozmalar 16 ming noyob va alohida qimmatga ega nashrlarni tashkil qiladi. XIX asr boshi – XX asr qo‘lyozmalari, nodir va alohida qimmatga ega nashrlar fondi 200 mingdan ortiq.

*nodir va noyob nashrlar* –  
ценные и редкие  
издания  
*sharq litografiyasi* –  
восточная литография  
(*литография* -  
печатание с плоской  
поверхности камня,  
на которой сделан  
рисунок)

Kutubxona respublikamizdagi barcha kutubxonalarga kutubxonashunoslik, bibliografiyashunoslik va kitobshunoslik sohalari bo‘yicha metodik rahbarlik qiladi.

Kutubxonada quyidagi zallar faoliyat ko‘rsatadi:

“Tafakkur” katta o‘quv zali,  
“Istiqbol” yoshlar va talabalar zali,  
“Kashfiyot” ilmiy o‘quv zali,  
nodir qo‘lyozmalar, nodir va alohida  
qimmatga ega nashrlar o‘quv zali,  
“Jahon” xorijiy adabiyotlar o‘quv zali,  
ilmiy texnikaviy adabiyotlar o‘quv zali,  
“O‘zbekiston” milliy adabiyotlar va davlat  
tarixi o‘quv zali,  
“Adolat” huquqiy axborot o‘quv zali,  
“Ijod” nota-musiqa nashrlar zali,  
“Ilm” dissertatsiyalar o‘quv zali,

an'anaviy katalog va kartotekalar zali,  
elektron katalog zali,  
ko'rgazma zali,

maxsus o'quv zallari, shuningdek, virtual ma'lumot xizmati, elektron kutubxona, kitob muzeyi, "Mediamarkaz" media va internet markazi mavjud.

Kutubxonaga 14 yoshga to'lgan har bir shaxs a'zo bo'lishi mumkin. Foydalanuvchilar kutubxonaga tashrif buyurib ham, masofadan turib ham a'zo bo'lishlari mumkin (*online a'zo bo'lish*). Buning uchun ular [ibs.natlib.uz](http://ibs.natlib.uz) saytidagi a'zolik kartochkasini to'ldirishlari kerak. A'zo bo'lgan shaxsga foydalanish muddati 3 yilgacha bo'lgan ID kartasi beriladi.

Kutubxona har kuni xizmat ko'rsatadi. Har bir foydalanuvchi asosiy fondan 10tagacha kitob buyurtma qilsa bo'ladi. Buyurtirilgan adabiyotni 15-20 daqiqada olish mumkin.

Kutubxona ko'plab xalqaro tashkilotlar va jamg'armalar bilan, shuningdek, O'zbekistonda akkreditatsiya qilingan chet mamlakatlarning elchixonalari bilan mustahkam ijodiy aloqalar o'rnatgan bo'lib, madaniyati, diniy qarashlari va tarixiy ildizlari turlicha bo'lgan xalqlarning yaqinlashishiga o'zining *hissasini qo'shmoqda*.

*hissasini qo'shmoqda*

– ВНОСИТ ВКЛАД

**4. Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasida faoliyat ko'rsatayotgan zallardan biri haqida ma'lumot tayyorlang.**

**5. Matnni o'qing. Uni qo'shimcha ma'lumotlar bilan davom ettiring.**

Kutubxonalar yozma yodgorliklarni saqlovchi xazina sifatida juda qadimda paydo bo'lgan. Miloddan avvalgi ikkinchi ming yillikda spool

bitiklari saqlangan kutubxonalar bo'lgan. Miloddan avvalgi VII asr o'rtalarida Sharqdagi ko'p saroylarda, Qadimgi Misr va Rim ibodatxonalari qoshida kutubxonalar bo'lgan. Qadimgi davrdagi kutubxonalardan eng mashhuri Aleksandriya kutubxonasidir.

O'zbekiston hududida miloddan avvalgi birinchi ming yillikning so'nggi asrlarida dastlabki kutubxonalar paydo bo'lgan. Ular hukmdorlar saroylarida va ibodatxonalarda tashkil etila boshlangan. Turon xalqlari Misr, Eron, Yunon va ularga qo'shni bo'lgan xalqlar bilan yaqin aloqalar o'rnatgan, o'sha davrlardagi mavjud qo'lyozmalar bilan ham tanish bo'lgan.

O'zbekiston xalqlarining qadimgi yozma yodgorliklari saqlanmagan. Kitob hazinalari va ularni saqlovchilar turli istilolar davrida yo'q qilib yuborilgan.

## **6. Matnni o'zbek tiliga tarjima qiling.**

Национальная библиотека Узбекистана имени Алишера Навои – крупнейшее хранилище рукописей, печатных изданий и художественных произведений полиграфии в Республике Узбекистан. Самое большое в мире собрание рукописных и печатных трудов на узбекском языке. Ведущий научный центр в области библиотековедения и библиографии. В рамках государственного учреждения «Национальная библиотека Узбекистана имени Алишера Навои» были объединены два крупнейших столичных книжных фонда – Государственная библиотека Республики Узбекистан имени Алишера Навои и Республиканская научно-техническая библиотека.

В августе 1867 года впервые в колониальной администрации генерал-губернатора Туркестана была высказана идея о создании в Ташкенте публичной общедоступной библиотеки. Предполагалось, что основной фонд должен формироваться материалами, освещающими географию и культуру Туркестана и прилегающих к нему областей. Приоритетным направлением развития Библиотеки



являлось собрание изданий, посвященных истории Туркестанского края и соседних с ним стран.

Первым директором библиотеки 11 мая 1872 года стал Николай Васильевич Дмитриевский, который служил в Туркестанской канцелярии, а затем работал помощником редактора газеты «Туркестанские ведомости». В 1869–1870 годах Н.В.Дмитриевский составил опись книг, ставших «ядром» будущей библиотеки. Заняв должность Директора библиотеки, он в 1870–1872 приступил к осуществлению грандиозного труда – создания «Каталога книг Ташкентской общественной библиотеки».

## **7. “Jahonning mashhur kutubxonalari” rukni ostida taqdimot tayyorlang.**

### **Ko‘chirma va o‘zlashtirma gaplar**

Birovlarning hech o‘zgarishsiz berilgan gapi o‘zgalarning mazmuni saqlanib, shakli o‘zgartirilgan holda berilgan gapi bilan sinonimik holatda bo‘ladi: *O‘qituvchimiz dedi: “Topshiriqlarni o‘z vaqtida bajarang” — O‘qituvchimiz topshiriqlarni o‘z vaqtida bajarish lozimligi haqida gapirdi.*

Ko‘chirma gap o‘zlashtirma gapga aylantirilganda quyidagi o‘zgarishlar yuz beradi:

- ko‘chirma gap birikmali to‘ldiruvchiga aylanadi: *“Hamma yig‘ildi”, — dedi navbatchi. Navbatchi hammaning yig‘ilganini aytdi.*
- ko‘chirma gap tarkibidagi undalma vositali to‘ldiruvchiga aylanadi: — *“Rasulbek, biz bilan yuring”, — deb taklif qildi do‘sti. Rasulbekka do‘sti o‘zlari bilan yurishni taklif qildi.*
- ko‘chirma gap tarkibida kirish so‘z vazifasida kelgan undovlar, taqlid so‘zlar tushiriladi: *“Voy, qo‘rqib ketyapman”, — dedi xotini. Xotini qo‘rqib ketayotganini aytdi.*

## **8. Avval ko‘chirma gapli qo‘shma gaplarni, so‘ng o‘zlashtirma gaplarni ko‘chiring.**

1. Bir donishmand nasihatni olmaydigan odamning baxtsiz odam ekanligini ta'kidlagan edi.
2. Xurramiy deydi: "Chiroyli xulq bilan inson insondir".
3. Bobom shirinso'zlik va muloyimlik har qanday baloni qaytarishga qodirligini aytdi.
4. "Yaxshi fe'l bilan kishiar ko'nglini olib, o'zingni yomon qiliqlardan saqlab yasha", – deydi Ahmad Yugnakiy.
5. Hadislarda yaxshi xulqdan boshqa oliy nasab yo'qligi haqida aytib o'tilgan.

**9. Berilgan ko'chirma gaplarni o'zlashtirma gaplarga aylantiring. Qanday qilib o'zlashtirma gapga aylantirganingizni ayting.**

1. Donolar deydiki: "Vaqtning ketdi – baxting ketdi".
2. Balli, Ra'no, — dedi Solih mahdum. (*Abdulla Qodiriy.*)
3. Seni ilgari ko'rmagan edim-ku, qayerliksan, — deb so'radi u. (*Mirkarim Osim.*)
4. Keldik, — dedi Ochil kulib. (*S. Barnoyev.*)
5. Olcha juda serob, avval tatib yenglar, keyin terasizlar, — dedi bir mo'ysafid. (*Oybek.*)

**10. Ko'chirma gaplarni aniqlab, ularni o'zlashtirma gaplarga aylantiring va ular o'rtasidagi farqlarni ayting.**

1. Qadimgilar demishki: "O'z uyim — o'lan to'shagim".
2. "Kamgaplik, — deydi ustozim, — donolik yo'lining boshlanishi".
3. Behbudiy: Maktab dunyo imoratlarning eng muqaddasi va qadrlisidir, — deb yozadi.
4. "So'z qolip, fikr uning ichiga quyilgan g'isht", — deb yozadi Abdulla Qodiriy.
5. "Or-nomus uchun kurash bolalikdan boshlanadi", — deydi Tog'ay Murod.

### 11. Matndagi gaplarni ko‘chirma gapqa aylantiring.

Yer tabiatning in’omi. U xalqqa noz-u ne’mat beradi. Qish kunlarida yer miriqib dam oladi. U qor va yomg‘ir namplarini yig‘ib kelgusi yil hosili uchun asrab turadi, o‘ziga kuch to‘playdi. Bahorda yer insonga o‘z bahrini ochadi, saxiy mehrini sochadi.

*(K. Sa’dullayeva.)*

**12. Ikki ustunli jadval tuzing. Ustunning chap tomoniga to‘rtta ko‘chirma gapli qo‘shma gap yozing. O‘ng tomoniga esa bu gaplarni o‘zlashtirma gapga aylantirib yozing. O‘zlashtirma gap shaklida qanday o‘zgarishlar bo‘lganini ayting.**

<b>Ko‘chirma gap</b>	<b>O‘zlashtirma gap</b>
– Qizim, umring uzoq bo‘lsin,— dedi yo‘lovchi.	Yo‘lovchi qizga umri uzoq bo‘lishini tiladi.

## **JADID ADABIYOTIDA MA'RIFATPARVARLIK G'UYALARI**

### **1. Savollarga javob bering.**

Jadidlar kimlar?

Mamlakatimizda qaysi kun Qatag'on qurbonlarini yod etish kuni sifatida nishonlanadi?

“Shahidlar xotirasi” yodgorlik majmui to'g'risida nimalarni bilasiz?

Jadid adabiyotining qaysi vakillarini bilasiz? Ularning qanday asarlarini o'qigansiz?

### **2. Berilgan matn bilan tanishing. Matn yuzasidan savollar tuzing.**

#### **Jadidchilik harakati namoyandalari**

Jadidchilik XIX asr oxiri – XX asr boshida Turkiston, Kavkaz, Qrim, Tatariston hayotida muhim ahamiyat kasb etgan ijtimoiy-siyosiy, ma'rifiy harakat. Jadidchilik dastlab XIX asrning 80-yillarida Qrimda vujudga keldi. XIX asrning 90-yillaridan O'rta Osiyoda tarqaldi.

Uning asoschisi diniy-dunyoviy ilmlarni chuqur egallagan Ismoilbek Gaspirali bo'ldi. Ismoilbek 1884-yilda jadid maktabi tashkil etib, 40 kunda 12 bolaning savodini chiqaradi. Uning o'qitish usuli “usuli savtiya”, ya'ni “yangi usul” nomi bilan shuhrat qozondi. “Jadid” arabcha so'z bo'lib, “yangi” degan ma'noni bildiradi. Ismoilbek g'oyalarni qabul qilgan yangilik tarafdorlari “jadidlar”, uning g'oyalari esa “jadidchilik” nomini oldi. Ismoilbek Gaspirali darslik yaratadi, o'zining “Tarjimon” gazetasini tashkil etib, jadidchilikni turkiy xalqlar orasida keng targ'ib qiladi. Bu gazeta Toshkent va boshqa shaharlarga ham tez yoyiladi.

Jadidlar harakati uch bosqichda davom etgan:

- XIX asr oxirlaridan 1915-yilgacha – ma'rifatchilik;
- 1915-yildan 1918-yil fevraligacha – muxtoriyatchilik;

- 1918-yil fevralidan 20-yillar oxirlarigacha – mustabid sovetlar davridagi faoliyati.

Bu oqim vakillari taraqqiyot uchun kurashish, turkiy tillarni rivojlantirish, shu tillardagi adabiyotni boyitish, dunyoviy ilmlarni o‘rganish, fan yutuqlaridan foydalanish, milliy mustaqillik g‘oyalarini hayotga tatbiq etish maqsadini o‘z oldiga qo‘ygan hamda ayollar va erkaklar tengligi uchun kurashishga chaqirishgan.

Jadidlarning xalq ma‘rifati uchun kurash dasturi yangi usul maktablari tarmog‘ini kengaytirish, umidli, iqtidorli yoshlarni chet elga o‘qishga yuborish, turli ma‘rifiy jamiyatlar tuzish hamda ziyolilarning kuchli firqasini tashkil etishga qaratilgan gazetalarni chop etishdan iborat bo‘lgan. Shu dasturni amalga oshirish borasida Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat, Munavvarqori Abdurashidxonov, Ubaydullaxo‘ja Asadullaxo‘jayev, Abdulla Qodiriy, Abdulla Avloniy, Hamza, Abdulhamid Cho‘lpon, Sidqiy Xandaqliqiy, Elbek, Botu, Tavallo va boshqa ziyolilar jonbozlik ko‘rsatishdi.

Jadidchilik harakatining yirik namoyandalari jadid maktablari uchun darsliklar ham yaratganlar. Xususan, Saidrasul Aziziyning “Ustozi avval” (1903), Munavvarqorining “Adibi avval” (1907), Abdulla Avloniyning “Birinchi muallim”, “Ikkinchi muallim” (1912) darsliklari alohida e‘tiborga molikdir. Yangicha o‘qitish musulmon bolalariga qisqa vaqt ichida dunyoviy, diniy ta‘lim berish dasturi asosida olib borildi. Bu dasturga ko‘ra maktablarda o‘qitish tizimi ikki bosqichdan iborat bo‘lgan. Birinchi bosqich ibtidoiy qism deb atalib, uning tahsil muddati 4 yil bo‘lgan. Birinchi bosqichni tugatgan shogird eski maktabda 10 yil o‘qigandan ko‘ra yaxshiroq savod chiqargan. Ikkinchi bosqichni muvaffaqiyatli tugatgan shogird arabcha, forscha, turkiy tilda bemalol so‘zlashib, ruschada erkin gaplasha olar edilar.

### **3. Quyidagi satrlar kimga tegishli? Ularni izohlang.**

Xotira bor ekan, tirikdir millat,

Tirikdir iftixor, tirikdir g‘urur.

Xotira – elni xalq etguvchi qudrat,

Xotira – ertani yoritguvchi nur.

#### 4. Matnni o‘qing. Uni kengaytirib so‘zlab bering.

El-yurtimiz ozodligi yo‘lida jon fido qilgan bobolarimizni eslash, ularning muborak ruhlarini shod etish barchamizning insoniy, farzandlik burchimizdir.

*qatag‘on qurbonlari*  
– жертвы репрессии

2001-yildan buyon 31-avgust mamlakatimizda *Qatag‘on qurbonlarini* yod etish kuni sifatida nishonlab kelinadi.

*Shahidlar xotirasi majmui*  
– комплекс Памяти жертв репрессии

Toshkent shahrida Bo‘zsuv sohilida joylashgan “*Shahidlar xotirasi*” yodgorlik *majmuasi* doimo ziyoratchilar bilan gavjum. Bu



qadamjo nafaqat shahidlar yodini, balki xalqimizning kechmishini o‘zida mujassam etgan tarix

*muqaddas burch*  
– святой долг

kitobiga o‘xshaydi. Bu yerga kelgan har bir inson qalbida shu tabarruk yurt barchamizniki, uni ko‘z qorachig‘idek asrab-avaylash *muqaddas burchimizdir*, degan ezgu tuyg‘u jo‘sh uradi. Har yili 31-avgust tongida poytaxtimizdagi “Shahidlar xotirasi” xiyobonida xalqimizning ozodligi va mustaqilligi yo‘lida qurbon bo‘lgan marhumlarni yod etish marosimi o‘tkaziladi. Ushbu xiyobon 2000-yilda bunyod etilgan.

*ajdodlarimizning porloq xotirasi*  
– светлая память предков

Qatag‘on qurbonlarini xotirlash va e‘zozlash, xalq ozodligi yo‘lida qurbon bo‘lgan *ajdodlarimizning porloq xotirasini* tiklash maqsadida majmua tarkibida 2002-yil 31-avgust kuni “Qatag‘on qurbonlari xotirasi” muzeyi ochildi.

Insonning ezgu amallari, ishlari, bunyodkorliklari unutilmaydi. Behbudiy, Usmon Nosir, Cho‘lpon, Munavvar qori, Abdulla Qodiriy, Fitrat, Elbek singari ko‘plab ma’rifatparvarlarning kurashlarga yo‘g‘rilgan hayoti bunga yorqin misoldir.

*tetik ruh* –  
приподнятое  
настроение, высокий  
дух

O‘tganlar yodi – muqaddas. Mana shunday nurafshon kunlarni orzu qilgan, shu yo‘lda o‘z umrini ham ayamagan qatag‘on qurbonlarining xotirasini yod etish bilan qalbimiz nurga to‘ladi, *ruhimiz tetiklashadi*.

**5. Matnni o‘qing. Undagi ma’lumotlarni jadval ko‘rinishida ifodalang.**

### Cho‘lpon (1897-1938)



*ziyoli* – интеллигент

*bazzozlik* – торговля  
тканями

*mukammal* –  
в совершенстве

O‘zbek adabiyotining atoqli namoyandalaridan biri Abdulhamid Sulaymon o‘g‘li Yunusov – Cho‘lpon 1897-yilda Andijonning “Qatorterak” mahallasida *ziyoli* oilasida dunyoga kelgan. Onasi uy bekasi bo‘lgan. Otasi Sulaymonqul mulla Muhammad Yunus o‘g‘li dehqonchilik, hunarmandchilik, *bazzozlik* bilan shug‘ullangan. U she’rlar yozib, “Devon” ham tuzgan.

Cho‘lpon avval eski maktabda, so‘ngra esa Avdijon va Toshkentdagi obro‘li madrasalarda tahsil olib, turk, arab, fors tillarini *mukammal* o‘zlashtirgan. Firdavsiy, Sa’diy, Hofiz, Dehlaviy, Nizomiy, Umar Hayyom, Alisher Navoiy, Abdulla To‘qay kabi buyuk so‘z san’atkorlari ijodini mehr

bilan o‘rgangan. Shu bilan birga, Andijondagi rus-tuzem maktabida rus tilini chuqur o‘zlashtirishi natijasida jahon adabiyoti durdonalari bilan yaqindan tanishish imkoniyatiga ega bo‘lgan.

Cho‘lponning ijodi 1913–1914-yillardan boshlangan bo‘lib, u avval “Qalandar”, “Mirzaqalandar”, “Andijonlik” va nihoyat Cho‘lpon (“tong yulduzi”) taxallusi bilan ijod qila boshladi. U ham shoir, ham dramaturg sifatida o‘zbek adabiyoti ravnaqiga salmoqli hissa qo‘shdi. Uning dastlabki asarlari “Sadoi Turkiston”, “Sadoi Farg‘ona” kabi mahalliy gazetalarda, shuningdek, Orenburgda chiqadigan “Sho‘ro” nomli jurnalda nashr etilgan. Xususan, Cho‘lponning “Ishtirokiyun”, “Qizil bayroq”, “Turkiston” hamda “Buxoro axbori” kabi gazetalardagi faoliyati ham uning ijodiy shakllanishida *mahorat maktabi* bo‘lib xizmat etdi.

Cho‘lpon ilk asarlari – “Qurboni jaholat”, “Do‘xtur Muhammadyor” hikoyalarini hamda “Yozuvchilarimizga”, “Adabiyot nadur?” nomli maqolalarini e‘lon qilganda 17 yoshda edi. U Oktabr to‘ntarishidan keyingi 1920–1924-yillarda hayotda sodir bo‘layotgan xush va noxush o‘zgarishlarni ham qalamga oldi. Uning “Yo‘lda bir kunduz”, “Yo‘lda bir kecha”, “Sharq poyezdi keldi”, “Sharq uyg‘ongan”, “Chimkent”, “Quturgan mustamlakachilar”, “Yo‘l esdaligi” singari o‘nlab sayohat ocherklari va publitsistik maqolalari yaratildi.

Cho‘lpon 1922–1926-yillarda o‘zining “Tong sirlari”, “Uyg‘onish” va “Buloqlar” kabi uchta she‘riy to‘plamini nashr ettirdi. 30-yillarga kelib “Soz” va “Jo‘r” kabi she‘riy to‘plamlari



tayyorlandi. Ammo “Soz” chop etiladi-yu, “Jo‘r” to‘plami qatag‘onlik shamoli tuzog‘iga ilinib, qolib ketadi.

*nasr* –  
проза

Uning 1936-yilda yozilgan “Kecha va kunduz” romani, “Qor qo‘ynida lola”, “Gavharoy”, “Novvoy qiz”, “Oydin kechalarda” hikoyalari yangi davr o‘zbek *nasri* rivojiga salmoqli hissa bo‘lib qo‘shildi.

*chet el josusi* –  
иностранный шпион

Cho‘lpon 1937-yil 13-iyulda xalq dushmani va *chet el josusi* sifatida qamoqqa olingan va 1938-yil 4-oktabrda Toshkentda qatl qilingan.

## **6. Matnni o‘zbek tiliga tarjima qiling.**

Писатель Абдулхамид Сулейман (1897–1938), подписывал свои произведения главным образом псевдонимом Чулпан (“утренняя звезда”). Это была довольно одаренная личность, которая оставила заметный след в истории отечественной литературы. Абдулхамид Сулейман был достаточно образованным человеком для своего времени. “Чулпан, – писал критик В.Махмуд в газете “Туркестон” в декабре 1923 года, – является новым поэтом узбеков. Поэтому в его сборнике “Источники” кипят сегодняшний дух, состояние и сознание узбекского народа. Здесь в полный голос звучат узбекский язык, узбекская мелодия. Здесь взлетают в небеса волны национального духа. В сборнике плачут чувства, боли, волнения узбеков”. В 1924 году известный ученый-тюрколог А.Самойлович впервые перевел ряд стихотворений Чулпана на русский язык и опубликовал в Москве. В публикации была претворена небольшая, но очень эмоциональная статья ученого о поэте.

## **7. Cho‘lpon ijodi bo‘yicha fikrlaringizni klaster yordamida umumlashtiring.**



## 8. She'rni ifodali o'qing va yod oling.

### Go'zal

### *Cho'lpon*

Qorong'u kechada ko'kka ko'z tikib,  
 Eng yorug' yulduzdan seni so'raymen,  
 Ul yulduz uyalib, boshini bukub,  
 Aytadir: "Men uni tushda ko'ramen.  
 Tushimda ko'ramen, shunchalar go'zal,  
 Bizdan-da go'zaldir, oydan-da go'zal!.."

Ko'zimni olamen oy chiqqan yoqqa,  
 Boshlaymen oydan-da seni so'rmoqqa,  
 Ul-da aytadirki: "Qizil yonoqqa<sup>83</sup>  
 Uchradim tushimda, ko'milgan oqqa.  
 Oqqa ko'milganda shunchalar go'zal,  
 Mendan-da go'zaldir, kundan-da go'zal!.."

<sup>83</sup> qizil yonoq – румяные щёки

Erta tong shamoli sochlarin yozib,  
Yonimdan o‘tganda so‘rab ko‘ramen.  
Aytadir: “Bir ko‘rib, yo‘limdan ozib<sup>84</sup>,  
Tog‘-u toshlar ichida istab yuramen!<sup>85</sup>  
Bir ko‘rdim men uni: shunchalar go‘zal,  
Oydan-da go‘zaldir, kundan-da go‘zal!..”

Ul ketgach kun chiqar<sup>86</sup> yorug‘lik sochib,  
Undan-da so‘raymen sening to‘g‘ringda.  
Ul-da uyatidan orlanib<sup>87</sup>, qochib,  
Aytadir: “Bir ko‘rdim, tushdamas o‘ngda.  
Men o‘ngda ko‘rganda shunchalar go‘zal,  
Oydan-da go‘zaldir ... mendan-da go‘zal!..”

Men yo‘qsil<sup>88</sup> na bo‘lub uni suyubmen<sup>89</sup>?!  
Uning-chun yonibmen, yonib-kuyubmen.  
Boshimni zo‘r ishga berib qo‘yubmen,  
Men suyub... men suyub... kimni suyubmen?  
Men suygan “Suyuklik” shunchalar go‘zal,  
Oydan-da go‘zaldir, kundan-da go‘zal!!!

### Tinish belgilarining imlosi

*Nuqta* quyidagi o‘rinlarda qo‘yiladi:

1. Tinch ohang bilan aytilgan darak, buyruq va undov (his-hayajon) gaplardan keyin: *Oltin kuz fasli kirib keldi. Darslarni o‘z vaqtida tayyorlab yurgin. Koshki uni kuchi yetsa.*

2. Birinchi qismida nuqta, ko‘p nuqta, undov yoki so‘roq belgisi bo‘lgan ko‘chirma gap o‘rtasida kelgan muallif gapidan so‘ng: *“Men hozir jo‘nayman, – dedi u. – Siz esa yarim soatlardan keyin yo‘lga chiqing”.*

3. Qisqartirilgan ism va familiyalarning birinchi harfi yoki qismidan keyin: *M.Ism. (Mirzakalon Ismoilij)*

<sup>84</sup> yo‘ldan ozmoq – сбиться с пути

<sup>85</sup> istab yurmoq – искать

<sup>86</sup> kun chiqar – восходит солнце

<sup>87</sup> orlanib – стыдяться

<sup>88</sup> yo‘qsil – бедный

<sup>89</sup> suyubmen – влюбился

4. Sanash yoki ayrim fikrning qismlarini ifodalagan va oy, kun, yillarni bir-biridan ajratish uchun qoʻllangan raqam yoki harflardan keyin: 27.09.2002 kabi.

**Vergul** quyidagi oʻrinlarda qoʻyiladi:

1. Uyushiq boʻlaklar orasida:

- bogʻlovchisiz birikkan uyushiq boʻlaklar orasida: *Andijon, Namangan, Qoʻqon, Margʻilon – Oʻzbekning chamani bogʻu boʻston. (Gʻafur Gʻulom.);*

- takrorlanuvchi bogʻlovchilar bilan birikkan uyushiq boʻlaklar orasiga: *U goh kulimsiraydi, goh chuqur oʻyga toladi.*

- zidlovchi bogʻlovchilar yordamida birikkan uyushiq boʻlaklar orasiga: *Zamiraning baland, ammo mayin ovozi bor edi. (P.Qodirov.)*

2. Undalmalarni ajratish uchun: *Ertaga, azizim, toqqa joʻnaymiz.*

3. Kirish soʻzlarni va tuzilishiga koʻra murakkab boʻlmagan kirish gaplarni ajratish uchun: *Xullas, ertaga shu yerda yigʻiladigan boʻldilar. Men sizga aytsam, odamning yomoni boʻlmaydi.*

4. *Ha* va *yoʻq* soʻzlarini gap boʻlaklaridan ajratish uchun: *Ha, bu gapingiz toʻgʻri. Yoʻq, ertaga kela olmayman.*

5. Gapning ajratilgan boʻlaklarini ayirib koʻrsatish uchun: *Biz, yoshlar, otabobolarimiz qoldirgan bebaho merosni koʻz qorachigʻiday asrashimiz kerak.*

6. Bogʻlovchisiz bogʻlangan qoʻshma gaplarda: *Eshik ochildi, ichkariga muzday havo yopirilib kirdi.*

7. *Va, ham, hamda, yoki* bogʻlovchilaridan boshqa bogʻlovchilar bilan bogʻlangan qoʻshma gaplarda: *Hamma gapirdi, lekin u bir chekkada xomush oʻtirar edi.*

8. Ergash gapni bosh gaplardan ajratish uchun: *Hamma yigʻilgach, majlis boshlandi.*

9. Muallif gapini koʻchirma gapdan ajratish mumkin: – *Bugungi qilgan ezgu ishlarimiz, – dedi ota, – kelajak uchun mustahkam poydevor vazifasini bajaradi.*

## **9. Tinish belgilarini qoʻyib, gaplarni koʻchiring.**

1. Mehmonlarga har nav shirinliklar pista bodom quruq mevalar juda moʻl-koʻl tortildi. (*Oybek.*)

2. Bularning oralarida shoirlar gʻazalxonlar sozanda qiziqchi va raqqoslar boʻlardi. (*N. Safarov.*)

3. Togʻda ham qishloqda ham pastda ham dalada ham hamma yerda fidokorona mehnat tantana qilardi.

4. Kitob sehrli koʻzgu borliq unda namoyon. (*J. Jabborov.*)

5. Atrofni qurshagan togʻlar qirlar daraxtlar hamma narsa bahor havosiga choʻmilganday tiniq yam-yashil koʻrinadi. (*Hakim Nazir.*)

**Tire** quyidagi o‘rinlarda qo‘llanadi:

1. Ot, son, olmosh va harakat nomi bilan ifodalanib, kesim bilan bog‘lamasiz birikkan ega va kesim orasiga: *O‘zbekistonning poytaxti – Toshkent. Ikki o‘n besh – bir o‘ttiz. Bularni amalga oshiradigan – siz. O‘qish – hayotni o‘qish.*
2. Uyushiq bo‘laklardan so‘ng kelgan umumlashtiruvchi so‘zdan oldin: *Akam, opam va singlim – barchasi meni kutib o‘tirishgan ekan.*
3. Ajratilgan bo‘lak bilan izohlanmish bo‘lak orasiga: *Men – Valiyev Mahmud, 1994-yilda Toshkentda tug‘ilganman.*
4. Kirish gap bilan gap bo‘laklari orasiga: *Tunov kuni ovchi – men uni o‘rmonda uchratib qoldim – menga qiziq bir voqeani so‘zlab berdi.*
5. Muallif gapi bilan ko‘chirma gap orasida: – *Bugun kelasizmi? – so‘radi qizi.*
6. Dialog tipidagi ko‘chirma gaplarda: – *Keldimi? – Keldi.*
7. Kutilmagan voqea-hodisalarni ifodalagan gaplardan oldin: – *Kecha sizlarnikiga borgan edim – Asqarjon kelibdi!*
8. Zid ma‘noli bog‘lovchisiz qo‘shma gaplar orasida: *Jismimiz yo‘qolur – o‘chmas nomimiz.*

**So‘roq belgisi** quyidagi o‘rinlarda qo‘llanadi:

1. So‘roq gaplardan keyin: *Ishga tayyormisiz?*
2. So‘roq gaplar bittadan ortiq bo‘lib kelgan holatlarda so‘roq gaplarning har biriga ahamiyat berish lozim topilsa yoki har qaysi so‘roq gap mazmuniga ko‘ra mustaqil bo‘lsa, har biridan so‘ng so‘roq belgisi qo‘yiladi: *Qishloqlar qanday? Og‘aynilar yaxshi yurishibdimi?*

## **10. Gaplarni o‘qing. Tinish belgilarining qo‘yilishini izohlang.**

1. Shodmon aka kulib dedi: “Chirchiq, Bekobod shaharlariga borsangiz, og‘zingiz ochilib qoladi”.
2. “Eng og‘ir kintlarda ham yaylovdan kechmaganman, endi tashlab ketarmidim”, – deb javob berdi Yo‘ldosh bobo.
3. Poda shov-shuvi ichida Polvon otaning: “Qo‘rqma, chirog‘im, polvon qo‘lidan mol bo‘tasi qochib qutulgan emas”, - degan ovoz eshitildi.
4. “Rahmat, direktor buva”, – deganicha bola yana chopib ketdi. (*Shuhrat.*)
5. Onam buvimga qarab dedi: “Qo‘ying, o‘qisin, mulla bo‘lsin bolam”. (*Oybek.*)

6. “Kechikdingiz, do‘stim, – dedi Karim tantana bilan, – men qovun uchun yer hozirladim”.

7. “Ma, buni tik, – dedi u yaktagini yechib, – ma”. (*Abdulla Qahhor.*)

**Undov belgisi** quyidagi o‘rinlarda qo‘yiladi:

1. Kuchli his-hayajonni ifodalagan gaplardan so‘ng: *Yoshligimizda naqadar baxtiyor edik!*

2. Buyurish, tilak, orzu ma’nolarini ifodalagan gaplardan so‘ng: *Hoziroq bularni ko‘zimdanda yo‘qot! Qandi endi qush kabi osmonda parvoz qilsa!*

3. Gap boshida kelib, kuchli his-hayajon ifodalagan undalmalardan, undov hamda ha va yo‘q so‘zlaridan so‘ng: *Yo‘q! Rustam bunday qabihlikka bormaydi hech qachon! Azizlar! Sizni mustaqillik bayrami bilan tabriklayman!*

**Ikki nuqta** quyidagi o‘rinlarda qo‘yiladi:

1. Uyushiq bo‘laklardan oldin kelgan umumlashtiruvchi so‘zdan so‘ng: *Yig‘ilishda tajribali ishchilar: Salim aka, Abdulkarim aka va Sobirjonlar so‘zga chiqishdi.*

2. Ko‘chirma gapdan oldin, muallif gapidan so‘ng: *U baland ovozda so‘radi: – Kim bor?*

3. Quyidagi ma’nolarni ifodalagan bog‘lovchisiz qo‘shma gaplarda:

•bir gap ikkinchi bir gapdan anglashilgan ish-harakatning sababini ko‘rsatsa:

*U ichkariga shoshib kirib ketdi: telefon anchadan beri jiringlayotgan ekan.*

•bir gap ikkinchi bir gapdan anglashilgan ish-harakatning natijasini ko‘rsatsa: *Shamol juda zo‘raydi: daraxtlarning ancha-munchasi sinib tushdi.*

•agar biror gap boshqa bir gapning mazmunini to‘ldirsa yoki izohlasa: *Vazifangiz shu: bironta odam bu xonaga kirmasligi kerak.*

## **11. Ko‘chirma va muallif gapini aniqlab, tinish belgilarini qo‘yib ko‘chiring.**

1. Barno uzr so‘raganday, ovozini pasaytirib dedi endi sizning gaplaringizga quloq solaman. (*Hakim Nazir.*)

2. Ha dedi Nafisa qat’iy qilib aytmoqchi emas edim endi aytadigan bo‘ldim. (*Asqad Muxtor.*)

3. Bu haqiqat! dedi Orif aka. (*Asqad Muxtor.*)

4. Azimjon, kun tig'iga qolmay yo'lga chiqib olaylik! dedi Ochil buva tomon yurib. (*Asqad Muxtor.*)

5. "Ona tili" turib dedi o'z tilini bilmay turib, bilish qiyin boshqani. (*Po'lat Mo'min.*)

6. Bu o'ljalar dedi Olimov bolalarni tinchitib maktab biologiya kabinetiga kerak. (*Hakim Nazir.*)

**Nuqtali vergul** quyidagi o'rinlarda qo'llanadi:

1. O'z ichida vergul bo'lgan, mazmunan ma'lum darajada mustaqillikka ega sodda gaplar orasida hamda har xil turdagi gaplarni o'z ichiga olgan qo'shma gaplarda: *Daraxtlar, butalar shitirladi; kuzning salqin nafasi yuziga urildi.*

2. O'z ichida vergul bo'lgan yoyiq uyushiq bo'laklar orasida:

*Mehnat, ijod, odam sharafi;*

*Dil yorug'i, hayot quvonchi,*

*Hammasining asl manbai*

*Sen, Vatanim – tinchlik tayanchi. (S. Nazar.)*

**Ko'p nuqta** quyidagi o'rinlarda qo'yiladi:

1. Fikrning tugallanmaganligi, so'zlovchining hayajonlanib yana nimadir aytmoqchi ekanligini ko'rsatish uchun: *Agar hozir gapingizni to'xtatmasangiz...*

2. Ba'zan ko'p nuqta so'zlovchini o'ylashi, mulohaza qilishini ko'rsatadi: *Bugun ... bugun oldingizga o'tsam bo'ladimi?*

3. Ba'zan kimningdir savolga javob bermay indamay turganini ko'rsatish uchun ham ko'p nuqta qo'yiladi: – *Mendan rozimassiz, bilaman, kechirmaysiz...*

4. Biror so'z yoki gapning tushirilganini ko'rsatish uchun: *Bugun yettinchi bo'linga kelib, ...fig'oni oshdi. (Tohir Malik.)*

**12. Tinish belgilarini qo'yib, kerakli o'rinlarda kichik harfni bosh harf bilan almashtirib, gaplarni ko'chiring.**

1. O'zbekning o'z xalqiga qilgan xizmati uning paxtachilik rivojiga qo'shgan hissasi bilan o'lchanadi deya o'z so'zini dabdaba bilan tugalladi Xalilov. (*Ibrohim Rahim.*)

2. Komiljon bilan Tatyani chaqiringlar dedi u qabulxonadagi xodimasiga. (*Ibrohim Rahim.*)

3. Vatan tinch sent inch. (*Maqol.*)

4. Uning ajoyib bir gapi bor inson doimo ilmga intiladi ilmga bo‘lgan tashnalik so‘nishi bilan u insonlikdan chiqadi.

5. Mehnatni Vatanni hayotni sevish uning eng oddiy xislatlaridan.  
(Uyg‘un.)

**Qavs** quyidagi o‘rinlarda qo‘yiladi:

1. Ifodalanayotgan fikrga yoki uning biror bo‘lagiga qo‘shimcha izoh beruvchi so‘z yoki iboralar qavsga olinadi: *Karimjon (sinfimizning a‘lochisi) oliy o‘quv yurtiga kiribdi.*

2. Misol yoki ko‘chirmaning manbai: *...Eshik qars etib yopildi. (O. Yoqubov.)*

**Qo‘shtirnoq** quyidagi o‘rinlarda qo‘yiladi:

1. Ko‘chirma gaplarni ajratib ko‘rsatish uchun: *“Ertaga kelamiz”, – dedi.*

2. Biror asardan aynan ko‘chirilgan nutq parchalari (iqtiboslar) qo‘shtirnoqqa olinishi mumkin: *“Bugungi kunda O‘zbekiston to‘la huquqli asosda eng obro‘li va nufuzli xalqaro tashkilotlar tarkibiga kirgan bo‘lib, barcha qit‘alardan o‘nlab mamlakatlar bilan do‘stona aloqalarni rivojlantirib bormoqda.” (I.Karimovning “O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida: xafsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari” asaridan.)*

3. Terminlar, ko‘chma ma‘nodagi, shartli nom yoki taxallus ma‘nosidagi ayrim so‘z va so‘z birikmalari ham qo‘shtirnoqqa olinishi mumkin: *Ilmiy konferensiyada “meva” tushunchasini ifodalovchi tarixiy nomlar haqidagi ma‘ruza tinglandi.1995-yilda gazetada “saxiy” noshirlar to‘g‘risidagi tanqidiy maqola bosildi.“Tog‘ asali” sotadigan yigit... dovonning nariyog‘iga o‘tib ketgan. (Said Ahmad.)*

### **13. Gaplarni o‘qing. Tinish belgilariga tavsif bering va vazifasini izohlang.**

1. Aziz kitobxonlar! Hech qachon unutmangki, sizlar Navoiydek ulug‘, tabarruk boboga nabira bo‘lasizlar. (E. Vohidov.)

2. “Inson bolalikdan boshlanadi”, – deydi xalqimiz.

3. Darvoqe, o‘sha yigit haqida eshitganmisiz?

4. Axir, qizning qo‘lida guldek hunari bor-ku!

5. “Lochin!”, “Lochin!” “Parvoz”ni eshit! Uning bunday “chiroyli” qilig‘idan uyali ketdim.



6. “Men qoqio‘t, karnaygul, tog‘ piyozi – giyohlarni teraman”, – dedi yo‘lovchi.

7. Hamid Olimjon: “Jismimiz yo‘qolur, o‘chmas nomimiz”, – deb bejiz aytmagan.

**14. Rivoyatni o‘qib, undagi mazmun haqida o‘ylang. Fikrlaringizni daftarga yozing.**

Aytishlariicha, ikki qo‘shni bir parcha yerni talashib qolishibdi.

– Bu yer meniki! – debdi biri.

– Yo‘q! Bu yer meniki! – debdi ikkinchisi.

Shunda yerdan sado chiqib:

– Ikkoving ham meniki! – debdi.

Shu sado tufayli ikki qo‘shni murosaga kelib, yarashishibdi.



**1. Savollarga javob bering.**

San'at nima?

San'atning vazifasi qanday?

San'atning qanday turlari mavjud?

O'zbek xalq san'atining qaysi turlarini bilasiz?

**2. Matnni o'qing. Uni qismlarga bo'ling va har bir qismga nom bering.**

*ijtimoiy ong* –  
общественное  
сознание

San'at – *ijtimoiy ong* va inson faoliyatining o'ziga xos shakli. San'at qadimiy tarixga ega bo'lib, u jamiyat taraqqiyotining ilk bosqichlarida mehnat jarayoni bilan, kishilar ijtimoiy faoliyatining rivojlanishi bilan bog'liq holda vujudga kela boshlagan.

*ibtidoiy* –  
первобытный

*Ibtidoiy* san'atning dastlabki izlari so'nggi paleolit davriga, taxminan miloddan avvalgi 40–20-ming yillikka borib taqaladi. U davrda hali san'at inson faoliyatining mustaqil shakli sifatida ajralib chiqmagan edi. Chunki ma'naviyat moddiy ishlab chiqarish bilan *qorishiq holatda* edi.

*qorishiq holatda* – в  
смешанном виде

Keyinchalik madaniyatning o‘sishi natijasida san’at alohida soha sifatida asta-sekin ajrala bordi.

San’at odamlarning estetik talablarini qondirish bilan birga, o‘z taraqqiyotining turli davrlarida jamiyat a‘zolarini ma’lum ruhda tarbiyalash, ularni aqliy va hissiy jihatdan rivojlantirish vositasi sifatida xizmat qilib kelgan, ularning turli maqsad, his-tuyg‘u, manfaat, ideallarini ifoda etgan.

*voqelikni ifoda etish usuli va uslubi* – способ и стиль выражения реальности

San’at ijtimoiy ongning boshqa shakllaridan o‘zining predmeti, mazmuni, *voqelikni ifoda etish usuli va uslubi*, ijtimoiy hayotda tutgan o‘rni hamda vazifalari jihatidan farq qiladi.

San’at insonning moddiy va ma’naviy faoliyatidagi bilimi, tajribasi, mahorati va qobiliyatlarini namoyon etuvchi badiiy ijodiyot mahsulidir. Estetik tafakkur tarixida san’at narsa va hodisalarni qanday bo‘lsa shunday aks ettirish va hayotni go‘zallik qonunlari asosida badiiy ifodalash g‘oyalari sari yuksalib bordi. Tabiat, jamiyat va insonning ijtimoiy, ma’naviy, milliy dunyosi san’at predmeti hisoblanadi. Voqelik qaysi shaklda badiiy ifoda etilmasin, ijodkor unga ma’lum ijtimoiy-estetik ideal nuqtai nazardan munosabat bildiradi va o‘z estetik bahosini beradi.

*me’morlik* – архитектура

San’at tasviriy san’at, *me’morlik*, rassomlik, haykaltaroshlik, musiqa, raqs san’ati, vokal, teatr, kino, sirk, badiiy adabiyot, xoreografiya va boshqalarni o‘z ichiga oladi. Ularning barchasini quyidagi xususiyatlar birlashtiradi:

- inson uchun estetik zavq-shavq manbai;
- inson hayotiga go‘zallik baxsh etadi;
- odamlarda voqelikka nisbatan *hissiy munosabatni* shakllantiradi;

*hissiy munosabat* – эмоциональное отношение

- hayotni kuzatish, o‘rganish va bilish vositasi;
- hayotni inson orzu qilgan tomonga o‘zgartirishda yordam beradi;
- tarbiya vositasi;
- hayotdagi go‘zallikdan ilhrmlanishga, xunuklikdan nafratlanishga chorlaydi;
- odamlar orasidagi ma’naviy ko‘prik, muloqot vositasi;
- odamlarning badiiy-estetik didini tarbiyalaydi, ularda ma’lum dunyoqarashni shakllantiradi va h.k.

**3. Quyida nomlari keltirilgan taniqli shaxslar haqida ma’lumotlarni toping va gapirib bering.**

Abror Hidoyatov, Alisher Narzullayev, Bahodir Jalolov, Bernora Qoriyeva, Ergash Karimov, Ilhom Jabborov, Ismoil Jalilov, Kamoliddin Behzod, Komil Yormatov, Mutal Burhonov, Rafael Xayrutdinov, Tamaraxonim, Toshkanboy Egamberdiyev, Yunus Rajabiy.

**4. Quyidagi kasb egalariga o‘z so‘zingiz bilan ta’rif bering.**

Aktyor, dorboz, fotosuratchi, haykaltarosh, hofiz, kulol, masxaraboz, me’mor, raqqosa, rassom, xattot, zargar.

**5. Matnni o‘qing. Unga sarlavha qo‘ying. Ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarning ma’nosini tushuntiring.**

Temuriylar davri tomosha san’atlari, bayramlari to‘g‘risida ma’lumotlar va *umumlashmalar* ko‘plab saqlanib qolgan. Ayniqsa, an’anaviy teatr, raqs va sirk bo‘yicha ma’lumotlar va mo‘jaz tadqiqotlar Alisher Navoiyning butun ijodi bo‘ylab sochilgan. Shuningdek, Abu Nasr Forobiy, Abu Abdulloh Xorazmiy, Abu Ali ibn Sino, Abdurahmon Jomiy, Darvesh Ali Changiy va boshqalarning musiqa sa’natiga oid *risolalarida* raqs ritmi va usullari haqida ma’lumotlar, ilmiy *mushohadalar* uchraydi.

O‘tmishda an’anaviy teatr, qo‘g‘irchoqbozlik, raqs, xalq sirki, qo‘shiqchilikning barcha shakllari, turlari “tomosha” degan birgina istiloh bilan ifodalangan. Asli arabcha bu so‘z “qarash, ko‘zdan kechirish” degan ma‘nolarni anglatadi. Ammo Markaziy Osiyo mintaqasida uning ma‘no doirasi juda keng bo‘lib, ko‘pchilikka mo‘ljallangan hamda ko‘ruvchi va tinglovchini quvontiradigan yoki qayg‘urtiradigan, ba‘zan hatto *jumbush*ga soladigan ijrolar, maydon ma‘rakalari, marosimlar bilan bog‘liq namoyishlar va o‘yinlar – barchasi “tomosha” deb yuritilgan.

Samarqand saltanatini o‘z ko‘zi bilan ko‘rgan ispan elchisi Rui Gonsales de Klavixoning yozishicha, Amir Temur “Qaysi bir mamlakatni zabt etgan va bo‘ysundirgan bo‘lsa, ularning hammasidan odamlar Samarqand va uning atrofidagi yerlarga joylashtirdi. Shoh har xil hunarmandlarni yig‘ishga, ayniqsa, ko‘p harakat qildi”.

Olib kelingan xaloyiq *hayratlanarli* darajada ko‘p ediki, shaharga, ko‘cha va maydonlarga, qishloqlarga, hatto shahar tashqarisidagi daraxtlar ostiga, g‘orlarga ham odam sig‘may ketgan edi. Amir Temur ularni bir-biridan ajratmasdan, *qavmi* va oilasi bilan birga jamoa-jamoa joylashtirgan, zarur shart-sharoit yaratib bergan, chunki yangi joyda o‘z hunarlarini yo‘lga qo‘yishlari, mahorat va bilimlarini namoyon qilishlari uchun ular *yotsiramastligi*, mahkam o‘rnashib olishlari kerak edi. Samarqand atrofida Damashq, Misr, Bog‘dod, Sultoniya, Sheroz nomli qishloqlarning paydo bo‘lishini shu bilan izohlash mumkin. Bunday qishloqlar Shahrisabz, Qarshi, Buxoro atroflarida ham yuzaga kelgan.

XIV asr oxirlaridayoq qurilishda birga ishlagan mahalliy va *kelgindi* me‘morlar, ustalar o‘rtasida o‘zaro ta‘sir va o‘ziga xos ijodiy amaliy birdamlik yuzaga kelgan. XV asr boshlarida umumiy badiiy maktablar shakllangan. Natijada *nainki* me‘morchilik, naqqoshlik, o‘ymakorlik va boshqa qator hunarlarda, balki musavvirchilik, musiqa, raqs, tomosha san‘atlarida ham keskin yuksalishlar yuz berdi. Buni aksar olimlar uyg‘onish davri, temuriylar renessansi deb ataydilar.

Amir Temur va temuriylar davlatida turli bayramlar, sayillar, tomoshalar o‘tkazilib kelinganligi to‘g‘risida ko‘pgina ilmiy ma‘lumotlar bor. *Ma‘rakalarda* har toifa ijrochilar alohida-alohida

tarabxona va xosxona san'atkorlarning aralash guruhlari o'z mahoratlarini namoyish etishgan bo'lsa, teatrlashgan sayillar va namoyishlarda minglab har xil ijrochilar qatnashgan va o'zaro bellashgan.

(Husniddin Toshkanboyev.)

**6. “San’at va ma’naviyat” mavzusida esse turlaridan birini yozing.**

**O‘zbek tilining leksik qatlamlari**

Ma'lumki, o'zbek xalqi eng qadimgi turkiy urug' va qabilalardan o'sib chiqqan. Demak, uning tili ham shu urug' va qabilalar tili negizida rivoj topgan. Markaziy Osiyodagi turli tarixiy va ijtimoiy-siyosiy jarayonlar, qardosh xalqlar bilan qo'shnichilik munosabatlari ham o'zbek tili taraqqiyotiga jiddiy ta'sir o'tkazgan.

1. *Umumturkiy so'zlar* o'zbek tili leksikasining eng qadimgi lug'aviy biriklaridir. Ularning aksariyati hozirgi qozoq, qirg'iz, turkman, ozarbayjon tillarida ham saqlangan. Q'iyoslang: *bosh* (o'zbek) – *bas* (qozoq, qoraqalpoq) – *bosh* (qirg'iz, turkman); *til* (o'zbek, qozoq, qirg'iz) – *dil* (turkman, ozarbayjon, gagauz); *tog'* (o'zbek) – *too* (qirg'iz) – *tav, tau* (qoraqalpoq, qozoq) – *dag'* (turkman, ozarbayjon) kabi.

Umumturkiy so'zlar qatlamida “qon-qarindoshlik”, “inson a'zolari”, “uy hayvonlari”, “yovvoyi hayvonlar”, “parrandalar”, “mehnat faoliyati”, “uy-ro'zg'or buyumlari”, “rang-tus”, “urf-odat” ma'noli so'zlar ko'pchilikni tashkil etadi.

2. *Sof o'zbek so'zlari* – o'zbek tilining o'zida yasalgan leksemalar.

3. *Boshqa tillardan o'zlashtirilgan leksemalar*. Masalan: *maktab, oila* (arab), *daraxt, gul* (fors-tojik), *axta, bahodir* (mo'g'ul), *afandi* (turk), *ravshan* (so'g'd), *traktor, avtobus* (rus) va boshqalar. Bu qismda arab, tojik-fors va rus tillaridan o'zlashtirilgan so'zlar ko'pchilikni tashkil qiladi.

**7. Hikmatlarni o‘qing. Ajratilgan so‘zlarning etimologiyasini lug‘at yordamida aniqlang.**

1. Eng yaxshi yo‘l shuki, yaxshi *do‘st yor-diyordan* ayrilishni *ixtiyor* etmaydi.

2. O‘tgan *ota-bobolarning* xulosasi shuki, *shirin* so‘z odamlarning *qalbini bog‘lovchi zanjir*dir.

3. Qisqa gap shuki, *odam* so‘zi bilan taniladi, *axloqi* bilan maqtaladi.

4. *Donolarning o‘giti* shundayki, so‘zning lazzati uni gapirishda emas, balki eshitishdadir.

5. *Xalqning* xulosasi shuki, *xudbin* odam hech qachon *elga* qovushmaydi.

(“*Hikmatlar bo‘stoni*” kitobidan.)



### 1. Savollarga javob bering.

Muzey nima?

Siz qanday muzeylarni bilasiz?

Siz yashaydigan joyda qaysi muzeylar faoliyat ko‘rsatadi?

Jahondagi mashhur muzeylardan qaysilari haqida ma’lumotga egasiz?

Muzeylar nima uchun kerak?

### 2. Matnni o‘qing. Unga munosabat bildirgan holda so‘zlab bering.

*turmush tarzi* – образ  
быта

Muzeylar har bir xalq tarixi, madaniyati, *turmush tarzi*, milliy an’ana va qadriyatlarini o‘rganish, ularni targ‘ib etish va kelgusi avlodlarga yetkazishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Muzeylar ajdodlarimizdan bizga meros bo‘lgan boylikni kelajak avlodga yetkazib beradigan ilmiy, ma’naviy-ma’rifiy xazinadir. Bu xazina yillar davomida boyib boradi. Har bir



*faxr bilan soʻzlab beramiz* –

рассказываем с гордостью

*meros boʻlgan ashyolar* –

унаследованные вещи *umuminsoniy boylik* – общечеловеческое богатство

*fan va madaniyatning yuksalgan davri* –

эпоха расцвета науки и культуры

*umuminsoniyat madaniyati* –

общечеловеческая культура

oilada muzeyning bir elementi mavjud. Ota-ona, bobo-momolarimizdan bizga meros buyum, fotosurat yoki hujjat boʻladimi, biz avaylab-asraymiz va oʻz farzandlarimizga ular toʻgʻrisida *faxr bilan soʻzlab beramiz*.

*Meros boʻlgan ashyolar*, insoniyat ijodi mahsuli sifatida yaratilgan sanʼat asarlari saralanib, muzeylardan joy oladi hamda *umuminsoniy boylikka* aylanadi. Ajdodlardan meros boʻlgan anʼanalar va urf-odatlarni farzandlar va nabiralarga aytib berish, meros qoldirish orqali insoniyat tadrijiy rivojlanib boraveradi.

Mamlakatimizda muzeylar tashkil etish XIX asrning 70-yillariga borib taqaladi. 1876-yilda tashkil etilgan Oʻzbekiston xalqlari tarixi muzeyi Markaziy Osiyodagi ilk muzeylardan sanaladi. Ushbu muzeyda yurtimiz hududidagi ibtidoiy jamoa tuzumidan to shu kunga qadar madaniy hayotdan darak beruvchi arxeologik topilmalar, turli davrdagi taraqqiyot, *fan va madaniyatning yuksalgan davri*, foto hujjatlar, tasviriy sanʼat namunalari oʻrin olgan.

Yana bir ilk muzey Oʻzbekiston Davlat tabiat muzeyidir. U 1876-yil 12-iyulda tashkil etilgan boʻlib, oʻz yoʻnalishiga koʻra Markaziy Osiyoda yagona boʻlib hisoblanadi. Uning ilmiy fondida tabiatshunoslikka oid koʻplab muzey ashyolari mavjud boʻlib, mazkur soha boʻyicha mamlakatimizda bosh muzey hisoblanadi.

*Umuminsoniyat madaniyati* va milliy qadriyatlarni oʻzida saqlovchi muzeylarning bayrami 1977-yilda Xalqaro Muzeylar kengashining Bosh konferensiyasi qarori bilan

tasdiqlangan. Unga ko'ra har yili 18-may Xalqaro muzeylar kuni sifatida nishonlanadi.

1999-yildan boshlab mamlakatimizda muzeylar kunini nishonlash O'zbekiston madaniy hayotining muhim voqealaridan biriga aylandi. Ushbu kunda o'zbek muzeylari jamoatchilikni o'z faoliyatining yangi jihatlari bilan tanishtiradi, ochiq eshiklar kunlarini o'tkazadi, turli ko'rgazmalar tashkil etadi. Bu esa madaniyat va tarix, o'tmish va kelajak o'rtasidagi bog'liqlik haqida fikrlashga imkon beradi. Mazkur kunda muzeylar *milliy boylik markaziga* aylanadi.

*milliy boylik markazi* –  
центр национального  
богатства

Muzeylar o'tmish, bugungi kun va kelajakni, muzey xodimlarini, tadqiqotchilarni, kolleksionerlarni va tashrif buyuruvchilarni, turli mamlakatlar odamlarini, millatlarni, mutaxassislar, turli diniy qarashdagilarni, turli yoshdagilarni birlashtiradi.

### **3. Berilgan tushunchalarning bir-biridan qanday farqlanishini ayting.**

*Muzey* (yun. *musion* – “muzalarga bag'ishlangan joy”) – tarixiy, moddiy va ma'naviy yodgorliklarni to'plash, saqlash, o'rganish va targ'ib qilish ishlarini amalga oshiruvchi ilmiy, ilmiy-ma'rifiy muassasa.

*Ekspozitsiya* (lot. “ko'rsatish, bayon etish”) – badiiy asar, moddiy madaniy yodgorliklar, tarixiy hujjat va boshqalarning ko'rgazma va muzey zallarida yoki ochiq joylarda ma'lum tizimda joylashtirilishi. Ekspozitsiyalar doimiy va davriy bo'lib, ularning maqsadi barcha eksponatlarni ularning badiiy va ilmiy qiymati, tarixiy-badiiy jarayondagi o'rni, materiallarning ahamiyatini mukammal yoritib berishdir.

*Ko'rgazma* – insonning moddiy va ma'naviy faoliyati sohalaridagi yutuqlarni ommaviy namoyish etish. Ko'rgazmalar savdo va ma'rifiy-targ'ibiy maqsadlarda uyushtiriladi.

*Ekspomarkaz* – xalqaro ishtirokchilar bilan hamkorlikda ekspozitsiyalar tashkil etish va o'tkazish bo'yicha markaz. 1958-yildan boshlab umumjahon ko'rgazmalari “EKSPO” nomi bilan o'tkaziladi.

#### **4. Muzeylar haqidagi qiziqarli faktlarni o'zbek tiliga tarjima qiling.**

Старейшим в мире публичным музеем является Капитолийский музей в Риме, он был основан Папой Сикстом IV в 1471 году, когда он передал часть античных скульптур из своей коллекции в дар римскому народу.

Одним из известнейших музеев мира является Эрмитаж в Санкт-Петербурге. Чтобы его весь обойти, причем, не останавливаясь, потребуется 12,5 часов. В его коллекции находится 3 миллиона экспонатов.

В Амстердаме есть уникальный музей – «Музей-Тело». Он имеет вид макета человека, высотой 35 метров и точно имитирует тело человека. Музей оснащен весьма точными имитациями всех процессов человеческого организма. Фишкой музея является то, что кроме визуального эффекта, посетители получают также звуковые и обаятельные дополнения, позволяющие создать полностью реальную картину жизнедеятельности человеческого тела.

Самый популярный музей в кино – Музей естественной истории в Нью-Йорке. Он «снялся» в двух частях «Ночи в музее» (2006, 2009), фильмах «Экзорцист II» (1977), «Малколм Икс» (1992), «Дневники няни» (2002), «Кальмар и кит» (2005), «Послезавтра» (2009), мультфильмах «Мы вернулись: история динозавров» (1993) и «Американская история 3: Сокровища острова Манхэттен» (1998).

За год парижский Лувр принимает 8,5 миллионов

посетителей, что делает его самым посещаемым музеем в мире. В тройку самых посещаемых входят также Британский музей (5,8 миллионов посетителей в год) и Метрополитен-музей в Нью-Йорке (5,2 миллиона посетителей в год).

Коллекция Британского музея содержит, по меньшей мере, 8 миллионов объектов и охватывает два миллиона лет человеческой истории.

Крупнейший музейный холдинг в мире – Музей Смитсоновского института в Вашингтоне, там находится 136 миллионов экспонатов.

Самый высокий музей – Каса де ла Монеда – монетный двор и Национальный музей в городе Потоси, Боливия, он находится на высоте 4100 метров над уровнем моря.

Самый маленький в мире музей «Баублис» находится в дупле старого дуба в литовской деревне Биетай. Музей официально существует с 1812 года.

В доме-музее Эрнеста Хемингуэя живёт более 50 кошек, половина из которых имеют лишние пальцы на лапах, так как многие являются потомками мейн-куна Снежка с генетической мутацией, подаренного писателю.

В России есть Художественный музей мусора. В его экспозиции представлены работы, выполненные из бытового мусора, найденного на свалках. Отслужившие свой век вещи в руках умелых мастеров обретают вторую веселую, а иногда и полезную жизнь, превращаются в настоящие арт-объекты.

## **5. Quiyda nomlari keltirilgan muzeylar haqida taqdimot tayyorlang.**

Luvr, Britaniya muzeyi, Ermitaj, Metropoliten muzeyi, Prado muzeyi, Kohira muzeyi, Vatikan muzeyi, Tretyakov galereyasi, Amsterdamdagi Reyksmuseum, Afina Milliy arxeologiya muzeyi, Nyu-York zamonaviy san'at muzeyi, Yaponiya fan milliy muzeyi, Drezden kartina galereyasi, Madam Tyusso muzeyi.

## Frazeologik birliklar

Ikki yoki undan ortiq soʻzdan tarkib topgan va yaxlit bir maʼno ifodalaydigan til birligi *frazeologik ibora* deyiladi. Frazeologizmlar yaxlitligicha yoki muayyan soʻzning koʻchma maʼnoda qoʻllanishi asosida yuzaga keladi. Masalan, *ogʻzi qulogʻida* iborasi tarkibidagi soʻzlar bir butun holda koʻchma maʼnoda qoʻllanib, *xursand* tushunchasini ifodalagan. Biroq *qoʻl koʻtarmoq* birikmasida esa *koʻtarmoq* soʻzining koʻchma maʼnoda ishlatilishi iborani vujudga keltirgan. Shu bois ular nutqning erkin sintaktik birliklaridan farqli ravishda, tilning turgʻun birikmalari hisoblanadi. Frazeologik iboralar soʻzlar singari tilning lugʻaviy birliklari qatoridan oʻrin egallaydi. Bunga quyidagi omillar sabab boʻladi:

1. Frazeologizmlar ikki yoki undan ortiq soʻzdan tashkil topgan turgʻun birikmalar boʻlsa ham, soʻzlar singari, odatda, yaxlit bir tushunchani ifodalash uchun xizmat qiladi. Bu xususiyat ularni soʻzlar bilan sinonimik munosabatga kirisha olishini taʼminlaydi: *Uchiga chiqqan – oʻtaketgan, turgan gap – albatta, yeng ichida – xufiya, yashirin* kabilar shular jumlasidandir. Shu bois ular soʻzlar singari bitta gap boʻlagi vazifasini bajaradi: *Komissiya hayron boʻlib qoldi, ammo hech kim meni qaytarishni ogʻziga olmas edi.* (Abdulla Qahhor.)

2. Frazeologizmlarda ham soʻzlar singari koʻp maʼnolilik mavjud: *oʻziga kelmoq* – hushini yoʻqotgach oʻziga kelmoq, esiga tushmoq, asabiylikdan soʻng oʻziga kelmoq; *yerga urmoq* – qimmatini pasaytirmoq, obroʻsizlantirmoq, biror narsaning qadriga yetmaslik.

3. Soʻzlar singari frazeologizmlarning ham shakl va maʼno munosabatiga koʻra quyidagi turlari mavjud:

a) omonimlar: *boshiga koʻtarmoq* – toʻpolon qilmoq, yaxshi koʻrmoq, eʼzozlamoq;

b) sinonimlar: *feʼli aynimoq* – avzoyi buzilmoq, *yaxshi koʻrmoq* – *koʻngil qoʻymoq, toqati toq boʻlmoq* – *sabr kosasi toʻlmoq*;

d) antonimlar: *koʻkka koʻtarmoq* – *yerga urmoq, yuzi yorugʻ* – *yuzi shuvut, yuragi qinidan chiqmoq* – *koʻngli joyiga tushmoq*.

Frazeologizmlar nutqning taʼsirchan vositalaridan boʻlib, soʻzlashuv nutqida va badiiy adabiyotda keng qoʻllaniladi.

## **6. Berilgan soʻzlarga mos iboralar keltiring.**

Ayyor, saxiy, xursand boʻlmoq, toʻpolon qilmoq, eʼtibor bermaslik, sabr-chidami tugamoq, sevinganidan qattiq hayajonlanmoq.

## **7. Berilgan gaplar tarkibida kelgan frazeologik sinonimlarni topib, maʼnolarini ayting.**

- I.** 1. Kishing bahrini ochadigan salqin, sokin bir oqshom edi.  
2. Sabr qiling, sizning ham dimogʻingizni chogʻ qilaman.  
3. Teshaboy esa, qaynatasining aksiga oʻlaroq, juda xursand, kayfi chogʻ edi.
- II.** 1. Togʻ yoʻnishning nima zaruriyati bor ekan deya boshim qotdi.  
2. Shu kunda hammaning boshi shishgan.  
3. Ming xil xayol bilan miyam gʻovlab ketdi.  
4. Bu oʻylarda Sayyoraning boshi gʻovlab ketdi.
- III.** 1. Menga nasihat qilaverib, jonimni chiqaramng!  
2. “Meni tergov qilib, surishtirdi...” – deganida esa Dadajonovning tepa sochi tik boʻlib ketdi.  
3. “Qoʻying-e, – dedi Lutfixon uy derzasini yopa turib, – Oʻzi jonim halqumimga kelib turibdi”.

## **8. Quyidagi iboralarning maʼnosini ifodalovchi soʻzlar toping.**

Yogʻ tushsa yalaguday, yegan ogʻiz uyalar, koʻz yummoq, tarvuzi qoʻltigʻidan tushmoq, boshi osmonda, yerga ura koʻkka sakramoq, hafsalasi pir boʻlmoq, tepa sochi tikka boʻlmoq, gullab qoʻymoq, pixini yorgan.

## **9. Frazeologik birliklarni topib, maʼnosini tushuntirng.**

1. Baʼzan davon oshishingga koʻzing yetmay, yuraging orqaga tortib ketadi.
2. Soʻnggi bir-ikki soat ichida yuz bergan bu ikki quvonchli hodisa Rahim saidovning boshini aylantirib qoʻygan, kim bilandir uning oʻrtoqlashgisi kelib qolgan edi.

3. Tansiq go‘yo bo‘g‘ilganday uh tortdi. Shunday qarindoshlarni ko‘kka ko‘targan dadasidan xafa bo‘ldi u. (*Oybek.*)

4. Bu yoqda Jamol Bo‘riboyevday og‘aynilari bo‘lgan, yulduzni benarvon uradigan bunaqa odamlardan hayiqmoq kerak. (*O. Yoqubov.*)

5. Toshkentdagi istiqloq davrida qurilgan inshootlarni ko‘rib og‘zim ochilib qoldi.

## **10. Berilgan gaplar tarkibidagi frazeologik iboralarni aniqlang, ularning ma‘nolarini izohlang.**

1. Bu kun men juda ajoyib tush ko‘rdim: bir shudgorning chetida, tolning soyasida yonboshlab yotgan emishman. Do‘ppi yarimta. (*G‘afur G‘ulom.*)

2. Meni o‘z muxlislaringizdan bilib, urinmasdan yangi yozilgan she‘rlardan o‘qib berar ekansiz, mening boshimni ko‘kka yetkazgan bo‘lursiz ... (*Sobir Abdulla.*)

3. – Yozaver, – dedi Yaxshiboyev kulib, – o‘lganimdan keyin chiqarasan. – Nafasni issiq qiling, domlajon! (*Murod Muhammad Do‘st.*)

4. Qor ham qursin, kavushim ham qursin. Nuriyoy, xurmachaning tagini xo‘p yalagan ekansiz-da. (*Oybek.*)

5. Mana, bo‘ying yetdi, tuzukroq yerdan chiqsa uzataylik, orzu-havas ko‘raylik. (*V. G‘ofurov.*)

6. Siddiqjon yuzlarcha kishi og‘ziga qarab turgan majlisni ko‘z oldiga keltirib juda katta tashvishga qoldi-yu, dami ichiga tushib ketdi. (*Abdulla Qahhor.*)

7. – O‘sha kishidan so‘ray qoling. Ming qilsa ko‘pni ko‘rgan odam... (*Ibrohim Rahim.*)

8. U tilmochlik qilib yurgan kezlarda shaharning kazo-kazolari bilan og‘iz-burun o‘pishib qoldi. (*Said Ahmad.*)

9. Menga qarshi gapirish instinkt bo‘lib qolibdi sizga. Tutun qaytarganingiz-qaytargan. (*Asqad Muxtor.*)

10. Teshaboyvachcha qilviriqning shoxida yursa, Madumar mingboshi bargida yuradi. (*Mirzakalon Ismoiliy.*)

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ўзбекистон Республикасининг давлат тили ҳақида / ЎзР қонуни (янги таҳрири) / ЎзР Олий Кенгашининг Ахборотномаси, 1989. – 26-28-сон, 453-модда; 1991. – 11-сон, 273-модда.
2. Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида / ЎзР Президентининг фармони / ЎзР ҚХТ, 2017. – 6-сон, 70-модда; 20-сон, 354-модда.
3. Олий таълим тизимини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида / ЎзР Президентининг қарори / ЎзР ҚХТ, 2017. – 18-сон, 313-модда; 19-сон, 335-модда; 24-сон, 490-модда.
4. Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Тошкент: Маънавият, 2008. – 176 б.
5. Хусанов Н., Абдурахмонова М., Лафасов Ў., Асилова Г. Ўзбек тили /Фан дастури (барча бакалаврият таълим йўналишлари учун). – Т., 2017. – 17 б.
6. Bobur Zahiriddin Muhammad. Boburnoma. – Toshkent, 2007.
7. Iskandarova G., Gulibonu Keybatuli. O‘zbek tili darsligi (xitoyliklar uchun). – Pekin, 2016. – 348 б.
8. Muhiddinova X., Salisheva Z., Po‘latova X. O‘zbek tili (oliy ta’lim muassasalari rus guruhlariga uchun darslik). – Toshkent: O‘qituvchi, 2012. – 288 b.
9. Назаров К.Н., Хўжанова Г.Ў. Ўзбек тили (юримдик институт ва университетларнинг ҳуқуқшунослик факультетлари рус гуруҳлари учун дарслик). – Тошкент: ТДЮИ, 2003. – 334 б.
10. Normatova SH., Abdurahmonova M. O‘zbek tili (darslik). – Toshkent: JIDU, 2014. – 192 b.
11. Osim M. To‘maris / Tarixiy qissalar. – Toshkent, 2012.
12. Русча-ўзбекча луғат (2 жилдли). – Тошкент: ЎЗМЭ, 2013.
13. Тафаккур гулшани. – Т: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1989.
14. Темур тузуклари / Б.Аҳмедов таҳрири остида. – Тошкент: Ўзбекистон, 2011.–184 б.
15. Fayzullayeva SH., Azimova N., Usmonova G. O‘zbek tili (oily o‘quv yurtlarining iqtisodiy ta’lim yo‘nalishlari talabalari uchun o‘quv qo‘llanma). – Toshkent: Iqtisodiyot, 2012. – 108 b.
16. Cho‘lpon. Kecha va kunduz. – Toshkent, 2014.
17. Ўзбек тилининг изоҳли луғати/5 жилдли.–Т.: ЎЗМЭ Давлат илмий нашриёти, 1-жилд, 2006. – 680 б., 2-жилд, 2006. – 672 б., 3-жилд, 2006. – 688 б.,4-жилд, 2008. – 608 б., 5-жилд, 2008. – 592 б.



18. Ўзбек халқ мақоллари. Т.: “SHARQ” NMAKBТ, 2013.
19. Ўзбекистон миллий энциклопедияси / 12 жилдли. – Т.: ЎЗМЭ Давлат илмий нашриёти, 1-жилд, 2000. – 736 б., 2-жилд, 2001. – 704 б., 3-жилд, 2002. – 704 б., 4-жилд, 2002. – 704 б., 5-жилд, 2003. – 704 б., 6-жилд, 2003. – 704 б., 7-жилд, 2004. – 704 б., 8-жилд, 2004. – 704 б., 9-жилд, 2005. – 704 б., 10-жилд, 2005. – 656 б., 11-жилд, 2005. – 608 б., 12-жилд, 2006. – 712 б.
20. Qodirov P. Yulduzli tunlar. – Toshkent, 1981.
21. Hoshimov O‘. Saylanma. 2 jildli. – Toshkent, 1993.
22. Husanov N., Xo‘jaqulova R., Dilmurodova N. O‘zbek tili (o‘quv qo‘llanma). – Toshkent: TMI, 2017. – 336 b.
23. Alo Raun. Basic course in uzbek. Published by Indiana University, 1996.
24. Korzhynska, T. Comparative analysis of theoretical approaches to professional training of the future customs officers in the system of higher education of Ukraine and Poland//Comparative Professional Pedagogy 5(1)/2015.
25. Siti Hafizah binti Daud. Motivation and job satisfaction among customs officers: a case study of Kuala Lumpur International Airport (KLIA), Kulliyah of Islamic Revealed Knowledge and Human Sciences, International Islamic University Malaysia, 2012.
26. Tai Lee Ming. The influence of workers’ competencies on job performance of royal Malaysian customs department, Universiti Utara Malaysia, 2011.

### **Internet saytlari**

27. <http://teachyourselfuzbek.com/resources/coursebooks/> – Самоучитель узбекского языка
28. <http://solver.uz/translate.php> – Русско-узбекский переводчик
29. [http://sahifa.tj/rusko\\_uzbekskij\\_razgovornik.aspx](http://sahifa.tj/rusko_uzbekskij_razgovornik.aspx) – Русско-узбекский разговорник
30. [http://sahifa.tj/uzbeksko\\_russkij.aspx](http://sahifa.tj/uzbeksko_russkij.aspx) – Узбекско-русский переводчик
31. <https://www.lex.uz>. – O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi

## MUNDARIJA

1-mavzu	<b>O‘zbekiston – yagona Vatan</b>	4
	<i>O‘zbek tilining imlo qoidalari</i>	11
2-mavzu	<b>O‘zbek tili – Davlat tili</b>	16
	<i>O‘zbek tilida gap tuzilishi. Sodda gap turlari</i>	23
3-mavzu	<b>Milliy qadriyatlar – millat iftixori</b>	29
	<i>Qo‘shma gap. Bog‘langan qo‘shma gaplar</i>	37
4-mavzu	<b>Vatan va vatanparvarlik</b>	42
	<i>Ergashgan qo‘shma gaplar. Ko‘rsatish olmoshli ergashgan qo‘shma gaplar. Nisbiy so‘zli ergashgan qo‘shma gaplar</i>	51
5-mavzu	<b>Tarix va zamonamiz</b>	55
	<i>Ega ergash gapli qo‘shma gap</i>	64
6-mavzu	<b>Ulug‘ ajdodlarimiz</b>	67
	Muhammad Muso al Xorazmiy	67
	<i>Kesim ergash gapli qo‘shma gap</i>	70
	Ahmad al Farg‘oniy	72
	<i>Aniqlovchi ergash gapli qo‘shma gap</i>	75
	Abu Ali ibn Sino	77
	<i>To‘ldiruvchi ergash gapli qo‘shma gap</i>	80
	Mirzo Ulug‘bek	83
	<i>Hol ergash gapli qo‘shma gaplar</i>	88
7-mavzu	<b>Adabiyot – ma‘naviyatni yuksaltiruvchi manba</b>	93
	Alisher Navoiy	94
	<i>Ergashgan qo‘shma gaplarning sodda gap bilan ma‘nodoshligi</i>	103
	Zahiriddin Muhammad Bobur	107
	<i>Bog‘lovchisiz qo‘shma gaplar</i>	113
8-mavzu	<b>Zamonamiz adiblari</b>	117
	Abdulla Oripov	117
	O‘tkir Hoshimov	121
	Muhammad Yusuf	152
9-mavzu	<b>Kitob mutolaasi</b>	160
	<i>Murakkab bog‘lanishli qo‘shma gaplar</i>	167
10-mavzu	<b>Milliy kutubxona</b>	172
	<i>Ko‘chirma va o‘zlashtirma gaplar</i>	177
11-mavzu	<b>Jadid adabiyotida ma‘rifatparvarlik g‘oyalari</b>	180
	<i>Tinish belgilarining imlosi</i>	187
12-mavzu	<b>San‘at va ma‘naviyat</b>	194
	<i>O‘zbek tilining leksik qatlamlari</i>	198
13-mavzu	<b>Muzeylar – o‘tmish va kelajak orasidagi ko‘prik</b>	200
	<i>Frazeologik birliklar</i>	205
	<b>Foydalanilgan adabiyotlar</b>	208

**Asilova Gulshan Asadovna**

**Qudriddinova Nargis Dehqonovna**

## **O‘ZBEK TILI**

Oliy ta’limning “Bojxona ishi” yo‘nalishi rus guruhлари  
talabalari uchun o‘quv qo‘llanma

Muharrir: Axmadjon Babajanov

Dizayner: Madina Ismailova

Texnik muharrir: Izzatilla Hayrullayev

Sahifalovchi: Abduqodir Yuldashev

“Yosh kuch” nashriyoti  
Toshkent shahar, Sodiqov-13.  
Nashriyot litsenziyasi Ai № 001. 20.07.2018 yil.

Terishga 03.08.2018 yilda berildi.  
Bosishga 23.08.2018 yilda ruxsat etildi.  
Qog‘oz bichimi 60x84 1/16. Ofset usulida chop etildi.  
Buyurtma № 45. Bosma tabog‘i 12,5. Adadi 500 ta.

MCHJ “Turon Print” bosmaxonasida chop etildi.  
Manzil: Toshkent shahar, Shayhontohur tumani,  
Ipakchi ko‘chasi, 258-uy.